Тадқиқот натижалари Ўсимлик ҳосилдорлигини белгилайдиган муҳим кўрсаткичларидан бири бу ўсимликнинг мева сони, сифати ва мева вазни ҳисобланади. Шундан келиб чиқиб тадқиқотларимизда меваларнинг техник етилиш даврида бир туп ўсимликдаги, мевалар сони, бир дона мева вазни, жами мевалар вазни ва ҳосилдорлиги аниқланди. Назорат вариантыда экилган Марғилон 330 навининг мевалар сони ўсимлик меваларининг техник етилиш даврида 91 донани ташкил этган бўлса, «Учқун», «Тилларанг», Қўқон, «Шакира», «Madun», «Batalion», «Kastillo», «Serambi», «Megator», «Genie», «Balebat», КЛ-99, КЛ-94А, КЛ-82, КЛ-94, КЛ-205, КЛ-202, КЛ-185, КЛ-98, КЛ-201, «SHinpaе Jang», «Tanenang», «Hot Asia», «Shin Tang Vold», «Asia Jungbo», «PR CHeongya» нав намуналарининг мевалар сони назорат навадан 5 донадан 103 донагача кўп бўлганлиги аниқланди. «Саид», «Landung», 14p4842(BB), КЛ-211, КЛ-204, КЛ-210, «Internit», 23-C94 нав намуналарининг мевалари сони назорат навадан 5 донадан 34 донагача кам бўлди. Назорат вариантыда экилган Марғилон 330 навининг бир дона мева вазни ўсимлик меваларининг техник етилиш даврида 17,2 граммни ташкил этган бўлса, “Тилларанг”, «Megator», 14p4842(BB), КЛ-202, КЛ-211, «Hot Asia» нав намуналарининг мева вазни назорат навадан 1 граммдан 6,2 граммгача оғир бўлди. «Учқун», «Serambi», КЛ-94», Shin Tang Vold», “Asia Jungbo” нав намуналарида назорат навага яқин бўлди.

«Саид», «Қўқон», «Шакира», «Landung», «Madun», «Batalion», «Kastillo», «Genie», «Balebat», КЛ-99, КЛ-94А, КЛ-205, КЛ-202, КЛ-185, КЛ-98, КЛ-210, КЛ-201, «SHinpaе Jang», «Tanenang», «Internit», 23-C94, «PR CHeongya» нав намуналарининг мевалари вазни назорат навадан 0,8 граммдан, 10,5 граммгача назорат навадан енгил бўлди.

Бир туп ўсимликдаги жами мевалар вазни назорат Марғилон 330 навада 1,5 кг бўлган бўлса, «Учқун», «Тилларанг», «Шакира», «Serambi», «Megator», «Genie», «Balebat», КЛ-99, КЛ-94А, КЛ-94, КЛ-205, КЛ-185, «Hot Asia», “Shin Tang Vold2», «Asia Jungbo» нав намуналарининг бир тупдаги жами мевалари вазни 0,2 килограммдан 1,0 килограммгача юқори бўлди. «Саид», «Қўқон»,

«Landung», «Madun», «Batalion», «Kastillo», 14p4842 (BB), КЛ–82, КЛ–211, КЛ–202, КЛ–98, КЛ–204, КЛ–210, КЛ–201, «SHinpae Jang», «Tanenang», «Internit», 23–С94, «PR СHeongya» нав намуналарининг бир туп ўсимликдаги жами мевалар вазни 0,2 килограммдан 0,5 килограммгача кам бўлди. Меваларнинг техник етилиш даврида бир туп ўсимликдаги

1-жавдал

Иситилмайдиган иссиқхона шароитида экилган аччиқ қалампир нав намуналарининг товар мева вазни ва бир тупдаги мевалар сони (2018–2020 йй.)

№	Навлар намуналари	Меваларнинг техник етилиш даврида бир туп ўсимликдаги							
		мевалар сони		бир дона мева вазни		жами мевалар вазни		ҳосилдорлик	
		дона	%	г	%	кг	%	кг/м ²	%
1	Марғилон 330(н-т)	91,0	100,0	17,2	100	1,5	100,0	5,2	100,0
2	«Учқун»	112,0	112,1	17,4	101	1,9	126,7	6,6	126,7
3	«Тилларанг»	97,0	106,6	18,2	106	1,7	113,0	5,9	113,3
4	«Саид»	83,0	91,2	16,2	94,2	1,3	86,7	4,5	86,7
5	«Кўқон»	112,0	123,1	11,4	66,3	1,2	80,0	4,2	80,0
6	«Шакира»	123,0	135,2	21,0	122	2,5	166,7	8,7	166,7
7	«Landung»	79,0	86,8	15,1	87,8	1,1	73,3	3,8	73,3
8	«Madun»	113,0	124,2	8,4	48,8	0,9	60,0	3,1	60,0
9	«Batalion»	110,0	120,9	10,3	59,9	1,1	73,3	3,8	73,3
10	Kastilo	98,0	107,7	13,2	76,7	1,2	80,0	4,2	80,0
11	«Serambi»	112,0	123,1	17,0	98,8	1,9	126,7	6,6	126,7

12	«Megator»	126,0	138,5	18,3	106	2,3	153,3	8,1	153,3
13	«Genie»	115,0	126,4	16,4	95,3	1,8	120,0	6,3	120,0
14	«Balebat»	158,0	173,6	16,1	93,6	2,5	166,7	8,7	166,7
15	14p4842	57,0	62,6	23,4	136	1,3	86,7	4,5	86,7
16	КЛ-99	159,0	174,7	14,1	82	2,2	146,7	7,7	146,7
17	КЛ-94А	123,0	135,2	13,2	76,7	1,6	106,7	5,6	106,7
18	КЛ-82	194,0	213,2	6,3	36,6	1,0	66,7	3,5	66,7
19	КЛ-94	98,0	107,7	17,2	100	1,6	106,7	5,6	106,7
20	КЛ-211	66,0	72,5	19,4	113	1,2	80,0	4,2	80,0
21	КЛ-205	142,0	156	13,3	77,3	1,8	120,0	6,3	120,0
22	КЛ-202	133,0	146,2	11,4	66,3	1,4	93,3	4,9	93,3
23	КЛ-185	189,0	207,7	13,2	76,7	2,4	160,0	8,4	160,0
24	КЛ-98	124,0	136,3	10,3	59,9	1,2	80,0	4,2	80,0
25	КЛ-204	78,0	85,7	19,1	111	1,4	93,3	4,9	93,3
26	КЛ-210	82,0	90,1	16,4	95,3	1,3	86,7	4,5	86,7
27	КЛ-201	118,0	129,7	12,1	70,3	1,4	93,3	4,9	93,3
28	SHinpaeJang	93,0	102,2	14,3	83,1	1,3	86,7	4,5	86,7
29	«Tanenang»	146,0	160,4	7,3	42,4	1,0	66,7	3,5	66,7
30	HotAsia	105,0	115,4	18,2	106	1,9	126,7	6,6	126,7
31	ShinTangVold	113,0	124,2	17,3	101	1,9	126,7	6,6	126,7
32	«Internit»	86,0	94,5	15,0	87,2	1,2	80,0	4,2	80,0
33	AsiaJungbo	115,0	126,4	17,3	101	1,9	126,7	6,5	126,7
34	23-C94	84,0	92,3	14,1	82	1,3	86,7	4,5	86,7
35	«PR CHEongya»	96,0	105,5	14,0	81,4	1,3	86,7	4,5	86,7

ҳосилдорлик кўрсаткичи аниқланди. Назоратда экилган Марғилон 330 навининг ҳосилдорлиги 1 кв метрда 5,2 килограммни ташкил этган бўлса, «Учқун», «Тилларанг», «Шакира», «Serambi», «Megator», «Genie», «Balebat», КЛ-99, КЛ-94, КЛ-205, КЛ-185, «Hot Asia», «Shin Tang Vold», «Asia Jungbo» нав

намуналарининг 1 кв метрдаги ҳосилдорлиги 0,7 килограммдан 2,9 килограммгача кўп бўлганлиги кузатилди. «Саид», «Қуқон», «Landung», «Madun», «Batalion», «Kastillo», 14p4842(BB), КЛ–82, КЛ–211, КЛ–202, КЛ–98, КЛ–204, КЛ–210, КЛ–201, «SHinpaе Jang», «Tanenang», «Internit», 23–С94, «PR SNeongya» нав намуналарининг ҳосилдорлиги 1 кв метрдаги ҳосилдорлиги 0,3 килограммдан 2,1 килограммгача кам бўлганлиги кузатилди. Нав намуналарининг ҳосилдорлик кўрсаткичи иссиқхонанинг тупроқ-иқлим шароитига, агротехник тадбирларга ва ўсимликнинг навига боғлиқ бўлди. Аччиқ қалампирлар меваси одатда (уруғи) тўла биологик пишган вақтда ҳар 2–3 ҳафтада одатда бир марта вегетация даврида ҳаммаси бўлиб 4–5 марта узиб олинади. Бунда фақат тўқ сариқ ва қизил мевалари териб олинади. Аччиқ қалампир кўп марта териладиган экин. Ўсув даврида кўк мевалари нав хусусияти бўйича катталикка етишса, у қанча кўп терилса, ҳосилдорлиги шунча ортиқ бўлаверади.

Фойдаланилган адабиётлар:

- 1.Лян Е.Е., Хақимов Р.А., Азимов Б.Ж, Ким В.В. Ҳимоя қилинган майдонларда сабзаётлар етиштириш бўйича тавсиялар. Т. 2018. С. 39 .
- 2.Азимов Б.Б., Мавлянова Р.Ф, Азимов Б.Ж. Ўзбекистонда аччиқ қалампирдан юқори ҳосил олиш бўйича тавсиялар.// Тошкент, 2016. Б 10-12.
- 3.Гикало Г.С. Особенности селекции перца. // Тр. Кубанского с.-х. института. 1986. С. 25–37.
- 4.Гавриш С.Ф., Сысина Е.А., Аличевская Е.В., Шморгунов Г.Т. Для пленочных теплиц. // Картофель и овощи - Москва, 1988, № 6, С. 45–46.
- 5.Baral, J., Bosland, P. (2010). Unraveling the species dilemma *Capsicumfrutescens* and *C. chinense* (Solanaceae): A multiple evidence approach using morphological, molecular analysis, and sexual compatibility. *Journal of American Society of Horticulture*. P. 826–832.
- 6.Fett, D. D. (2003). *Botanical Briefs: Capsicum peppers. Close Encounters with the Environment*, 72, P. 21–23.

MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK O'ZBEK XALQINING YUKSAK QADRIYATIDIR

Eshqorayev Samariddin Sadriddin o'g'li

Termiz muhandislik-texnologiya instituti Kimyoviy texnologiya
ta'lim yo'nalishi 3-kurs 10-19 guruh talabasi

samariddineshqorayev@gmail.com

Choriyeva Mahfuza Sadriddin qizi

Termiz Davlat Universiteti Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va barqaror
atrof-muhit fizikasi ta'lim yo'nalishi 1-kurs magistranti

mahfuzachoriyeva@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatimizdagi diniy bag'rikenglik va o'zaro samimiy qardoshlik munosabatlarini tartibga solishda, millatlararo totuvlikni ta'minlashdagi asosiy vazifasini bajarayotgan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining tashkiliy asosi va ijtimoiy huquqiy ahamiyati haqida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: millatlararo totuvlik, madaniyat, xalqaro bag'rikenglik, harakatlar strategiyasi, urf-odat, konstitutsiyaviy huquq.

Abstract

This article examines the organizational foundations and socio-legal significance of the Strategy of Action in the five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan until 2021, which plays a key role in regulating religious tolerance and sincere fraternal relations in our country, ensuring interethnic harmony.

Key words: interethnic harmony, culture, international tolerance, strategy of action, tradition, constitutional law.

Аннотация

В данной статье рассматриваются организационные основы и социально-правовое значение Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан до 2021 года, играющей ключевую роль в регулировании религиозной толерантности и искренних братских отношений в нашей стране, обеспечении межнационального согласия.

Ключевые слово: межнациональное согласие, культура, международная толерантность, стратегия действий, традиция, конституционное право

Yer yuzidagi 200 dan ortiq mamlakatlarda 8 mlrdga yaqin aholi yashasa, ular 7000 ta til va lahjada so'zlashishadi. Ona sayyoramiz ushbu xalqlarning barchasi uchun birdek muqaddas, birdek aziz. Shunday ekan, millatlararo bag'rikenglik, ular orasida do'stona aloqalarni o'rnatish orqali yagona sayyoramizni o'z holicha saqlab qolishimiz, dunyoda barqarorlik, osoyishtalikni ta'minlash mumkin bo'ladi.

BMT Bosh Assambleyasining qaroriga muvofiq, 1997-yildan buyon 16-noyabr kuni Xalqaro bag'rikenglik kuni sifatida butun dunyoda nishonlanib kelinadi. Bu sanani O'zbekistonda nishonlash ham yaxshi an'anaga aylanib bormoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 15-noyabrdagi “Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”¹ farmoni ijrosi doirasida yurtimizda har yil 16 noyabr – Xalqaro bag'rikenglik kuniga bag'ishlangan «Bag'rikenglik haftaligi» tashkil etilib kelinmoqda.

Davlatimizda 130 dan ortiq turli xil millat va elatlar totuv yashab kelishmoqdalar. Turli millat va dinlar orasidagi yaxshi munosabatlar barcha muqaddas kitoblarda keltirilgan. Jumladan, zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto” da “Barcha odam biro dam”, deyilgan bo'lsa, xitoy faylasufi Konfusiy ta'limotining asosini “O'zingiz uchun xohlamagan narsani boshqasiga qilmang”²

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning PF-5876-sonli “Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmoni.

² Avesto. O'zbekcha tarjima (Asqar Mahkam tarj.)-T.:2001.

qoidasi yotarkan. Demak, o'zingga ravo ko'rmaganni, boshqalarga ravo ko'rma, deganidir. Islom dinining muqaddas kitobi hisoblanadigan Qur'oni karimning “Rum” surasida “Odamlarning tili va rangidagi farqlar Ollohning mo'jizalaridandir. Dunyodagi turli-tumanlik Yaratganning irodasi va hikmati bilan bog'liq”³ deyilgan. Demak, barcha muqaddas kitoblarda va barcha davrlarda millatlar va dinlar orasida totuvlik bo'lishi zarurligi, bularga rioya qilmaslik katta jinoyat va gunoh ekanligi aytilgan ekan.

Endi davlatimiz qonunchiligiga e'tibor qaratsak. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 31-moddasida “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi” deyilgan bo'lsa, 18 moddasida: “Barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar”⁴ deb yozib qo'yilgan.

Millatlararo munosabatlar, millatlar orasida do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida davlatimiz rahbari tomonidan izchil siyosat amalga oshirilmoqda. Bu borada, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida quyidagilar millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari etib belgilangan⁵:

-millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida O'zbekiston Respublikasining davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida davlat organlari va tashkilotlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorligi mexanizmlarini takomillashtirish;

-millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish, respublikamizda yashab turgan turli millat va elat vakillarining

³ [Qur'oni Karim tarjimasi va sharhi. Abdulaziz Mansur](#)

⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning PF-4947-sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi farmoni.

tili, madaniyati, anʼanalari va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish sohasida Oʻzbekiston Respublikasining davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun qoʻshimcha ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish;

-jamiyatda koʻp millatli katta oila his-tuygʻusini, respublikamizda yashayotgan turli millat va elat vakillari oʻrtasida doʻstlik va totuvlikni yanada mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, fuqarolarning teng huquqliligini taʼminlash, ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari kamsitilishiga yoʻl qoʻymaslik;

-Oʻzbekiston Respublikasining davlat va jamiyatni rivojlantirishdagi ustuvor maqsadlarni, ilgʻor xorijiy tajribani eʼtiborga olgan holda millatlararo munosabatlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, turli millat va elatlar orasida doʻstona munosabatlarni oʻrnatish, hamjihatlikda totuv yashash barchamiz uchun ham farz, ham qarz hisoblanar ekan. Oʻzbek xalqining qardosh millat va elatlar bilan tinch-totuvligini oʻzida aks ettirgan oʻziga xos anaʼnalari juda koʻp:

- Oʻzbek oilasining asosiy oʻziga xos xususiyatlari mehmondoʻstlik va yoshi kattalarga anʼanaviy hurmat-ehtiromli muomala qilishdir;

- Maishiy hayotida mehmondoʻstlikning bir qismi boʻlgan choyxoʻrlik marosimi katta ahamiyatga ega boʻladi. Bunda choy damlash va uni mehmonlarga quyib berish faqat mezbonning mutlaq huquqi boʻladi;

- Tushlik yoki kechki ovqatga takliflarni doimo qabul qilish va oʻz vaqtida kelish qabul qilingan. Mehmonga kelayotganda oʻzi bilan birga mezbonning bolalari uchun sovgʻalar yoki shirinliklarni olgan yaxshi;

- Odatda faqat erkaklar bilan qoʻl berib soʻrashishadi. Ayollar hamda uzoqroq oʻtirgan kishilar bilan oʻng qoʻlini yuragiga qoʻyib, boshini ohista egib salomlashish lozim. Qoʻl berib soʻrashish paytida anʼanaga koʻra kishining salomatligi, ishda va uydagi ishlari ahvoli toʻgʻrisida soʻraydilar;

- Turar joy xonasiga kirishda poyafzal yechiladi. Mezbon koʻrsatadigan oʻringa oʻtirish kerak. Bunda ushbu joy kirishdan qanchalik uzoqda boʻlsa, shunchalik hurmatli boʻladi.

Bizning bir qo'shnimiz qozoq, bir qo'shnimiz tojik, bir qo'shnimiz turkman va bir qo'shnimiz rus hisoblanadi. Ular bilan boshqa millat bo'lishlariga qaramasdan inoq va totuv yashab kelamiz. Hech qachon sen-menga bormaganmiz. Qaytanga ularning qiziqarli va zavqli bo'lgan urf-odatlarini va bayramlarini birgalikda nishonlaymiz. Qozoqlarning “Beshbarmog'i” deysizmi, turkmanlarning “To'g'ramasi” deysizmi, tojiklarning “Kurutobi” deysizmi, ruslarning “Kotlet” lari deysizmi barchasini ta'tib ko'rishga muyassar bo'lganman. Bu ajoyib emasmi? Yoki ularning bayramlarini aytmaysizmi: Ruslarning “Rojdestvo”, “Maslennisa”, “Pasxa”, turkman, tojik va qozoqlarning o'zbeklar bilan “Navro'z” bayramini nishonlashi, barchasi o'z milliy liboslarida kiyinishlari, birgalikda bir dasturxon atrofida o'tirishlari, taomlarini birga baham ko'rishlari juda qiziqarli va totli hisoblanadi. Bundan tashqari, davlatimizda yashayotgan turli millat vakillarining o'zbek tilini o'rganishganlari, o'zbek tilida so'zlashlari va o'zbek urf-odatlarini bilishlari biz uchun faxr tuyg'usini uyg'otadi.

Xulosa va Takliflar

Xulosa qilib aytganda, barchamiz turli millat va din e'tiqodiga ega bo'lgan vatandoshlarimiz hamda chet elliklarga hurmat bilan qarashimiz, ularning urf-odatlarini qadrlashimiz kerak.

Buning uchun avvalambor, har bir oilada ota-onalar tarbiyaga e'tibor berishlari, so'ngra bog'cha va maktablarda millatlararo totuvlikka ahamiyat berish kerak. “Millatlararo totuvlik” fanini o'quv jarayoniga kiritish lozim deb o'ylayman. Chunki bir makonda yashayotgan turli millat va elatlar o'zining g'oyasi bilan o'z bilganicha yashashni boshlasa, millatlar orasida nizolar kelib chiqishi, bu esa jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Fuqarolarimizdagi tarixiy-madaniy, diniy-tasavvufiy, ilmiy-falsafiy, axloqiy-ta'limiy meroslarimizni o'rganishdagi bo'shliqlarni to'ldirish va uni rivojlantirish zarur deb o'ylayman. Chunki, har qanday qadriyatlar ostida turli diniy, falsafiy, axloqiy aqida va ta'limotlar yotgan bo'lib, ularni o'rganmasdan turib, xalqlar va millatlararo totuvlikni ta'minlab bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning PF-5876-sonli “Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” farmoni
2. Avesto. O'zbekcha tarjima (Asqar Mahkam tarj.)-T.:2001.
3. Qur'oni Karim tarjimasi va sharhi. Abdulaziz Mansur
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning PF-4947-sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi farmoni.
6. www.lex.uz
7. <https://ziyonet.uz>
8. <https://arxiv.uz>
9. <https://forum.ziyouz.com>
10. <https://referat.uz>



O‘ZBEKISTONDA MAHALLIY VAKILLIK ORGANLARI TOMONIDAN HOKIM FAOLIYATINI NAZORAT QILISHNING HUQUQIY MEXANIZMI

Shukurov Dilshod Shokir o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy axborot vositalari huquqi bo‘limi
magistranti

Annotatsiya

Insonparvar huquqiy demokratik davlat bunyod etishni o‘z oldiga asosiy maqsad qilib qo‘ygan mustaqil O‘zbekiston Respublikasida mahalliy vakillik organlari faoliyatini tadrijiy asosda bosqichma-bosqich rivojlantirish bo‘yicha ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Mahalliy vakillik hokimiyati huquqiy demokratik davlatning asosiy belgilaridan biri bo‘lib, fuqarolarning o‘zlari saylagan vakillari orqali bilvosita davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqini amalga oshirishning muhim kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur maqolada mahalliy vakillik organlari tomonidan hokim faoliyatini nazorat qilishning ayni vaqtda mamlakatimizda amalda bo‘lgan huquqiy mexanizmlari va ularni takomillashtirish masalalari haqida so‘z yuritiladi. Bu ishda kuzatish metodidan foydalanildi. Ushbu maqolada ilgari surilgan takliflarni qonun ijodkorligi jarayonida, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati faoliyatida qo‘llash mumkin.

Kalit so‘zlar: huquqiy davlat, demokratiya, mahalliy boshqaruv, mahalliy davlat hokimiyati, vakillik organlari, hokim, xalq deputatlar kengashi, nazorat qilish.

Jahon xaritasida mustaqil O‘zbekiston Respublikasi paydo bo‘lgach, milliy, tarixiy an‘analarimiz, qadriyatlarimizga asoslanib, mahalliy davlat hokimiyatining o‘ziga xos modeli yaratildi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov ta‘kidlaganlaridek: *"Joylarda vakillik hokimiyati va ijro hokimiyati organlarini tuzishdagi asosiy maqsad: birinchidan; shu joylarda davlat organlarini tuzishda aholining ishtirokini ta‘minlash, ikkinchidan; mahalliy ahamiyatga ega masalalarni bamaslahat, ko‘pchilik bo‘lib muhokama qilish va to‘g‘ri qaror qabul qilish,*

uchinchidan; ijro hokimiyati organlari faoliyati ustidan mahalliy miqyosda nazorat o‘rnatish edi”⁶. Ushbu fikrlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 7-moddasida ifodalangan: “*xalq-davlat hokimiyatining birdan-bir manbai*” prinsipiga hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 21-moddasi 1-qismida belgilangan “*har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillar vositasi orqali o‘z mamlakatini boshqarishda qatnashish huquqiga ega*” normasiga bevosita bog‘liq. Mustaqilligimizning dastlabki kunlarida, ya’ni 1992-yil yanvardan boshlab viloyat, tuman va shaharlarda joylardagi vakillik hamda ijroiya-boshqaruv hokimiyatiga rahbarlik qiluvchi hokimlik lavozimi joriy etildi. Hokimliklar mahalliy ahamiyatga molik barcha masalalarni umumdavlat nuqtai nazaridan va hududda yashayotgan fuqarolarning manfaatlariga asoslangan holda hal qilishlari belgilab qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobida mahalliy davlat hokimiyatining asoslari ifodalangan. Mazkur bobda viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo‘lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab o‘z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etishi, mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga kiradigan masalalar, ularning vakolat muddati, hisobdorligi, mansabdor shaxslarni lavozimga qo‘yilishi, javobgarligiga oid normalar o‘z ifodasini topdi⁷.

Hozirda O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar, faoliyatining tashkiliy shakli va uslublari o‘z funksiya va vakolatlarini har xil tashkiliy shakllardan foydalanib amalga oshiradilar. Davlat hokimiyati organlari va hokimlar oldida turgan vazifalar deputatlar, hokimlik apparati, jamoatchilik vakillari tomonidan bajariladi. Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining tashkiliy shakllari – bu yuqorida ko‘rsatilgan shaxslar va organlarning xalq deputatlari Kengashlari funksiya va vakolatlarini amalga oshirishda qatnashish vositalaridir. Ular yordamida xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklardagi ichki

⁶ Karimov I. A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: O‘zbekiston, 2000. - B.207.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

tashkiliy munosabatlar ham, ular tomonidan davlat, xo‘jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishga rahbarlik qilish bo‘yicha o‘z funksiyalarini bajarishga ham erishiladi⁸.

Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining tashkiliy shakllari mustaqil O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi mazmunidan kelib chiqadi. Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining asosiy tashkiliy shakllariga quyidagilar kiradi: a) Xalq deputatlari Kengashlarinig sessiyalari; b) Hokimlarning ijroiya apparati; c) Xalq deputatlari Kengashlarining doimiy komissiyalari; d) Davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining saylov okrugidagi faoliyati. O‘zbekiston Respublikasi «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi Qonunining 17-moddasiga ko‘ra, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining asosiy ish shakli sessiya hisoblanadi⁹.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining sessiyalari tegishli hokim, hokim yo‘qligida esa uning o‘rinbosarlaridan biri tomonidan zaruratga qarab biroq, yiliga kamida ikki marta chaqiriladi. Sessiya, shuningdek xalq deputatlari tegishli Kengashi deputatlari kamida uchdan ikki qismining tashabbusiga binoan ham chaqirilishi mumkin. Kengash sessiyasini chaqirish to‘g‘risidagi qarordan deputatlar sessiya ochilishidan kamida yetti kun oldin xabardor qilinadi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashga, atrof-muhitni muhofaza qilishga doir o‘z vakolatlariga berilgan masalalarni, tashkiliy masalalar va O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq nazorat etishga doir boshqa masalalarni hal etadi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga o‘z faoliyatida ko‘plab vakolatlar yuklatilgan. Jumladan:

- hokimning taqdimiga binoan, hududni rivojlantirishning istiqbolga mo‘ljallangan dasturlarini, tuman, shaharning bosh rejasi va uni qurish qoidalarini tasdiqlash;

⁸ Azizxo‘jayev A.A. va boshq. Konstitutsiyaviy huquq (izohli lug‘at).-T.: Akademiya, 2001. - 160 b. .

⁹ O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonun.

- viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlarini, shuningdek tumanlar va shaharlar budjetlarini tegishincha viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga binoan ko‘rib chiqish hamda qabul qilish;
- viloyatlarning viloyat budjetlari, Toshkent shahrining shahar budjeti hamda tumanlar va shaharlar budjetlari daromadlarining prognozlarini ma’lumot uchun qabul qilish;
- viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga, tumanlar va shaharlar budjetlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi qarorlarni tasdiqlash;
- tegishli budjetlardan moliyalashtiriladigan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar to‘g‘risidagi hisobotlarini eshitish;
- viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlarining, shuningdek tumanlar va shaharlar budjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tegishincha viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga binoan ko‘rib chiqish hamda tasdiqlash;
- mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida belgilash;
- hokimni va uning o‘rinbosarlarini lavozimga tasdiqlash, hokimni va uning o‘rinbosarlarini lavozimdan ozod etish, ularning faoliyatiga doir hisobotlarini, shuningdek hokimlarning viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlarini tinglash;
- hokim qarorlarini tasdiqlash;
- xalq deputatlari Kengashining Ish tartibini, xalq deputatlari Kengashi doimiy va boshqa komissiyalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash, ularga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish;
- xalq deputatlari Kengashining doimiy va muvaqqat komissiyalarini, boshqa organlarini tuzish, saylash va tugatish, ularning tarkibini o‘zgartirish, ular ishiga doir hisobotlarni tinglash;

- qonunchilikda belgilangan hollarda va tartibda xalq deputatlarining vakolatlarini e'tirof etish va muddatidan oldin to'xtatish, ularni javobgarlikka tortish uchun rozilik berish;

- ijroiya hokimiyati bo'limlari, boshqarmalari, boshqa tarkibiy bo'linmalari rahbarlarining hisobotlarini, shu jumladan qonunlarga rioya etilishi, tegishli xalq deputatlari Kengashlari qarorlarining va doimiy komissiyalar tavsiyalarining bajarilishi yuzasidan hisobotlarini eshitadi;

- tegishli prokurorlarning hisobotlarini eshitish;

- O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hududiy bo'linmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitish;

- tegishincha sog'liqni saqlashni boshqarish hududiy organlari, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari, tuman markaziy ko'p tarmoqli poliklinikalari rahbarlarining hisobotlarini eshitish;

- tegishincha hududiy adliya boshqarmalari va tumanlar (shaharlar) adliya bo'limlari boshliqlarining axborotini eshitish;

- xalq deputatlarining so'rovlarini qarab chiqish va ular yuzasidan qarorlar qabul qilish;

- hokimning va quyi Kengashning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga mos kelmaydigan qarorlarini bekor qilish;

- hokimning taqdimiga binoan hokimlik strukturasi, uning xodimlari shtatlari va ish haqi fondini tasdiqlash kiradi.

Mazkur vakolatlardan kelib chiqib, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari bevosita hokim faoliyatini nazorat qilish, ayrim hollarda cheklab qo'yish mexanizmiga ega. Taassufki, ushbu normalarning ayrim jihatlari ijro qilinish mexanizmida jiddiy kamchiliklar mavjudligini qayd etish lozim. Hokim lavozimini egallagan shaxsning Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari faoliyatiga boshchilik qilishining belgilanishi ham bu kamchiliklarning ildizi vazifasini bajarmoqda desak yanglishmagan bo'lamiz. [Mana shu jihatlarni e'tiborga olgan holda Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari raisi lavozimi ta'sis etilishi va bu lavozimni egallaydigan shaxs Xalq deputatlari viloyat, tuman va

shahar Kengashlari saylangandan so'ng, dastlabki yig'ilishda Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanishi vakillik va ijro hokimiyatining bir shaxs qo'lida to'planishining oldini olgan bo'ladi. Shuningdek viloyat, tuman va shahar hokimlari ham xalq tomonidan bevosita saylab qo'yilishi demokratiyaning muhim elementlaridan biri sanaladi. Bunda hokim lavozimiga nomzodni Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarida eng ko'p deputatlik o'rnini egallagan siyosiy partiya yoxud teng miqdorda deputatlik o'rnini egallagan bir nechta siyosiy partiyalar tomonidan kiritilishi ham mahalliy davlat hokimiyati asoslarini demokratik izga solishda juda katta muvaffaqiyatli qadam bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: O'zbekiston, 2000. - B.207.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
3. Azizxo'jayev A.A. va boshq. Konstitutsiyaviy huquq (izohli lug'at).-T.: Akademiya, 2001. - 160 b. .
4. O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonun.
5. O'zbekiston Respublikasi “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatining maqomi to'g'risida”gi Qonun.



BERDAQ CREATIVITY OF KARAKALPAK CLASSICAL LITERATURE

Maxmasoatova Fayyoza Fozilovna

Tashkent pediatric medical institute 1-faculty of pediatrics and folk medicine

308-group student

fayyozamaxmasoatova@gmail.com

Annotatsiya: Qoraqalpoq klassik adabiyoti namoyondasi bo‘lgan Berdaq shaxsi ijod jarayoni, hayoti va ijodini o‘rganish ta‘lim muassasalaridan boshlanishi haqida fikr yuritamiz.

Аннотация: размышляем о том, что творческий процесс, изучение жизни и творчества Бердака, представителя караколпакской классической литературы, начинается с образовательных учреждений.

Annotation: Berdaq personality, which is a manifestation of classical literature of Karakalpak, we think about the beginning of the process of creativity, the study of life and creativity from educational institutions.

Kalit so‘zlar: Berdimurot Qarg‘aboy o‘g‘li Berdaqning hayoti va ijodiga munosabat.

Ключевые слова: отношение к жизни и творчеству Бердымурота Каргабаевича Бердака.

Key words: Berdimurot Kargabai son Berdaq's attitude to life and creativity.

Men turli sinov va kurashlarda toblangan, iymon-irodasi mustahkam xalqimizning aql-zakovati va azmu shijoatiga ishonaman.¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

Life itself has repeatedly proved that in any country in the world where science has not developed, a free and prosperous society can not be built. The fact that the

¹⁰ Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan. 30.08.2020 yil

chain connecting the past and the future in the Present Tense is with the intellektual potential of young people is said in the works of our writers.

He studied primary education first in the ovul school, and then in the madrasah. Alisher Navoi, Fuzuli, Makhtumkuli and Karakalpak poet deeply studied and studied the works of Kunkhoja. He knew the history and oral creativity of the people. In the lyrical poems, epics of berdaq, the social life of the Karakalpak people in the 18 - 19-th centuries was embodied. He treats the events of his time, social relations as a clever poet. In his works, ideas of equality, humanism, justice and patriotism are put forward. The main themes of the state of the people's labor in the creativity of Berdaq “Bo‘lgan emas”, “Soliq”, “Bu yil”, “Umrin” and others.

The poet dreamed for the sake of truth, the happiness and future of the hardworking masses of the three selfless wrestlers. In his poems “Xalq uchun”, “Menga kerak” and on other topics he wrote a lot of inscriptions and sang. Historical theme “Avlodlar”, “Omongeldi”, “Azadosbiy”, “Ernazarbiy” in his works, the poet proudly sings folk heroes. The work of Berdaq “Avlodlar” is a chronicle of historical events, common events in the life of Karakalpak people and other Turkic peoples are taken into the pen, their thoughts about the origin of tribes and peoples are told. Berdaq writes in his poems and other works, such as “better”, “Yaxshiroq”, exposing the intruders of some reputed psychics. He protects the right of women, calls on young people to love the motherland, to occupy the peaks of enlightenment, illuminates problems in his poems “O‘g‘limga”, “Ahmoq bo‘lma”, etc.

In his poetic observations and views on life, Berdaq dreamed that the laborers would live happily. Thinking about making the people happy, asking Allah for help through the following “Yordam ber” partner, thinking about happiness. And through the lion “Izladim“ dreams of a just king “Kerak” hopes for the construction of a society in which the lion lives happily. The creativity of Berdaq stands close to the traditions of folk oral literature. With its creativity, intellectual and artistic highness, it occupies a fundamental position in the history of Karakalpak literature. Many of his works are translated into Uzbek and other languages of the Peoples.

The more we talk about berdaq's way of life and creativity, the less. Therefore, it is necessary to widely promote the creativity of Berdaq among our youth and translate his works into Uzbek and introduce young people to the younger generation. One of the most prestigious theaters in our country is the Karakalpak state musical theater named after Berdaq, which is popular not only in ourselves, but also abroad. To do this, the Lions of Berdaq life and creativity from the works of our adibs translate their youth from the language of Karakalpak into other languages, so that their creativity in the Companions of their Lions will be drawn to their Whirlpool with the ideas of serving the people in the pursuit of the knowledge of multi-lingual people's youth will learn to read. Berdaq puts forward such ideas as parental, family, duty and responsibility before el-yurt as well as patriotism in his poems. In order to protect young people from today's Internet attacks, it is necessary to translate the works of folk-tale writers such as Berdaq into uzbek, which is our native language, literary books in different languages. In order to prevent young people from becoming selfish people who live only one day of life, it is necessary to engage in literature, art, sports. Berdaq puts forward such ideas as parental, family, duty and responsibility before el-yurt as well as patriotism in his poems. In order to protect young people from today's Internet attacks, it is necessary to translate the works of folk-tale writers such as Berdaq into uzbek, which is our native language, literary books in different languages. In order to prevent young people from becoming selfish people who live only one day of life, it is necessary to engage in literature, art, sports.

USED LITERATURE

1. “Berdaq milliy madaniyatimizning buyuk namoyondasi” nomli metodik qo‘llanma.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 29.12.2020.
3. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz”. Sh.M.Mirziyoyev.
4. B.Qurbonboyev Berdaq va o‘zbek adabiyoti, T., 1986.
5. www. Prezidenti uz.
6. www.gazeta.uz

BOLA TA'LIM-TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA BERDAQ SHE'RIYATI BILAN BOG'LIQLIK JIHATLARI

Maxmasoatova Fayyoza Fozilovna

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 1-Pediatriya va xalq tabobati fakulteti 308-guruh
talabasi

fayyozamaxmasoatova@gmail.com

Yaxshiboyeva Nigina Odil qizi

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 1-pediatriya va xalq tabobati fakulteti
1-kurs talabasi

Annotatsiya: maqolada bolalar ta'lim-tarbiya olish jarayonida adabiyotning o'rni, Berdaqning she'riyati tarbiyaviylik ahamiyatida yangrovchi rostgo'ylik, to'g'ri so'zlik, yomonlikdan saqlanish kabi tarbiyaviy ahamiyatga ega fikrlar haqida mulohaza yuritimiz.

Kalit so'zlar: mardlik, jasurlik, yolg'o so'z, to'g'ri so'z, ota-ona, yaxshilik, do'stlik, g'aflat.

*Berdimurod, haqiqatni izlading,
Mudom elga to'g'ri yo'lni ko'zladning.*

Berdaq “Xalq uchun” sheridan.

Ta'lim tizimini “oyoqqa qo'ymas” ekanmiz, islohotlar amalga oshmaydi. Buni bitta vazirlik yoki agentlik ham qilolmaydi. Bunga butun xalqimiz, jamiyatimiz mahkam kirishishi kerak. Najotimiz maktabda, najotimiz ta'limda, najotimiz bilimda, – deya ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Dar xaqiqat inson dunyoga klegach birinchi bo'lib onasini so'ngra otasini va barcha yaqinlarini, ustozini, murabbiysini taniy boshlaydi. Shu jarayonda bola tarbiyalanadi, ta'lim ham oladi ushbu jarayonda ta'lim bilan tarbiya uzviylikda bo'ladi. Bu ikki tushuncha bir biridan also ayro emas. Tarbiya nechog'liq yaxshi berilsa ta'lim ham shunchalik ahamiyatli, samarali, foydali bo'lishi tayindir. Bu

borada tarbiya va ta'lim berishda turli zamonlarda turli olimlar tomonidan turli xil fikir mulohazalar bildirilgan.

Ta'lim va tarbiyaga oid teran fikir mulohazalar bilan buyuk shoir Alisher Navoiy xazratlari quydagicha yozgan:

Oz-oz o'rganib dono bo'lur,

Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

Alisher Navoiy kishi bilimga ega bo'lishi uchun oz-ozdan o'rganib borishi lozimligini, bilimlari yig'ilib ma'lum ko'nikmaga ega bo'lishi mumkinligini yozadi va buni tomchi-tomchi suvlar yig'ilib daryoga aylanishiga o'xshatadi. Xaqiqatdan ham bu o'xshatish nixoyatda aniqlik va hayotiy misollar bilan o'z isbotini topgan. Navoiyga g'oyibona mehr va muxabbat qo'ygan, o'zini Navoiyga shogirt sifatida bilib uning asarlarini muhabbat ila o'rganib undan ilhomlanib ijod qilgan Berdimurod Qarg'aboy o'g'l Berdaqning sheriyatida ham Navoiyga hamohang tarzida “Bolam” sheri tarbiyaga va ta'limga aloqador qarashlarni qalam bilan qog'ozga bitgan. Bola tarbiyasida bolam sherini tahlil qilib tarbiyaviy jihatidan yuksak insoniylikni targ'ib qiluvchi ushbu shar quydagicha boshlanadi:

Taltaymagin, erka bo'lib,

Yig'lamagin to'lib-to'lib.

Qolmaysan och, ranging so'lib,

Mard bo'l yoshlikdan, ey bolam.

Yoshlikdan botir bo'lib o's,

Yov yo'lini doimo to's.

Madadkoring bo'lsin ulus,

Mard bo'l yoshlikdan, ey bolam.

Bolani tarbiyasida eng muhim omil bolani erkalsh, unga etiborni qaratishda normada bo'lishlikni, bolalikdan boshlab mardlik, jasoratli bo'lishlikni, vatanga sadoqatli xalqparvar bo'lishni tarannum qiladi.

Manman bo'lma Pirimboyday,

Qaddingni ham egma yoyday.


Erkin o'sgil asov toyday,

Shalvirab hech yurma bolam.
Belni bog‘la, davringni sur,
Do‘stu-dushmanni sinab yur.
Yomon so‘zdan quloqni bur,
Sen g‘aflatda qolma, bolam.

Manmanlikni va kibirdan saqlanishni bolalikdan uqtirish, o‘ta yuvvoshlik va ko‘ngilchanlikda bo‘lmaslik, shu bilan birga yoshlikni qadrlab o‘ynab kulishlikni, do‘stkimu dushman kimligini bilishlik, yomon so‘zlarni so‘zlamaslik va g‘aflatda qolmaslikni ham takidlashmoqda.

Molim yo‘q deb, qiynama jon,
Davlat topilur har qachon.
Dushmaninga berma omon,
Har choq hushyor bo‘lgin, bolam.
Yomon bo‘lib tushma ko‘zga,
Dog‘ qo‘ndirma oppoq yuzga.
Uchma aslo yolg‘on so‘zga,
Yomondan zinhor qoch, bolam.

Ta‘lim olishda bolalarni, yoshlarni mablag‘ yo‘q bo‘lsada mustaqil ravishda o‘z ustida ishlashga, egallangan bilim, ilm ortidan xurmat etibor boylik kelishi, ushbu boylik ortidan do‘stni dushmandan ajrata olish, xushyor va ogohlikda bo‘lishlik, yomonlikdan yuz qarolikdan saqlanishlik, yaniy yolg‘on bilan rostni aralshtirmaslik orqali yomon bo‘lgan odamlarga yaqin bo‘lmaslikni bola tarbiyasida muhimligi ushbu sherningmohiyatida ochiq oydin yozilgan.



Otim yo‘q deb, adashmagin,
To‘nim yo‘q deb, talashmagin.
Yomonlarga yondashmagin,
Oring yerga urma bolam.

Ishla, manglaydan oqsin, ter,
Mehnatda bilinar har er.
Yaxshilarga qo‘lingni ber,
Shunda yo‘ling bo‘lar, bolam.

Boylikka o‘ch bo‘lmaslik, boyliknideb talashib tortishmaslik, yomonlikni qiluxhi odamlarga yaqin bo‘lmaslik, ornomusli bo‘lishlik bilan birga mehnatsevarlik asosida ulg‘ayishlik, faqat yaxshilik qilishlik yo‘lida bo‘lishlikni targ‘iboti mavjud.

Yomonlarga hech sir aytma,
So‘z kelganda, so‘zdan qaytma.
Do‘stingni aslo mung‘aytma,
Shunda baxting kular, bolam.
Molim bor deb oshib toshma,
Bekordan-bekor talashma.
Hech ishga hadsiz yondashma,
To‘g‘ri so‘zla, doim bolam.

Tarbiya jararonida yuqoridagi misralardan shuni anglash va tushuntrish mumkinliy bolalar oilada bo‘ladigan oilaviy gaplarni bilmasdan ko‘pchilikka aytishlari mumkin shu sable sir saqlashlik odatini oilada bolalikdan uqtrish mumkinligini, do‘stga sadoqatli bo‘lishlik, davlating ko‘paysa xaddan oshmaslik befoyda ishlarga mol sarflamaslik, doimo o‘ylab ish ko‘rishlik, to‘g‘ri so‘zlik kabi fazilatlar haqida so‘z bormoqda.

Yomon uchun tushma o‘tga,
Xiyonat o‘ylama yurtga.
Onang bergan oppoq sutga,
Bu o‘zingga yaxshi bolam.
To o‘lguncha to‘g‘ri so‘yla,
Otagni, onangni o‘yla.
Yaxshiga yaxshilik ayla,
Bu odamzod naqshi, bolam.

Yuqoridagi sherda yomonlik qiluvchi kishilarni o‘rtasiga tushmaslik, vatanga oilaga xiyonat qilmaslik, ota-onaga merli oqibatli qobil farzand bo‘lishlik, doimo to‘g‘ri so‘zlashlik, haqiqatni so‘zlash o‘zgalarni aldamaslik har damni g‘animat bilib barchaga yaxshilik qilishlik ahamiyatlari haqida Berdaqning o‘z qarashlarini sheriyatda aniq tartibda nasixat shaklida yetkizib bergan.

Xulosa qilib aytganda Berdaq ijodi barchaga birdek manzur keladigan jihatlari uning sheriyatidan malum bo‘lib barcha asarlarida sherlarida erkinlik, xur fikirlik, odamiylik, insonning doimo yaxshilikka bunyodkorlikka chorlovchi qarashlarni o‘zida mujassam aylagan, vatanparvarlik, xalqqa yaxshilik qilish xar bir insonning burchi ekanligini ham Berdaq qarashlarida asarlarining bosh g‘oyasi sifatida targ‘ib qilingan. Barcha qarashlar sheriyatda aks ettirish anchayin mushkul bo‘lsada bu mushkulotlarni yengib o‘tgan ijodkor sifatida Berdaq xalq orasida o‘zi yozgan sherlarni kuyga solib kuylagan baxshilik ham qilgani tarixiy manbalarda keltirilgan. Berdaq ijodi yuksaklarga ko‘tarilishida xalq ichidan, xalqning dardidan hayotdan olib yozganligi sabab bo‘lsa ajab emas. Bugungi kunda Berdaq asarlari hanuz o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston SSR fanlar akademiyasi X.S.Sulaymonov nomidagi qo‘lyozmalar instituti “Berdaq she‘riyatidan” Mirtemir tarjimasi. T.: 1977 y.
2. www.preziden.uz
3. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Berdaq>
4. www.e-adabiyot.uz Qorqalpoq adabiyoti Qarshi davlat universitetining katta o‘qituvchi A. Hamdamov
5. www.Vikipediya: Adabiy muxit. Maqolalar.
6. www.ziyo.uz

TEACHING FOREIGN LANGUAGE GRAMMAR: INDUCTIVE METHOD

Zukhra Shermatova

Master's degree Student at Chirchik State Pedagogical Institute

Movluda Gulyamova

PhD, Uzbekistan State World Languages University

Abstract: The article is dedicated to using inductive method as an innovative approach in grammar teaching process. The paper provides opinions of different scholars expressed in favor of inductive teaching grammar. The author puts an emphasis on the role of inductive learning pointing out that grammar rules are not learned directly, but are “discovered” by learners based on their language experience.

Key words: Innovative approach; Communicative competence; Inductive teaching; Foreign language grammar; Methodology

The methodology of teaching foreign languages is “a science that explores the goals, content, methods and means of teaching, as well as ways of teaching and upbringing on the material of a foreign language” [1; 7]. Historically, in the methodology of teaching foreign languages two functionally different methods have developed: general and specific methods. The general methodology, as a rule, is devoted to the study of the patterns and characteristics of the process of teaching a foreign language, regardless of what foreign language is in question. However, knowledge of the general laws of teaching foreign languages turns out to be insufficient when the teacher is faced with the specific features of a particular foreign language. Special methodology examines the teaching of those linguistic and speech phenomena that are specific to a particular foreign language being studied.

Modern methodology of teaching foreign languages puts an emphasis on the improvement of learner's communicative competence which, in consequence, leads to wide implementation of communicative approach in language teaching process.

Within the framework of communicative teaching, we can distinguish following approaches:

- Explicit approach
- Implicit approach
- Differentiated approach

Considering separately the explicit approach to formation of communicative, particularly grammar competence, we can evolve two methods: inductive and deductive. Teachers actively use both the first and second methods, the choice depends on the purpose of teaching. The approaches have their advantages and a set of techniques that help achieve the goal. But the inductive method is considered to be the most productive. The inductive method is based on the transition from particular to general. This method allows students to formulate the rule themselves, relying on the phenomena with which they meet when studying foreign language.

Induction is “logical conclusion in the process of thinking from the particular to the general”¹¹, a research method and a way of reasoning, in which the general conclusion is built on the basis of particular premises.

Within the framework of communicative learning, the inductive presentation of the material does not imply "guessing" the rule, but a full-fledged speech practice and is implemented through several stages. At the first stage, students are presented with authentic language material containing the desired grammatical structure, and are invited to discuss first the problems or situations expressed in these examples. At the next stage, the teacher sets the task to analyze the grammar of the presented samples and make suggestions on the use of the grammatical structure. Next, students read or listen to the text, observe the grammatical phenomenon in context. At the fourth stage, students formulate the rules for using the grammatical structure. At the fifth and final stage, there is a feedback from the teacher and a mutual check.

Frolova and Schukin in their book *Methodology of teaching foreign languages* suggest the formulation of speech task implementing inductive method in the following way:

¹¹ Shashenkova E.A. Research activities (dictionary). M.: Perspective, 2010.

A teacher lets students read the examples and try to formulate a rule for using the Past Simple form, then determine how the forms of regular verbs in Past Simple are formed. Examples: I studied very hard yesterday.

The TV set worked very well last week.

We watched a film an hour ago.

Based on observation, students are expected to come to the following conclusion: “As you can see from the examples, Past Simple is used to refer to a specific action in the past. The affirmative form of the regular semantic verb in Past Simple is formed with the ending -ed for all persons and numbers ". [2; 149]

The formulation of the rule, if necessary, is corrected by the teacher. It is also possible to provide assistance to students in the form of hints, the use of visual aids, translation. Then exercises are offered to consolidate the grammatical phenomenon, which leads to the formation of grammatical skill.

Inductive teaching and learning is an umbrella term that encompasses a range of instructional methods, including inquiry learning, problem-based learning, project-based learning, case-based teaching, discovery learning, and just-in-time teaching. These methods have many features in common, besides the fact that they all qualify as inductive.

However, induction cannot be turned into a universal teaching method. In accordance with modern trends towards an increase in theoretical information in curricula and with the introduction into practice of the corresponding problem-type teaching methods, the role of other logical forms of presentation of educational material increases.

References:

1. Bunakov, N.F. (1953) *Selected pedagogical writings*.
2. Schukin, A.N., Frolova, G.M. (2015). *Methodology of teaching foreign languages*. M.: Academia.

ХАРАКТЕРИСТИКА КОЛЛЕКТОРСКИХ СВОЙСТВ ПЕСЧАНО-АЛЕВРИТОВЫХ ПОРОД ЮРСКИХ ОТЛОЖЕНИЙ НА ПЛОЩАДИ ВОСТОЧНЫЙ БЕРДАХ

Жураев Фазлиддин Очилхонович – ассистент, (КарИЕИ);

Носиров Акмал Номоз угли – магистр, (ТГТУ);

Аннотация

В статье рассматриваются разработка комплекса геофизических исследований скважин для месторождения Восточный Бердах.

Для решения поставленной цели необходимо:

- провести детальное изучение петрографических характеристик пород слагающих продуктивный горизонт;

-установить тип коллектора, изучить результаты анализа фильтрационно-ёмкостных, на основе которых дать характеристику ФЕС пород.

- на основе выявленных корреляционных связей типа «керна-керна» установить граничные значения коллекторов, установить петрофизические связи между параметрами коллекторов для количественной интерпретации результатов ГИС.

-провести анализ эффективности проведенных комплекса ГИС на месторождении Восточный Бердах для решения основных геологических задач, на основе которой предлагается проект рационального комплекса.

Ключевые слова: коллектор, результаты, фильтрационно-ёмкост, порода, комплекс, Гистограмма, коэффициент, отложений, водонасыщенности.

Аннотация

Ta’lim metodining samaradorligini oshirish uchun dars davomida talabaning o‘z mehnati, mustaqil harakati va izlanishlarini hisobga olish va to‘g‘ri yo‘naltirish zarur bo‘ladi. Buning uchun “Davra suhbatlari” metodidan foydalaniladi. Bu metodni quyidagicha qo‘llash mumkin.

“Davra suhbatlari” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr mulohazalarini bildirish orqali olib

boriladigan o‘qitish metodidir. “Davra suhbatı ” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta‘lim oluvchining bir- biri bilan “ko‘z aloqasi” ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta‘lim beruvchi “Anorchilikning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati” mavzusini boshlab beradi va talabalardan ushbu mavzu bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. Gapirayotgan talabani hamma diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikrlar tinglab bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa talabalar mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.



Belgilar:

1-talabalar

2-aylana stol

Davra suhbatı usulining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1.Anorchilikning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati mavzusi e‘lon qilinadi.

2.O‘qituvchi talabalarni tartib bilan tanishtiradi.

3.Har bir talabaga bittadan konvert va javob yozish uchun guruhdagi talabalar soni har bir talabaga taqsimlanadi va har bir javob yozish uchun ajratilgan vaqt belgilanadi. Talaba o‘z ismini konvertga va “Javoblar varaqlari”ga yozadi.

4.Talaba mavzu bo‘yicha o‘z savolini konvertga yozadi.

Masalan: Anorchilikdan qaysi sohalarda keng foydalaniladi?

5.So‘ngra “Javoblar varag‘i”ga o‘z javobini yozib, konvertga soladi.

6.Konvertga savol yozgan talaba konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi o‘quvchiga uzatadi.

7. Konvertni olgan talaba konvertdagi savolga javobni “Javoblar varaqlari”dan biriga yozib, konvertga solib yonidagi talabaga uzatadi.

8. Konvert davra stoli atrofida aylanadi va savolni yozgan talabaga qaytadi. Savolni yozgan talaba konvertdagi “Javoblar varaqlari”ni baholaydi.

9. Barcha konvertlar yig‘iladi va tahlil qilinadi.

Bu metod orqali o‘quvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘z bilimlarini qisqa va aniq bayon eta oladilar. Bundan tashqari, bu usul muayyan mavzu bo‘yicha talabalarni baholash imkonini beradi. Bunda o‘quvchilar o‘z savollariga guruhdagi boshqa o‘quvchilar tomonidan berilgan javoblarni, o‘qituvchi esa o‘quvchilarni xolisona baholashi mumkin.

“Davra suhbat” usulining afzalliklari:

- o‘tgan materialni eslab qolishga yordam beradi;
- barcha talabalar ishtirok etadi;
- Har bir talaba o‘zini baholash uchun mas’uliyatni his qiladi;
- Erkin fikr bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, bu kabi metodlarning barchasi talabalar bilim darajasining oshishi va dars jarayonlarining qiziqarli tashkil etilishida katta ahamiyatga ega. Talabalar qanchalik darsda faol bo‘lishsa ta’lim sifati ham shunchalik yaxshilanib boradi. Har bir dars tashkil etilishida shu kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Qishloq xo‘jaligi fanlarini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalar” moduli bo‘yicha O‘quv- uslubiy majmua. Toshkent 2017.
2. “Anor yetishtirish sirlari” Isroil Ne‘matov.
3. Agronet.uz “Anor bo‘yicha tavsiyalar ”

“BEGONA O‘TLAR, ULARNING ZARARI VA BIOLOGIK XUSUSIYATLARI” MAVZUSIDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYASI QO‘LLASH METODIKASI

Soliyeva Fotima Farhod qizi, G‘oibova Sevara Ayup qizi

Guliston Davlat Universiteti

Annotatsiya: Begona o‘tlar, ularning zarari va biologik xususiyatlari va ularni qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosiliga ta‘siri haqida umumiy ma‘lumotlarga ega bo‘lish jarayonida talabalar faolligini oshirishda e‘tiborga molik jihatlar, turli metodlarning ta‘lim sifatiga ta‘siri haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Begona o‘tlar, biologiyasi, xususiyatlari, turlari, dehqonchilik, bosqich, mustaqil ta‘lim, dunyoqarash.

Bugungi kunda yosh avlodlarni ham jismonan, ham ma‘naviy jihatdan sog‘lom qilib tarbiyalash davr talabiga aylanib qolmoqda. Xususan, hududimizda olib borilayotgan yangi islohotlar, yangi qaror va farmonlar yoshlarni, nafaqat sport, balki ilm-fan sohasida yuksak cho‘qqilarga chiqishi uchun xizmat qilib kelmoqda. Shu bois ham hozirgi vaqtda ta‘lim sohasida innovatsion ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, e‘tiborimizni qishloq xo‘jaligi sohasiga doir fanlarga qaratigan bo‘lsak, bularda yangi uslubdagi o‘qitish metodikalari juda muhim hisoblanadi. Chunki fanni yana kengroq qilib o‘qitish, nazariy bilim birga talabada taassavur hosil qilish hamda bilimni mustahkamlash talaba yoshlar bilimni yaxshi o‘zlashtishi, chuqurroq ilm egallashi bilan birga o‘z sohasining yetuk mutaxasisi bo‘lishi uchun turtki bo‘lib xizmat qiladi va yaxshi natijalarga erishishimiz mumkin.

Biz “Dehqonchilik” fanining kalendar tematik ish rejasiga nazar soladigan bo‘lsak, u yerda begona o‘tlar, ularning zarari hamda biologik xususiyati alohida o‘rin egallab turganini ko‘ramiz. Boisi tabiatimiz juda ajoyib va rang-barang o‘t-o‘simliklar iborat. Lekin shu bilan bir qatorda madaniy va yovvoyi turlari ham mavjud. Yetishtirayotgan har qanday madaniy o‘simligimiz uchun begona o‘tlarning


zarari juda katta. Shu bois ham o‘simligimizni ekib, ularning begona o‘tlardan himoya qilish muhim va ma’suliyatli ish sanaladi.

Ta’lim sifatini hamda samaradorligini oshirish uchun o‘quvchining o‘z mehnati, erkin fikrlashi, tasavvur qilish, shu bir qatorda mustaqil harakat qilishi zarur. Ana shundagina yuksalish bo‘ladi. Bunig uchun mashg‘ulotda ta’lim texnologiyasini quyidagicha qo‘llashimiz mumkin:


I bosqich. Tayyorgarlik bosqichi. Mavzusning maqsadi: Begona o‘tlar nima, ular qanday kelib chiqqan, begona o‘tlar qanaqa bo‘ladi, begona o‘tlarga nimalar kiradi, begona o‘tlarning madaniy o‘simliklar uchun zarari, biologik xususiyati nimalardan iborat, begona o‘tlarga qarshi kurash chora tadbirlari qanday va biz uchun nimaga muhim ekanligi aytib o‘tiladi. (Ta’lim beruvchi) 10 minut.

II bosqich. Kirish. Ushbu mavzu bo‘yicha talabalarni avvaldan ega bo‘lgan bilim va malakalari hamda dars maqsadi eslatiladi. Suhbat davomida ta’lim oluvchilarning alohida fikr mulohazalari umumlashtiriladi. Suhbatda hamma ta’lim oluvchilar faol ishtirok etishlariga harakat qilinadi. (Ta’lim beruvchi) 10 minut.

III–bosqich. Asosiy qism. Bilim berishning hamda bilim olishning o‘z mashaqqatlari bor albatta. Ammo biz ko‘rgazmali qurollardan foydalangan holda bu mashaqqatni kamaytirish hamda kengroq taasavvurga ega bo‘lishimiz mumkin. Shu bois ham o‘yinni kichik jamoviy qilib guruhlariga ajratimiz. Ajoyib 4 ta jamoalar o‘zlari uchun fanga doir guruhiga nom hamda jamoa sardori saylaydilar. Ularga plakatlarga chizilgan quyidagi sxemalar beriladi. Ular bo‘sh kataklar ichini to‘ldirishlari kerak bo‘ladi.



IV–bosqich. Yakuniy qism. Bu qismda mavzuni qay darajada o‘zlashtirganliklarini bilib olamiz va topshiriqni qay darajada bajarganliklariga qarab rag‘batlantiriladi. Mavzu yakuni shu bilan birga begona o‘tlarga qarshi kurashish chora tadbirlari to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish va begona o‘tlarning rasmlarini chizish uyga vazifa qilib beriladi.



- Mashg‘ulot shakli- kichik guruhlarda ishlash.
- Tushuntirish – taqdimot qilish hamda sxemalar bilan birga ishlash
- Texnik vositalardan – kompyuter, proektor, plakatlardan foydalaniladi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, ta’lim tizimini rivojlantirishda ta’lim metodining noanaviy usullari orqali talabning chuqurroq o‘zlashtirishiga ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishga shu bilan bir qatorda ularga mustaqil izlanib o‘rganishlari uchun imkoniyat yaratishga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Qishloq xo‘jaligi fanlarini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalar ” moduli bo‘yicha O‘quv-uslubiy majmua. Toshkent 2017
2. S. Azimboyev – “Dehqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari” Toshkent, IQTISOD-MOLIYA, 2006.

**“ORGANIK DEHQOCHILIKNING AHAMIYATI VA RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI” MAVZUSINI O‘QITISH JARAYONIDA
TALABALARNING FAOLLIGINI OSHIRISH**

Soliyeva Fotima Farhod qizi, G‘oibova Sevara Ayup qizi

Guliston Davlat Universiteti

Annotatsiya: Organik dehqonchilik bilan tanishish va uning ahamiyati haqida umumiy ma’lumotlarga ega bo‘lish jarayonida e’tiborga molik jihatlar, turli metodlarning ta’lim sifatiga ta’siri va dars jarayonida muammoli vaziyat yaratish, evristik suhbat hamda mustaqil ta’lim orqali talabalarning faolligini oshirish haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: organik dehqonchilik, talabalar faolligi, mevalar, anor (*Punica granatum L.*), “FSMU” metodi, fikr, sabab, misol, umumiy xulosa

Bugungi kunda yoshlarni barkamol qilib ulg‘aytirish, el-yurt uchun nafi tegadigan farzand qilib tarbiyalash nafaqat ota-onaning, balki butun bir xalqning asosiy vazifasi deb aytsak hech ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Boisi, bizning kelajagimiz yosh hamda navqiron, ko‘zi chaqmoqdek yonib turgan yoshlar qo‘lida. Xususan, bugungi kunda olib borilayotgan yangi islohotlar, qabul qilinayotgan qaror va qonunlar, farmoyishlarning barchasi yangi yosh avlod uchundir. Bilasizmi, oddiygina yil nomlariga nazar soladigan bo‘lsak, 2008-yil “Yoshlar yili”, 2010-yil “Barkamol avlod yili”, 2014-yil “Sog‘lom bola yili”, 2016-yili “Sog‘lom ona va bola yili” deb nomlanganligi ham yoshlar uchun ajoyib imkoniyatlar eshigini ochish uchun xizmat qildi. Mayli ortga nazar solmasdan hozirgi vaqtga qaraydigan bo‘lsak, 2021-yil 24-oktabr sanasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev saylangan so‘ng, kelgusi besh yilga, ya’ni 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi tastiqlandi. Bu ham biz uchun keng ma’nodagi imkoniyatlar demakdir.

Bilamizki, bundan tashqari “Ta’lim to’g’risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” va yoshlarga oid “Davlat dasturi” ni ijrosini ta’minlash, shu asosda ta’lim sifatini va samaradorligini yaxshilash, ya’ni iqtidorli talabalarni aniqlash, ularni qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy maqsad hisoblanadi. To’g’ri tanlangan zamonaviy o’qitish usullari – uslublar talabalarning yangi bilimlarini ongli va chuqur o’zlashtirishlariga, ularda faollik va ijodkorlikka katta ta’sir ko’rsatadi. Qishloq xo’jaligini rivojlanishida “Dehqonchilik” fanining ahamiyati katta ekanligi hammaga ma’lum. Lekin, bu fanning o’zlashtirish birmuncha qiyinligi va qiziqarliligi sababli, dars jarayonida talabalar faolligini oshirish zarurdir. Talabalarning dars jarayonida yangi mavzuni ahamiyatini ongli tushunib olishlari, faqat o’qituvchining og’zaki tushuntirishlari asosidagina vujudga kelmay, balki buning uchun o’qituvchi tomonidan maxsus tashkil etiladigan talabalarning bevosita faoliyatida ham vujudga keladi. Shuning uchun o’qitish jarayonining samaradorligini hamda sifatini oshirish, muammolarini aniqlash va ularga yechim topish uchun keng ko’lamdagi ilmiy pedagogik usullarda dars o’tishga bog’liq sanaladi. Buning uchun dars jarayonida quyidagi holatlarga e’tibor qaratishimiz lozim.

Muammoli vaziyat. Biz yangi maqsadlar hamda shu bilan birga yangi loyihalar ustida ishlamoqchi bo’lsak avvaliga muammo nimada ekanligini bilib olishimiz zarur. Muammoga yechim izlamoq va muammoni yechmoq esa bizga yangi tarkibdagi yangi loyihalar uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari muammoli vaziyatlarda o’qituvchi talaba yoshlarni muammo hal qilishga, yangi yechim izlashga, mantiqan o’ylashga va shu bilan bir qatorda izlanishga hamda to’g’ri xulosa qilishga undaydi. Muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida talabalarning fikrlash qobiliyati yanada ortib boradi. Masalan, o’qituvchi “Organik dehqonchilik” ni qishloq xo’jaligidagi ahamiyatini tushuntirishda talabalarga organik dehqonchilik nima ekanligi, ularni rivojlantirish istiqbollari qanaqa ekanligi so’raydi va ulardan erkin fikrini so’raydi. Bunda talabalar organik dehqonchilikning ahamiyatini, ularga nimalar kirishini, organik mahsulotlar qaysi ekanligi, ularning insonlar uchun foydasini qanday ekanligini o’rganadi, izlanadi, kuzatadi. Kuzatilayotgan jarayonlaridan, izlanish natijalar muammoli vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Bunda

o‘qituvchi talabalarga yangi hodisani, ya’ni organik dehqonchilik rivojlantirish istiqbollarini tahlil qilib, tushuntirib beradi.

Evrestik suhbat. Talabalar fikrlashining o‘sishi – suhbatni tashkil etadigan o‘qituvchi savollarining xarakteriga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Suhbat davomida, talabalardan ilgari suriladigan ilmiy holatlarni asoslash, isbot qilish, xulosalarni mustaqil ifodalab berish talab qilinadi. Taqdimot, darslik va internetdan to‘g‘ri foydalanish, olingan ma’lumotlarni ilmiy jihatdan to‘g‘ri tahlil qilishga undaydi. Talabalarning darslik bilan ishlashlarini samaradorligini oshirish uchun har bir mavzuni oxirida keltirilgan o‘z-o‘zini tekshirish uchun nazariy savollari, masalalar va testlar katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Talabalarni uy ishlarini bajarishga o‘rgatish bilan birga, savollarga og‘zaki javob berishga o‘rgatish, talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishga olib keladi. Savollar shunday tuzilganki, organik dehqonchilikni, ularning ahamiyatini, darslik matnidan ma’lum savollarga javob topishni o‘rganishga va olgan bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Darslikda mavzuga bog‘liq bo‘lgan masala va mashqlar, rasmlar hamda laboratoriya ishlari keltiriladi. Bu materiallardan imkoni boricha to‘laroq foydalanish tavsiya etiladi. Olgan bilimlarni mustahkamlash uchun qo‘shimcha o‘quv, ilmiy-ommabop va internetdan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Mustaqil ta’lim. Mustaqil ta’lim har sohada, xususan dehqonchilikda ham juda muhim hisoblanadi. Chunki mustaqil o‘zi izlanib olayotgan bilimlar xotirada kuchli iz qoldirib, har takrorlaganda yanada bilimlar mustahkamlanadi. Dars yakunida talabalar o‘tilgan materialni qay darajada o‘zlashtirganligini tekshirish uchun savol-javoblar, test sinovlari va mustaqil ta’limdan foydalanish kerak bo‘ladi. Bunday usullar bilan talabalarni bilimlarini kengaytirish, masalalar yechimini topishga, mustaqil ishlashlari va xulosalar qilishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.“Qishloq xo‘jaligi fanlarini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalar ” moduli bo‘yicha O‘quv-uslubiy majmua. Toshkent 2017

2.“Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–5995-son farmoni.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ USTUNLIGINI TAMINLASH: NAZARIY VA AMALIY

Parxatov Mardonbek Davronbekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy axborot vositalari huquqi bo'limi
magistranti

ANNOTATSIYA

O'z oldiga huquqiy demokratik qurishni maqsad qilgan O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab davlat va jamiyat hayotida konstitutsiyaviy huquq ustunligi ta'minlash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Konstitutsiyaviy huquq ustuvorligi har bir shaxsning Konstitutsiyada va qonunlarda belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklarini to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirishlaridir. Mazkur ishda Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha va uning nazorati bo'yicha davlatimizda amalga oshirilayotgan ishlar va ularning huquqiy mezanizmlari haqida fikr yuritiladi. Mazkur ishda konstitutsiyaviy huquq ustunligini takomillashtirish bo'yicha tavsiya va takliflar berilgan bo'lib undan qonun ijodkorligi sohasida foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, Konstitutsiyaviy huquq, huquq ustuvorligi, demokratik davlat, qonuniylik.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tashkil topgandan keyin huquq ustuvorligini taminlash asosiy kun tartibidagi masalaga aylandi. Shu bilan birga mazkur ishni amalga oshirish uchun inson va fuqorolarning huquq va erkinliklari shu bilan birga majburiyatlari aks etgan Konstitutsiya zarur edi. 1992-yil 8 dekabrda uchinchi marta umumxalq muhokamasi yakunlari bo'yicha xalqimiz ijod maxsuli bo'lgan qomusimiz- Konstitutsiyamiz qabul qilindi¹⁶. *“Xalqimizning siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi bo'lgan Konstitutsiyamiz yurtimizda demokratik*

¹⁶ Azizxo'jayev A.A. va boshq. Konstitutsiyaviy huquq (izohli lug'at).-T.: Akademiya, 2001.

davlat va fuqorolik jamiyati barpo etish, O'zbekistonning xalqaro maydonda munosib o'rin egallashida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda”¹⁷

Konstitutsiya (lotincha “Constitution” – tuzilish, belgilash) – davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o‘zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini belgilab beradi¹⁸.

“Konstitutsiyaviy huquq” atamasi fuqarolarning Konstitutsiyalarda belgilab qo'yilgan asosiy huquqlariga nisbatan ishlatiladi. Shaxsning huquqiy holatida fuqarolarning asosiy huquqlari Konstitutsiyaviy huquqlar deb atalib, ular konstitutsiyaviy-huquqiy normalarda mustahkamlanadi. Konstitutsiyaviy huquq normalari jamiyatdagi eng muhim masala bo'lmish - inson va davlat munosabatlarini tartibga soladi. Buning eng muhim masala deb hisoblanishi jamiyatning rivoji yoki aksincha inqirozi, inson va davlat munosabatlarining to'g'ri o'rnatilganligiga bog'liqdir. Konstitutsiyaviy huquq o'z normalari orqali inson, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko'taradi, shaxs va davlat munosabatlarida shaxs manfaatlarining ustuvorligini belgilaydi, ijtimoiy adolat prinsipini bosh prinsip darajasiga ko'taradi, hokimiyat tuzilmalari tashkil qilinishining aniq tartibini belgilaydi va ularning faoliyatini qonun doirasida chegaralaydi. Konstitutsiyaviy huquqqa, shulardan kelib chiqib, hokimiyat va erkinlik o'rtasidagi munosabatda mutanosiblikni o'rnatuvchi, ta'minlovchi vosita deb ham ta'rif bersa bo'ladi. Aynan shunlardan ham ko'rishimiz mumkinki Konstitutsiya davlatning eng oliy qonuni hisoblanadi.

Mamlakatning taraqqiyoti konstitutsiyaviy tuzum barqarorligiga, u esa Konstitutsiyaga to'g'ridan-to'g'ri amal qilinishiga bog'liq. Xususan bosh qomusimizning III bobi Konstitutsiya va qonun ustuvorligi deb nomlanib, uning 15-

¹⁷ Mirziyoyev Sh. “Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. T.: “O'zbekiston”.2018.3-tom.58-bet.

moddasida O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar deb mustahkamlab qo‘yilgan¹⁹.

Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi deganda, ularning norma va qoidalari boshqa har qanday huquqiy hujjatlardan yuqori turishi tushiniladi. Boshqa barcha huquqiy hujjatlar farmon, qaror, famoyish, buyruq, yo‘riqnoma, nizomlar ularga mos bo‘lishi shart.

Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanada “... bosh qomusimizni chuqur o‘rganish, anglash, hayotga joriy etish va unga so‘zsiz amal qilish barchamizning burchimizdir”²⁰ degan so‘zlari orqali ham jamiyat va davlat hayotida qonuniylikni taminlashda Konstitutsiyaning o‘rni beqiyos ekanligidan dalolat beradi. Zero barcha qonun hujjatlari va qonun osti hujjatlari ham Konstitutsiya asosida qabul qilinadi.

Fikrimizni davom ettirib Konstitutsiyamizning 16- moddasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak “birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas”²¹ deb belgilab qo‘yilgan. Aynan shu norma Konstitutsiyaning ustunligini ta‘minlovchi eng muhim prinsip va amaliy choradir. Har qanday hujjatlarning Konstitutsiya va qonunlarga mos bo‘lishini Konstitutsiyaviy sud, prokuratura organlari faoliyati orqali taminlanadi. Xususan Konstitutsiyamizning 108 moddasida va “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi ishlarni ko‘radi” deb belgilab qo‘yilgan. Shuningdek “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunning 2-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta‘minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

²⁰ Mirziyoyev Sh. “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. T.: “O‘zbekiston”.2018.3-tom.59-bet.

²¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat” deb mustahkamlab qo‘yilgan.

Qonuniylik prinsipi-bu barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, xizmatchilar, jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning qonun va boshqa qonun hujjatlariga og‘ishmay amal qilishidir. Bundan ko‘rishimiz mumkinki qonunlarga amal qilish barchamizning vazifamizdir. Shu o‘rinda takidlab o‘tish joizki Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov *“Qonuniylik va huquq tartibot tantana qilmasa, shaxsning huquqlari va erkinliklar, qattiq intizom, ichki uyushqoqlik va ma’suliyat ustuvir bo‘lmasa, qonun va an’analar hurmat qilinmasa, huquqiy davlatni tasavvur qilib bo‘lmaydi”*,²² - deb qonuniylikning ahamiyatini aniq ko‘rsatib bergan edilar. Zeroki qonunlarga amal qilish rivojlanish va farovonlik garovi ekanligini jahon tajribasi isbotlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov.I.A. “O‘zbekiston-kelajagi buyuk davlat”.-T.: “O‘zbekiston”. 1992.
- 2 Mirziyoyev Sh. “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. -T.: “O‘zbekiston”. 2018. 3-tom.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
4. Azizxo‘jayev A.A. va boshq. Konstitutsiyaviy huquq (izohli lug‘at).-T.: Akademiya, 2001.
5. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida”gi qonun.
6. O‘zbekiston Respublikasi “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonun.

²² Karimov.I.A.. “O‘zbekiston-kelajagi buyuk davlat”.-T.: “O‘zbekiston”. 1992. 38-bet.

Б.БАБАЖАНҰЛЫНЫҢ «БЕСҚАЛА» ТАҚЫРЫБЫНДАҒЫ ЖЫРЛАРЫ ОНДАҒЫ ФОРМАЛЫҚ ІЗДЕНІСТЕР

Смамұтова Ширин Азатбаевна ф.ғ.ф.д(PhD)

Бердақ атындағы Қарақалпақ мемлекеттік университеті

Алдонгарова Шамшырақ Абдигапбарқызы

Бердақ атындағы Қарақалпақ мемлекеттік университеті магистранты

Аннотация: Мақалада қазақтың көрнекті ақыны Б.Бабажанұлы поэзиясы, ондағы Бесқала тақырыбы туралы сөз етіледі. Ақынның өзіндік стилі, формалық ізденістері анализденеді.

Кілт сөздер: Б.Бабажанұлы поэзиясы. Ондағы Бесқала тақырыбы. Поэзиясындағы формалық ерекшеліктер.

Аннотация: Статья о поэзии выдающегося казахского поэта Б. Бабажанулы. Он посвящен теме Бескалы. Анализируются собственный стиль и формальные занятия поэта.

Ключевые слова: Поэзия Б. Бабажанулы. А именно тема Бескалы. Формальные черты в поэзий.

Annotation: An article about the poetry of the outstanding Kazakh poet B. Babazhanuly. It is dedicated to the theme of Beskala. The poet's own style and formal studies are analyzed.

Keywords: Poetry of B. Babazhanuly. Namely, the theme of Beskala. Formal features in poetry.

Бауыржан Бабажанұлы қазіргі қазақ поэзиясында өзіндік орны бар, жырсүйер қауымға танымал ақын. Ол Әл-Фараби атындағы Қазақ мемлекеттік ұлттық университетінің филология бөлімінің түлегі болған. Қызмет жолдарында М. Әуезов атындағы Әдебиет және өнер институтында ғылыми қызметкер, «Жалын» журналында, «Ана тілі»-«Жалын» бірлескен

басылымдарында бөлім меңгерушісі болып, «Алтын Орда» тәуелсіз апталығында бас редактордың орынбасары лауазымдарында жұмыс жасаған. Қазіргі күнде халықаралық «Түркістан» газетінің бас редакторы.

Ақын өлеңдері «Толқыннан толқын туады», «Жас ақындар антологиясы» ұжымдық жинақтарына енген. «Аспан жердің арасы», «Ниетқабыл» кітаптарының авторы.

«Бауыржанның өлеңдерінің басты әсері-оның осы қазір ғана өзін жазғандай күй кешесің. Бұл нағыз ақындықтың басты критерийі.

Өз басым, әлемде теңдесі жоқ қазақы өлеңнің ұрпақтан-ұрпаққа ұласып келе жатқан асыл қазынасының Бауыржанның өлеңдерімен көркейе, байи түскеніне бек сендім» [1]. Қарақалпақстанда туылып, қазіргі таңда атажұртынан қоныс тапқан қазақ поэзиясының жұлдызын жарқыратып жүрген жерлес ақындарымыз да аз емес. Олардан: Есенғали Раушанов, Рахмет Аяпбергенов, Сабыр Адай, Базарбай Иман, Мұрат Бекей, Байбота Қошым-Ноғай, Бауыржан Бабажанұлы, Ахмет Өмірзақ т.б есімдерін атап өтуді орынды санаймыз. Мысалы, Қоңыратта туылып өскен, жерлесіміз қазіргі қазақ әдеби үдерісінде белгілі орны бар ақын, талантты тұлға – Бауыржан Бабажанұлы поэзиясына үңіле қарасаңыз, екі халық ортасындағы тамыр тартқан бауырластықты, қиын күндердегі тағдырластық т.б анық көреміз.

«Жалпы, «Бесқала» атауына тоқталып өтер болсақ, «Бесқала» деп, қазақ халқының кең танылған өңірі Қарақалпақстанның қазіргі үш ауданы-Қоңырат, Шымбай, Шаббаз (Беруний) және осы аймаққа жақын орналасқан Хиуа (Хорезм облысына қарайды), Көне Үргеніш (Түркменстан Республикасы) шаһарлары кірген деседі, өйткені бұрын осы жерлерде үлкен сауда орталықтары болған көрінеді. Әрине, мұны анық талдап беру тарихтың еншісінде, бірақ ақын жырлап отырған өлке, бұл анық Қарақалпақстан өңірі» [2].

Бесқала өңіріне қазақтардың қоныстануы жайлы мынадай мәліметтерді де кездестіруге болады. «Қарақалпақстан өлкесіне қазақтардың қоныстануын кешегі аласапыран нәубет жылдармен байланыстырып жүргені мәлім. Ал,

Үргеніш шаһарынан жарық көрген «Хорезм тарихы» атты ғылыми еңбекте XVI ғасырдың өзінде Әму бойын, Бесқала аймағын қоныс етіп отырған қазақтардың болғанын айтады. Өткен ғасырдың басындағы нәубеттерде Ақтөбе, Орал, Маңғыстау, Қызылорда өңірлерінен ауған қазақтың біразы қырдағы жұрт «Бесқала» деп атайтын ойдағы елді паналаған» [3].

Жоғарыда аталған ақындардың көбінің лирикаларында Бесқала тақырыбын белгілі деңгейде жырға қосқанын айта аламыз. Б.Бабажанұлының Бесқала тақырыбындағы жырлары өзінің формалық ізденістерімен ерекшеленіп тұрады. Оның жырларында жыраулар поэзиясының сарыны сезіледі. Негізі Бесқала өңірі қазақтың үлкен жырауларының шыққан жері. Бұл жайлы Күнхожа Қайролланың еңбектерінде терең тарқатылып айтылып жүр. Бауыржан осы жыраулардың ұлы жолын жалғастырып жүрген ақын екендігін көрсетіп келеді. Жырларындағы ырғақ, ұйқас әдемі үйлесім тауып тұрады, жырларындағы жыраулар сарыны ақынды рифмадан біраз еркіндікке шығарып, әсерлілік күші мен қуатын нығайта түседі.

Ақынның әртүрлі басылымдарда шыққан жырларында, сондай-ақ, «Ниетқабыл» атты жинағының үшінші бөлімінде Бесқала тақырыбына ерекше орын беріліп, лирикалық қаһарманның ішкі толғаныстары, махаббаты мен мұңы әсем өріледі. Жырларындағы тарих пен тағылым да суреттерін де анық көреміз. Оның ішінде **«Бесқаладан ағылып көш келеді...»**, **«Біздің ауыл сұрасаң»** өлеңдеріне осындай үлкен сезім мен тереңдікті байқауға болады.

Жырларындағы «Бесқаладан ағылып көш келеді» өлеңінде екі мыңыншы жылдардағы буын саны, ұйқас жағынан 11 буынды, шұбыртпалы ұйқас болып келеді. Бесқаладан өз ата жұртына қайта қоныс аударуға асыққан көш жайлы айтылады. Өлең қатары төрт-бес жол, он-он бір буыннан құралған.

Бесқаладан ағылып көш келеді, (11)

Көшкен елдің көңілі бос келеді (11)

Ойлауға да зауқы жоқ ештеңені (11)

Заманының кәрінен сескенеді. (11)

Бесқаладан ағылып көш келеді. (11)

Бесқаладан ағылып көш келеді, (11)

Түсіреді осы көш еске нені? (11)

Ана жылғы аштықта бұратылып, (11)

Ата-баба осылай көшкен еді. (11)

«Біздің ауыл сұрасаң» өлеңі болса аралас буын және аралас ұйқасқа құрылады. Мысал келтірейік:

Біздің ауыл сұрасаң, Қоңыратта, (11)

Өліп-өшіп қайтейін, сені мақтап. (11)

Бар сырым тұр көзімде. (7)

Сенбейсің бе? (4)

Саған деген бәрібір көңіл аппақ, (11)

Жансусарым, (4)

Жарығым, (3)

Маңдайлы әнім, (5)

Сен деп жидым сөзімнің балқаймағын. (11)

Көз алдымнан сылаңдап күнде өтесің, (12)

Маған бұйырғаны тек таңдай қағу. (11)

Міне, мұнда Қоңырат жайлы тебірене толғанғанда буын саны түрленіп, оқушысына ерекше көңіл сыйлайды. Мұндай ұйқас түрі әдебиетте өте сирек кездеседі.

Бұл мақаламызда ақынның жалпы шығармашылығы мен поэзиясындағы Бесқала жырларының бір-екеуін ғана мысал етумен шектеліп отырмыз. Оның жырларының жанры, формалық ізденістеріндегі өзіндік стили жайлы әлі тарқата айтып, тереңірек талдау алдағы жұмыстарымыздың еншісінде.

Пайдаланылған әдебиеттер

1. «Ниетқабыл». Алғы сөзі. Ақдәулет М. (2014)
2. Смамутова Ш. А «Қарақалпақ-қазақ поэзиясындағы әдеби байланыстардың дамуы» (Қайнекей Жармағамбетов шығармашылығы және қазіргі әдеби үдерістің өзекті мәселелері атты ғылыми конференция) (2018), Алматы.
3. «Қазақстан»: Ұлттық энциклопедия / Бас редактор Ә. Нысанбаев – Алматы «Қазақ энциклопедиясы» Бас редакциясы, 1998.

OILA HUQUQIDA ALIMENT MAJBURIYATLARI

Alimuratov Bexzod Bahodir o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy axborot vositalari huquqi bo'limi
magistranti

Annotatsiya

Bugungi kunda oila mavzusiga doir masalalar barchaning e'tibor markazida. Oila – jamiyatning eng kichik bo'g'ini bo'lgani holda ajrim, aliment, mol-mulk bilan bog'liq hamma nizolar oilaviy munosabatlar tarkibiga kiradi. Kundalik hayotimizda har kuni er-xotinlar o'rtasidagi ajrimlar, bolalar uchun undirilayotgan alimentlar, mol-mulkka undiruv qaratish kabi ko'plab muammoli vaziyatlarga duch kelayotganimiz ayanchli holat, albatta. Mazkur maqolada oila huquqida aliment majburiyatlarining ayni vaqtda mamlakatimizda amalda bo'lgan huquqiy mexanizmlari va ularni rivojlantirish masalalari borasida so'z yuritiladi. Bu ishda kuzatish metodidan foydalanildi. Mazkur maqolada ilgari surilgan takliflarni qonun ijodkorligi jarayonida, qolaversa, oila huquqi amaliyotida qo'llash mumkin.

Kalit so'zlar: oila huquqi, ajrim, mol-mulk huquqi, aliment majburiyatlari.

Avvalo, “*aliment*” tushunchasining huquqiy izohini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Aliment – bu ota-onaning voyaga yetmagan, muomalaga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga, bolalarning ota-onasiga, er-xotinning, qarindoshlar va boshqa shaxslarning bir-biriga qonunga binoan beradigan ta'minoti. Zero, oilada ota-ona va bolalar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar, tabiiyki, bir-biriga yordam ko'rsatish, bir-birini qo'llab-quvvatlash, hamjihatlik hamda ixtiyoriylikka asoslangan bo'lishi lozim. Aliment majburiyatlari oila a'zolari o'rtasida sodir bo'ladi.

“*Aliment*” so'zi lotincha “*alimentum*” so'zidan olingan bo'lib – “*oziq-ovqat*”, “*nafaqa*”, “*ta'minot*”, “*boqish uchun mablag'lar*” kabi ma'nolarni bildiradi. Bir so'z bilan aytganda, alimentlar bir shaxsning ikkinchi shaxsga majburan to'laydigan

moddiy mablag‘lari hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 96-moddasiga ko‘ra, ota-ona voyaga yetmagan bolalariga to‘lar 18 yoshga to‘lgunga qadar aliment to‘lashlari shart²³. Yuqoridagi modda ota-onaning faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatangina ta‘minot berish majburiyatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘z bolalarini moddiy jihatdan ta‘minlash majburiyatini anglatadi. Aliment to‘lash majburiyati bolaning iste‘moli uchun oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, turli xil o‘yinchoqlar, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanish chog‘ida zarur bo‘ladigan buyumlar, o‘quv qurollari xarid qilish shaklida amalga oshiriladi. Voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga aliment to‘lash ota-onaning majburiyatidir. Bunday aliment oyma-oy to‘lanadi.

Oila kodeksining 100-moddasida ota-onaning voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga nisbatan tegishli majburiyatlari belgilab qo‘yilgan. Ota-ona voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga ta‘minot berishi shartdir. Voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga ta‘minot berish ota-onaning kelishuviga binoan amalga oshiriladi. Ota-ona o‘rtasida bunday kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizo sud tartibida hal qilinadi.

Oila kodeksining 108-moddasiga muvofiq, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj voyaga yetgan bolalar ota-onasidan, agar ular yo‘q bo‘lsa, qarindoshlari va Oila kodeksida ko‘rsatilgan boshqa shaxslardan o‘z ta‘minoti uchun aliment talab qilish huquqiga ega. Bunday hollarda aliment miqdori sud tomonidan aliment to‘lash shart bo‘lgan shaxsning moddiy va oilaviy ahvoli hisobga olinib, pul bilan to‘lanadigan qat‘iy summada belgilanishi mumkin.

Shuni ta‘kidlash joizki, 2013-yil 30-apreldagi “*O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida*”gi Qonuniga ko‘ra kiritilgan qo‘shimchalarga muvofiq, voyaga yetmagan bolani ota-onasidan olish va uni bolalar tarbiya muassasasiga joylashtirish to‘g‘risidagi hal qiluv qarorini chiqarishda sud ota va onaning har biridan mazkur bola foydasiga Oila kodeksining 99-moddasida belgilangan miqdorlarda alimentlar undiradi. Bunda

²³ O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi.

undirilgan alimentlar mazkur bola nomiga ochilgan bank hisob varag‘ida jamlanadi va u voyaga yetganda to‘lanadi²⁴.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 109-moddasida shunday belgilangan: *“Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o‘z ota-onasiga ta‘minot berishlari va ular to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishlari shart. Ota-onasining davlat va nodavlat muassasalari qaramog‘ida ekanligi voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarni ota-ona haqida g‘amxo‘rlik qilish va ularga moddiy yordam ko‘rsatish majburiyatidan ozod qilmaydi”*²⁵.

Ota-onaning mehnatga layoqatsizligi, qolaversa, oiladagi boshqa a‘zolarining mehnatga layoqatsizligi ularning nafaqa yoshiga yetganligi (ya‘ni ayollar 55 yoshga va erkaklar 60 yoshga yetganligi) yoxud I va II guruh nogironlari ekanligini anglatadi. Ota-onaning III guruh nogironi bo‘lganligi tibbiy mehnat ekspert komissiyasining tegishli xulosasida tavsiya etilgan ishni topa olmaganlari taqdirda, ularga o‘z bolalaridan ta‘minot olish huquqini beradi.

Oila kodeksining 112-moddasida esa *“Bolaning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomasida ota (ona) deb yozilgan shaxsdan aliment undirish to‘g‘risidagi nizo uzil-kesil hal etilgunga qadar sudya shu nizo bo‘yicha undan ushbu Kodeksda belgilangan miqdorda vaqtincha aliment undirish to‘g‘risida ajrim chiqarishi mumkin”*²⁶ deyilgan. Agar sud nikohdan ajratishda ishning ko‘rilishini keyinga qoldirib, er-xotinga yarashish uchun muddat berganda, *“Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”*gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2011-yil 20-iyul 6-sonli Qaroriga ko‘ra, Oila kodeksi 112-moddasiga muvofiq bolalar ta‘minoti uchun aliment undirish masalasini muhokama qilishga haqlidir²⁷.

Er va xotinning aliment yuzasidan huquq va majburiyatlari, ya‘ni bir-birlariga moddiy ta‘minot berish majburiyatlari mulkiy huquq va majburiyatlar turlaridandir. Bu masala bo‘yicha jinsiy holat hech qanday imtiyoz bermaydi.

²⁴ “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni

²⁵ O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi.

²⁶ O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi

²⁷ “Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2011-yil 20-iyul 6-sonli Qarori

Er-xotinlar va sobiq er-xotinlarning aliment majburiyatlari Oila kodeksi XV bobining 117-121-moddalari bilan tartibga solinadi.

Oila kodeksining 117-moddasida Er-xotinning bir-biriga ta'minot berish majburiyatlari ko'rsatib o'tilgan. Unga muvofiq *“Er-xotin bir-biriga moddiy yordam berishi shart. Bunday yordam berishdan bosh tortilgan taqdirda, yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er yoki xotin, shuningdek xotin homiladorlik davrida va o'rtada bola tug'ilgan kundan boshlab uch yil davomida, o'rtadagi nogiron bola o'n sakkiz yoshga to'lguncha yoki bolalikdan I guruh nogironi bo'lgan o'rtadagi bolaga qaragan yordamga muhtoj er (xotin) yordam berishga qodir bo'lgan xotin (er)dan sud tartibida ta'minot (aliment) olish huquqiga ega.”*

Erkak va ayol o'rtasidagi rasman qayd etilgan nikoh mavjud bo'lmagan taqdirda, bu holat (qonuniy nikoh munosabatida bo'lmaganlari sababli) ularning biriga boshqasidan tegishli moddiy yordam berishni talab qilish huquqini bermaydi. Bu qoida mutlaq tusga ega bo'lib, erkak va ayolning amalda qancha vaqt nikoh munosabatlarida bo'lganiga bog'liq bo'lmaydi.

Shuningdek, Oila kodeksining 118-moddasida Nikohdan ajralganidan keyin sobiq er (xotin)ning ta'minot olish huquqi belgilangan. Unga ko'ra:

Yetarli mablag'ga ega bo'lgan sobiq er (xotin)dan:

- sobiq xotin homiladorlik davrida va o'rtada bola tug'ilgan kundan boshlab uch yil davomida;
- o'rtadagi nogiron bola o'n sakkiz yoshga to'lguncha yoki bolalikdan I guruh nogironi bo'lgan bolaga qaragan yordamga muhtoj sobiq xotin (er);
- nikohdan ajralgunga qadar yoki nikohdan ajralgan paytdan boshlab bir yil davomida mehnatga layoqatsiz bo'lib qolgan yordamga muhtoj sobiq xotin (er);
- nikohdan ajralgan paytdan boshlab besh yil ichida pensiya yoshiga yetgan yordamga muhtoj xotin (er), agar er-xotin uzoq vaqt nikohda turishgan bo'lsa, sud tartibida aliment talab qilish huquqiga egadir.

Nikohdan ajralgandan keyin sobiq er yoki xotinga to'lanadigan aliment miqdori va uni to'lash tartibi sobiq er-xotin o'rtasidagi kelishuv bilan belgilanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, er-xotin o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar ular o‘rtasidagi mulkiy munosabatlarning barqaror bo‘lishiga, oilani mustahkamlashga xizmat qiladi. Er-xotin o‘rtasida vujudga keladigan nizolarni to‘g‘ri hal qilish alohida ahamiyatga molikdir. Bu nizolar sudlar tomonidan adolatli asosda hal qilinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. T., 1998.
2. “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. “Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2011-yil 20-iyul 6-sonli Qarori.
4. Inomjonova G.S. Ota-ona va bolalar huquqlarini himoya qilish muammolari. – T.: Adolat, 2006. –B.134.
5. Otaxo‘jaev F.M. Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi. – T.: O‘zbekiston, 1995.



“BOBURNOMA” DA QO’LLANILGAN ARABCHA LEKSIK SINONIMLAR XUSUSIYATI

Azizova Feruza Obidjon qizi

Farg’ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada “Boburnoma” da qo’llanilgan arabcha sinonimlar, ularning uslubiy xususiyatlari, Boburning sinonim qo’llash mahorati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: sinonim, sinonimlik, ma’nodosh, leksik sinonimiya, shakl va mazmun, uslubiy vosita.

Sinonim so’zlar tilning imkoniyat doirasi kengligini, lug’aviy jihatdan boyligini ko’rsatuvchi vositalardan biri hisoblanadi. Shaklan har xil bo’lib bir tushunchaning turli darajada ifodalovchi bunday so’zlar matniy bo’yoqdorlikni ta’minlovchi muhim vositalardir. O’zbek tilida sinonimlar yetarlicha tadqiq qilingan. Azim Hojiyev, Yormat Tojiyevlarning bu boradagi ishlari diqqatga sazovor¹. Akademik A.Hojiyev “Sinonimlar – talaffuzi, yozilishi har xil, birlashturuvchi ma’nosi bir xil (umumiy) bo’lgan, qo’shimcha ma’no nozikligi emotsional bo’yog’i, qo’llanilishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o’zaro farqlanadigan so’zlardir” deb ta’kidlaydi². Sinonimiya shakl va mazmun nomutanosibligini vujudga keltiruchi omillardan biri sanaladi va u tilning fonemadan yirik barcha sath birliklari uchun taalluqli bo’ladi. Sinonimiya qamrovida lug’aviy birliklarning ma’nodoshligi markaziy masala hisoblanadi. Tilning boshqa hodisalarida kuzatilgani kabi, lug’aviy birliklar sinonimiyasining o’ziga xos sistemaga aylanishida boshqa tillardan o’zlashgan lisoniy birliklarning ham sezilarli hissasi bor. Bu xususiyat o’zbek adabiy tili lug’at tarkibining o’zlashgan qatlamida begonalik belgilari so’nib, o’zbek tilining o’z so’zlari kabi singib ketgan. Masalan, kitob, kasb, maktab, muhabbat, dunyo, olam, vafo, sir, adabiyot, tabiat, hovli va hokazo lug’aviy birliklarning boshqa til

birliklari ekanligi hech kimni shubhaga solmaydi. O'zbek tilining o'zlashgan so'zlari bilan o'z so'zlari sinonimiyasida arabcha o'zlashma so'zlar bilan o'zbekcha so'zlarning sinonimiyalashuvi miqdoran salmoqli o'rin egallaydi. Ba'zi o'rinlarda sinonimiya qatoridagi komponentlar bir necha xil bo'ladi, ular o'zaro stilistik va semantik xususiyatlari bilan farqlanadi. Biz tadqiqotimizning ushbu faslida “Boburnoma” da qo'llanilgan arab tilidan o'zlashgan leksik sinonimlar xususida so'z yuritmoqchimiz. “Boburnoma” tilidagi kishini lol qoldiruvchi sinonimik boylik eng avvalo o'zbek tilining, ayniqsa, Bobur ijod qilgan eski o'zbek tilining o'zida barchasini qo'llash uchun zaruriyat tug'ilmagan, Zero, “Boburnoma” da tilning sinonimik boyligini ko'z-ko'z etish bosh maqsad qilib qo'yilgan emas. Bobur o'z maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun bu boylikdan vosita sifatida foydalangan.

Asarda sinonimiyaning barcha turlari bo'yicha misollar juda ko'p uchraydi. Ushbu tadqiqotimizda esa faqat arab tilidan o'zlashgan leksik sinonimlar haqida fikr yuritamiz. Chunki . “Tildagi mavqei, nufuziga ko'ra eng balandi va vazifasiga ko'ra eng rang-barangi leksik sinonimiya hisoblanadi”¹. “Boburnoma” asarida arab tilidan o'zlashgan sinonim so'zlar salmoqli o'rin egallaydi. Quyida ularning tahlilini ko'rib chiqamiz.

Avlod – so'zi ishtirokidagi sinonimik uya. Bir davr kishilarining naslini birlashtiruvchi ma'nosini ifodalovchi avlod so'zi **nasl** so'zi bilan bir sinonimik qatorga birlashadi. Asarda har ikkala so'zni ham uchramiz:

1. “Yana bir Boboquli Bobo Alibek edi. Shayx Ali Bahodurning **naslidin** edi”(71).

2. “Balki bu taaddi va tashaddud Xojaning **avlodig'a** siroyat qildi”(79).

Adad-miqdor. Bu so'zlar ot turkumiga mansub bo'lib, miqdor ifodalash uchun ishlatilgan:

1. “Yana hind eli **adad**ni ham xo'b tayin qilubturlar” (359).

2. “Ot va tevaadin va xayma va xirgohdin, balki jami sipohilik yarog'idin mirzog'a va mirzo bila bo'lg'onlarg'a ul **miqdor** xizmat va odamigarlik qildim”(101). Adad so'zi hozirgi paytda qaytadan iste'molga kirib, “tiraj” degan ma'noda ishlatila boshladi. Miqdor so'zi esa hozirgi tilimizda faol. Bundan

tashqari asarda miqdor ma’nosini bildiruvchi forsiy “shumor” va turkiycha “sanoq” so’zlari sinonim sifatida qo’llanilgan.

Ajab/Ajib-G’alat-Tavre. Bu so’zlarning barchasi arabiy so’zlar hisoblanadi. Bu so’zlarga ma’nodosh bo’lgan “qiziq” turkiycha so’z ham mavjud, lekin bu so’zni “Boburnoma” asarida uchratmaymiz. Bu so’zlarimiz nisbiy sinonimlar hisoblanadi. Chunki ular o’zaro barcha ma’nolari bilan mutlaq sinonimiya hosil qilmaydi. “G’alat” so’zining “xato”, “xatolik”, “yanglish” kabi ma’nolari bor. Hozirgi tilimizda ajib so’zi poetik so’z shaklida, “g’alat” kalimasi “g’alati” shaklida ishlatiladi:

1. “To’qquz tarnov suv kirar. Bu **ajab**turkim, bir yerdan ham chiqmas” (60).
2. “She’rni ham **tavre** aytur edi. “Odiliy”taxallus qilur edi” (126).
3. “Bir kuni o’rdu ichida **g’alat** g’avg’oe tushti” (233)

Ayb-Qusur-Nuqson-Noqis-Mayib. Ayb so’zining arab tilidagi bosh ma’nosi “tahqirlash” hisoblanadi. O’zbek tiliga “kamchilik”, “nuqson” ma’nosi bilan o’zlashgan, keyinchalik “qonun-qoidalarga xilof, uyatli ish, xatti-harakat” ma’nosini anglata boshlagan:

1. “Hindustonning bir ulug’ **aybi** budurkim, oqar suvi yo’qtur” (45).
2. “Qo’rada yo olotga **qusure** bor ekandur” (373).

Mutasarrif Musallit-Qobiz. Ma’nosi –hukm yurgizuvchi. Aslida bu so’zlar “bo’lmoq” yordamchi fe’li bilan kelib, fe’l tarzida ko’proq qo’llanilgan. Bu so’zlarni “Boburnoma” dan olingan misollar orqali ko’rib chiqamiz:

1. “Shohruxiyani firib bila olib, necha mahal **mutasarrif** bo’lub edi” (65).
2. “Firuzshohdin so’ng Junpur mamlakatig’a **musallit** bo’lubturlar” (340).
3. ”Men Ibrohimni bosqon fursat Qanuj va andin narigi jami viloyatlarg’a **qobiz** bo’lub, Qanujdin bir-ikki ko’ch beri kelib, o’lturub edilar” (364).

Sabr-Toqat-Tahammul. Shu so’zlarga ma’nodosh bo’lgan “bardosh” so’zi ham mavjud. Bu so’z “Boburnoma” asarida umuman uchramaydi. Bu otlar yordamchi fe’llar bilan birga kelib, fe’l sifatida ham ishlatiladi:

1. “Har ikkalasi g’amim bila **sabrimdek**, Borg’on sari bu ortadur, ul kam bo’ladur” (403). Sabr so’zi asarda faqat bir o’rinda qo’llanilgan xolos.

2. “Har kim davlatxohdur, mundin so’ng mundoq so’zlarni aytmasun, har kim **toqat** keltura olmay ketarg’a yuz qo’ysa, borg’onidin qaytmasun” (365).

3. “Bataxis, bizning ko’zumizning o’trusida bizning otimizni minib, bizning to’nimizni kiyib, bizning qo’yumizni yeb yurugaylar, munga xud kim **tahammul** qilg’ay” (122).

Zulm-Istibdod-Tashaddud-Azob. Zulm – istibdod so’zlari o’zga tomonidan bo’ladigan ezish ma’nolari bilan bir-biriga yaqindir. Istibdod so’zi kitobiy uslubga xos bo’lib, asosan u hokim sinf, tabaqa yoki davlat tomonidan bo’ladigan tazyiqqa nisbatan qo’llaniladi:

1. “Uzun Hasan va Sulton Ahmad Tanbal viloyat eliga bisyor **zulmlar** o’tkarib, yomon maosh qilib edilar” (119).

2. “Ne uchunkim, Tanbalni orqalanib manga va mening davlatxohlarimg’a jaf va **azoblar** qilur edi” (135).

Xulosa qilib aytish mumkinki, yozuvchining til mahorati uning leksik ma’nodoshlikdan foydalanishda ham kuzatiladi. Ma’nodoshlar tasvir tiniqligi, badiiy barkamollik, asosiy g’oyaga urg’u berishlikni ta’minlash maqsadida qo’llanganligi yaqqol ko’zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boburnoma. O’z FA. nashriyoti. 1960.
2. Xojiev A. Ўзбек тилида синонимларнинг изоҳли луғати. Тошкент: 1974; Тожиев Ё. Ўзбек тилида аффиксиал синонимия. Тошкент: 1992.
3. Olimov M. “Boburnoma”da qo’llangan sinonimlar lug’ati.-Toshkent: Fan, 2004.-110 b.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (arab so‘zlari va ular bilan hosilalar). Toshkent: Universitet, 2003. -599 b.
5. Языкознание. Большой энциклопедический словарь. 2-е (репринтное) издание “Лингвистического энциклопедического словаря” 1990 г. М.: “Большая Российская энциклопедия” , 1998. С. 446.

**YOSHLAR TARBIYASINING DAVLAT VA JAMIYATDA TUTGAN
MUHIM O’RNI VA AXLOQIY TARBIYANI SINGDIRISH JARAYONIDA
E’TIBORGA OLINISHI LOZIM BO’LGAN MUHIM JIHLATLAR**

Norqulov Shahzod Shuhrat o’g’li

Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya:

Ushbu maqola bugungi kunda O’zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida amalga oshirilayotgan ishlar. Yoshlarning tarbiya masalasi va tarbiya, axloqni sindirishda e’tobor qaratilishi lozim bo’lgan asosiy masalalarga to’xtalib o’tiladi.

Kalit so’zlar: yoshlar, bilim, ilmiy salohiyat, kelajak avlod, oila, zamonaviy kasb , g’oya , mafkura, g’oyaviy immunitet.

Annotation;

This article is about the work being done in Uzbekistan today in the framework of state youth policy. The issue of educating young people and education focuses on key issues that need to addresssd in breaking down morality .

Key words; youth, knowledge , scientific potential . future generation , family ,idea , ideology , ideological immunity.

Аннотация:

В данной статье речь идет о работе , проводимой сегодня в Узбекистане в рамках государственной молодежной политики . Проблема воспитания молодежи а образованию фокусируется на ключевых проблемах, которые необходимо решить для разрушения морали .

Ключевые слова: знаниие, молодост, научный потенциал, идея,семья, идеология идеологический иммунитет,

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining 20 mlnga yaqinini yosh avlod vakillari tashkil etadi. Bu esa yoshlarning qanchalik katta kuch va davlatimiz kelajagi ana shu yosh avlod vakillarining qay darajada ilmiy salohiyatga egaligi, ma'naviy barkamolligi, tashqi mafkuraviy-g'oyaviy ta'sirlarga nisbatan o'z munosabatini to'g'ri va aniq ifodalay olishi, jismoniy hamda ruhiy barkamolligi bilan o'zaro chambarchas bog'liq masala ekanligini anglatadi. Respublikamiz miqyosida olib borilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati va bu siyosat doirasidagi ishlar o'z navbatida yoshlarni aniq maqsad yo'lida birlashtirish, bo'sh vaqtini samarali tashkil etishga ularning har jihatdan salohiyatli kadrlar bo'lib yetishishlari uchun o'ziga xos zamin va asos vazifasini o'tamoqda. Ayniqsa mustaqil hayotga qadam quyayotgan yigit –qizlarning o'zlari qiziqqan munosib ish va daromad manbai bilan ta'minlash, zamonaviy kasblarni o'zgatish, tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berish uchun keng qamrovdagi chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, birgina o'tgan 2021-yil davomida yoshlarning hayotiy muammolarini hal etish uchun davlat byujetidan 300 milliard so'm mablag' ajratilganligi, ularning erkin tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun 2,3 trillion so'm imtiyozli kreditlar taqdim etilgani, yoshlarni kasbga tayyorlov kurslarining, hamda ularning ilm-fan bilan shug'ullanishlari uchun barcha sharoitlarning yaratib berilayotganligi fikrimiz isbotidir. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga yullagan Murojatnomasida takidlanganidek “Biz o'z oldimizga mamlakatimizda uchinchi renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni quygan ekanmiz buning uchun yangi Xorazmiylar, Ulug'beklar, Navoiylar va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlar yaratib bermog'imiz lozim”. Albatta, bugun biz yoshlar masalasiga e'tibor qaratar ekanmiz ulardagi axloqiy tarbiyani dastlabki o'ringa quymasdan ilojimiz yo'q. Yoshlar tarbiyasi har bir davrning o'ta dolzarb masalasi bo'lib kelgani ayni haqiqat. Muarrixlarning yozishicha, Gerodot Sharqqa qilgan safarlari chog'ida Misr ehromlaridagi bir bitikka ajablangan: «Yoshlarning tarbiyasi buzilib ketyapti. Nima qilish kerak?!» Muarrix bu yozuvni o'qiganiga ham ikki ming yildan oshib ketdi. Yozuvning bitilganiga esa, kim bilsin qancha vaqt bo'lgan? Demak, yoshlar masalasi hamisha o'z dolzarbligini

yo‘qotmagan, bunga hamma davrlarda ham turli darajada munosabat bildirilgan. Muqaddas Islom ta‘limotida ham yoshlar tarbiyasi juda muhim o‘rin tutadi. Islomning dastlabki o‘n uch yilida, ya‘ni Makka davrida Muhammad sollallohu alayhi va sallam insonlarning ongu shuuriga Allohning yakkayu yagonaligini singdirish barobarida ularga odob-axloq masalalarini o‘rgatishga alohida e‘tibor qaratganlar. Bu borada o‘z yonlariga 8–16 yoshli (Ali, Talha, Zubayr) kabi ko‘plab yoshlarni olib, avvalo, ularning ta‘lim-tarbiyasiga alohida ahamiyat berganlar. Hadisi sharifda: *“Bolalaringizga odob beringlar va odoblarini chiroyli qilinglar”*, deyilgan (*Imom Muslim rivoyati*).

Buyuk vatandoshimiz shayxurrais Abu Ali ibn Sino yosh avlod tarbiyasining ibtidosi qanday va nimalar bilan bo‘lishi haqida quyidagilarni aytgan edi: “Yosh bola boshlang‘ich ta‘lim va tilga doir qoidalarni yod olganidan keyin u mashg‘ul bo‘lishi mumkin bo‘lgan kasb-hunar va san‘atga moyilligiga qarab, uni shunga yo‘llaymiz. Agar u kotiblikni xohlasa, til, xat yozish, nutq so‘zlash va odamlar bilan muomala qilish kabilarga dalolat qilamiz. Albatta, bu o‘rinda, bolaning mayli ahamiyatga ega” (*“Islomiy tarbiya va uning falsafasi”*. Muhammad Atiya, 197-bet).

Bundan roppa-rosa bir asr oldin ma‘rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy tarbiya haqida kuyinib bunday degan: «Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga javoban: birinchi – uy tarbiyasidir. Bu Onalarning vazifasidir. Ikkinchi – maktab va madrasa tarbiyasidir. Bu Otalar, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir.

Yoshlar tarbiyasini – hayot-mamot masalasi, deb ta‘riflagan mutafakkir naqadar haq ekanini barchamiz yaxshi bilamiz. Chunki tarbiyasi mo‘rt yoshlardan jamiyat, mahalla yoki oila uchun hech qanday naf yo‘q. Yoshlarning hayotda adashishi, tuzatib bo‘lmas xatolari tarbiyada yo‘l qo‘yilgan xato yoki befarqlikning achchiq in‘ikosidir.

Bu borada olib borilgan izlanishlarning aksari shuni ko‘rsatmoqdaki, tarbiyada, avvalo, ota-onaning hissasi katta. Bejiz Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam: *“Hech bir ota-ona farzandiga go‘zal tarbiyadan ko‘ra qimmatliroq meros qoldira olmaydi”*, demagan.

Muxtasar aytganda, mamlakatimiz aholisining 64 foizini yoshlar tashkil etadi. Ularning ulg‘ayib, komil inson bo‘lishlari uchun Davlatimiz Rahbari 2021-yilni «**Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash**» yili deb e‘lon qilishi munosabati bilan butun O‘zbekistonni olqishlar tutib ketdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Har jihatdan yetuk ,yuksak ma‘naviyatli va dunyoqarashi keng bo‘lgan shaxsni tarbiyalashda albatta ta‘lim –tarbiyaning o‘rni beqiyos sanaladi .Zotan ta‘lim – tarbiya jarayoni qadim davlatchiligimiz tarixi davomida eng asosiy masala bo‘lib kelgan .„Mamun akademiyasi “ „Buxoro madrasasi”, „Ulug‘bek observatoriyasi” va bir qancha dunyoga nomi mashxur ilm va tarbiya maskanlarining aynan Turon zaminida tashkil topganligi ,yetuk ilm darg‘alarining shu hududdan yetishib chiqib,ular yaratgan ilmiy asarlar va yangiliklar tasirida keyinchalik Yevropada uyg‘onish davri boshlanganligi ham yuqoridagi fikrning qanchalik haqiqat ekanligini yorqin isboti sanaladi.

Darhaqiqat so‘ngi yillarda ta‘lim –tarbiya jarayoni samaradorligini taminlash ,fan texnika yutuqlaridan ta‘lim jarayonida unimli foydalanish o‘qitishda yangi innavatsion metodlarni qo‘llashga alohida e‘tibor qaratilganligi fikrimiz isboti bula oladi.Prezidentimiz topshiriqlari ijrosi ularoq 2020-yil 26-iyun sanasida tashkil etilgan Yoshlar ishlari agentligi aynan shu vazifalar hamda yoshlarni vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni qonuniy manfaatlarini ijtimoiy siyosiy huquqlarini himoya qilish kabi ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Albatta yoshlar tarbiyasi haqida so‘z borar ekan ularning bugungi kundagi asrlar davomida saqlanib kelgan qadriyatlarimiz va odatlarimizga zid bulgan turli mafkuralar ,zararli odatlar va „ommaviy madaniyat”ning turli xil ko‘rinishlaridan saqlash ham muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi .Bunday mafkuralar va odatlar doirasiga tushib qolgan yoshlar o‘z erkin fikridan ,ijodiy qobiliyatlaridan yiroqlashadi .Albatta bugungi texnika zammonida ma‘lumotlar oqimini butunlay cheklab quyish deyarli imkonsiz .Yoshlarni ushbu yod va zararli g‘oyalardan saqlashning eng samarali Yo‘llaridan biri bu yoshlarda ma‘naviy immunitetni shakllantirish vazifasidir .

Bunday immunitetga ega avlodni tarbiyalashda albatta oilaning roli ham beqiyosdir ,chunki farzand o'z shahsiyatini ota-ona orqali taniydi ,ular bolaning aqliy hamda karakter jihatidan rivojlanishida eng katta tasir ko'rsatuvchilardir .Undan tashqari yosh avlodning qay darajada ijtimoiylashuvi va mas'uliyatli shaxs bulib kamol topishida ham ota-onaning roli o'ta muhim .Zotan, farzand tasavvurida faqat ota-onagina yetuk shaxslar hisoblanadi .Bu jihatlar oila masalasining ham yoshlar tarbiyasida qanchalik etiborli va dolzarb masala ekanligi ,tarbiya masalasining eng avvalo ana shu bo'g'inga borib taqalishining rad etib bo'lmas isbotidir .

Umuman olganda farzand tarbiyasida davlat ,jamiyat oila ta'lim dargohlarining o'z o'rni va vazifalari mavjud. Har tomonlama yetuk ,jismonan va ruhan sog'lom yosh avlodni voyaga yetkazish bugun millatimiz oldida turgan asosiy va dolzarb masalalardan biri ekan ushbu institutlarning hamkorlikdagi harakati muhim sanaladi. Zero,ma'nan yetuk va avlodlar ruhini shod etguvchi munosib vorislarnigina yurt yuksalishi uchun o'z hissasini qo'sha oladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.Mirziyoyev . Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz . Toshkent-,,O'zbekiston “ -2017 .
2. Sh.Mirziyoyev . Asarlar . 1-jild .Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga kutaramiz. Toshkent-,,O'zbekiston “ -2017 .
3. Mavlonov A.Barkamol inson tarbiyasi .-T;O'qituvchi,1995.
4. A.Avloniy „turkey guliston yoxud axloq” .
5. A.Fitrat .,,Oila”

BUXORO AMIRLIGI SIYOSIY JARAYONLARIDA SHAHRISABZ BEKLIгинING TUTGAN O`RNI

Parmonov Sharofiddin Shavkatovich

O`zMU Tarix fakulteti Tarix (yo`nalishlar va faoliyat turi bo`yicha)

I kurs magistranti

Annotatsiya: Bu maqolada Buxoro amirlari va Shahrisabz beklari o`rtasidagi siyosiy jarayonlarni kechishi yoritilgan.

Kalit so`zlar: Buxoro amirligi, Shahrisabz bekligi , siyosiy aloqalar

Muhammad Rahim markazni boshqaruvni mustahkamlash maqsadida 1750-1752 yillar oralig`ida Shahrisabz vohasiga bir necha bor harbiy yurish uyushtirdi hamda markaziy hukumatni mavqeyini mustahkamlash maqsadida mahalliy boshqaruvga mang`it urug`i vakillarini tayinlandi.

Shahrisabz vohasini, keyin G`uzorni Qarshi viloyatidagi mang`itlar yopdamida bo`ysundirgan Muhammad Rahim ma`muriy islohotlar yordamida mamlakatda o`z hokimiyatini mustahkamlayga intildi.

Xususan, ilgari Shahrisabz viloyatiga qarashli bo`lgan Kitob tumani hududida yangi bekklik tashkil etildi. Bu jarayonlarni kuchaytirib, Yakkabog` tumani ham alohida bekklik deb e`lon qilindi va markaziy hokim sadoqatli bo`lgan Imomquli parvonachi Yakkabog` hokimi etib tayinland U ma`muriy islohotlar bilan Muhammad Rahim mang`it Sharqiy Qashqadaryodagi Buxoro hukumatiga qarshi bo`lgan siyosiy kuchlar faoliyatini ma`lum muddatga bo`lsa-da kuchsizlantirishga muvaffaq bo`ldi.

Lekin 1756 yili Buxoroda xonlik unvonini olib, taxtni rasman qo`lga kiritgan Muhammad Raxim vafotidan so`ng, 1758 yilda Shahrisabz vohasi yana Buxoroga bo`ysunmaslik yo`liga o`tdi. Shahrisabz vohasidek unumdor yerlarga ega bo`lgan hududdan ajralish amirlik iqtisodi uchun ham, mang`itlarning amirlikdagi siyosiy mavqei uchun ham katta zarar edi.

Muhammad Rahimxon vafotidan keyin taxtga o'tirgan Doniyolbiy mang'it hukmdorligi davrida (1758-1785) ham Sharqiy Qashqadaryo bekliliklaridagi mahalliy hokimlarning markaziy hukumatga bo'ysunmaslik harakatlari davom etdi. Markaziy hokimiyatda muhim lavozimlarni egallagan Doniyolbiyning o'g'illari va boshqa mang'it biylarining layoqatsizligi, xonlikda davlat hamda din ishlarida buzg'unchilik ko'paygani markaziy hokimiyatning siyosiy mavqeiga jiddiy zarar keltirdi. Natijada Shahrisabz, G'uzor va boshqa hududlarda separatik harakatlar yanada avj oladi.

Donyolbiy vafotidan keyin Buxoro taxtiga o'tirgan va xalq orasida Amiri Ma'sum ya'ni Begunoh Amir nomi bilan shuhrat qozongan Amir Shohmurot davrida (1785-1800) markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirdi. Buxoro saroy tarkibida ro'y bergan o'zgarishlar ,davlat boshqaruvi, soliq tizimi davlat xazinasidan foydalanish va boshqa muhim sohalarda olib borilgan islohotlar ijobiy natija berib 1786- yildayoq Shahrisabz vohasi yana buxoro amirligi hokimiyatini tan olishiga olib keldi.

Bu Amir Shohmurodning katta siyosiy yutuqlaridan biri hisoblanadi Amir Haydar davrida (1800-1826) Shahrisabz bekligi va Buxoro amirligi o'rtasidagi munosabatlar yana keskinlashdi. Shu davrda Shahrisabzda Niyoz Ali hokim bo'lim, garchi Buxoro amirligiga tobe bo'lsada mustaqillik uchun harakatlar qilib turgan. Oqibatda Amir Haydar Shahrisabz bekligining mustaqil siyosat yuritishi bilan murosa qilishga majbur bo'ladi.

Shahrisabz beklari Buxoro amirligiga qarshi kurashda Qo'qon xonlari bilan hamkorlik qilib kelgan. Amir Haydar Shahrisabz, Kitob va Yakkabog' bekliliklariga nisbatan siyosiy murosa yo'lini tanladi, mahalliy beklarga odatga, saroy amaldorlariga beriladigan unvonlar tortiq etildi .Masalan Yakkabog' hokimlariga Buxoroning 15 pog'onali oliy amallar ierarxiyasida 7-o'rinda turgan To'qsoba unvoni, Shahrisabz beklariga esa eng oliy Otaliq unvoni berilgan edi. Lekin Shahrisabz hokimi Donyor otaliqqa qo'qonliklar bilan bo'lgan jangda ko'rsatgan yordami uchun Shahrisabz bekligi mulk sifatida taqdim etildi. Lekin Shahrisabz bekligi va Buxoro amirligi o'rtasidagi siyosiy nizolarni butunlay bartaraf etishga Buxoro amirlari siyosiy jihatdan ojiz bo'lib keldilar. 1821-1825-yillarda Miyonqolda

bo‘lib o‘tgan xitoy qipchoqlar qo‘zg‘aloni vaqtida Shahrisabzliklar qo‘zg‘alanchilar tarafida bo‘lganligi bu siyosiy nizolarni tub ildizlari chuqur ekanligini ko‘rsatib berdi.

Buxoro amirlari ichida o‘z shafqatsizligi bilan mashxur bo‘lgan, “Qassob Amir nomi bilan tarixda qolgan Amir Nasrullo o‘z hukmronligi davrida (1826-1860) Shahrisabz vohasini qayta tobe etish uchun muntazam hujumlar uyushtirib turdi. Bu davrda Shahrisabz yaqinidagi bir nechta qishloqlarda mudofaa qo‘rg‘onlari barpo etildi va ularga Buxoro sarbozlari joylashtirildi. Shahrisabz va Kitobga uyushtirilib turiladigan hujumlarda bu qo‘rg‘onlar tayanch istehkom vazifasini bajargan. Shu sababli ham shahrisabzliklar bu qo‘rg‘onlarga tez-tez hujum qilib, ularni buzib tashlashga intilganlar .

Bu davrda Buxoro va Shahrisabz munosabatlarida harbiy omillar yetakchi o‘rin tutgani bois, Amir Nasrullohning harbiy islohotlariga qisqacha to‘xtalib o‘tish zarur.

Amir Nasrullo o‘z hokimiyatini mustahkamlash, yirik o‘zbek urug‘lari boshliqlarining siyosiy mavqeini pasaytirish uchun Buxoro amirlari orasida birinchi bo‘lib piyoda askarlardan iborat sarbozlar va to‘pchilardan iborat muntazam qo‘shin tuzdi. Qo‘shin tuzilgan dastlabki davrda sarbozlar 800 kishini, to‘pchilar esa 250 kishidan ortig‘roq bo‘lgan. Ular uchun mahsus kiyim-bosh ham joriy qilindi. Bu masalaning ahamiyatli jihati shundaki, Buxoroning muntazam qo‘shini tarkibini Xiva xonligi orqali Buxoroga keltirilgan rus va fors qullari tashkil etgan. 34 yil mamlakatni boshqarib, har yili Shahrisabz va Qo‘qon ustiga yurishlar uyushtirib turdi. “Qo‘qondan Keshgacha bo‘lgan hududlarni bo‘ysundirgan” Amir Nasrullo Buxoro amirligining oxirgi mustaqil hukmdori sifatida tarixda qoldi. Nasrullodan so‘ng 1860 yili Buxoro taxtiga uning o‘g‘li Muzaffarxon o‘tirdi. Uning hukmronligini dastlabki yillaridanoq Shahrisabz va Kitob yana mahalliy beklarning tashabbusi bilan Buxoroga bo‘ysunmaslik yo‘lini tutdi. Amir Muzaffar hokimiyat tepasiga kelgan paytda Shahrisabzda Amirbiy, Kitobda Zokirbiy hokim edi. Kitob hokimi Zokirbiy beklilikda amir siyosatini o‘tkazishga ko‘p harakat qiladi. 1865 yilda esa Hakimbiy vafot etib, uning o‘rniga Bobobek hokim bo‘ladi. Mirzo Salimbekning ma‘lumotlariga ko‘ra 1864 yili Shahrisabz va Kitob kenagaslari Amir Muzaffarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradi. Amir ikki oy davomida Shahrisabz va Kitobni qamal

qilib, ularni bo‘ysundira olmaydi va kenagaslar bilan sulh tuzib, Buxoroga qaytadi. Vohada olib borilgan harakatlar natijasida Shahrisabzda Bobobek, Kitobda Jo‘rabek hokim bo‘ladi. Shu tariqa, Shahrisabz va Kitob 1870 yilga qadar yana mustaqil boshqarib kelindi.

Amir Muzaffar hukmronligi davrida (1860-1885) Buxoro amirligining bir qismi Rossiya imperiyasi tomonidan istilo etildi. Ruslar 1868 yilda Samarqandni egallaganlaridan so‘ng Rossiya istilosiga qarshi birinchi harakat Qashqadaryo vohasida boshlandi. Buxoroda amir siyosatidan norozilik kuchaydi. Shu paytda G‘uzor begi Abdulmalik (amirning to‘ng‘ich o‘g‘li Katta To‘ra) amirga qarshi chiqadi. Unga Kitob begi Jo‘rabek va Shahrisabz begi Bobobeklar katta yordam beradi. Mirzo Salimbekning yozishicha Abdumalik To‘ra harakatiga Xudoyor To‘qsabo, Abdulla To‘qsabo va Ibroxim To‘qsabolar, Yakkabog‘ va Chiroqchi, shuningdek, Surxon vohasi va Hisordan kelgan qo‘shinlar ham qo‘shildi.

Rossiya imperiyasi istilosiga qarshi Buxoro amirligidagi eng yirik va birinchi ozodlik kurashi rahbari Abdumalik To‘ra edi. U Kitob va Shahrisabz beklari Jo‘rabek va Bobobeklar bilan birga Yakkabog‘ va Chiroqchi qo‘rg‘onlarini egallab, katta qo‘shin bilan Samarqandni qamal qiladi. Biroq Zirabuloq yonida Buxoro qo‘shinlarini tor-mor etgan ruslar Samarqandda qoldirilgan garnizonga yordamga yetib kelishga ulguradi. Bunday vaziyatda qamalning befoydaligini anglagan Abdumalik To‘ra qo‘shinlari Shahrisabzga chekinadi, uning o‘zi esa G‘uzorga qaytadi.

Qarshi, Yakkabog‘ va Chiroqchida ruslar yordami bilan Muzaffarxon hukmronligi o‘rnatildi. Shahrisabz va Kitobda esa amir va ruslarga qarshi kurash davom etib turdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Muhammadhakimxon To‘ra “Muntaxab at-tavorix” -T.: Yangi asr avlodi, 2010.
2. Mirzo Salimbek “Tarixi Salimiy” T.: Akademiya, 2009.
3. N.J.Hakimov “Shahrisabz tarixi” Toshkent, 2000.

FARG’ONA VILOYATI MEHNAT RESURLARINING SHAKLLANISHIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR

Shermatova Zilola Qahhorjon qizi

Farg’ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada Farg’ona viloyati mehnat resurslari, ularning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar, hududlarning demografik holati tadqiq etilgan.

Kalit so’zlar: mehnat resurslari, demografik holat, tug’ulish ko’rsatkichi, migratsiya, tabiiy geografik omillar, iqtisodiy-ijtimoiy omilar, sanoatlashuv, xizmat ko’rsatish.

Mamlakatda tadbirkorlik tashabbuslari va loyihalarini jadal amalga oshirishni tashkil etish, aholi bilan muloqot tizimini yo’lga qo’yish, aholi turmush darajasi va bandligini oshirish, hududlarni jadal va kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta’minlashda mahalliy ijroiya hokimiyati organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini oshirish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi “Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o‘qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4804-sonli qarori bu ishlarning uzviy davomiyligini tasdiqlaydi.

Mehnat resurslarini sotsial tahlil etishda aholi sonining o‘sib borishi, uning hududiy harakati, mehnat resurslarining sotsial-demografik tarkibini bilish muhim vazifalardan hisoblanadi [3].

Mehnat resurslarining shakllanishiga bir nechta omillar ta’sir etadi.

Tabiiy-geografik omillar. Aholi qadimdan o’zi uchun qulay hududlarda yashab kelgan. Daryolarning bo’yi qadimdan aholi bilan zich bo’lgan. Yashash noqulay hududlarda esa aholi siyrak joylashgan. Hududning iqlimi, relyefi, tabiiy geografik

o'rni aholi joylashuviga ta'sir etuvchi asosiy omilardan hissoblanadi. Mesopatamiya, Nil daryosi sohillari, Amudaryo va Sirdaryo sohillari buning yaqqol isbotidir.

Demografik omillar. Mehnat resurslaridan foydalanishning muhim mezonlaridan biri – bu aholining mehnatga faolligi, ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan mehnatga layoqatli aholining salmog'idir. Demografik jarayonlardagi, aholining jinsiy-yosh tarkibi va oilaning katta-kichikligi, aholi harakatidagi, shuningdek, mehnat malakasidagi, xo'jalik yuritish shakllari va aholining hamda aholi manzilgohlarining joylashuvidagi muhim hududiy tafovutlar millatlarning moddiy va ma'naviy madaniyati bilan chambarchas bog'liq.

Jamiyat taraqqiyoti davomida tug'ilish tarixiy davrlar va hududlar bo'yicha muntazam o'zgarib kelgan. Ko'pbolalik jamiyat davlat tomonidan ham qollab-quvatlangan. Eng awal oilada bolaning iqtisodiy roli juda katta edi. Hatto ba'zi davlatlarda, masalan, Rossiyada dehqonlarga ishlash uchun beriladigan yer ham bolalar soniga qarab taqsimlanardi. Bunday sharoitda, o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, har bir oila bolalar sonini ko'paytirishdan manfaatdor bo'lgan.

Kapitalistik ishlab chiqarish usulining vujudga kelishi bilan sanoat tez rivojlana boshladi, yangi-yangi shaharlar paydo boldi. Ko'pchilik aholi ish qidirib qishloqdan shaharga ko'chib kela boshladi. Shahar aholisining o'sib borishi natijasida bir tomondan shaharlarda turar joy, oziq-ovqat muammolari kelib chiqqan bo'lsa, ikkinchi tomondan fan texnika taraqqiy etib, ishsizlik vujudga keldi. Uchinchidan, kapitalistik ishlab chiqarishda ayollar va bolalar mehnatiga juda kam haq to'lanar edi. Jamiyatda bunday o'zgarishlar oilada bolalar sonini cheklashga, tug'ilishning qisqarishiga olib keldi.

Farg'ona viloyatida tug'ulish darajasi 2014-2018-yillar oralig'ida deyarli o'zgarmagan. Ya'ni 22 promille atrofida (1000 kishiga nisbatan). 2018-2020-yillar oralig'ida esa bu ko'rsatkich 24,6 promillega o'zgargan. 2020 yilning yanvar-mart oylarida 18,7 ming ta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), 2021 yilning mos davriga 16,9 mingta bola tug'ilgan, 2021 yilning yanvar-mart oylarida 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,0 promilleni tashkil etib, 2019 yilning mos davriga

nisbatan 1,4 promillega ortgan). Tugʻilish koeffitsiyenti 2019 yilning mos davriga nisbatan Uchkoʻpik tumani (19,5 promilledan 22,8 promillega) va Dangʻara tumani (19,8 promilledan 22,6 promillega) sezilarli oʻsgan boʻlib, deyarli barcha shahar va tumanlarda oʻsish kuzatildi. Mehnat resurslarining tadrijiy oʻsishi mehnatga layoqatli yoshga yetgan va shu kategoriyadan chiqib ketayotgan kishilar sonining nisbatiga bogʻliq. Aholi yuqori surʻatlar bilan oʻsganda va uning absolyut koʻpayishi roʻy berganda mehnatga layoqatli yoshga oʻtayotgan kishilarning miqdori har bir keyingi yilda mehnat resurslarining tabiiy kamayishidan sezilarli 92 darajada ortiq boʻladi, natijada, mehnat resurslarining soni koʻpayadi, aholi past surʻatlar bilan oʻsganda esa buning teskarisi boʻladi.

Demografiya aholining bir joydan ikkinchi joyga koʻchishi - **migratsiyasini** ham oʻrganadi.

Qayd etish lozimki, tashqi migratsiyada eng avvalo shahar aholisi qatnashadi. Binobarin, migratsiyaning salbiy oqibati ham aynan shaharlarda va, jumladan, rusiyzabon xalqlar koʻproq joylashgan sanoat markazlarida kuzatiladi [4].

Respublikada mehnat resurslarining soni koʻp, biroq ularning jami aholi tarkibidagi ulushi oz. Buning sababi tugʻilish va tabiiy koʻpayishning yuqoriligidadir. Natijada, “demografik yuk” eki mehnatga laʼqatli aholi bilan mehnatga laʼqatsizlar nisbati oʻziga xos. Masalan, agar Boltiq dengiz boʻyi davlatlarida oilada 3 kishidan 2 kishi ishlasa, bizda, aksincha, 6 kishidan 2 eki 3 kishi ishlashi mumkin, xolos. Fargʻona viloyatiga oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, koʻchib kelganlar soni 2752 kishi, koʻchib ketganlar soni esa 3398 kishiga kamaygan. 2020 yilning 3 oyi davomida migratsiya saldosining eng yuqori kamayish darajasi Oʻzbekiston tumani (minus 121 kishi) va eng yuqori oʻsish darajasi Fargʻona 276 kishi) shaharlarida qayd etildi

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarni tizimlashtirishga koʻplab tadqiqotchilar harakat qilishgan. Yetakchi omillar orasida avvalo hudud ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganligi, aholining moddiy va madaniy rivojlanganlik darajasini oshishi aytib oʻtilgan. Ishlab chiqarish kuchlari rivojlanganligi umumiy ishdan tashqari vaqt va boʻsh vaqtning oʻsishiga taʼsir etadi. Mehnat faoliyati vaqtning ortishi servis va turizm sohasini keskin oʻzgarishiga olib keladi. Bundan tashqari nafaqadagilarning va

o'quvchilarning bo'sh vaqtini ham xisobga olish lozim. Takidlash lozimki, bo'sh vaqt budjeti juda farq qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillarning tug'ilishga ta'siri har doim bir xil kechmaydi.

Tadqiq etilayotgan hududning sanoatlashish darajasi qay darajada ekanligi mehnat resurslarining shakllanishiga katta ta'sir etadi. Bunda hudud sanoatlashish darajasi yuqori holatda bo'lsa mehnat resurslariga ehtiyoj yuqori bo'ladi. Farg'ona viloyatida sanoatlashish darajasi tumanlar bo'yicha turlicha. Viloyatda eng sanoatlashgan hudud Farg'ona shahri hisoblanadi. So'ngi paytlarda Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng imkoniyatlarning yaratilishi hududning sanoatlashish darajasining o'sishiga mehnat resurslarining oshishiga sabab bo'lmoqda.

2021- yil yanvar- mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg'ona shahar (13,9 %), Qo'qon shahar (10,4 %), Marg'ilon shahar (8,6 %), Uchko'prik tumani (6,5 %), Dang'ara tumani (4,2 %), Oltiariq tumani (6,1 %), Quva tumani (4,9 %), O'zbekiston tumani (4,8 %), Buvayda tumani (4,0 %), Toshloq tumani (4,4 %), Farg'ona tumani (4,8 %), Bag'dod tumani (4,6 %), Rishton tumani (4,9 %), Qo'shtepa tumani (3,1 %), Quvasoy shahar (3,9 %), Beshariq tumani (3,4 %), Furqat tumani (2,5 %), So'x tumani (2,5 %), YOzyovon tumani (2,5 %) hissalariga to'g'ri keladi

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohalariga alohida e'tibor qaratilmoqda va ularning asosiy daromadlaridan biri shu soha bo'lib kelmoqda. Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Buvayda tumaniga (110,5 foiz) to'g'ri keldi. Viloyat bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning yuqori ulushlari Farg'ona shahri (29,7 foiz), Qo'qon shahri (12,0 foiz), Marg'ilon shahri (7,2 foiz), Buvayda (4,7 foiz) va Oltiariq (4,2 foiz) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ulushlari So'x (1,8 foiz), Yozyovon (1,6 foiz) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Xulosa. Har bir hududning mehnat resurslarini o'tganilayotganda ularning joylashuviga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish talab qilinadi. Farg'ona viloyati mehnat resurslarining joylashuviga ham yuqoridagi omillar ta'sirida shakllangan. Tadqiqot natijasida Farg'ona viloyatining So'x, Yozyovon tumanlari viloyatda sanoat

va hizmat ko'rsatish hajmining boshqa tumanlarga nisbatan pastligi aniqlandi. Eng yuqori ulushlar esa Farg'ona, Qo'qon shaharlari, Buvayda, Uchko'prik tumanlariga to'g'ri keladi. Bunga sabab aytib o'tilganidek tabiiy-geografik va iqtisodiy geografik omillardir. Bu hududlarda aholining bandligini oshirish va iqtisodiyotini yuksaltirish uchun bu hududlarda malakali ishchilarning joylashuviga qarab kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, tuman markazlarida hizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish talab etiladi. Ayollarning savodlilik darajasini oshirish, hududning imkoniyatlaridan to'la foydalanish tavsiya etiladi. Chunki Farg'ona viloyatining aholi bandligi bo'yicha imkoniyatlari yetarli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2020-yil 1-maydagi PQ-4702-sonli “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida” gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi “Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4804-sonli qarori
3. N.K.Komilova Sh.Z.Jumaxanov F.T.Rajabov: Inson geografiyasi. Toshkent «Universitet» 2018 .91-b
4. A.Soliyev: O'zbekiston iqtisodiy –ijtimoiy geografiyasi. Toshkent – 2014 . 31-b
5. Abdullaev U. Valixonova G: Farg'ona vodiysi aholisi: Etnik tarkibining shakllanishi va etnomadaniy munosabatlar tarixi. T.:, Navroz, 2016.
6. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz/>

OMON MATJON SHE'RIYATIDA BERUNIY DAHOSI TALQINI

Gulruksor Ollaberganova

Xorazm viloyati Urganch tumani 14-son maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Ollaberganov Og'abek

Xorazm viloyati Urganch tumani 14-son maktab chet tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Omon Matjonning “On uchinchi eshik” sheri poetik tahlil asosi qilib olingan bo'lib, unda Abu Rayhon Beruniyning dahosini ochqichlashda shoirning o'ziga xos ifoda uslubi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Omon Matjon, “On uchinchi eshik”, Beruniy, Mahmud G'aznaviy “Baytul hikma”

O'zbekiston xalq shoiri Omon Matjon o'zbek she'riyatining zabardast ijodkorlaridan biri. Nazm ixlosmandlari e'tibor qilgan bo'lsalar, shoir ijodida tarixiy mavzu asosiy o'rin egallaydi. “Pahlavon Mahmud”, “Beruniy” kabi tarixiy dramatik dostonlaridan tashqari, bir qator she'rlari bilan ham tarixiy siymolarni, o'tmish voqealarini jonlantiradi. Shunday she'riyat namunalari biri “O'n uchinchi eshik” she'ridir.

Omon Matjon bu she'rda o'zbek allomasi Abu Rayhon Beruniy timsolini yaratadi. Tarixdan ma'lumki, Sulton Maxmud G'aznaviy 1017-yilda Ko'hna Urganchni bosib olganidan keyin, 1004-yilda barpo etilgan “Baytul hikma”ni olimlari, ilmiy xazinasi bilan G'aznaga ko'chirib ketadi. Bular orasida donishmand olim Abu Rayhon Beruniy ham bor edi.

“O'n uchinchi eshik” she'rida G'aznaviy saroyi va sulton G'aznaviy shunday tasvirlanadi:

G'azna uzra bo'y cho'zmishdi bot
Haybatli va qo'rqinchli saroy.
Bunday shiddat, bunday mahobat
Bag'dodda ham yo'qdir hoynahoy!

Ichkarisi vahm bir dunyo,
O'n ikkita eshigi bordir,
O'rtada taxt...G'azabnok siymo...
Tegrasida o'n ikki qandil...

Bosqinlardan charchagan, zulmlardan lazzat topa olmagan G'aznaviy yangi shumliklar o'ylaydi. “Dushmanlar hamisha nasablarga ta'na qilishga, nomuslarni yerga urishga urinadilar”, -degan edi Abu Rayhon Beruniy o'z hikmatlarida. Bu hikmatga isbot bo'lgulik voqeani shoir go'zal tarzda ifodalaydi.

O'n ikki eshikli, o'n ikki qandilli saroyda o'tirgan g'azabkor sulton xorazmlik olim Abu Rayhon ustidan kulmoq istaydi va uni oldiga chorlab, o'n ikki eshikning qay biridan chiqib ketajagini topishini buyuradi.

Bazo'r tutgan o'ljasini ham
O'ynab yemoq odat mushukka.
Shohlarning ham ko'ngli, yo egam,
Moyil ekan shunday “qo'shiq”qa!
Yaqinlarin to'pladi Sulton,
Beruniyni kuta boshladi.

Shoir go'zal tashbehtar, xalqona iboralar bilan ikki tarixiy siymo qiyofasiga nozik chizgilar beradi. Bosqinchi sulton Maxmud G'aznaviyni ovsar deb bo'lmasdi. Lekin doimo vazir Hasan riyolariga “qul” bo'lardi. Bu ermakni ham sultonga vazir Hasan eslatdi.

O'ylab boqsang ba'zan kishiga
Hayrat solar o'tmishda bir hol.
Hukmdorlar hamma ishiga
Ahmoqlarga ochdirdilar fol.

Omon Matjon Beruniy siymosini shunday tasvir etadi:

Ana turar u – toza xilqat,
Ko'zlarida ko'kday tubsizlik.

Chehrasida porlar beshafqat
Qat’iy sabot, mujassam o’zlik

Beruniy dahosi, zakosi qarshisida sultonning qattol yuragi zir titradi.
Sezdirmaslik ushun qah-qah urib, savol tashladi:

“Xo’sh!” –deb yana turdi o’rnidan.

“Neni hayol etishimni ayt!

Eshiklarning qaysi biridan

Hozir chiqib ketishimni ayt!”

Shoir ikki siymo nigohlari to’qnash kelishini chinakam poetik mahorat bilan tasvirlaydi. Ikki siymo, ikki xil nigoh. Suv va olov to’qnashuvi. Tun va tong to’qnashuvi. Jaholat va ziyo to’qnashuvi. Betakror Omon Matjonga xos ifoda uslubi kitobxonni hayratga soladi.

Va shu lahza to’qnashdi birrov

Ikki siymo - ikki xil nigoh.

To’qnashganday suv bilan olov,

To’qnashganday o’pqn bilan tog’.

Balki osmon bo’lgandir talash,
To’qnashgandir unda tun va tong.
Shu o’tlug’ zum, shu olov qarash
Lekin mangu etadi davom...

Abu Rayhon qog’oz- qalam olib, yozdi va indamay yozuvni sultonga uzatdi. Sulton g’olib nazar, nopisandlik bilan qog’ozni olib, ayonlariga o’n uchinchi eshikni ochtirdi va g’olibona yirish bilan chiqib ketdi. Qaytib kelib, vaziriga xatni o’qishni buyuradi. Beruniy qog’ozga mana shunday yozgan edi:

Kimning agar bor taxt-u toji
Kuch-qudrati tag'in ustuvor, -
Qay tomonga yuz bursa – hajdir,
Qay tomonga shahd etsa – yo'l bor!

Sultonning mag'lub bo'lgan holatini shoir tasvirlamaydi. Kitobxon hukmiga havola etadi.

Betakror iste'dod mahsuli bo'lmish ushbu she'r she'riyat muxlislariga tarixiy ma'lumot berish bilan birga estetik zavq, ma'rifiy, ma'naviy tarbiya baxsh eta olishi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Omon Matjon “Yonayotgan daraxt” Toshkent 1976-yil.
2. Omon Matjon “Ming bir yog'du” Adabiyot va sanat nashiryoti 1989-yil



**TEACHING MIDDLE-SCHOOL-AGED STUDENTS ENGLISH IN EFL
CLASSES VIA IMPLEMENTING CRITICAL THINKING STRATEGIES
EFFECTIVELY**

Qurbanova Shahloxon Botir qizi

Uzbekistan State World Languages University

Abstract. The pace of our lives in which we are trying to survive has already prompted us, everybody in the planet to continue contemplating both critically and creatively. The very new aspects of today such as logistics, analytics, the field of nanotechnology, biochemistry, biometry and so on trigger every human being partake in some kind of lifelong processes and find their places in their societies presenting their own masterpieces to the millions of high-profiled employees. In this way, if the most basic fundamental knowledge is still lacking, it is natural for us to step back from our career ladders. Organizing and developing critical thinking skills in early primary school years of the students while teaching English conspires them to come up with new ideas and collaborate with their foreign peers at ease through mastering their language learning aptitudes at the same time. This paper focuses directly on to the importance of critical thinking and IQ of the students by making use of different kinds of brain activities; analyzing famous theorists' researchers in this area; differences between teaching English in Uzbekistan and Finland; and my conclusive results which I have gotten from the English teaching phases at school N04 during my practicum period in Fergana city. I hope it will benefit all the specialists working and carrying their professions on in this field of study.

Key words: critical thinking in primary and secondary education, Bloom's taxonomy, communication skills.

Introduction. The introduction part of this researched scientific article gives definitions to the word of “Critical thinking” and explains why we need it in the

English language teaching atmosphere. According to Halpern, critical thinking refers to higher levels of thinking that learners need to enable them to think effectively and rationally about what they want to do and what they believe is the best action. Thinking critically is effortful and consists of skills such as identifying links between ideas, analyzing and evaluating arguments and undertaking reasoning, in order to come to appropriate conclusions. Critical thinking is a valued skill: whether you are deciding which courses to take or career to pursue, what toothpaste to use or what stocks to buy, which candidate to vote for or which cause to support, which reports to believe or what claims to reject, critical thinking can be very useful. Why do we need it while teaching students English? As we know very well, English is the universal language and it is not enough for a person to know the outer part of this language like its grammar, sentence structure and lexicology. In order to speak fluently in this language, one has to think like a real Englishman so as to communicate and collaborate with the foreign community both locally and globally. That is why, every foreign language teacher should immerse their students in authentic brain-stormed English context wholeheartedly. The scientists have identified three Core Areas within Critical Thinking: Within these Core Areas they break things down further, defining the Components that make up each core Area:

- Understanding and analyzing thoughts and arguments refers to a learner's ability to identify and analyze information in order to recognize patterns and relationships. This helps students to gain a deeper understanding of ideas and arguments, as well as to interpret and draw inferences about the information they are presented with.
- Evaluating ideas and arguments is related to a learner's ability to judge which opinions or ideas they can rely on and which they should be skeptical about. This contains evaluating evidence presented in an argument, as well as the argument's overall logic. Becoming skilled at this competency helps learners draw appropriate conclusions and construct strong arguments themselves.

- Explaining problems and making decisions involves many skills such as identifying and analyzing problems, gathering appropriate information, evaluating a range of options, making decisions about which possibilities to implement and finally, evaluating those decisions to further refine solutions.

Literature review. Shaila and Trudell state that the ability to think critically is especially important for students living in a country with political and socioeconomic problems, for it will help them to look at issues from different viewpoints and become independent thinkers and responsible citizens “While we are teaching English, we teach different kinds of texts such as essays, poems, stories, memoirs, biographies, dramas, novels, etc. In order to teach these discourses, we can very wisely utilize critical thinking strategies, which can help us shift our activities from teacher centered to student centered. These strategies can help us divide texts into various pieces and analyze each piece with some criteria or standards. If we apply ABC framework with suitable strategies, we are sure to ‘improve today and create a better tomorrow’ Chapman (2007). Raymond S. Nickerson (1987) provides us with a whole list of capabilities and attitudes which characterize the individual who thinks critically. This individual is someone who:

- organize thoughts and articulates them concisely and coherently;
- suspends judgment in the absence of sufficient evidence to support a decision;
- attempts to anticipate the probable consequences of alternative actions;
- can learn independently and has an abiding interest in doing so;
- applies problem-solving techniques in domains other than those in which learned, to name just a few [3, c.289]. There is an inclination among teachers, students and people in general, to believe that there is only one type of learning, namely, the one which relies on cognitive activity”.

Indeed, reasoning as a mental process is crucial in learning, but this simplistic way of addressing such a complex phenomenon as human learning fails to recognize the role of emotions and attitudes in learning identified and emphasized by Benjamin Bloom in his Taxonomy of educational objectives: the classification of educational goals

published in 1956. The cognitive domain "involves knowledge and the progress of intellectual skills. This includes the recollection or recognition of specific facts, procedural designs, and concepts that serve in the development of intellectual abilities and skills." The affective domain "includes the manner in which we deal with things emotionally, such as feelings, values, appreciation, enthusiasms, motivations, and attitudes" [1, c.208] (Bloom).

Results and discussions. While I was doing my practicum in school N04 in Fergana city when it was the month of September, I entered 7th and 8th classes mostly. I found out some problems connected with their thinking and speaking abilities in English. Many of them could not express themselves properly in English and found it difficult to apply some kind of answers to the cases handed by the teachers. The problems faced by them were as follows: (1) parents' educational background, (2) respect of elders, (3) fear of children's independency, (4) authoritative learning environment in previous life, (5) weak English language foundations, (6) fear of confrontation, (7) passive learning environment in childhood, (8) lack of critical thinking awareness, (9) lack of valuing critical thinking, (10) lack of understanding of the concept of critical thinking, (11) differences of academic requirements between native and nonnative context, (12) insufficient English language abilities. I also listed factors that affected the promotion of critical thinking and related them to the students' previous learning history. These were: (1) lack of critical thinking encouragement, (2) lack of the modelling of critical thinking, (3) poor methods of teaching writing, (4) unqualified teachers in English as a foreign language, (5) poor English language curriculum, (5) lack of questioning habits, (6) lack of debates and discussions. Thus, how to overcome those barricades in front of the students?

Suggestions for classroom practice

The ideas presented here are intended as a general indication of the types of activity that might develop this competency in the classroom, and are not a definitive list.

GENERAL SUGGESTIONS

Regardless of the age of learners, at the heart of critical thinking is the view of asking questions. Learners should be invigorated to continually question the information they receive and the conclusions they come to. The teacher should push learners to deeper critical thinking by asking them questions, such as:

- Why is that your answer?
- How did you come to that answer?
- Do you think there could be another answer?

Teachers should sincerely listen to learners when taking feedback and respond accordingly, by properly evaluating their ideas and arguments. In so doing, they show their learners that they too are critical thinkers (i.e. act as an effective model). Learners at this age are inspired by topics and activities that are relevant to them or that interest them. It is therefore important to personalize the learning. Teachers should try to link course book materials to learners’ actual lives, or to their educational institution. If what they are learning in the classroom really means something to the learners, or if they are more familiar with the subject matter, they are far more likely to be able to understand the concepts and make links between ideas. The following are some classroom activities and strategies that teachers can use to promote the development of critical thinking skills:

Flipping the learning. Learners may benefit from flipping the learning. Learners (especially higher-level learners) can be given more responsibility and opportunity to develop the core ‘knowledge’ outside of classroom time (e.g. for homework). This will help them to synthesize ideas and information. It will also mean that time in the classroom can be maximized for aspects of language acquisition which learners are less able to do by themselves, for example arguing, discussing, comparing, challenging and debating.

Exploiting productive activities. Productive activities (i.e. involving speaking and writing) are good opportunities to develop critical thinking. For example, when teaching writing, a teacher could set the same essay question for the whole class, then take the learners through the following steps:

- 1) Student A writes the first paragraph, and then passes it on to Student B.

2) Student B must read this paragraph and continue the writing.

3) After a few minutes, this is passed on to Student C, who continues the process.

At every stage, learners are having to synthesize ideas and information as well as evaluate ideas, arguments and options. This can be a very effective and controlled method for developing writing, particularly for learners who are nervous about the idea of writing a long text by themselves.

The snowball technique

This is an effective way to take feedback from a whole class and get learners listening to each other. This is usually done after an individual task in which learners have come up with their own answers.

Then, after getting into pairs, learners follow these steps:

1. Students A and B compare their answers, and agree on one they are both happy with.
2. Students A and B share their answers with C and D (and vice versa), and repeat step 1.
3. Step 1 repeats with the group size doubling each time, until it gets to the whole class level.

Exercise examples:

PAIR WORK: THINK CRITICALLY . Who do you think made a stronger case, the affirmative side (Kamol)

or the opposition (Laylo)? Why? What was the strongest point in their argument?

D. We liked Laylo’s argument, but her point about service dogs wasn’t relevant. The topic is about pets.

E . Think about your culture and its attitude towards dogs. What is their role in society?

Do you agree with that role? Why or why not? For ideas, watch Aisha’s video.

Final remarks: Several proven examples given above are considered the examples that use project-based learning and problem-based learning to promote critical thinking skills. Teachers can use daily situations to promote their students’ critical thinking skills. Preventing from easily give the solutions, and ask the students

to think of the problem, teachers will develop critical thinking skills such as probing and asking students to provide justification during observing, questioning, exploring, and associating activities, enabling students to develop their critical thinking skills. Teachers should utilize any chance to help their students develop critical thinking of their students.

References:

1. <file:///C:/Users/Win10Pro/Downloads/CRITICALTHINKINGFINALInternationalSeminarUNISMUHMakasarApril122014.pdf>.
2. the Cambridge Life Competencies Framework at cambridge.org/clcf
3. https://www.researchgate.net/publication/287150271_British_Universities_International_Students'_Alleged_Lack_of_Critical_Thinking/link/56b394f608ae1f8aa4534f98/download.
4. <https://neltachoutari.wordpress.com/2011/11/01/critical-thinking-in-esl-classrooms/>.



ЁШЛАР ОНГИДА ИННОВАЦИОН ФИКРЛАШНИ УЙЎОТИШ УСУЛЛАРИ

Рўзимуродов Бехрўз Исматуллоевич

Термиз муҳандислик-технология институти Кимёвий технология таълим
йўналиши 3 курс 10-19 гуруҳ талабаси

bexruzbekhruz@gmail.com

Жавгашев Йигитали Жура угли

Термиз муҳандислик-технология институти Кимёвий технология таълим
йўналиши 3 курс 10-19 гуруҳ талабаси

yigitalijurayevich3@gmail.com

Аннотация

Ушбу мақолада “Учинчи ренессанс” даврига пойдевор қуриш даврида ёшлар онгида инновацион фикрлашни уйғотиш бўйича бир қатор таклифлар изоҳланади. Хусусан, олий таълим муассасалари талабаларининг инновацион ғояларини маълум миқдордаги маблағлар билан рағбатлантириш ва ушбу ғояларни Startup лойиҳаларга айлантириш механизми баён этилган.

Калит сўзлар: ренессанс даври, инновация, мотивация.

Аннотация

В данной статье разъясняется ряд предложений по пробуждению инновационного мышления в сознании молодежи в период строительства основ «Третьего Возрождения». В частности, описан механизм стимулирования инновационных идей студентов высших учебных заведений с определенным объемом средств и конвертации этих идей в Startup-проекты.

Ключевые слова: ренессанс, инновации, мотивация.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев 2020 йил 30 сентябрь “1 Октябрь Устозлар ва мураббийлар куни” байрамига бағишланган тадбирда “Учинчи ренессанс” даврига пойдевор қўйиш вақти келганлигини

билдириб, куйидаги сўзларни айтганди: “Ҳаммангизга яхши маълум, антик даврда Юнонистонда ёнган илм машъаласи тўққизинчи – ўн иккинчи асрларда Марказий Осиё ҳудудида қайта порлади. Бу даврда юртимиз ҳудудида биринчи Ренессанс юзага келди ва у бутун дунё тан оладиган машҳур даҳоларни етиштириб берди. Хусусан, Муҳаммад Хоразмий, Аҳмад Фарғоний, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино, Маҳмуд Замаҳшарий сингари ўнлаб буюк алломаларимизнинг жаҳоншумул илмий-ижодий кашфиётлари умумбашарият тараққиёти ривожига бекиёс таъсир кўрсатди. “Ислом маданиятининг олтин асри” деб эътироф этиладиган бу даврда она заминимиздан етишиб чиққан Имом Бухорий, Имом Термизий, Имом Мотуридий, Бурҳониддин Марғиноний, Абул Муъин Насафий каби улуғ уламолар бутун мусулмон оламининг фахру ифтихори ва чексиз ғурури ҳисобланади. Ўн бешинчи асрда Соҳибқирон Амир Темур бобомиз асос солган ва унинг муносиб авлодлари давом эттирган мухташам салтанат, юртимизда иккинчи Уйғониш, яъни иккинчи Ренессанс даврини бошлаб берди. Бу даврда Қозизода Румий, Мирзо Улуғбек, Ғиёсиддин Коший, Али Қушчи сингари беназир олимлар, Лутфий, Саккокий, Ҳофиз Хоразмий, Абдурахмон Жомий, Алишер Навоий, Бобур Мирзо каби мумтоз шоир ва мутафаккирлар майдонга чикди. Шарафиддин Али Яздий, Мирхонд, Хондамир каби тарихчилар, Маҳмуд Музаҳҳиб, Камолиддин Беҳзод сингари мусаввирлар, кўплаб хаттот ва созандалар, мусиқашунос ва меъморларнинг шуҳрати дунёга ёйилди. Донишманд халқимиз ҳар икки Ренессанс даврида жаҳоннинг энг илғор, тараққий этган халқлари қаторида бўлгани барчамизга улкан ғурур ва ифтихор бағишлайди” [1].

Учинчи ренессанс даврига пойдевор қўйишда ишни дастлаб боғчадан бошлаш керак, деб ўйлайман. Боғча тарбияланувчилари 2-6 ёшда бўлиб, тарбиячи ўргатган барча нарсаларни тез илғаб олади ва улардан камида 50 % ини бутун умрга хотирасида сақлайди. Шунинг учун ушбу ёшда инновацион фикрлашни уйғотиш учун рационализаторлик, конструкторлик, ижодкорлик ва инновацион фикрловчи болажонларни психологик тестлар орқали аниқлаб олиш, гуруҳларга ажратиш ва уларга турли инновацион ўйинлардан иборат 15 -

30 дақиқалик дарслар ўтилиши керак. Масалан, турли қоғоз бўлақларидан ўйинчоқлар яшаш, “Lego” ўйини бўлақларидан турли шакллар ҳосил қилиш ва ҳоказо. Шунингдек, боғча тарбиячилари болажонларнинг дунёни билиш учун берадиган барча саволларига уларнинг инновацион фикрлашини ўстирадиган ҳолда жавоб беришлари керак. Демак, боғча тарбиячиларини танлаб олишда уларнинг новаторлик қобилиятини ҳам ҳисобга олиш керак бўлар экан. Боғчада маълум бир кўникмаларни эгаллаган болажонларни мактабга қабул қилишда сўровнома шаклида у қандай қобилиятга эга эканлиги психологлар томонидан аниқлаб олинishi ва уни мактабда 11 йил давомида ўқитишнинг айнан “инновацион фикрлашини ривожлантириш” бўйича режа тузиб олинishi ҳамда ушбу режа асосида мактабнинг Таълим технологияси фани ўқитувчилари ўқитиб боришлари керак. Ҳар ўқув йилининг охирида мактабларда синфлар бўйича “Инновацион ғоялар” танлови ташкил этилиб, иқтидорли ўқувчиларни рағбатлантириб бориш шарт. Зеро болаларни рағбатлантириш орқали инновацион фикрлаш бўйича кучли мотивация бериш мумкин бўлади. Мактабда дарсдан кейинги ташкил этиладиган тўғарак, кружок ва факультатив дарсларни тубдан ислоҳ қилиш керак. Бу тўғаракларни номига ташкил этиш эмас, балки мактаб директори жамғармаси ҳисобидан тўғаракда фаол бўлган ўқувчиларга махсус стипендиялар (энг яхши ихтирочи, энг яхши ғоя муаллифи, энг яхши новатор конструктор, энг яхши авиамоделчи ва ҳоказо) ташкил этилиши, тўғарак раҳбарларига керак бўлса, натижаларига қараб 100 % гача устама ҳақ берилиши зарур бўлади. Мактабларда баъзи фанларни қисқартириб, асосий урғуни аниқ фанларга бериш, кунлик дарс соатларини 5 соатдан оширмасдан, қолган вақтда айнан инновацион фикрлашни уйғотадиган турли тадбирлар ва тўғараклар ташкил этилиши, ҳудуддаги IT паркларга саёҳатлар уюштириш, илғор ихтирочи олимлар билан учрашувлар ташкил этилиши мақсадга мувофиқ бўларди. Энди боғчада бирламчи инновацион фикрлашни шакллантирган болажонлар мактабда бу фикрлашларини ривожлантириб, ўзининг ғоясини амалиётга жорий қилиш бўйича изланиш ва меҳнат қилишга ўргатилса, ўқувчи олий таълим муассасасига кирганда Startup лойиҳалар орқали

Ўз инновацион ғояларини амалиётга жорий қилиши осон бўлади. ОТМ ларида илмий ва инновацион ишлар бўлими томонидан талабаларнинг инновацион ғояларини доимий рағбатлантириб бориш механизмини йўлга қўйиш лозим. Японияда ҳар бир ҳудудда инновацион ғояларни қабул қилиш нуқталари ташкил этилган бўлиб, ўз инновацион ғоясини топширган фуқароларга маълум миқдорда пул маблағи берилар экан. Бериладиган пул маблағлари ғоянинг қай даражада мукамаллигига қаралмасдан, бир хил миқдорда берилади. Энди ушбу ғояларнинг ичидан экспертизадан ўтган, амалиётга жорий қилишга яроқли деб топилганлари ажратилиб, ғоя эгаси номига патентлаштирилади, ишлаб чиқаришга жорий этилади ва ишлаб чиқариш тўхтатилгунча, яъни ушбу ғоя эскиргунча, ғоя эгаси доимий маълум фоизда маблағ билан таъминланади [2]. Агар ҳар бир олий таълим муассасасида илмий ишланмалар, ғоялар, рационализаторлик таклифларини қабул қилиш бўлимлари ташкил этилиб, уларда ғоя муаллифларини доимий рағбатлантирилиб борилса, қабул қилинган ғояларни ичидан танлаб олинганларини амалиётга жорий этиш (танлов, стартап, амалий ва инновацион лойиҳалар шаклида) ишларига кўмаклашилса, бунинг учун шароит (лаборатория, устахона, компьютер технологиялари) яратилса, учинчи ренессанс даврига президентимиз айтганларидек, пойдевор қўйган бўламиз. Бу эса яқин 5-10 йилда ўз самарасини беради ва давлатимиз истиқболида ёшларнинг асосий куч эканлигини яна бир бор исботлайди.

Ёшларимиз ичида инновацион фикловчилари жуда кўп, лекин бу ёшларни танлаб олиш, уларга ғояларини амалга оширишда шароит ва йўл-йўриқ кўрсатиб берадиган устозлар бел боғласа, юртимиз равнақи бунданда ортган, Учинчи ренессанс даврини албатта амалга оширган бўлар эдик.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 30 сентябрь “1-октябрь Устозлар ва мураббийлар куни” га бағишланган тадбирдаги нутқи. “Халқ сўзи” газетасининг 2020 йил 1 октябрь сони.
2. Мартынов Д.В., Смольникова И.А. Федеральные электронные общеобразовательные ресурсы –основа дальнейшего творчества. -М.: РГСУ, 2006, т.2.11.
3. www.lex.uz
4. <https://ziyonet.uz>
5. <https://arxiv.uz>
6. <https://forum.ziyouz.com>
7. <https://referat.uz>



EMOTSIONAL HOLATLARNING NAMOYON BO‘LISH JIHATLARI

Salimova Marjona Salomovna

Termiz Davlat Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Amaliy Psixologiya yo‘nalishi
2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hissiyot va emotsiya, emotsional holatlar, ularning turlari, stress va affektning namoyon bo‘lishi, kechishi, shuningdek optimizm-pessimizm darajasini o‘rganish borasidagi tadqiqot haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Emotsiya, hissiyot, affekt, stress, patologiya, optimizm, pessimizm, ruhiyat.

Insonlar jamiyatda shaxslararo munosabatlarga kirishar ekan, avvalo bir-birlarida qoldirayotgan taassurotlari muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda emotsional holatlar va his tuyg‘ular ishtirok etadi.

Bugungi kunda, globallashib tobora shiddat bilan oldinga odimlayotgan, axborot oqimi kun sayin ko‘payib borayotgan jamiyatda faoliyat yuritar ekanmiz turli xildagi emotsional, hissiy holatlarning vujudga kelishi yanada tezlashmoqda. Ayniqsa shaxslararo munosabatda bu masala tobora kun tartibiga chiqadi.

Avvalo shuni unutmaslik kerakki o‘zi emotsiya nima? Hissiyot qanday namoyon bo‘ladi? Hissiyot va emotsiyaning farqli jihatlari bormi? Emotsiyaning turlari qanday va holatlarda namoyon bo‘ladi?...

Hissiyot borliqqa, turmushga, shaxslararo munosabatga nisbatan shaxsning sub‘yeektiv kechinmalarining aks ettirilishidir[1]. Emotsional holatlar esa hissiy kechinmalarning o‘ziga xos xususiyatli shakllaridan biridir. Hissiyot yuksak insoniy tuyg‘ularni mujassamlashtirgan bo‘lib, vatanparvarlik, insoniylik, ota-onaga, yorga bo‘lga chuqur hissiy kechinmalarni o‘z ichiga oladi. Emotsiyani esa, tashqi ifodalarga ega bo‘lgan, aniq yo‘naltirilgan xatti-harakatlar ko‘rsatish, ichki tuyg‘ularni namoyon

etish kanali desak ham bo‘ladi. Shuningdek hissiyot-ijtimoiy, emotsiya-xususiy ahamiyatga ega.

Yuqorida keltirilganidek bugungi kunda har qadamda hissiy, emotsional holatlarga duch kelishimiz mumkin. Kundalik hayotda, deyarli har kuni duch keladigan holatimiz- bu stressdir. Stressning mazmun-mohiyatiga yetib borgan, bormagan har kim, har kuni bu so‘zni ishlatadi yoki duch keladi.

Stress inglizchadan tarjima qilinganda jiddiylik, keskinlik, zo‘riqish degan ma’nomalarni ifodalab, organizmning tashqi va ichki ta’sirlar natijasida haddan ortiq zo‘riqishi bilan kechadigan, ham fiziologik, ham psixologik holatdir. Bu tushunchani psixologiya faniga kanadalik olim, fiziolog Gan Selye (1936) olib kirgan va ekstremal sharoitlarda xulq-atvorda yuz berishi mumkin bo‘lgan stresslarni o‘rgangan.

Yillar davomida turli tadqiqotlar va izlanishlar, stressni faqatgina salbiy holat bo‘libgina qolmay, ijobiy xususiyatlari ham borligini ko‘rsatdi. Stress organizmda adaptatsion va immunitet vazifasini ham o‘tab berishi isbotlandi. Shuningdek stress kechishiga ko‘ra ikki, destruktiv (buzg‘unchi, vayron qiluvchi, yemiruvchi emotsional hissiy holat) va konstruktiv (quruvchi, barpo etuvchi ijobiylik bag‘ishlovchi hissiy emotsional holat) turga bo‘linadi.

Bugungi kunda psixologlar tomonidan stressni yengillashtirish va oldini olish uchun turli tavsiyalar va ishlanmalar taqdim etib borilmoqda. Eng ommalashgan va samarali usullar quyidagicha:

- 678 chuqur nafas olib chiqarish mashqi. 6 soniya nafas olinadi, 7 soniya tutib turiladi va 8 soniya davomida sekin nafas chiqariladi;
- Issiq choy yoki qahva ichish;
- Negativ insonlardan uzoq bo‘lish;
- Vaqti kelganida yo‘q deya olishni ham bilish;
- Ochiq havoda, tabiat qo‘ynida sayr qilish, ko‘proq vaqt o‘tkazish;
- Iloji boricha mobil qurilmalardan uzoq bo‘lish va uning o‘rniga kitob mutoala qilish;

- Har xil axborotlardan uzoq bo‘lish va keraklilarinigina qabul qilish;
- Meyorini oshirmagan holda shirinlik iste‘mol qilish
- Yana bir eng samarali usullardan biri- bu yostiq mushtlash. Bu narsa bor negativ o‘y-fikrlarni bartaraf etishga ham yordam beradi.

Bu kabi usullar bugungi axborot asrida stressni yengillatishi tajribalarda ko‘rib kelinmoqda.

Ko‘p uchraydigan yana bir emotsional holat turi bu affektdir.

Affekt-bu insonni bo‘rondek qurshab oluvchi emotsional hissiy holat bo‘lib, qisqa muddatli davom etadi. Adabiyotlarda keltirilishicha affekt odatda 2 daqiqadan oshmaydi. U ikki xil tarzda kechadi-patologik va fiziologik. Fiziologik affekt har qanday shaxs bilan kechishi mumkin bo‘lgan jarayon va bu qisqa muddatli portlashda inson xulq-atvori izdan chiqsa ham, keyinchalik shaxs holatni nazoratga ola biladi, affektiv holatdagi kechinmalarini eslay oladi. Patologik affekt esa, asosan bosh miya patologiyalarida va ruhiy buzilishni boshdan kechirayotgan insonlar bilan yuz beradi va yuzaga kelayotgan jarayonlar ustidan irodaviy nazoratning yoqotilishi bilan kechadi. Bu vaziyat og‘ir oqibatlariga olib kelishi bilan birga, affektni boshidan o‘tkazgan inson affektiv holatdagi xatti-harakatlarini eslay olmaydi.

Shuningdek takidlash kerakki, affekt ba‘zan insonni kuchli qizg‘alishiga sabab bo‘lsa, ba‘zi hollarda uni tormozlaydi. Yana bir jihati shundan iboratki affekt organizm faoliyatini tubdan izdan chiqarishi mumkin bo‘lgan quvvat balansiga ega.

Hissiy kechinmalar inson hayotining ajralmas qismi sanalib, yashash sharoiti, ijtimoiy muhit, moddiy va ma‘naviy jihatlar, oiladagi munosabatlar shaxs emotsionalligini belgilaydi. Bu borada eng ko‘p yangraydigan tushunchalar “Optimist-pessimist”dir. 18-asrda paydo bo‘lgan Optimizm atamasiga Leb Nits “Yaxshilik yomonlik ustidan g‘alaba qozonadi” degan aqidani aks ettirgan. Pessimizm- atamasi 1759-yilda Volter tomonidan asarlarida ommalashtiriladi. Umuman olganga Optimizm ijobiy his tuyg‘ular majmuasini aks ettirsa, Pessimizm salbiy o‘y-fikrlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Shu o‘rinda, optimizm darajasini o‘rganish maqsadida talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan kichik metodik tadqiqot natijalarini keltirib o‘tsak. Unga ko‘ra 18-33

yosh atrofidagi talaba qizlar o‘rtasida olib borilgan tadqiqot ishtirokchilari natijalari quyidagicha bo‘ldi:

- To‘liq Pessimizm ishtirokchilarning 3,3% da kuzatildi;
- Optimistdan ko‘ra pessimist 3,3%;
- Pessimistdan ko‘ra optimist ishtirokchilarning 80% da kuzatildi;
- To‘liq Optimizm 13,3% ishtirokchida kuzatildi.

Tadqiqotda Pessimistdan ko‘ra optimistlar ko‘proq ekanligini, lekin to‘liq optimistlar u qadar ko‘p foizni tashkil qilmasligini ko‘rishimiz mumkin. Jamiyatda shaxslararo munosabatlar tizimida insonlar har xil kechinmalarni his qilgan ekanlar ularning emotsional holatlari ham shunga monand tarzda kechib boraveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Umumiy psixologiya. Ergash G‘oziev.
2. Yuriy Viktorovich Shcherbatykh stress psixologiyasi va tuzatish usullari. Stress biologik va psixologik kategoriya sifatida.
3. Umumiy psixologiya. P.Ivanov, M.Zufarova.



ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАР ТАСНИФИ

Рахимов Октябрь Дусткабилович

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти “Экология ва меҳнат муҳофазаси”
кафедраси профессори

Маматов Нурбек Зиёдуллаевич

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти “Экология ва меҳнат муҳофазаси”
кафедраси ассистенти

e-mail: rahmat1959@mail.ru

Аннотация. Мақолада сифат ва таълим сифати, таълим технологиясининг моҳияти, олий таълимда таълим технологияси, педагогик технология ва уни характерловчи омиллар, педагогик инноватика ва унинг таълим сифатини оширишда тутган ўрни ҳамда инновацион педагогик технологияларнинг таснифи келтирилган.

Таянч сўзлар ва иборалар: сифат, таълим сифати, технология, инноватика, тасниф, инновацион педагогик технология.

XX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб бутун дунё бўйлаб «Сифат инқилоби» юзага келди. Дунёнинг етакчи ишлаб чиқариш корхоналари асосий эътиборни сон ва миқдорга эмас, балки маҳсулот сифатига қарата бошлашди. Сифат рақобатбардошликни таъминловчи асосий омил сифатида намоён бўла бошлади. Ҳозирги кунда маҳсулот сифати, техника ва технология сифати, сифатни бошқариш тизими сифати каби атамалар ўз ўрнини ҳаёт сифати тушунчасига бермоқда. Ҳаёт сифатининг асосий мезони - таълим ва тарбия сифатидир. Инсониятнинг барча ҳаётий муҳим муносабатлари (сиёсат, иқтисодиёт, ижтимоий ва б.) – инсонлар ўртасидаги ўзаро боғлиқлик ва ўзаро таъсирга боғлиқ ҳолда шаклланади ҳамда ривожланади. Таълим сифатига боғлиқ ҳолда ушбу муносабатлар даражаси ва албатта сиёсий-

иктисодий муносабатлар ҳам ўзгаради. Юқорида келтирилганлардан хулосалаш мумкинки, бугунги кунда дунёда юзага келаётган барча муаммолар илдизи таълим-тарбия тизимидаги сифат нуқсонлари натижаси десак хато бўлмайди.

Олий таълимда сифатни таъминлаш йўлларида бири ўқув жараёнида инновацион педагогик технологиялардан кенг ва тўғри фойдаланиш ҳисобланади. Бўлажак кадрлар нафақат стандарт муаммолар ечими балки ностандарт, муаммоли вазиятлар ечимини ҳам ўз вақтида ҳал қила олиш қобилиятларига эга бўлишлари талаб этилади. Талабаларда бундай компетентликни шакллантиришда муаммоли ўқитиш технологияси муҳим рол ўйнайди. Қуйида таълим технологияси, уларнинг турлари ҳамда муаммоли ўқитиш технологиясидан фойдаланиш услубиётига тўхталиб ўтамиз.

Таълим технологияси – ўқувчининг шахсий сифатларини, касбий, умумкасбий ва умуммаданий компетентлигини шакллантириш ва ривожлантиришга қаратилган ўқитиш ва тарбиялаш технологиясидир.

Олий таълим муассасасида таълим технологияси – талабанинг қобилиятлари ва қизиқишларини ҳисобга олган ҳолда мутахассисларни тайёрлаш мазмуни, таълим мақсадига мос равишда мазмунни лойиҳалаш ҳамда педагогик услублар, шакллар ва ўқитиш усулларини тадбиқ этишга йўналтирилган психологик, умумпедагогик, дидактик ва шахсий услубий тартиблар асосида амалга оширилувчи ўқитувчи ва талаба ўртасидаги ўзаро таъсир тизимидир.

Педагогик технология - юқори даражадаги самарадорликни таъминловчи, педагогик қонуниятлар, мақсадлар, принциплар, мазмун, шакл, услублар ва ўқитиш воситаларидан ҳамда тарбиялаш усулларидан ташкил топган лойиҳалаш ва мос равишда ушбу технологияни амалиётда қўллаш тизимидир.

Педагогик технология қуйидаги белгилар билан характерланади:

- ўқитиш ва тарбиялаш мақсадларини кетма-кет ишлаб чиқиш;
- ўзлаштиришга мўлжалланган ахборотларни таркиблаш, тартибга солиш ва зичлаш;

➤ ўқитиш ва назорат қилишнинг дидактик ва техник, шу жумладан компьютер воситаларидан мажмуали фойдаланиш;

➤ ўқитиш ва тарбиялашнинг ташхис функциясини кучайтириш;

➤ ўқитишнинг етарли даражадаги юқори сифатини кафолатлаш.

Педагогик технологияларни қўйидагича таснифлаш мумкин:

➤ **Фойдаланиш даражасига кўра:** умумпедагогик, шахсий услубий (фан бўйича) ва локал (модулли);

➤ **Фалсафий асосларига кўра:** илмий ва диний, гуманистик ва авторитар;

➤ **Таърибани ўзлаштиришнинг илмий концепциясига кўра:** ассоциатив-рефлектор, бихевиористик, интериоризатор, ривожлантиручи;

➤ **Шахс тузилишига мўлжалланганлиги бўйича:** ахборот (билим, уқув ва малакани шакллантириш), операцион (ақлий ҳаракат қобилиятларини шакллантирувчи), эвристик (ижодий қобилиятларни ривожлантирувчи), амалий (реал-амалий соҳада малакани шакллантириш);

➤ **Анъанавий ўқитиш тизимини модернизациялаш характерига кўра:** ўқувчи фаолиятини фаоллаштириш ва интенсификациялаштириш технологияси; ўқитувчи ва ўқувчи ўртасидаги фаолиятни инсонпарварлаштириш ва демократлаштириш асосидаги технология; ўқув материални дидактик қайта ишлаш асосидаги технология.

Ушбу технология ўз ўрнида қўйидагича таснифланиши мумкин: етакчи мақсад ва вазифалар бўйича; ўқишни ташкил этиш шаклига кўра; асосий ўқитиш услубига кўра.

Ўқитиш технологиясининг дидактик таркиби қўйидагиларни ҳисобга олади: фойдаланиш даражаси; фалсафий асоси; билимни ўзлаштиришнинг етакчи концепцияси; таълим мазмунининг фарқланувчи характери; ўқитишни ташкил этиш шакли; етакчи ўқитиш услуби; ўқувчилар категорияси.

Педагогик инноватика – таълим муассасасининг фаолиятига нисбатан барқарор янгилик элементларини киритиб, унинг ривожланиши ва фаолият кўрсатишига самарали таъсир этувчи мақсадга йўналтирилган ўзгартиришдир.

Инновацион педагогик технологиялар айнан таълим-тарбия жараёнида ўқувчи-талабалар (тингловчилар)га муайян фан (мавзу) бўйича билим бериш ва шахсини шакллантиришга қаратилган ўқитишнинг замонавий услублари ва техник воситалари мажмуидир.

Ушбу мақсад ва вазифаларни амалга оширишда қуйидаги педагогик технологиялардан кенг фойдаланиш ижобий натижаларга олиб келади: ўқитишнинг анъанавий (репродуктив) технологияси; муаммоли ўқитиш технологияси; ривожлантирувчи таълим технологияси; ақлий ҳаракатни босқичма-босқич шакллантириш технологияси; жамоавий ўзаро таъсир технологияси; тўлиқ ўзлаштириш технологияси; турли даражали ўқитиш технологияси; адаптив ўқитиш технологияси; дастурлаштирилган ўқитиш технологияси; компьютерли ўқитиш технологияси; модулли ўқитиш технологияси; ижодий фаолиятни ривожлантириш технологияси; лойиҳалар услуги технологияси.

Албатта, ҳар бир педагогик технологиянинг ўзига хос афзалликлари ва камчиликлари мавжуд бўлиб, уларни танлашда таълим тури, таълим шакли, ўқувчиларнинг ёши ва маълумоти, фаннинг хусусиятлари ва албатта педагогнинг тажрибаси ва маҳорати ҳисобга олиниши зарур.

Адабиётлар:

- 1.Полат Е.С., Новые педагогические и информационные технологии в системе образования ред. Е.С.Полат - М., 2004
- 2.Рахимов О.Д., Тургунов О.М. ва б. Замонавий таълим технологиялари. /Тошкент, «Фан ва технологиялар» нашриёти, 2013й, 205б.
- 3.Рахимов О.Д., Рўзиев Х.Ж., Муродов М.О. Таълим сифати ва инновацион технологиялар. /Тошкент: “Фан ва технологиялар”нашриёти, 2016й. - 208б.
- 4.Rakhimov O. D., Rakhimova D. O. Educational quality in the era of globalization //Проблемы науки. – 2021. – №. 1. – С. 36-39.

5. Raximov O. D. Quality of education-quality of life //Educational-methodical manual, Karshi: TUIT branch publishing house. 2015.

6. Raximov O. D. Requirements and technology for creating e-learning resources //Sovremennoe obrazovane (Uzbekistan). – 2016. – Т. 202. – С. 45-50.

7. Rakhimov O.D.1, Ashurova L. Types of modern lectures in higher education, technology of their design and organization.// Проблемы современной науки и образования. 2020. №12(157), часть -1. С.41-46.

DOI: [10.24411/2304-2338-2020-11203](https://doi.org/10.24411/2304-2338-2020-11203)



FARG’ONA VODIYSIDAGI ETNOMADANIY JARAYONLARNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Shamsiddinov Baxodir Mirzaaxmad o’g’li

NamDU, Etnologiya yo’nalishi 1-kurs magistranti

shamsiddinobahodir23@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg’ona vodiysidagi etnomadaniy jarayonlarning o’ziga xos hususiyatlari, mazmun-mohiyati keng ochib berilgan.

Kalit so’zlar: etnologiya, urf-odatlar, turmush tarzi, moddiy-madaniy taraqqiyot, xalq, o’qroq, o’tov, kigiz, qilg’iz, etnik, etnosotsiologiya, etnopsixologiya, etnos, etnogenez, etnik tarix, etnik jarayonlar, etnomadaniy jarayonlar.

Ma’lumki, etnologiya fanida boshqa ijtimoiy fanlardan farqli o’laroq, bir qator o’ziga xos atama va tushunchalar keng qo’llaniladi.

Etnografiya (etno... va ... grafiya), etnologiya, xalqshunoslik — jahondagi barcha xalqlarning , etnik birlikning turli tiplari, ularning kelib chiqishi (etnogenezi), turmush tarzi, urf-odatlari, moddiy va ma’naviy taraqqiyot darajasidan qat’i nazar, teng holda o‘zaro tafovuti yoki umumiyliigi va o‘xshashligini, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganuvchi maxsus fan sohasi. Etnologiya hozirgi etyaoslarning kelib chiqishi va shakllanishi, joylashishi va etnik tuzilishi, urf-odatlari, ma’naviy madaniyati va milliy xususiyatlarini tarixiy jarayon bilan bogliq holda o‘rganadi. Tarixiy etnologiya yo‘qolib ketgan xalq va elatlar, o‘tmishdagi etnik jarayon, maishiy turmush va ma’naviy madaniyat xususiyatlarini tadqiq qiladi.

Etnologiya bilimlar qadim zamonlardan paydo bo‘lgan bo‘lsada, lekin mustaqil fan sifatida 19-asrning o‘rtalarida shakllanib bo‘ldi. Dastlab, bu atamani 16-asrning oxirida nemis yozuvchisi I.Zummer ishlatgan, keyin esa 18-asrning oxirlarida va 1808-yilda maxsus jur.lar shu nom bilan chiqa boshlagan. Etnologiya so‘zi mashhur

fransuz tabiatshunosi va fizigi Jan Jak Amper taklifi bilan Parij antropologlari kongressida alohida fan sifatida qabul qilingan (1839).

Etnologiya dastlab faktik bilimlarni to‘playdi, keyin ularni tahlil etish orqali mohiyatini tushunib olib, nazariy xulosalar chiqaradi. Etnologiya fani, boshqa fanlar singari o‘ziga xos maxsus tadqiqot usullari va maxsus atamalarga ega. Uning uslubi muayyan dunyoqarash va nazariyalar (metodologiya) bilan bog‘liq bo‘lib, o‘z tadqiqotlarini ayrim fan sohalari antropologiya, arxeologiya, lingvistika, sotsiologiya, san’atshunoslik bilan aloqador holda amalga oshiradi.

Mazkur fanlarning o‘zaro bog‘liqligi tufayli keyingi yillarda qo‘shaloq ilmiy sohalar ham yuzaga keldi, etnik antropologiya, paleoetnografiya, etnolingvistika va boshqalar Hozirgi davrdagi etnik jarayonlarni teran va keng miqyosda tadqiq qilishda keyingi yillarda o‘tkazilayotgan sotsiologik tadqiqotlar yaxshi samara bermoqda. Natijada — etnosotsiologiya, etnopsixologiya kabi yangi ilmiy sohalar yuzaga kelishi muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, tabiiygeografik sharoitga qarab yovvoyi o‘simliklarni ekib o‘stirish yoki yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirish, urchitish kabi o‘ziga xos turmush xususiyatlariga ega elatlarning xo‘jalik xususiyatlarini anikdashda Etnologiya bilan hamkorlikda etnobotanika va etnozoologiya kabi yangi sohalar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Chunonchi, etnos, etnogenez, etnik tarix, etnik jarayonlar, etnomadaniy jarayonlar va boshqa shu kabilar. Yuqorida aytib o‘tilgan atama va tushunchalar o‘zining mazmun va mohiyatiga ko‘ra aniq bir etnos faoliyatining u yoki bu xolati bilan bog‘liq bo‘ladi. “Etnomadaniy” deganda, bizningcha muayyan bir etnik jamoa uchun an’anaviy hisoblangan, uning etnik xususiyatini aks ettiruvchi madaniyatni tushunish kerak bo‘ladi. To‘g‘ri, xar bir etnos madaniyati “sof” yoki “toza” bo‘lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, xar bir etnos madaniyatida ginoetnik jihatlar mavjud bo‘ladi. Bir etnos uchun an’anaviy hisoblangan madaniyatda boshqa etnosga xos madaniyat elementini (ya’ni ginoetnik madaniyati) namoyon bo‘lishi etnomadaniy aloqalar natijasida yuz beradi. Quyida biz Farg‘ona vodiysi materiallari taxlili asosida bu xususida batafsil to‘xtalib o‘tamiz. Ma’lumki, Farg‘ona vodiysi bir qator hususiyatlari bilan, xususan tabiiygeografik shart-sharoitiga ko‘ra Markaziy

Osiyoning boshqa tarixiy-etnografik viloyatlardan farqlanib turadi. Vodiyning o'ziga xos geografik o'rni va uning tabiiy sharoitining qulayligi bu hududda kechgan etnomadaniy jarayonlarni o'ziga xos rivojlanishi uchun sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bunday tabiiy-geografik shart-sharoitlar avvalo, Farg'ona vodiysi hududiga asrlar davomida ko'plab etnik jamoa vakillarini ko'chib kelib joylashishi madaniyatlararo integratsiyani jadal kechishi uchun omil bo'lib xizmat qilgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Farg'ona vodiysi hududi miloddan avvalgi davrlardayoq polietnik xususiyatga ega bo'lgan. Ilmiy adabiyotlarda Farg'ona vodiysi hududida qadimda “parikan”, “shak”, “egli”, “obiy” “usun” kabi etnonimlar bilan yuritiluvchi xalqlar yashaganligi ko'rsatib o'tiladi.

1. Markaziy Osiyoning boshqa hududlarida bo'lgani kabi qadimgi Farg'ona aholisining bir qismi o'troq xolda yashab dehqonchilik va xunarmandchilik bilan, boshqa qismi esa ko'chmanchiga xos turmush tarzida bo'lib, asosan chorvachilik bilan mashg'ul bo'lganlar. Bir so'z bilan aytganda, vodiy hududida qadimda va o'rta asrlarda ikki xo'jalik-madaniy tipga mansub etnoslar yashaganlar va o'zaro etnomadaniy aloqada bo'lganlar. Butun tarixiy taraqqiyot davomida o'troq xalq madaniyati bilan ko'chmanchi kabilalar madaniyati o'rtasida kechgan o'zaro etnomadaniy aloqalar bu hududdagi etnomadaniy jarayonlarning harakterini belgilab bergan. XIX-XX asr boshlariga kelib, Farg'ona vodiysida etnoslararo xo'jalik madaniy aloqalar yanada jadallashganligi kuzatiladi. Bu davrda vodiy aholisining etnik tarkibi ushbu hududga ko'chib o'tgan bir guruh qirg'iz, tog'lik tojik, uyg'ur, qoraqalpoq, dungan, rus, ukrain va belorus xalqlarining vakillari hisobiga yanada boyidi.

2. O'z milliy-etnik madaniyati sohiblari bo'lmish ushbu etnoslar yangi etnomadaniy muxitda maxalliy turgun aholi madaniyatini ma'lum darajada qabul qilishi bilan birga ginoetnik madaniyatni olib keldilar va bu xo'jalik-madaniy hayotda innovatsiyalar shaklida namoyon bo'ldi. Chunonchi, vodiy hududiga ko'chib o'tgan qirg'iz, qipchoq, ko'rama, turk va qoraqalpoq kabi azaliy chorvador xalqlar o'troq o'zbek va tojiklardan dehqonchilik madaniyati ko'plab jihatlarini o'zlashtirsalar, o'z o'mida o'troq o'zbek va tojiklar ulardan chorvachilik xo'jaligini yuritishga oid ayrim

an'analarni qabul qilganlar. XIX-XX asr boshlarida Farg'ona vodiysi aholisining savdo-iqtisodiy munosabatlari ichki savdo hisobiga ancha kengaygan edi.

Etnomadaniy jarayonlardagi an'anaviylik va innovatsiyalar xalqning moddiy madaniyatida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Ma'lumki, xar bir etnos moddiy madaniyatining asosiy komponentga uning uy-joylari, kiyimlari va taomlari hisoblanadi. O'tmishda Markaziy Osiyo, xususan Farg'ona vodiysidagi aholi manzilgohlarida asosan ikki turdagi uy-joylar mavjud bo'lgan. Birinchi turdagisi o'troq aholi turmush tarziga mos bo'lib. ushbu turdagi uy-joylarga nisbatan ilmiy adabiyotlarda “doimiy”, “ko'chmas”, “turgun” uy-joylar kabi iboralar, chorvador xalqlar uchun xos bo'lgan ikkinchi turdagi uy-joylarga nisbatan esa, aksincha “vaqtinchalik”, “ko'chma” uy-joylar singari atamalarni qo'llash qabul qilingan. Farg'ona vodiysi aholisi uchun xos bo'lgan uy-joylarni nomlashda ayni vaqtda mahalliy (lokal) iboralar xam keng qo'llanilgan. Masalan, o'troq dehqon va hunarmand aholi uchun xos bo'lgan doimiy tipdagi uy-joylar ko'proq “tom”, “tom uy” iboralari bilan, k o' c h m a n c h i , yarimko'chmanchi va yarimo'troq aholining vaqtinchalik, ko'chma uy-joylari esa “qora uy”, “o'tov”, “kiygiz uy”, “qirg'iz uy” kabi atamalar bilan yuritilgan.

3. XIX-XX asr boshlarida vodiy hududida yashayotgan azaliy chorvador etnoslarda o'troqlashish, dexkonchilik bilan shug'ullanishga o'tish jadallashdi. Natijada vodiyning qirg'iz, qipchoq, turk, ko'rama, yuz kabi etnoslari xam bu davrda o'troq aholiga xos bo'lgan uy-joylarni tiklash va jihozlashni ko'plab jihatlarni o'zlashtirib oldilar. Har bir xalqning an'anaviy kiyimlari xam uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyot davomida shakllanadi. Farg'ona vodiysi hududida yashagan etnik jamoalarning kiyimlarini qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida xalq kiyim-kechaklarida an'anaviy etnik jihatlar xali aniq namoyon bo'lib turar edi. Shu bilan birga xar bir etnosga xos an'anaviy kiyimlar transformatsiyaga uchrab, uziga ginoetnik elementlarni, boshqacha aytganda, innovatsiyalarni qabul qilgan. Xuddi shunday xolat an'anaviy xalq taomlarida xam kuzatiladi. O'troq aholi bilan yarimo'troq aholining integratsiyasi natijasida an'anaviy taomlardagi tafovutlar asta-sekin yo'qolib borib, umummintaqaviy hususiyat kasb qila boshlagan.

Urf-odat va marosimlar maishiy turmush va oila xayoti bilan bevosita bo'lgan ijtimoiy xodisadir. U jamiyat taraqqiyotining ilk davrlaridanoq shakllanib, rivojlanib kelgan. Xar qanday urf-odat va marosimlar muayyan etnosni boshqa etnosdan farqlanib turishini ta'minlovchi muhim etnografik belgilardan biridir. Ayni vaqtda ushbu urf-odat va marosimlarda ginoetnik jihatlar xam ma'lum darajada aks etib turadi. Negaki, xar bir etnosga xos madaniyatning o'zi uning o'zga etnoslar bilan uzoq davom etgan etnogenetik va tarixiy-madaniy aloqalari mahsulidir. Xullas, Farg'ona vodiysi xam O'rta Osiyoning boshqa hududlari kabi o'troq xalq madaniyati bilan ko'chmanchi etnik jamoalar madaniyati o'zaro to'qnashgan va xar ikki madaniyat sohiblari o'z an'anaviy madaniyatini mumkin qadar saqlab qolish barobarida ginoetnik madaniyat ta'sirida bo'lgan hudud hisoblanadi. Bu xolat mazkur tarixiy-etnografik hududda kechgan etnomadaniy jarayonlarning asosiy yo'nalish va hususiyatlarini belgilab bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Abdullayeva U. Farg'ona vodiysi xalqlarining ho'jalik faoliyati sohasidagi o'zaro munosabatlari tarixidan// O'zbekiston tarixi. 2002 4-son. 48-54-betlar.
2. Aliyeva S. Farg'ona vodiysi kulolchiligining o'ziga xos hususiyatlari //San'at. – 2011.- №1, 6-b.
3. “Farg'ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda” 2- Respublika ilmiy anjumani:.Farg'ona-2012, 47-b.
4. www.google.uz

КОНЦЕПЦИЯ МОДЕЛИ СБАЛАНСИРОВАННОСТИ КАДРОВОЙ СОСТАВЛЯЮЩЕЙ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА

Абиткариев Азизулла Мухамедрахимович

Андижанский Государственный Университет имени З.М.Бабура

Аннотация: В статье анализированы особенности прогнозирования перспектив развития, а также обоснованы выводы по оптимизации структуры и разработке модели сбалансированного функционирования структур и звеньев кадровой составляющей интеллектуального потенциала, гарантирующей эффективное функционирование как каждого из пяти составляющих, так и интеллектуального потенциала в целом.

Ключевые слова: Интеллектуальный потенциал, экономический прогноз, кадровая составляющая ИПЭР, оптимизация структуры кадровой составляющей ИПЭР, модель сбалансированности кадровой составляющей ИПЭР.

Выступая на торжественной церемонии открытия народной библиотеки Президента Турецкой Республики 20 февраля 2020 года Президент Ш.М.Мирзиёев подчеркнул: “ Каждое государство и каждая нация в мире сильны прежде всего своим интеллектуальным потенциалом, высокой духовностью..” [1]. Действительно, задача вхождения Республики Узбекистан в число 50 наиболее конкурентоспособных стран мира может быть решено в том случае, если у страны будут высококвалифицированные специалисты, обладающие знаниями наукоемких технологий, управленческими навыками, умеющие ориентироваться в рыночной экономике.[2]

В условиях становления и развития рыночных отношений особую значимость приобретает определение оптимальной структуры работников интеллектуального труда и темпов их подготовки на перспективу - прогнозирование потребности в научных кадрах и специалистах.

В экономической литературе существуют различные подходы к определению понятия «экономический прогноз». Применительно к интеллектуальному потенциалу экономики республики - далее ИПЭР, под экономическим прогнозом его развития следует понимать научно обоснованную совокупность аргументированных научных представлений о приоритетных направлениях развития составляющих интеллектуального потенциала, как системы, включающую: обоснование наиболее вероятных направлений динамики изменений системы научных знаний и особенностей их применения в сфере материального производства с учетом тенденций мирового процесса научно-технического развития; разработку альтернативных вариантов развития составляющих интеллектуального потенциала, обеспечивающих приоритетное развитие наиболее актуальных направлений научно-технического прогресса, гарантирующих, исходя из имеющихся экономических ресурсов, устойчивые позиции экономики республики на региональном и мировом рынках.

Как показало проведенное исследование, процесс прогнозирования перспектив развития кадровой составляющей ИПЭР имеет ряд особенностей:

во-первых, точность прогноза существенно снижается из-за большой продолжительности подготовки работников интеллектуального труда различной квалификации (от 5 до 12 лет), а также усилением процесса морального старения знаний;

во-вторых, сам процесс интеллектуального труда, прежде всего по созданию нового знания, есть творческий процесс с непредсказуемыми результатами, что усиливает степень неопределённости и вероятности развития системы научного фонда общества;

в-третьих, работники интеллектуального труда должны рассматриваться в двух органически взаимосвязанных аспектах: с одной стороны, они выступают как важнейшая составная часть производительных сил, деятельность которой направлена на качественное обновление всего процесса производства и выпускаемой продукции, а с другой - как и все остальные составляющие

ресурсов труда, они являются целью производства, на всестороннее и гармоничное развитие которых должен быть направлен весь воспроизводственный процесс, что усиливает значимость взаимосвязи кадровой и социо-информационной составляющих;

в-четвертых, в современных условиях существенными темпами увеличивается поток научно-технической информации, однако увеличение количества научной информации не приводит к улучшению ее качества, что значительно затрудняет поиск необходимой информации;

в-пятых, недостаточно полно изучен механизм профессиональной мобильности работников интеллектуального труда, изучающих процессы, происходящие на "стыках" наук, а также в связи с расширяющимся использованием в сфере интеллектуальной деятельности компьютерной техники и других высокопроизводительных средств интеллектуального труда, стоимость которых из-за ограниченности последующего применения значительно возрастает и др.

В настоящее время известно более 100 методов научно-технического и экономического прогнозирования [3].

Наиболее часто применяемые методы прогнозирования можно объединить в следующие основные группы:

- Нормативные методы, включающие в себя методы нормативов: насыщенности; численности; номенклатуры должностей и др.
- Методы экстраполяции тенденций развития, в том числе методы аналогии и сравнения.
- Корреляционно-регрессионные методы.
- Методы экономико-математического моделирования.
- Методы экспертных оценок.

Общим недостатком применяемых методов является отсутствие системного подхода к определению потребности в специалистах, что не позволяет провести научный анализ влияния большого числа факторов на изменение потребности в работниках различной квалификации.

Практически все разработанные методики прогнозирования являются отраслевыми, не учитывающими территориальные особенности, демографические тенденции и т.д.

Наиболее приемлемым для прогнозирования сбалансированного развития всех составляющих интеллектуального потенциала в масштабах суверенной республики или отдельно взятого региона можно считать регрессионно-корреляционные модели.

При этом регрессионно-корреляционная модель обеспечивает детальную разработку прогноза развития составляющих ИПЭР тем точнее, чем больше количество включаемых в нее факторов и достовернее исходная информация.

Однако возможности даже самых совершенных моделей не следует переоценивать, т.к. они базируются на экстраполяции тех условий, которые сложились в прошлом и настоящем, а не в будущем[4].

Как показало проведенное исследование, наиболее существенное влияние на итоговую сбалансированность всех составляющих ИПЭР оказывает оптимизация структуры кадровой составляющей интеллектуального потенциала. В этой связи приоритетным направлением прогнозирования структуры интеллектуального потенциала в целом, является обоснование рациональных соотношений в развитии квалификационных и др. групп работников, входящих в состав кадровой составляющей ИПЭР.

Причем прогнозирование структуры кадровой составляющей ИПЭР целесообразно начинать с сопоставления степени влияния основных соотношений развития квалификационных групп кадровой составляющей на другие составляющие интеллектуального потенциала и, наоборот, учета уровня влияния каждой из составляющих на структуру работников интеллектуального труда.

Кроме того, исходной позицией в поиске путей научной обоснованности методов определения потребностей науки и производства в работниках интеллектуального труда должно стать, наряду с показателем насыщенности этих отраслей исследователями высшей квалификации, четкое определение

выполняемых функций каждым работником интеллектуального труда, объём и соотношение которых обуславливаются содержанием соответствующих стадий научно-производственного цикла, обоснование норм интеллектуального труда и показателей его оценки для каждой разработки научной идеи вплоть до ее реализации в серийное производство.

В качестве основы при выборе метода прогнозирования целесообразно так же использование научно-технического уровня системы рабочих мест интеллектуального труда, объединяющей все стадии разработки научной идеи. Основными факторными признаками, влияющими на комплексность оценки системы рабочих мест, являются:

- совокупность функциональных обязанностей исследователя, разработчика, экспериментатора и т.д., требуемая для наиболее эффективного использования соответствующих средств интеллектуального труда;
- общественно-необходимая степень фондовооруженности кадров соответствующим научно-техническим уровнем средств интеллектуального труда;
- физиологически допустимая напряженность норм интеллектуальной деятельности, в т.ч. с использованием компьютерной техники и других высокопроизводительных средств интеллектуального труда [5].

Таким образом, управление структурой работников интеллектуального труда на современном этапе социально-экономического развития экономики республики и определение потребностей (прогноза) в них в перспективе означает обеспечение рациональных пропорций в численности и формах функциональной взаимосвязи между работниками интеллектуального труда различных специальностей, квалификации и профилей деятельности как для экономики республики в целом, так и для любого субъекта хозяйствования в отдельности.

В условиях становления и постепенного развития механизма рыночных отношений особую актуальность приобретает разработка модели сбалансированного функционирования структурных звеньев кадровой

составляющей интеллектуального потенциала, гарантирующей эффективное функционирование как каждой из 5-ти составляющих, так и интеллектуального потенциала в целом. При этом главной целью модели является стремление рассчитать оптимальную для данного уровня развития производительных сил структуру работников интеллектуального труда для научных, конструкторско-технологических и производственных подразделений конкретного предприятия, объединения, других субъектов хозяйствования различных форм собственности.

На наш взгляд, данная модель так должна взаимоувязать основные пропорции между профессионально-квалификационными организационными и демографическими характеристиками работников интеллектуального труда, чтобы, задавшись основными показателями - производственной программой, объёмом, а также выработкой продукции на одного рабочего и учитывая специфику соответствующей отрасли экономики, можно было бы рекомендовать количественные ориентиры по численному составу всех профессионально-квалификационных групп.

Список использованной литературы:

1. Ш.М.Мирзиёев. Выступление на торжественной церемонии открытия научной библиотеки Президента Турецкой Республики, 20 февраля 2020года. - [https:// uza.uz/ru](https://uza.uz/ru), 21.01.2020.
2. К.Абдурахмонов. Вызовы и задачи нового уровня. Статья.-Т.,ООО ИД «Бизнес – Daily медиа», 08.01.2019.
3. Рабочая книга по прогнозированию. – М.: Мысль, 1983. – с.430.
4. В.Арьков. Корреляционный и регрессионный анализ в Exell. – М.:Ридеро, 2019. -270 с.
5. Александрова И.Б. Интеллектуальный потенциал трудового капитала в условиях рыночной экономики : Сущность, состояние, пути реализации. Диссертация на соискание ученой степени кандидата философских наук. – М.: Российская Академия Управления, 1992.- 180с.

RIFOGEN SINFI TUTQICHLARINI ANIQLASH VA TAYYORLASH

Usmonov Kuvonchbek Mannonovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, katta o'qituvchi

Hakimov Umarali Hamid o'g'li


Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, talaba

Annotatsiya: Har xil turdagi neft va gaz uyumlarining tasnifini tuzish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Tutqichlarni aniqlash va tayyorlash bosqichi o'z navbatida ikkita bosqichostiga bo'linadi: ob'yektlarni aniqlash va ob'yektlarni tayyorlash.

Kalit so'zlar: rifogen uyumlar, to'siqli riflar, yakka riflar, qirg'oq riflar, regional davr, geofizik usullar, UChNU usuli, ohaktoshlar, VSP usuli va akustik karotaj.

Rifogen uyumlar aksariyat yagona suv-neft chizig'iga ega bo'ladilar.

O'zbekiston sharoitida (G'arbiy O'zbekistonda) ko'pgina rifli neft, gazkondensat va gaz konlari mavjud. Bu yerlarda rif massiviga jami zaxiraning 75-80%, qolganlarida 20-25% joylashgan (Sho'rtan, Ko'kdumaloq, Dengizko'l, O'rtabuloq va boshqalar). Rus platformasi konlarida ham rif massivlari uchraydi (1-rasm).



1-rasm. Rifogen uyumlar: a – yakka rif massivlarida

joylashgan; b – bir guruh rif massivlarida joylashgan. Shartli belgilar 3.8-rasmda.

Rif massivlari uch guruhga bo'linadi: to'siqli riflar, yakka riflar, qirg'oq riflari.

To'siq riflari cho'kindi qoplamada keng tarqalgan va uzunligi o'nlab va yuzlab kilometr, kengligi 2 – 3 km gacha, qalinligi bir necha metrdan 2000 metrgacha bo'lgan asimmetrik tuzilishdagi zonal tanani o'zida namoyon qiladi.

Yakka riflar ko'pincha konus ko'rinishidagi yoki taqasimon, yoki xalqasimon shakllarga, kichik o'lchamlarga va tik yon bag'irlarga, 300 metrgacha amplitudaga ega bo'ladi.


Qirg'oq riflari qoidaga muvofiq sayoz suvli karbonatlar orasida joylashgan va kichik o'lchamlardagi, 10-80 m amplitudali tepasimon va linzasimon tanani o'zida namoyon qiladi.

Rif qurilmalarining fizik xossalari atrofdagi yotqiziqlardan ahamiyatli farq qiladi. Bu ularning ustida fizik maydonlarda anomaliyalarni yuzaga kelishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Regional davrda riflarni aniqlash uchun odatda, geofizik usullar kompleksidan foydalaniladi: gravirazvedka, elektrirazvedka, magnitorazvedka, seysmorazvedka va shuningdek parametrik burg'ilash materiallari. Bu shu bilan bog'liqlik, rif qurilmalaridan olingan anomaliyalar boshqa bir qator geologik ob'yektlardan (gilli va tuzli diapirlar, erozion ko'tarilmalar, intruziyalar va boshqalar) olinishi mumkin bo'lgan anomaliyalarga o'xshash.

Nisbatan samarador usul seysmik qidiruv UChNU usuli hisoblanadi, olingan materiallar – vaqtinchalik kesimlar – seysmostratigrafik yondoshuvdan foydalanilgan holda interpretatsiya qilinadi. Seysmik profillar taxminan kompensatsiyalanmagan botiqliklarning yon bag'irlari va rif tanalari bilan bog'liq bo'lgan anomal zonalarga ko'ndalang yo'nalishdagi gravirazvedka va elektrirazvedka natijalari bo'yicha beriladi. Organogen qurilmalar yo'nalishiga ko'ndalang oriyentirlangan (yo'nalgan) seysmik kesimlarda riflarni aniqlash uchun quyidagilar nisbatan xarakterli seysmofatsiyalar hisoblanadi:

- rif massivi ichida sinfazalik o'qlarining kuzatilishini tugashi, chunki bu massiv bir turli karbonat jinslardan tashkil topgan (2-rasm);
- rifoldi va riforti qismlarida sinfazalik o'qlarining turli bukilishlari;
- rifusti qalinligida aylanma sinfazalik o'qlarini mavjudligi;
- rif tanasining tezlik xarakteristikasiga bog'liq holda rif osti qalinligida sinfazalikning yassi, botiq yoki qavariq o'qlari;
- rif usti qalinligida akslar jadalligining keskin kamayishi;



2-rasm. Rif seismofatsiyalari: 1 – rif turidagi anomalialar.

- rif usti qalinligida qaytgan to'lqinlarning dinamik xarakteristikalarini (chastotalar amplitudasi) keskin kamayishi.

Qatlamli organogen ohaktoshlar (biostromlar) vaqtinchalik kesimlarda qatlamlarning chetlari bo'ylab ponasimon va tepasimon sinfazalik o'qlari bilan xarakterlanadi (3-rasm).



3-rasm. Biostrom seismofatsiyalari.

Rif massivlari ularni o'rab turgan jinslarga nisbatan ortiqcha zichlikka ega bo'lsa, yuqori aniqlikdagi gravirazvedka bilan aniqlanishi mumkin.

Riflarni aniqlash uchun termometriyadan ham foydalaniladi. Terrigen yotqiziqalarda yotgan riflar karbonat jinslarning yuqori issiqlik o'tkazuvchanligi tufayli issiqlik maydonining ijobiy anomaliyasiga ega bo'ladi.

Rif usti va rif osti rifogen tutqichlarini izlov burg'ilashga tayyorlash asosan seysmorazvedka UChNU bilan rifogen tanalarning shakllari va o'lchamlariga bog'liq holda nisbatan zich to'rda oriyentirlangan profillar bo'yicha, parametrik yoki tuzilmali burg'ilash, quduq seysmorazvedkasi VSP usuli va akustik karotaj bilan amalga oshiriladi. Riflarni muvaffaqiyatli ajratish uchun seysmik kesimlar, rif qalinliklarining vaqtinchalik “qalinliklar” xaritalari, qatlamlar va oraliqlar tezliklari xaritalari, qaytgan to'lqinlarning anomaliyalar dinamikasi grafiklari va xaritalaridan foydalaniladi. Bularning barchasi rifning geometriyasi, ularning litologik chegaralari va neftgazlilikini bashoratlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yarboboyev T.N., Hayitov O.G'. Neft va gaz uyumlarini izlash va qidirish metodlari. Darslik. Qarshi-2018.
2. Абидов А.А., Эргашев Й., Қодиров М. Нефть ва газ геологияси. Русча-ўзбекча изоҳли луғат. Тошкент. “Шарқ” 2000.
3. Бурцев М.И. Поиски и разведка месторождений нефти и газа: Учеб. пособие. М., Изд-во РУДН, 2006.
4. Временное положение об этапах и стадиях геолого-разведочных работ на нефть и газ. Приложение №3 к журналу «Минеральные ресурсы России», 2001.
5. Габриэлянц Г.А. Геология, поиски и разведка нефтяных и газовых месторождений. М., Недра, 2002.
6. Дьяконов А.И. и др. Теоретические основы и методы прогноза, поисков и разведки месторождений нефти и газа. Учебник. Ухта УГТУ, 2002.
7. Максимов Е.М. Геология, поиск и разведка нефти и газа. (Издание 2-е дополненное). Учебное пособие. Тюмень, ТюмГНГУ, 2004.

ZAMONAVIY GAT DASTURLARI ORQALI QISHLOQ XO'JALIGI YERLARIDAN FOYDALANISH KARTALARINI TUZISH

Xujakeldiyev Komil Nosirovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish”
kafedrası t.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.

xujakeldiyevkomil@gmail.com

Shog'darov Doniyor Dilshod o'g'li

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar
instituti “Umumtexnik fanlar” kafedrası o'qituvchisi

Doniyorshogdarov@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi kunda respublikamiz xalq xo'jaligining turli sohalarida, ayniqsa qishloq xo'jalik xaritalardan foydalanishda zamonaviy GAT dasturlaridan keng foydalangan holda aniqlik darajasi yuqori bo'lgan elektron raqamli kartalarni yaratish texnologiyasi yo'lga qo'yilib, mavjud 1:10000 va 1:25000 miqyosidagi elektron raqamli kartalar yangilanmoqda. Shu bilan bir qatorda turli formatlarda yaratilgan raqamli kartalar ArcGIS dasturi formatlarida bajarilmoqda.

Kalit so'zlar: GAT, elektron xaritalar, matematik asos, yer resurslari, massivlar, modernizatsiya, obyektlarini, avtomatlashgan.

Аннотация. В настоящее время внедрена технология создания высокоточных цифровых карт с использованием современных программ ГАТ в различных отраслях народного хозяйства, особенно при использовании сельскохозяйственных карт, а существующие электронные цифровые карты масштабов 1:10000 и 1:25000 карты обновляются. Кроме того, цифровые карты, созданные в различных форматах, реализуются в форматах программного обеспечения ArcGIS.

Ключевые слова: ГАТ, электронные карты, математические основы, земельные ресурсы, массивы, модернизация, объекты, автоматизация.

Abstract. At present, the technology of creating high-precision digital maps with the use of modern GAT programs in various sectors of the economy, especially in the use of agricultural maps, has been introduced, and the existing 1: 10000 and 1: 25000 electronic digital maps are being updated. In addition, digital cards created in various formats are implemented in ArcGIS software formats.

Key words: GAT, electronic cards, mathematical basis, land resources, arrays, modernization, facilities, automation.

Dunyoda uning turli mintaqalarida kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni zamonaviy GAT asosida elektron xaritalarni yaratishga muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, qishloq xo'jaligi sohasini o'rganish, tahlil qilishda kartografik ta'minlash uslublaridan keng foydalanish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada jahonning rivojlangan davlatlarida iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bog'liq qishloq xo'jaligi, tabiiy va ijtimoiy - iqtisodiy muammolarni o'rganishda ham qishloq xo'jaligi elektron xaritalari yordamida hudud to'g'risida ishonchli ma'lumotlar olishni ta'minlash hozirgi zamon kartografiyasining dolzarb vazifalari sifatida alohida e'tibor qaratilgan.

Hozirgi kunda respublikamizda iqtisodiyotni va xususan, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, mamlakatimizning tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini inobatga olgan holda, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining hududiy tarkibini takomillashtirishga doir keng qamrovli choratadbirlar amalga oshirilmoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida, jumladan «qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish» kabi vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, xususan hududlarning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish salohiyati va infratuzilma obyektlarini kartografik ta'minlash va GAT asosida mavzuli elektron xaritalarni tuzish uslubini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda GAT iqtisodiyot tarmoqlarining barcha sohalarida keng qo'llanilmoqda. GATdan foydalanish uchun katta hajmdagi yozma va grafikaviy, hudud bilan bog'langan ma'lumotlarni to'plash va ulardan samarali foydalanishda, zamonaviy GAT dasturida qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish xaritalarini tuzish shu kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Kartografik va geodezik ishlar O'zbekiston Respublikasining “Yer kodeksi” asosida olib boriladi. Elektron xaritalarni yaratish va ularni zamon talab darajasida takomillashtirib borish yerdan foydalanish to'g'risidagi qonunlar va hukumatimiz qarorlarining amalga oshirilishini ta'minlovchi davlat tadbirlari tizimi hisoblanib, xalq xo'jaligi tarmoqlari orasida va tarmoqlar ichida olib boriladi. Shu sababli elektron xaritalash ishlari xalq xo'jaligi tarmoqlarida va qishloq xo'jalik korxonalarida o'tkazilib, ularni faoliyatini yaxshilash, takomillashtirish, uning ilmiy asosini ishlab chiqish eng muhim vazifalardan biri sanaladi va qo'yilgan maqsad, vazifalar nazariy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.


Yer resurslaridan qishloq xo'jaligida nooqilona foydalanish, qurg'oqchilik, tuproq erroziyasi va umuman tuproqning buzilishiga olib keladi. O'rmonlar me'yorida ortiq kesilib ketayotganligidan zahmat chekmoqda. Qishloq xo'jalik ekinlari maydonlari qisqargani holda aholi yashash punktlari kengaymoqda. Shu tarzda yer resurslaridan foydalanishni oqilona boshqarish uchun ob'ektiv omillar soni ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida bevosita yer maydonlari qismlari haqida xilma xil va batafsil axborotni keng ko'lamda katta maydonlar uchun tayyorlashni talab qiladi. Bu ma'lumotlarni tayyorlashda tuman yer resurslari va davlat kadastri bo'limlari quyi bo'g'inda bo'lib, yer axborotni tayyorlashda asosiy pog'ona hisoblanadi. Tuman yerlaridan foydalanish haqidagi umumiy ma'lumotlar yetarli bo'lmay, batafsil axborotlar zarur. Bu esa tumanda yer axborot tizimini yaratishga va takomillashtirishga yaqqol sabab bo'ladi.

Qishloq xo'jaligining elektron xaritalar tizimini yaratish quyidagi muhim xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lgan masalalarni hal etishga qaratilgan:

- ✓ yerdan foydalanish axborotlari bilan ta'minlash;

- ✓ yer resurslarining holati va ulardan foydalanish bo'yicha tuman statistika hisobotini shakllantirish;
- ✓ yer maydonlariga bo'lgan huquqni yalpi ro'yhatga olish bo'yicha ishlarni bajarish;
- ✓ yerdan foydalanish huquqi, yerdan umrbod foydalanish huquqi, yer maydoniga xususiy egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni rasmiylashtirish;
- ✓ xalq xo'jaligi ob'ektlarini joylashtirishni dastlabki kelishish, yer maydonlarini olib qo'yish va berish, yer maydonlarini shahar hududiga kiritish hamda ma'muriy-hududiy o'zgartirish uchun materiallarni tayyorlash;
- ✓ shahar va qishloq hududlarini rivojlantirish maqsadlari uchun; - qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun;
- ✓ yer-suv munosabatlarini oydinlashtirish;
- ✓ yerni narx bo'yicha baholash uchun;
- ✓ yer maydonlarini olib qo'yishdagi zarar va yo'qotishlarni qoplash maqsadlari uchun;
- ✓ yer rusurslaridan oqilona foydalanishni qo'llab quvvatlash uchun;
- ✓ yerdan foydalanish uchun to'lovlarni amalga oshirish uchun;
- ✓ ko'chmas mulk bozorini faoliyati uchun;
- ✓ ipotekani rivojlantirish va boshqalar uchun.

Tuman yer axborot tizimida tuman yerlarining har bir uchastkasi bo'yicha mukammal ma'lumotlar bazasi yig'iladi, saqlanadi, qayta ishlanadi hamda davlat va hususiy talabgorlarga yetkaziladi. Avtomatlashgan yer axborot tizimini quyidagicha ta'riflash mumkin — yer-kadastr axborotini kiritish, unga ishlov berish, saqlash va olishni ta'minlaydigan dasturiy texnik vositalar, ko'lamli-atribut ma'lumotlar bazalari majmuidir. Asosiy avtomatlashgan yer axborot tizimi (AAYAT) bu ma'lumotlarni tizim doirasida boshqa, yer bilan umumlashtirilgan ma'lumotlar bilan uyg'unlashtirish imkonini beruvchi unifikatsiya qilingan koordinatalar tizimidir.



1- rasm. ArcGIS dasturida Qarshi tumani qishloq xo'jalik xaritasini yaratish.

Tumanda elektron xarita har bir massivlar bo'yicha, massivlardagi qishloq fuqorolari yig'ini bo'yicha, fermer xo'jaliklari bo'yicha va har bir yer uchastkalari bo'yicha ishlab chiqiladi. Unda har bir massiv yer tuzuvchilari o'ziga birlashtirilgan hudud haqidagi ma'lumotlarni to'playdilar va tumanga taqdim qiladi. Tuman yer resurslari va davlat kadastri bo'limida bir yoki ikkita mutaxassis u ma'lumotlarni kompyuterga kiritadilar va to'liq axborot ishlab chiqarish jarayonlarning bajarilishini ta'minlaydi.

Xulosa.

Muhim ahamiyatga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi sohasida, xususan yer resurslaridan foydalanishda iqtisodiy–huquqiy islohotlarni amalga oshirish agrar sohaning respublikamiz iqtisodiyotida xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida islohotlarni amalga oshirishda asosiy ahamiyatga ega ekanligi belgilangan.

Qishloq xo'jaligi xaritalarini tuzishda GAT dasturlaridan foydalanib, hududlarning tabiiy va ijtimoiy–iqtisodiy sharoitidan kelib chiqqan holda mutanosib ravishda hududini tashkil qilish, mavjud sug'oriladigan yerlar mahsuldorligini oshirishga mintaqa tuproqlarining meliorativ holatini yaxshilash, yerlarni hisobga olish, plan va xaritalarini tuzish natijasida hamda ilg'or fan yutuqlarini qo'llash asosida erishish mumkin. Ushbu tarmoqda yerlarni hisobga olish vazifasini bajarishda mavzuli va qishloq xo'jalik xaritalarini tuzish muhim o'rin tutadi. Ular yordamida voqea va

hodisalarning makon va zamonda tarqalishi ko'rgazmali tarzda ifodalanadi, massiv yerlarini hisobga olinishi va o'ziga xos xususiyatlari taqqoslanadi, ilmiy tahlil qilish imkoni yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5742-sonli farmoni.
2. Berlyant A.M. Kartografiya. – M.: Aspekt Press 2002
3. Mirzaliev T., Safarov E.Yu., Egamberdiev A., Qorabaev J.S. Atlas kartografiyasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent.: «Universitet», 2015
4. O'.Muxtorov, A.Inamov. “Geoaxborot tizim va texnologiyalar” fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha o'quv qo'llanma. T.TIMI.2017
5. Safarov E., Musayev I. Geoaxborot tizimi va texnologiyalar. T.,TIMI, 2008 -160 b



RELE HIMOYASINING ENERGIYA SISTEMADAGI VAZIFASI

Javohir Boboqulov Saydulla o'gli

Toshkent davlat transport universiteti magistiri

Sitora Abdiyeva Isomiddin qizi

Toshkent davlat transport universiteti talabasi

Annotatsiya: Shikastlanishlar katta avariya toklarini hosil qiladi, energiya sistema va tortuvchi nimstansiyalarning shinasida kuchlanish pasayishini yuzaga keltiradi. Shikastlanish toki katta miqdorda issiqlik ajratadi, bu esa elektr uzatish liniya simlari va qurilmalarida xavfli qizishini yuzaga va bizga o'ta kata iqtisodiy zararga olib kelishi mumkin. Bularning oldini olish maqsadiga energiya sistemadagi himoyalarni kurib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Energotizim, tortuvchi nimstansiya, elektr uzatish liniyasi, tok, kuchlanish, himoya rele.

Energotizimning elektr qismida, ya'ni elektr stansiyasi (ES) va podstansiyaning (PS) elektr uzatish liniyasi (EUL) va elektr energiya iste'molchilarining elektr qurilmalarida shikastlanish va nonormal ish rejimlari bo'lishi mumkin. Kuchlanish pasayishi elektr energiya iste'molchilarining normal ishlashini va energosistema ESlarini turg'un parallel ishlashini buzadi.

Nonormal rejimning xavfli oqibatini oldini olish mumkin, agarda o'z vaqtida oldini olish choralari ko'rilsa (masalan, agar tok va kuchlanish oshganda ularni kamaytirish), zarur bo'lsa, ya'ni uning ish rejimi ruxsat etilgandan oshsa qurilmani o'chirish kerak.

Shikastlangan joyni aniqlash va o'chirishni juda tez – ko'p hollarda sekundning yuzdan va o'ndan bir jarayonida amalga oshirish zarur, buni ta'minlash faqat avtomatika vositalari amalga oshiradi. Buning natijasida energetika tizimi va uning elementlarini shikastlanishlar va nonormal rejimlarning xavfli oqibatlaridan


himoyalovchi avtomatik qurilmalarni yaratish va tadbiq etish zaruriyati paydo buldi. Birinchi bo‘lib shunga o‘xshash avtomatika (himoya) sifatida eruvchan saqlagichlar qo‘llanildi. Natijada elektr avtomatlardan yordamida tayyorlangan himoya qurilmalari yaratila boshlandi. Shu tariqa **himoya rele** himoyasi deb nomlandi.

Rele himoyasi (RH) energetika tizimining barcha elementlarini doimiy tarzda kuzatib boradi va shikastlanish hamda nonormal rejim paydo bulsa unga ta’sir javob beradi. *Agar shikastlanish paydo bo‘lsa RH shikastlangan hududni aniqlaydi (masalan, 1-rasmda TS transformator) va shikastlangan toklarni ajratish uchun muljallangan maxsus Q uzgichga ta’sir etib energetika tizimidan ajratadi.*

Agar nonormal rejimlar vujudga kelsa RH ularni aniqlashi kerak va buzilish xarakteriga bog‘liq holda yoki agar shikastlanish bo‘lish xavfi paydo bo‘lsa qurilmani o‘chirish kerak, yoki normal rejimni qayta tiklash uchun avtomatik operatsiyalarni amalga oshirish kerak, yoki operativ personalga signalni amalga oshirish, u esa nonormal holatni bartaraf etish uchun chora ko‘rishi kerak.

Selektivlik (tanlovchanlik). Rele himoyasining selektivligi yoki tanlovchanligi deb uning tarmoqning faqat shikastlangan uchastkasini o‘chirish qobilyati tushuniladi. Agar K1 nuqtada qisqa tutashuv sodir bo‘lsa (1- rasm), rele himoyasi shikastlangan elektr tarmoqning shikastlanish joyiga eng yaqin bo‘lgan Q2 o‘chirgichini o‘chirishi kerak. Rele himoyasining bunday harakati natijasida shikastlangan tarmoqdan tashqarish barcha iste’molchilarning elektr ta’minoti saqlanadi. Agar qisqa tutashuv K2 nuqtada bo‘lsa, rele himoyasi tanlovchan ishlashi natijasida shikastlangan L1 tarmoqni o‘chirishi, L2 tarmoq esa ish holatida qolishi kerak. Bundan iste’molchilarning ta’minoti saqlanadi[1].

Shunday qilib tanlovchanlik rele himoyasining shartli talabi hisoblanadi, undan cheklanish faqat tezkorlikni ta’minlash uchun ruxsat etiladi, qachonki noselektiv o‘chirish o‘zidan xavfli oqibatlarni keltirib chiqarmasa.



1 - rasm. Qisqa tutashuvni tarmoqdan selektiv o‘chirish.


Tezkorlik. Qisqa tutashuvni o‘chirish shikastlangan joyni buzilish o‘lchamini kamaytirish, qurilmalar, kabel va havo elektr uzatish tarmog‘ining termik barqarorligini ta‘minlash, elektr uzatish tarmog‘ini avtomatik qayta ulash va yig‘ma shinalari effektivligini oshirish uchun, iste‘molchilarning ishida kuchlanish pasayishini ta‘sirini kamaytirish va elektrstansiya generatorlari turg‘un parallel ishlashini saqlanishi katta tezlikda amalga oshirilishi kerak.

Yuqorida keltirilgan qisqa tutashuvning to‘liq o‘chirish vaqti $t_{q.o'}$ rele himoyaning ishlash vaqti t_h va qisqa tutashuv tokini ajratadigan uzgichning vaqtlari yig‘indisidan iborat, ya‘ni: $t_{q.o'} = t_h + t_{o'}$

Qisqa tutashuvni o‘chirish vaqtini kamaytirish uchun rele himoyani va uzgichni ishlashini tezlashtirish kerak. 220-750 kV li uzgichlar $t_{o'}=0,04\div 0,06$ sekunda ishlaydi. Juda tez ishlaydigan releli himoya muhim ahamiyatli energetika tizimlarda qo‘llanilib, $t_{o'} = 0,02\div 0,04$ sekunda ishlaydi[3].

Sezgirlik. Agar releli himoyaning ishlash zonasi chegerasida qisqa tutashuv sodir bo‘lsa, u etarlicha sezgirlikka ega bo‘lishi kerak. Masalan, RH1, u himoyalaydigan AB (birinchi-asosiy) hududdagi shikastlanishni o‘chirishi kerak (2 - rasm) va bundan tashqari keyingi RH2 himoyalaydigan BC hududdagi (ikkinchi-zahira) qisqa tutashuvga ham etarlicha sezgirlikka ega bo‘lishi kerak. RH1 ni ushbu funksiyasi uzoqdan zahiralash deb nomlanadi. Agar ikkinchi hududda (RH2) qisqa tutashuv sodir bo‘lsa yoki Q2 o‘chirgich buzilishi natijasida ishlamay qolsa bunday zahiralash lozim bo‘ladi. Shunday qilib, uzoqdan zahiralashga mo‘ljallangan releli himoya keyingi hududning (2 - rasm BC) oxiridagi qisqa tutavuviga ham sezgir bo‘lishi kerak.

Reli himoyaning sezgirligi elektr energetika tizimining barcha rejimlarida, hattoki minimal rejimda ham etarli darajada bo‘lishi kerak. Agar A elektrostansiyaning (2 - rasm) bitta generatori yoki bir necha generatori ishdan chiqsa bunday rejim sodir bo‘ladi.



2 - rasm. Himoyaning ishlash zonalari.

Ishonchlilik. Ishonchlilik talabi qo‘yidagidan iborat, rele himoyasi u o‘rnatilgan oraliq zonasida qisqa tutashuv bo‘lsa ishonchli ishlashi kerak va agar uning ishlashi ko‘zda tutilmagan holatlarda noto‘g‘ri ishlamasligi kerak. Releli himoyaning ishlamay qolishi yoki noto‘g‘ri ishlashi iste‘molchilarning elektr ta‘minotiga qo‘shimcha buzilishlarni, ba’zida tarmoq ahamiyatiga molik avariya olib keladi[2].

Yuqorida keltirilgan nazariy ma‘lumotlar va hisoblash natijalari asosida qo‘yidagi xulosa kelish mumkin: Elektr uskunalarni tuzilish qoidalari (EUTQ) bo‘yicha «liniya-transformator» blokida manba tomondan liniyada shikastlanishlarni aniqlaydigan himoyalarni qo‘llash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Siddikov I.X. Releli himoya va avtomatika. Ma‘ruzalar matni. - T.:ToshDTU. 1999 yil.
2. Э.И.Басс, В.Г.Дорогунцев «Релейная защита электроэнергетических систем» Москва, Издательство МЭИ, 2002 г.

QUYOSH KONSENTRATORI YORDAMIDA DEMINERALLANGAN SUVNI OLISH

Qayumov Javoxir

Toshkent davlat texnika universiteti magistranti

Xolmurodov Ismoiljon

Toshkent davlat texnika universiteti magistranti

Annotatsiya: Quyosh nuri issiqlik energiyasini paraboloid konsentratori yordamida yig'ib, absorberga yo'naltirish orqali issiqlik mexanikasi qurilmalaridan foydalangan holda deminerallangan suv ishlab chiqish ustida ish olib borish.

Kalit so'zlar: Paraboloid konsentratori, quyosh elementi, tekstura, kompleks nur sindirish ko'rsatkichi.

O'zbekiston quyoshli mamlakatlardan biri hisoblanadi va uning energiyasidan foydalanish keng ko'lamda tarqalmoqda.

Mamlakatimizda quyosh nurlanish oqimi energiyasini o'zlashtirish, quyosh energiyasini boshqa tur energiyaga o'tkazishga yo'naltirilgan quyosh qurilmalarini qishloq va kommunal xo'jaligida keng qo'llash yuzasidan jadal tadqiqotlar olib borilmoqda. Hozirgi vaqtda geliotexnika sohasida dolzarb bo'lib turayotgan masalasi bu quyosh qurilmalarini samaradorligini va rentabelligini oshirishdir.


Bu masalani yechish o'zaro bog'liq xolda ikki yo'nalishda olib borilmoqda.

- *Qurilmani tan narxini kamaytirish.*
- *Qurilma FIK ni oshirish.*

Keyingi yillarda olib borilgan izlanishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, quyosh energiyasini o'zlashtirishda istiqbolli va iqtisodiy raqobatbardosh yo'nalish bu ko'zguli mujassamlashtiruvchi tizimlar asosidagi quyosh qurilmalarini ishlab chiqishdan iborat. Yuqoridagilardan kelib chiqib ushbu loyihada, maishiy va qishloq xo'jaligida foydalanish uchun tayyorlanish jihatidan sodda kichik konstruktsiyali

yaxlit parabolik va tarkibli parabolosilindrik quyosh konsentratorlarini loyixalalari taqdim etildi.

Qurilmaning ishlatilishi: Paraboloid konsentratorida quyosh nuri yig’iladi va absorberga o’rnatilgan yuzali issiqlik almashinuv apparatiga yo’naltiriladi. Issiqlik almashinuv apparati yuqori qismiga baraban o’rnatilib u issiqlik natijasida hosil bo’layotgan bug’ va qaynagan suv uchun separator vazifasini bajaradi. Ushbu bug’ kondensatorga yuboriladi va sovituvchi suv yordamida kondensat holatidagi deminerallangan suv og’irlik kuchi ta’sirida kondensator tubiga yig’iladi. Barabandagi suv zaxirasi ta’minoti kondensatoridagi sovituvchi suv qaytishidan ta’minlab boriladi. Barabanda naqiplar yig’ilib qolishini oldini olish maqsadida, uning pastki qismiga doimiy tuzsizlantirish liniyasi o’rnatiladi. Bu liniyadan chiqayotgan tuzli suv issiqlik energiyasidan foydalanish uchun trubkali issiqlik almashinuv apparatini qo’llagan holda baraban ta’minot suvini isitishda foydalaniladi. Qurilmaga o’rnatilgan klapanlar esa konsentratorida yig’ilayotgan miqdoriga proporsional ravishda ta’minot suvi, tuzsizlantirish suvi va bug’ sarfini boshqarish imkonini beradi.



1-rasm. Quyosh konsentratori yordamida deminerallangan suvni olish.

$$Q_{\Sigma} = Q_{is} + Q_q \quad (1)$$

Q_{is} – Qurilmaga kirayotgan taminot suvini temperaturasi qaynash temperaturasiga kutarish uchun kerak buladigan issiqlik miqdori.

Q_q – Qaynash temperaturasiga yetgan suvni bug’ga aylantirish uchun ketadigan issiqlik miqdori.

Q_{Σ} – Qurilmaga kirayotgan taminot suvini parga aylantirish uchun ketadigan issiqlik miqdori.

Bizga ma’lumki moddani temperaturasi Δt -ga kutarish uchun beriladiodan issiqlik miqdori quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$Q_{is} = cm\Delta t \quad (2)$$

Qaynash temperaturasiga yetgan moddani qaynatish uchun beriladigan energiya miqdori esa quyidagicha formula yordamida hisoblanadi.

$$Q_q = \lambda \cdot m \quad (3)$$

Qurilmani ishlab chiqaradigan energiyasi quyidagicha hisoblanadi

$$W_{\Sigma} = W_p + W_{kon} \quad (4)$$

Quyosh panelini beradigan energiyasi quyidagiga teng.

$$W_p = P_{max} \cdot t \eta_1 \quad (5)$$

Konsentratorni absorberga beradigan energiyasi esa tushayotgan S yuzaga I quyosh intensivligini ko’paytmasiga teng.

$$W_{kon} = I \cdot S \cdot t \eta_2 \cdot \eta_3 \quad (6)$$

Qurilma qancha miqdordagi suvni parga aylantirishini esa quyidagicha topamiz.

$$Q_{\Sigma} = W_{\Sigma} \quad (7)$$

Qurilmani berayotgan energiyasi bilan suvni parga aylantirish uchun ketadigan energiya miqdorlarini tenglashtiramiz.

$$cm\Delta t + \lambda \cdot m = P_{max} \cdot t \eta_1 + I \cdot S \cdot t \eta_2 \cdot \eta_3 \quad (8)$$

$$m = \frac{P_{max} \cdot t \eta_1 + I \cdot S \cdot t \eta_2 \cdot \eta_3}{c\Delta t + \lambda} \quad (9)$$

Qurilma m masala suvni parga aylantirib beradi. Biz qurilmani foydaliligini oshirish maqsadida taminot suvini avval kondensator orqali o'tkazganmiz bunda parni suvga aylantitib beradi va taminot suvini temperaturasini ko'tarishga hizmat qiladi. Kondensatordan chiqqan suvni esa barabanda separatsiya bo'lgan suv bilan qizdirib olamiz va bug'latgichga ya'ni absorberga yana yuboramiz. Absorberga kiruvchi suv ham qiziydi.

Texnologik va demierallangan suvlarning sifat ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Quyidagi suvlar uchun me'yor	
	Texnologik	Deminerallangan
Vodorod ko'rsatkich, pH	7.4	5.2
Komponentlar tarkibi, mg/l:		
xloridlar;	9,7	0,02
sulfatlar;	280	0,26
nitratlar;	33	0,13
bikarbonatlar;	250	0,43
silikatlar;	10	0,03
kalsiy;	109	0,16
magniy;	45,3	0,07
temir;	0,05	0,00
quruq qoldiq	813	1,2

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мухитдинов М.М., Эргашев С.Ф. Солнечные параболоцилиндрические установки. Ташкент: ФАН, 1995. -208 С. 41. Абдурахманов А.А., Акбаров
2. Р.Ю., Собиров Ю.Б., Юлдашев А.А. Метод измерения и контроля оптико-геометрических характеристик зеркал и стекол. Гелиотехника, - 2003, №1, С. 72-75.

TEMIR YO’L TRANSPORTIDA ELEKTR BOSHQARISH QURILMALARI VA UNING TURLARI

Tirkashov Shehroz Uchqun o’g’li

Adizqulov Ilhom Ulug’bek o’g’li

Toshkent davlat transport universiteti talabalari

Annotatsiya: Avtomatik boshqaruvni amalga oshiruvchi texnik vositalar majmui avtomatik boshqarish tizimni (ABT) tashkil qiladi. Avtomatik boshqarishning vazifasi, real foydalanish sharoitidagi boshqarish obyektini, bajarilishi talab etilgan funksiyalarini insonni ishtirokisiz bajarishni o’z ichiga olishdan iborat.

Kalit so’zlar: Avtomatik boshqarish, texnik obyekt, ekstremal tizim, adaptiv tizim.

Avtomatik boshqarish-bevosita insonning ishtirokisiz berilgan ishlash algoritmi bo’yicha texnik obyektlarni boshqarish (jarayonni, asboblarni, mashinalarni, tizimlarni). Avtomatik boshqarish texnik vositalar yordamida, boshqariladigan obyekt holati haqidagi axborotlarni avtomatik ravishda yig’ishni va ishlov berishni ta’minlash (datchiklar, analizatorlar, o’zgartgichlar, EHM va boshqalar) va zarur bo’lgan boshqarish ta’sirlarini uning ijrochi organlari uchun tuzish (tuzuvchilar, kuchaytirgichlar, o’zgartirgichlar, rostlagichlar, ijrochi mexanizmlar va boshqalar).


Avtomatik boshqaruvni amalga oshiruvchi texnik vositalar majmui avtomatik boshqarish tizimni (ABT) tashkil qiladi. Avtomatik boshqarishning vazifasi, real foydalanish sharoitidagi boshqarish obyektini, bajarilishi talab etilgan funksiyalarini insonni ishtirokisiz bajarishni o’z ichiga olishdan iborat. Avtomatik boshqarish uni sozlash bo’yicha ekstremal, optimal (maqbul) va adaptivlarga (moslashgan) ajratiladi.

Ekstremal tizimlarda, chiqishdagi qiymat, oldindan aniqlanmagan va bilib bo’lmas darajada o’zgaradigan, barcha mumkin bo’lganlardan doim ekstremalini

qabul qilsin. Uni topish uchun tizim uncha katta bo'lmagan sinash uchun belgilangan harakatlarni bajaradi va chiqish qiymatini ushbu sinov harakatlardan ta'sirlanishini tahlil qiladi.

Shundan so'ng boshqaruv ta'sirlari ishlab chiqiladi, ular chiqish qiymatini ekstremal qiymatga yaqinlashtiradi. Jarayon uzluksiz davom etadi va faqat teskari aloqadan foydalangan holda bajariladi. Maqbul tizimlar, ekstremal tizimlarning murakkabroq varianti hisoblanadi. Bunda, odatda, g'alayon va chiqish qiymatlarini o'zgarish xarakteri, boshqarish ta'sirlarini chiqish qiymatlariga xarakteri haqidagi ma'lumotlarga ishlov beriladi, evristik xarakterga ega bo'lgan ma'lumotlar hamda nazariy ma'lumotlar ishlatilishi mumkin.

Adaptiv tizimlarda, parametrlarni avtomatik tarzda qayta sozlash yoki ABTning prinsipial sxemasini o'zgaruvchan tashqi sharoitlarga moslashtirish maqsadida o'zgartirish imkoniyati ko'zda tutilgan. Shunga muvofiq o'zi sozlanuvchi va o'zi tashkil etuvchi adaptiv tizimlarga bo'linadi. Boshqarish obyektining haqiqiy holati, ABTning bir qismi sifatida, ishchi parametrlarning vektorlari (majmui) bilan aniqlanadi. Umumiy holatda ular vaqt funksiyasi hisoblanadi. Ushbu vektorlarni avtomatik boshqariladigan obyekt bilan aloqasi 1- rasmda ko'rsatilgan.



1-rasm. Avtomatik boshqariladigan obyekt bilan aloqasi

Bunda, $X(t)$ – obyektning kirish parametrlari vektori, obyektning funksional vazifasi va uning ishlash tartibi bilan aniqlanadi;

$Y(t)$ – obyektning chiqish parametrlari vektori, rostlash yoki boshqarishga ega;

$Z(t)$ –g'alyonlanish vektori, atrof muhitdan va ABT ning ichida g'alayonlanuvchi ta'sirlarning majmuasini tashkil etadi;

$U(X,Y,Z,t)$ –boshqaruvchi ta’sirlar vektori. Ishchi parametrlar jismoniy qiymatlarni o,z ichiga oladi: bosim, sarf, tezlik (chiziqli va aylanuvchan), harorat, kuchlanish, tok kuchi, chiziqli va burchak surilishlaridan iborat.

Avtomatik boshqarishning vazifasi, boshqaruv ta’sirlarni $U(X,Y,Z,t)$ shunday qonunini tuzish kerakki, bunda boshqarish obyektining kirish $X(t)$ va chiqish $Y(t)$ parametrlari orasidagi berilgan nisbat ta’minlansin, g’alayon ta’sirlar $Z(t)$ mavjud bo’lganda. Boshqarish maqsadiga bog’liq holda, boshqarish masalasining to’rt turidan birontasiga oid deb topilishi mumkin: stabilizatsiyalash, kuzatish, optimallashtirish (maqbullashtirish), dasturni bajarish. Stabillashtirish masalasi, chiqish parametrini $Y(t)$, kirish parametri $X(t)$ o,z garganda va g’alayon $Z(t)$ mavjud bo’lganda, doimiy saqlab qolish hisoblanadi.

Stabillashtirish masalasiga misol, transformatorning ikkilamchi cho’lg’amidagi kuchlanishni doimiy saqlab turish.

Kuzatish masalasi, agar chiqish parametrini $Y(t)$ o,z garishi oldindan aniqlanmagan bo’lsa, lekin uning bir qancha chegaraviy qiymatlari aniq bo’lsa, bu holda boshqarish ta’sirlaridan foydalanish zarur bo’ladi. Misol, avariya yoki ogohlantirish signalizatsiyasi.

Dasturni bajarish masalasi, chiqish parametrini $Y(t)$ qat’iy algoritm bo’yicha o,z gartirish zarur bo’lgan hollarda sodir bo’ladi. Misollar, elektr jihozlarni ma’lum vaqtda ishga tushirish va o,z chirish, generatorni tarmoq bilan parallel ishlashga ulash amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avtomatizatsiya dispetcherskogo upravleniya v elektroenergetike./pod red. Rudenko Yu.N., Semenova V.A. M.: Izdatelstvo MEI. 2000 g.- 345 s.
2. Dyakov A.F., Ovcharenko N.I. Mikroprotsessornaya reley naya zashita i avtomatika elektroenergeticheskix sistem: uchebnoe posobie dlya studentov vuzov. M: Izdatelstvo MEI. 2000. - 199 s.
3. <http://rza.org.ua>

МАТЕМАТИКА ПРИ УПРАВЛЕНИИ ЗАПАСАМИ. МОДЕЛЬ УИЛСОНА

Жаксылыкова Хурлиман Караматдин қизи

Национальный университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека

Аннотация: При управлении запасами у нас возникают такие вопросы как: «Когда пополнять запасы и какой должен быть объём заказа на пополнение?»

Запасы могут отличаться стоимостью, весом, объемом. Некоторые запасы являются скоропортящимися и не могут храниться долго или быстро устаревают. Математика может помочь в планировании работы заводов, складов и магазинов. Математическая теория планирования сейчас является одной из быстро развивающихся теорий. Написано много работ и книг. По сей день создаются и используются самые разные модели управления запасами.

Ключевые слова: оптимальный размер заказа, хранение запасов, издержки, точка реализации заказа, возобновление заказа.

Одной из широко применяемых моделей в управлении запасами является **модель Уилсона**, определяющая оптимальный объем заказа, позволяющий минимизировать расходы, связанные с заказом и хранением запасов.

Основные предположения модели Вильсона:

1. Спрос на продукт известен.
2. Время выполнения заказа известно и постоянно
3. Получение товара происходит мгновенно.
4. В модели не учитываются скидки.
5. Не допускается дефицит.

Основные переменные в модели Вильсона:

- Q^* - оптимальный размер заказа

- C - издержки размещения заказа
- R - ежегодный спрос на продукт
- P - издержки на покупку единицы продукта
- F - коэффициент издержек хранения запаса, доля издержек на покупку продукта, который используется в качестве издержек хранения (обычно 10-15 %)
- H - издержки хранения товара в год ($H = PF$)
- t - время реализации заказа
- τ - период возобновления заказа
- θ - точка размещения заказа
- L^* - общие годовые затраты
- T - момент подачи заказа (за единицу времени выберем год)

Формулу оптимального размера заказа для одного продукта представим в виде минимума следующей функции издержек:

$$TC(Q) = PR + \frac{CR}{Q} + \frac{PFQ}{2}$$

Продифференцируем обе части уравнения и приравняем выражение к нулю:

$$\frac{dTC(Q)}{dQ} = \frac{d}{dQ} \left(PR + \frac{CR}{Q} + \frac{PFQ}{2} \right) = 0$$

Получаем:

$$\frac{PF}{2} - \frac{CR}{Q^2} = 0$$

Решив уравнение относительно Q , получаем:

$$\frac{PF}{2} = \frac{CR}{Q^2}$$

$$Q^2 = \frac{2CR}{PF}$$

$$Q^* = \sqrt{\frac{2CR}{PF}} = \sqrt{\frac{2CR}{H}}$$

Пример. Потребность цеха в заготовке некоторого товара составляет $R=72000$ шт./год. Дефицит товара отсутствует. Издержки размещения составляют $C=100$ денежных единиц., издержки содержания одной заготовки товара равны $H=10$ ден.ед. Среднее время выполнения заказа $t=20/365$ дней.

Определить:

1. Оптимальную партию заказа (Q^*)
2. Период возобновления заказа (τ)
3. Точку размещения заказа (θ)
4. Общие годовые затраты (L^*)
5. Момент подачи заказа (T)

$$\text{Решение.1) } Q^* = \sqrt{\frac{2CR}{PF}} = \sqrt{\frac{2CR}{H}} = \sqrt{\frac{2 \times 100 \times 72000}{10}} = 1200 \text{ (шт.)}$$

$$2) \tau = \sqrt{\frac{2C}{HR}} = \sqrt{\frac{2 \times 100}{10 \times 72000}} = 0.017 \text{ года} \approx 0.017 \times 365 \approx 6 \text{ дней}$$

$$3) \theta = tR - \left[\frac{t}{\tau} \right] Q^* = \frac{20}{365} \times 72000 - \left[\frac{\frac{20}{365}}{0.017} \right] \times 1200 = 345 \text{ шт.}$$

$$4) L^* = HQ^* = 10 \times 1200 = 12000 \text{ денежных единиц}$$

$$5) T = \frac{Q^* - \theta}{R} = \frac{1200 - 345}{72000} = 0.012 \text{ года} = 4 \text{ дня.}$$

Ответ: Предприятие должно заказывать по 1200 шт. заготовок каждые 6 дней. Заказ на поставку новой партии должен размещаться на 4 день после предыдущей поставки. Количество оставшихся заготовок составит 345 шт. В этом случае общие годовые затраты будут минимальными и составят 12000 денежных единиц.

Заключение: Управление запасами — это процесс определения и поддержания оптимального размера запасов, а также обеспечение их финансирования. Запасы на предприятии создаются для того, чтобы в нужный момент была возможность доставить определенный товар потребителю. Т. к может быть невыгодно или физически невозможно, чтобы товары поступали именно тогда, когда на них возникает спрос. Когда запасы отсутствуют

потребителю приходится долго ждать заказы. Также, если потребителю есть что предложить потребителю, то это может увеличить объём продаж.

Список использованной литературы:

1. Дж. Хедли, Т. Уайтин. Анализ систем управления запасами- М.: Наука, 1969.
2. Бланк И. А. Финансовый менеджмент: Учебный курс. – 2-е изд.,-К.: Эльга, Ника-Центр, 2008.
3. <http://ru.wikipedia.org>- < свободная энциклопедия >



ХАУДАГ КОНИНИНГ НЕФТ ВА СУВ ҚАЗИБ ЧИҚАРИШ ТАҲЛИЛИ

Дононов Жасур Урал ўғли,

Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти ассистенти

Абдуназаров Исобек Алмуродович, Хушвақтов Фозил Уткир ўғли

Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти талабалари

Аннотатсия: Хаудаг конида қатлам босимини ушлаб туриш ва қатламнинг нефт бериш хусусиятини ошириш учун бўр даврининг сеноман қатлами геотермал иссиқ сувини бухоро қатламига хайдаш давом эттирилди. Хаудаг нефт кони Сурхондарё вилояти Жарқўрғон тумани ҳудудида жойлашган.

Калит сўзлар: Жарқўрғон, Душанбе, гумбаз, сеноман, орографик, континентал, кўтарилма.

Кон Термиз шаҳридан 55 км шимолий-ғарбда ва Жарқўрғон шаҳридан 18 км шимолий-ғарбда жойлашган. Коннинг Жарқўрғон, Термиз шаҳарлари билан транспорт алоқаси Сурхон воҳаси маркази бўйлаб ўтган автомобил ва темир йўллари орқали амалга оширилади. Кондан 18 км жанубий-шарқда Жарқўрғон нефт тўплаш резервуар парки ва нефт қуйиш эстакадаси қурилган бўлиб, шу ердан товар нефт қувур орқали “Жарқўрғоннефтни қайта ишлаш” ҚК га узатилади ва бундан ташқари Термиз-Душанбе темир йўли орқали цистерналарда истеъмолчиларга юклаб жўнатиш имконияти мавжуд. Туман иқлими-континентал, иссиқ узоқ муддатли ёзда ўртача ҳарорат $+45^{\circ}\text{C}$ дан $+50^{\circ}\text{C}$ гача июл-август ойларида, қиш ойларида ҳарорат $+5^{\circ}\text{C}$ дан -10°C гача.

Орографик жihatдан мазкур кон меридионал йўналишдаги баланд бўлмаган тепаликлардан ташкил топган. Энг баланд тепалик нуқтаси $+503$ м га етади.

1931 йилда Хаудаг майдонида геологик тасвирлаш ёрдамида кон кўтарилма тузилиши Н. П. Туаев томонидан аниқланди. 1932 йилда унинг

тавсиясига асосан кон гумбаз қисмида қидирув қудуғи бурғулаш мўлжалланди. 1-қидирув қудуғи коннинг жанубий кўтарилмасининг жанубий қисмида жойлаштирилди ва 1934 йилнинг феврал ойида бурғулаш вақтида чуқурлик 158 м га борганда палеоген даврининг бухоро қатлами I-горизонтидан нефт фаввораси олинди, кунлик 140 тонна нефт қазиб чиқарилди.

Кон 1935 йилда ишга туширилган бўлиб, 4 та махсулдор қатлам (I-, II-, III, IV-горизонтлар) дан иборат. Ҳозирги вақтда кон охириги босқичда ишлатилаяпти. Махсулдор қатламларнинг чуқурлиги 110-200 м ни ташкил қилади.

Кон механизация усулида, чуқурлик насоси ёрдамида ишлатилади. 2013 йил охирида эксплуатациядаги ва ҳаракатдаги қудуқлар мажмуи 34 та қудуқни ташкил этди. Нефт берувчи эксплуатацион қудуқлар мажмуи ўтган йилга нисбатан 1 та қудуққа кўпайди. 1 та қудуқни сувланганлиги сабабли назоратдаги фондига ўтказилди.

Нефт ва сув қазиб чиқариш ҳаракати тахлили. 2013 йилда кон бўйича 44129,0 м³ суюқлик қазиб чиқарилган бўлиб, шундан 9183,0 тоннаси нефт ва 34946,0 м³ сувдир. 2012 йилга нисбатан суюқлик қазиб чиқариш 1479 м³ кўпайган бўлиб, шундан сув қазиб чиқариш 1820 м³ га кўпайган бўлса, нефт қазиб чиқариш 341 тоннага камайди, яъни ўтган йилга нисбатан ўсиш 96,4 % ни ташкил этди. Умумий йиллик сувланиш даражаси – 79,2 % ни ташкил этди. Бу кўрсаткич 2012 йилга нисбатан 1,5 % га ошган. Ҳисобот йилида лойиха бўйича ўртача кунлик 14,7 тн. ўрнига амалда ўртача кунлик 26,1 тн нефт қазиб чиқарилди.

Бўр қатламининг (сеноман) геотермал сувини бухоро қатламига ҳайдашдан олинган нефт ўсиши 2013 йилда 600 тоннани ташкил этди, шу усул бошлангандан буён 62015 тонна кўшимча нефт қазиб чиқарилди. Каттақум 2-сонли қудуғидан олинаётган геотермал иссиқ сувни Хаудаг 92 - сонли қудуғи орқали палеоген даври бухоро махсулдор қатламларига ҳайдалмоқда. Бу қудуқ осма қувурлари ҳар 4-5 ойда туз ўтириб қолиши натижасида алмаштирилиб турилади ва шу билан қудуққа сув ҳайдаш тўхтовсиз олиб борилмоқда.

2013 йилда кудуқлар иш мажмуи 11978 кудуқ-кунни ташкил этди. Бу ўтган йилга нисбатан 80 кудуқ-кун кўпдир. Хаудаг кони бўйича кудуқлардан ўртача кунлик суёқлик олиш 3,7 тоннани ташкил этди, шундан 0,8 тн/кун нефт, 2,9 тн/кун сувдир. 2012 йилга нисбатан ўртача кунлик нефт қазиб чиқариш ўзгармаган бўлиб, сув қазиб чиқариш эса 0,1 м³/кунга кўпайди.

Ишлаб чиқариш бошидан қазиб чиқарилган суёқлик 3052750,0 м³ ни ташкил этди, шундан 1642957,0 тоннаси нефт, 1409793,0 м³ сувдир. Умумий сувланиш 46,2 % ни ташкил этди.

Қатлам босими ва газ омили харакати. Хаудаг конида қатлам босимини ушлаб туриш ва қатламнинг нефт бериш хусусиятини ошириш учун бўр даврининг сеноман қатлами геотермал иссиқ сувини бухоро қатламига хайдаш давом эттирилди. Иссиқ сув Каттақум № 2 кудуғидан олинмоқда. 2013 йилда қатламга хаммаси бўлиб 120,450 минг м³ иссиқ сув хайдалган. Иссиқ сув 1 та сув хайдаш кудуқғи (92 - сонли кудуқ) орқали нефт қатламларига хайдалмоқда.

Бу усул қўлланиб бошлангандан буён хайдалган сув 4568,580 минг м³ ни ташкил этади. Кон эксплуатация қилиниб бошлангандан буён қазиб олинган сув 1409,746 минг м³ бўлди. Хайдалган иссиқ сув хажми қазиб олинган сув хажмидан 3158,834 минг м³ кўпдир. Бунинг натижасида кондаги сатх юқори кўтарилиши керак эди, лекин шу пайтгача қатлам босими 9 - 9,5 атм. дан ошгани йўқ.

Хаудаг конида қазилган илк кудуқлар фаввора усулида ишлатилган бўлиб, бошланғич қатлам босими 30 атм. ни ташкил этган. Хозирда эса қатлам босими 9,5 атм. ни ташкил этмоқда (бу кудуқ сатхини ўлчаш орқали аниқланган).

Хаудаг конида нефт таркибидаги газ миқдори кам бўлганлиги сабабли газ омили ҳисобга олинмади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. “Жарқўрғоннефт” ОАЖ геология хизматининг фонд маълумотлари
2. А.П.Югай. “Сурхандарё чўкмасининг Келиф-Сариқамиш ва Боботоғ-Дасманага антиклинорийларига бирикиш зоналарида ОГТ кидирув-сейсморазведка ишлари”. Яккабоғ қишлоғи, 1997.
3. 2. Абидов А.А. Нефть ва газ геологияси русча-ўзбекча изоҳли лугат. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000. – 524 б.



O'ZBEKISTON III RENESSANS YO'LIDA

G'afforova Dilshoda Amirqulovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti, o'qituvchisi

Ergashova Munisa Hoshim qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti magistri

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonning III renessans yo'lida amalga oshirilgan islohotlar va maktabgacha ta'lim sohasidagi o'zgarishlar haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Islohot, renessans, ehtiyoj, maktabgacha ta'lim vazirligi.

Inson bolasi tug'ilar ekan, u turli xil ehtiyojlar bilan dunyoga keladi. Ehtiyojlar turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Endi dunyoga kelgan chaqaloqning ehtiyoji aslida u tug'ilmasdan, ya'ni u embrion bo'lib paydo bo'lgan vaqtdan boshlanadi. Ya'ni uning ehtiyoji rivojlanishga bo'lgan ehtiyoj hisoblanadi. Bola doimiy rivojlanish va o'z ehtiyojlarini qondirish payida bo'ladi. Chunki bola ulg'aygani sari unda ehtiyoj ikki barobar oshib ketaveradi. Ammo bolaning tafakkur operatsiyalarining to'la ishga tushmaganligi bois bolada psixologik va jismoniy qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Bu esa bolaning turli inqirozlarni boshdan kechirishiga sabab bo'ladi. Bu paytda esa bolaga har doimgidanda yaxshiroq e'tibor va parvarish zarur bo'ladi. Bunday ehtiyojlarni qondirish majburiyati bolalar jamoasining shakllanishini talab qiladi. Bunday jamoaning shakllanishi bevosita Fridrix Frebel nomi bilan bog'liqdir. Ayni paytda u bolalar jamoasining shakllanishida, mazkur jamoani "bolalar bog'chasi" deb atashda va bu tushunchani fanga olib kirishda jonbozlik ko'rsatgan buyuk pedagog hamdir.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich va asosiy bosqichi ekanligi hisobga olinib, Respublikamizda Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Shuningdek, bu sohaga doir juda ko'plab qaror va qonun, farmonlar ishlab chiqildi. Ularning ijrosini ta'minlash maqsadida Yurtboshimiz boshchiligida ko'plab hisobot

yig'ilishlari hamda videoselektorlar o'tkazildi. Shulardan biri 2017-yil 20-dekabrda Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va istiqboldagi vazifalarga bag'ishlangan videoselektor majlisi bo'lib o'tdi. Majlisda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev oxirgi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalar soni 45%ga kamaygani, 2,45 million boladan atigi 818 ming nafarigina bog'cha ta'limiga qamrab olinganligini nadomat bilan ta'kidlab o'tdilar. Yurtboshimiz buning o'zigina bizning yagona muammomiz emasligini, bog'chalarda bolani ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy matematik fizio-psixologik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish bo'yicha ta'lim dasturlari joriy etilmagani, qisqa qilib aytganda bog'chalar ta'lim berish muassasasi emas, balki ota-onalar ishda bo'lgan vaqtda bolaga qarab turadigan muassasaga aylanib qolganini afsus bilan bot bot takrorladi. Yurtboshimiz o'z o'rnida muammoning yechimlariga ham alohida to'xtalib, 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Dastur asosida bog'chalar qurish va rekonstruksiya qilish ishlarini yo'lga qo'yish haqida o'z fikrlarini berib o'tdi.

Yuqorida aytib o'tilgan kamchiliklar, berilgan topshiriq va takliflar ijrosini ta'minlash Maktabgacha Ta'lim Vazirligi zimmasiga juda katta mas'uliyatni yukladi. Shundan so'ng Maktabgacha Ta'lim Vazirligi 2020-yil 10-sentabrda hisobot anjumanida o'tgan uch yil mobaynida maktabgacha ta'lim bilan 1,5 million nafar bola qamrab olingani, bu 2017-yildagi ko'rsatkichdan ikki barobar ko'proq ekanligi, qamrovni yil oxirigacha esa 59,5%ga yetkazishni maqsad qilib qo'yganini alohida ta'kidlab o'tdi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalari soni 2017-yil 5 mingta bo'lgan bo'lsa, 2020-yilga kelib bu ko'rsatkichlar soni 17 mingdan oshganini alohida ta'kidladi: Maktabgacha Ta'lim Vaziri Agrippina Shin.

Shuningdek, bu sohaga tegishli 2020-yilgi dasturlarga muvofiq 18 ob'ekt qurib bitkazilishi, 129ta bo'sh inshootlar foydalanishga topshirilishi, 261ta maktabgacha ta'lim muassasalari ta'mirlanishi, bu esa yana qo'shimcha 327 ming o'rinlarning yaratilishi quvonarli hol albatta. Shuningdek, bu sohada xususiy sektorlarni ham rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2018-2019-yillarda Maktabgacha Ta'lim Vazirligi umumiy qiymati 3,89 trillion so'mga teng Davlat

xususiy sheriklik(DXSH) haqidagi shartnomani imzoladi(ulardan 1,1trillion so'm tadbirkorlar hisobidan ajratilgan bo'lsa, 2,8trillion so'm imtiyozli kreditlar hisobiga to'g'ri keldi). Bunday ishlarning amalga oshirilishi Mamlakatimizda yoshlarga ayniqsa murg'ak beg'ubor qalb egalari bo'lgan aziz bolajonlarga qaratilayotgan e'tibor samarasidir. Bugungi kunda yurtimizda yoshlarga oid davlat siyosatining olib borilayotgani, ayniqsa III RENESSANS ni bosib o'tayotgan osmoni musaffo insonlari qadr topayotgan yurt farzandi ekanimiz biz har doim labbay deb yurt uchun xizmat qilishdan hech qachon charchamasligimiz, jonni fido qilar oni kelsa ham hech o'yalb o'tirmay jon fido qilguvchi farzand bo'lmog'imiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar :

- 1.G'oziyev.E.G. Psixologiya.-T.:O'qituvchi,2006.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
- 3.www.pedagog.uz



FUTURE ENGLISH IN UZBEKISTAN

Ahmadova Durdona Faxriddin qizi

O'zbekiston Milliy universitetining Xorijiy filologiya fakulteti, Xorijiy til va adabiyoti ingliz tili yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotation: The article discusses Future English in Uzbekistan.

Key words: work, education, solution, teacher, classroom, effective, prospect, market.

On 15 August 2019 the British Council and the Ministry of Public Education of the Republic of Uzbekistan signed a letter of agreement on running the Future English project in Uzbekistan. The overall aim of the programme is to address the reported and perceived problem of low level of English skills of school leavers who are entering work or tertiary education. The first year of the project was focused on conducting the research to generate reliable and valid data to identify and inform solutions.

There are two strands in the research: English Impact – aimed at building a multi-dimensional profile of English capability of school students that will help to diagnose the impact policy decisions can have on the development of learning systems: curriculum, delivery and assessment.

Teacher needs analysis research strand that help shape future policies aimed at improving and developing effective national CPD (continuous professional development) systems with the ultimate aim of improving teaching skills and practices in the classroom which will lead to improvement of learning outcomes and ensure that students are better equipped to advance in higher education, become internationally mobile and increase their employability prospects in the labour market. The first strand of the research due to pandemic caused by Covid-19 was postponed for the later time when the situation around Covid-19 in Uzbekistan

becomes more stable and the testing will be safely run in the sampled schools in Uzbekistan.

The second strand of the research was aimed to establish a better understanding of English language teaching across Uzbekistan and reasons for the reported low levels of English language skills of school leavers. Two phases can be identified in this strand of the research.

English language teaching in Uzbekistan

The research on English language teaching in Uzbekistan for the Future English project was run by the University of Leicester. Over a period of 3-4 months at the end of 2019 the University in partnership with the British Council and the Ministry of public education of the Republic of Uzbekistan collected a variety of data covering a range of topics including the motivation of students to learn English, their aspirations and learning preferences, as well as the classroom practices and perceptions of their English teachers. In the first instance, a large sample of Uzbek English teachers were asked to complete a detailed online survey.

This was followed by a 2-week research visit during which a range of activities were conducted, which included lesson observations, interviews and focus groups with key stakeholders, and the collection of relevant documentation including lesson plans and curriculum descriptions. As the result of this two-stage research University of Leicester prepared a report that provides all details of the data gathered, the analysis and interpretation of that data, and subsequent recommendations. The report was shared with the Ministry of public education. The report can be found in the attachments

English language curriculum reform: Findings and Recommendations

Based on the findings and key recommendations of the report prepared by the University of Leicester and to support large scale reforms in public education sector in Uzbekistan the British Council initiated a short-term project aimed at supporting the English language curriculum development in public education.

Cambridge Partnership for Education (University of Cambridge) was successfully selected among other interested UK education institutions to provide best expertise

to: undertake an initial desk research report into curriculum reform work in the last 4 years, engage with key stakeholders and analyse baseline data develop a national English curriculum team that can drive changes in public education curriculum develop national English curriculum delivery strategy articulating key principles, processes and phases as well a draft structure of the new English language curriculum for public education.

On 28 April the results of the project were presented to the Ministry of public education and key recommendations discussed. The executive summary of the report with key recommendations can be found in the attachments.

Since Uzbekistan becomes more open, especially University students, are embracing the United States as well as the rest of the Western world. At many Universities across the capital, Tashkent, many Uzbek students are willing to learn English language. Studying English has tangible benefits, which Uzbeks are already using to make a profit. According to the Caspian Policy Center, tourism in Uzbekistan has "nearly increased five-fold over the last three years". Uzbek people with knowledge of the English language are able to create an advantage for themselves in the tourism industry, especially as tour guides and owners of tour companies.

As our president mentioned in his speech: "If someone wants to take master's degree, he should learn English".

Under the chairmanship of President Shavkat Mirziyoyev, a video conference on measures to improve the system of teaching foreign languages was held on 6 May. Every year in our country, several areas of knowledge are determined, the development of which is given priority attention. This year physics and foreign languages have become such areas.

Today, teaching in foreign languages is conducted in 25 universities in our country. In 2016, there were only 7 such universities. Over the past 3 years, the number of applicants who have received an International language certificate has increased tenfold.

"The time has come to create in our country a new system of teaching foreign languages, which will become a solid foundation for the future. Since we set ourselves

the goal of building a competitive state, from now on, graduates of schools, lyceums, colleges and universities must be fluent in at least two foreign languages. This strict requirement should become the main criterion for the work of the head of each educational institution" -said Shavkat Miromonovich Mirziyoyev.

Reference:

<http://www.britishschool.uz>

<https://lex.uz/docs/47935>

<https://teamuni.uz/legal-framework/>

<https://education.stateuniversity.com/pages/1652/Uzbekistan-SECONDARY-EDUCATION.html>



MEN O‘ZBEKNING ZULFIYASIMAN

Abdiyeva Orzigul G‘anijonovna

Toshkent shahri Olmazor tumani O‘zbekiston Milliy universitetining Xorijiy tili va adabiyoti Xorijiy Filologiya fakulteti 1-kurs talabasi

Annotation: Zulfiyaxonim haqida unitilmas xotiralar

Key words: Ardog‘lar, hukmdor, cho‘ri, adabiy kechalar, samimiy tuyg‘ular, muharrir, badiiy-estetik

Hamon e‘tiqodim haqiqat, haqdir,
So‘zlayman yuzimni tutib Kabaga.
Yemira olmaydi o‘tkinchi taqdir,
Osuda o‘tadi ruhim abadga.

E‘zozlar, ardog‘lar uchun tashakkur,
Asli siz oftobim, men ziyosiman
Tonglaringiz kulsin dorilomon, hur
Baxtim shul-o‘zbekning Zulfiyasiman.

Zulfiya ijodida o‘zbek ayolining taqdiri muhim o‘rin egallaydi, uning mamlakat hayotidagi faol o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Zulfiya uzoq o‘tmishda ayol o‘rni uy-ro‘zg‘or yumushlari doirasida bo‘lganligini, uyda ham bek, ham hukmdor bo‘lgan eriga itoatli cho‘ri bo‘lib, bosh egishi lozim bo‘lganligini yashirmaydi.

O‘zbek xalqining sevimli shoirasi, taniqli jamoat arbobi, O‘zbekiston xalq shoiri Zulfiya Isroilova 1915 yil 1 martda Toshkentning O‘qchi mahallasida degrez oilasida tug‘ilgan. U xotin-qizlar bilim yurtida o‘qib yurgan vaqtlaridayoq (1931–1934) adabiy to‘garaklarga qatnashib, she’rlar mashq qiladi.

Zulfiyaning “Men ish qizi” nomli birinchi she’ri 1931 yil 17 iyulda “Ishchi” gazetasida bosilib chiqdi. “Hayot varaqlari” nomli ilk to‘plami o‘n yetti yoshida nashr etildi (1932).

1935–1938 yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti aspiranturasida tahsil oldi. 1938–1948 yillarda nashriyotlarda muharrir, bo‘lim boshlig‘i, 1950–1953 yillarda esa “O‘zbekiston xotin-qizlari” (hozirgi “Saodat”) jurnalida bo‘lim boshlig‘i, 1953–1985 yillarda esa bosh muharrir bo‘lib ishladi. Zulfiya badiiy-estetik puxta she’r-dostonlari bilan Oydin, Muzayyana Alaviya, Xosiyat Tillaxonovalar safiga kirib keldi. Zulfiyaning ijodiy kamolotida o‘zbek va rus klassiklari, xalq og‘zaki ijodiyoti va jahon adabiyoti an‘analarining roli beqiyos bo‘ldi.

Mashhur o‘zbek shoiri Hamid Olimjonning turmush o‘rtog‘i, o‘ziga xos she’riyati bilan minglab kitobxonlar qalbini rom etgan shoira Zulfiya 1997 yilning 1 avgustida vafot etgan. Hassos shoir — Hamid Olimjon bilan kechirgan qisqa turmushi, undan judo bo‘lib qolishi, umuman, shoiraning hayot yo‘li sadoqat va vafo timsoli bo‘lib qoldi.

1997 yilning 31 oktyabrida “O‘zbekiston xalq shoiri Zulfiya tavalludining 100 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Biribchi Prezidenti Islom Karimov qarori e‘lon qilindi. Qarorga muvofiq Zulfiya tavalludining 100 yilligini nishonlash bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tarkibi tasdiqlandi va unga yubileyni yuqori saviyada o‘tkazish uchun tegishli chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish vazifasi yuklatildi. Ushbu rejaga shoiraning o‘zbek tilida “Saylanma” asarlarini, ingliz va qoraqalpoq tillariga tarjima qilingan she’riy to‘plamlarini hamda “Zulfiya zamondoshlari xotirasida” kitobini nashrga tayyorlash va chop etish; shoiraning hayoti va ijodiy faoliyati haqida hujjatli film yaratish; Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutida “Mustaqillik davri adabiyotida Zulfiya ijodining ahamiyati” mavzusida ilmiy konferensiya o‘tkazish; joylarda taniqli adib va olimlar, san’atkorlar ishtirokida uchrashuvlar, adabiy kechalar tashkil etish; 2015 yil mart oyida Toshkentdagi “Turkiston” saroyida shoira xotirasiga bag‘ishlangan ijodiy kecha o‘tkazish kiritilgan.

Zulfiyaning olijanoblik, jasorat, haqqoniy xalq g‘ururi, tabiat va insonga nisbatan samimiy tuyg‘ular va hurmat, boy ranglar va kutilmagan yangi timsollar bilan bajarilgan lirikasi, kitobxon qalbini larzaga keltiradi, insoniyatning kelajakka bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

REFERENCE:

- 1.<https://uzor.uz/uz/xazina-muzey/hamid-olimjon-va-zulfiya-muzeyi>
- 2.<https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/xotiram-siniqlari-zulfiya.html>
- 3.<http://nasriyat.zn.uz/2019/05/28/ozbening-zulfiyasiman>
- 4.https://t.me/s/Zulfiyaxonim_Isroilova?before=166



ПЕКТИН ТУТУВЧИ МЕВАЛАРНИНГ ШИФОБАХШЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Ойжамол Абдиева Тошбаевна, доцент

Хатича Абдурахманова Рахимжон қизи, магистр

Наманган Давлат Университети “Биотехнология кафедраси”

Аннотация: Мақолада пектин тутувчи ўсимлик маҳсулотларидан пектинни ажратиб олмаган ҳолда улардан шифобахш ичимликлар тайёрланди. Пектин ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш, шифобахш ичимликлар ассортиментини кенгайтириш ҳақида.

Калит сўзлар: Пектин, ассортимент, захарланиш, холестерин, компот.

ЛЕЧЕБНЫЕ СВОЙСТВА ПЕКТИН СОДЕРЖАЩИХ ПЛОДОВ

Аннотация: В статье приведены лечебные напитки без извлечения пектина из пектинсодержащих растительных продуктов. О запуске производства пектина, расширении ассортимента лечебных напитков.

Ключевые слова: Пектин, ассортимент, отравление, холестерин, компот.

MEDICINAL PROPERTIES OF PECTIN-CONTAINING FRUITS

Abstract: In the article, medicinal drinks were prepared from pectin-containing plant products without separating pectin. About launching pectin production, expanding the range of medicinal drinks.

Key words: Pectin, assortment, poisoning, cholesterol, compote.

Мамлакатимиз экологик шароитининг хар хил чиқиндиларни чиқиши, кимёвий захарли газ моддаларни хавога чиқарилиши эвазига ёмонлашиб бораётганлиги озик-овқат маҳсулотларининг сифатига таъсир қилиб, уларни токсик моддалардан тозалаш учун профилактик тадбирларни ўтказиш, яъни

захарланишнинг олдини олувчи табиий озуқавий модда бўлмиш пектин саноатини йўлга қўйишни тақазо қилади.

Пектин моддаларининг муҳим хоссаларидан бири пектин молекулаларининг оғир ва радиоактив металллар ионлари билан комплекс ҳосил қилишидир, яъни бирикишидир. Пектиннинг бу хоссаси уни радионуклеидлар билан зарарланган муҳитда ва оғир металллар билан ишловчи одамларни овқат рационига киритиш учун тавсия қилишга, асос бўлади. Инсон организми учун узоқ яшовчи цезий-137, стронций-90, иттрий-91 изотоплари жуда хавфли деб ҳисобланади. Пектин улар билан комплекс ҳосил қилиб организмдан олиб чиқиш хусусиятига эга.

Пектинга бўлган талаб уни ишлаб чиқариш ва чет элдан сотиб олиш ҳажмидан анчагина юқори ҳисобланади. Одам организми учун пектиннинг бир суткалик профилактик меъёри 2г деб олинганда, Ўзбекистон аҳолиси томонида йилига 15 минг тонна пектин истеъмол қилиниши лозим бўлади.

Биз олиб борган тадқиқот ишлари пектин тутувчи ўсимлик маҳсулотларидан пектинни ажратиб олмаган ҳолда улардан профилактик пектин манбаи сифатида фойдаланиш самарадорлигини ўрганишга қаратилди.

Пектин тутувчи меваларга смородина, олма, ситрус мевалари киради. Истеъмол қилинадиган резавор мева ҳисобланган смородина организмда модда алмашинувини, овқат ҳазм қилишни, юрак фаолиятини яхшилашга имкон беради, ферментлар ажралиб чиқишини, қон айланишини кучайтиради. Халқ табобатида юрак хасталиги, буйрак, жигар, талоқ, ўт йўллари касалликларида, ошқозон касали (шиллик пардаларининг яллиғланиши)нинг ҳамма турларида смородина меваларини истеъмол қилиш тавсия этилади.

Қорағат мевасидан олинган шарбат С витамини манбаидир, унда Р витамини кўп. Қорағат калий, фосфор тузлари, темирга бой. Таркибидаги қанд моддаси 7-8%, кислоталар 3% гача боради. Қорағат шарбати қора рангда, хушбўй, нордон мазали бўлади. Истеъмол қилишдан аввал унга таъбга қараб 40% ли шакар сиропи қўшилади. Шарбатни узоқ вақт сақлаш учун микроорганизмларни бутунлай ўлдириш ёки уларнинг ривожланишига йўл

қўймаслик керак.

Пектинлар кўпгина фойдали хусусиятларга эга бўлиб улар одам организмидаги холестерин моддасини миқдорини меъёрда ушлаб туради, организмнинг аллергияга барқарорлигини таъминлайди, тўқималар хужайралари нафас олиши ва умумий мода алмашинувига ижобий таъсир қилади.

Пектин манбаи сифатида қора смородина (қорағат) ва қизил смородина (бўриқорағат) мевалари ҳамда олма пўсти ва уруғ уяларидан (ўзаги) фойдаландик.

Бизнинг тажрибаларимизда шифобахш-профилактик препарат шакли вазифасини юқоридаги мевалардан ўзимиз ишглаб чиққан рецептура асосида тайёрланган компотлар бажарди. Айниқса, ассорти компоти ўзининг нозик таъми, хушхўрлиги билан синовларда қатнашганлар эътиборига тушибгина қолмасдан, ўзининг антибактериал хусусиятлари билан бошқа вариантлардан устунлигини кўрсатди.

1-жадвал

Ассорти шифобахш-профилактик компоти рецептураси

Компотлар	Миқдори, г
Олма пўсти ва ўзаги	120
қора смородина	60
қизил смородина	20
шакар	200
лимон кислота	2
сув	1000

Клиник синов тажрибалари 2020-2021 йилларда Поп туман «Парда-Турсун» санаторийсида даволанувчиларда олиб борилди. Тажрибалар нафас органларининг бактериал яллиғланиши бўлган ўн беш нафар бемор устида олиб борилди. Биз томонимиздан тавсия этиладиган даволаш чораси кунига уч

махал, овқатдан олдин биз тайёрлаган ёқимли компотдан бир стакан ичиб олишдан иборат бўлди.

Санаторий даволаш дастури бўйича ўтказилган компьютер томографияси текширувларида синовдаги даволанувчиларда бошқаларга нисбатан сезиларли ижобий ўзгаришлар юз бергани кузатилди. Олинган натижалар пектин тутувчи мевалардан тайёрланган озиқ-овқат махсулотлари барча турдаги беморлар рационидан доимий ўрин олиши мақсадга мувофиқ эканлигидан далолат беради.

Пектин олиш технологиясининг мураккаблиги унинг таннархини қимматлаштириб юборади. Таннархни пасайтиришнинг ягона йўли арзон хом ашё манбаларини топишдан иборат.

Замонавий ишлаб чиқариш самарадорлигини оширишнинг муҳим йўналишларидан бири хам чиқитли ва чиқитсиз технологияларни жорий қилиш, иккиламчи хом ашё захираларидан унумли фойдаланишдир.

Бу талабларга пектин ва пектин махсулотлари ишлаб чиқариш мувофиқ келиб, унинг иккиламчи хом ашёлари бўлган лавлаги, олма, узум, цитрус сиқмаларидан олиш имконияти мавжуд. Айниқса, мева шарбатлари ишлаб чиқариш корхоналарда хосил бўладиган узум сиқмаси маҳаллий шароитда пектин ажратиб олиш учун иккиламчи хом ашё манбалари бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Пектин ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш шифобахш-профилактик хусусиятга эга бўлган озиқ-овқат махсулотлари ассортиментини кенгайтириш билан бир қаторда, чет элдан валюта ҳисобига сотиб олинадиган қимматли махсулотни ўзимиздан ишлаб чиқарилиши эвазига мамлакатимиз валюта захиралари хам тежалган бўлар эди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 11 январдаги ПҚ-4941-сон қарорига 1-ИЛОВА
2. Поморцева Т.И. Технология хранения и переработки плодоовощной продукции. М: ПрофОбрИздат, 2001,-436 с.
3. Шишкина С.Н. Хранение плодов и овощей в зонах производств. М: Агропромиздат, 2001,- 254 с.
4. Холматов Х. Х, Ахмедов Ў. А "Фармакогнозия" Ибн Сино номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси 1995.



**ADABIYOTIMIZ BUYUK VAKILI BO‘LGAN ALISHER NAVOIY
IJODIDAN BAHRAMAND BO‘LGAN BERDAQ**

Jo‘rayeva Gulshakar Tillo qizi

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 1-pediatriya va xalq tabobati fakulteti 201-gurux
talabasi

E-mail: gulijorayeva877@gmail.com

Muborro Mavlonovna Raxmonova

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 1-pediatriya va xalq tabobati fakulteti tyutori

ANNOTATSIYA

Maqolada Alisher Navoiy she‘riyatining Berdaq she‘riyati bilan bog‘liq jihatlari, komil inson namunasi sifatida, bu ikki shoirlarning adabiyotdagi asarlardagi chizmalari, adabiyotimizdagi o‘rni haqida fikir mulohaza yuritamiz.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Berdaq, she‘rlari, islohotlarda adiblar hayoti va ijodi.

ANNOTATION

In the article, we reflect on the aspects of Alisher Navoi's poetry related to Berdaq poetry, as an example of a perfect person, the drawings of these two poets in the works of literature, their role in literature.

Key words: Alisher Navoi, Berdak, Lions, life and work of writers in reforms.

АННОТАЦИЯ

В статье мы размышляем об аспектах поэзии Алишера Навои, связанных с поэзией Бердака, как образцом совершенного человека, о рисунках этих двух поэтов в произведениях литературы, о их месте в нашей литературе.

Ключевые слова: Алишер Навои, Бердак, Львы, жизнь и творчество писателей в реформах.

Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz. Shavkat Mirziyoyev.²⁸

Navoiy va Berdaq ijodida o'xshlik taraflari bilan hamda har ikkalasi ham adolat haqida sheriyatda va asarlarida o'zining xalqparvar qarashlarini bizning yodimizga tushadi. Navoiy deganda ko'z o'ngimizda ajib bir tasurotlar Navoiyni ulug'vor bir siymo sifatida gavdalantiradi. Navoiy shoirlar sultoni, olim, din peshvosi, adolatli davlat arbobi, faylasuf, viqorli bir shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Berdaq deganda esa yurtning odil kishisi va xalqparvar shoir, mehribon ota, vatan xajrida to'lg'ongan shaxs sifatida bizga malum bo'ladi. Bu ikki buyuk shoirlar shaxsiyati bir biriga shoirlik va davlat ishlarini yuritishdagi qarashlari, xarakter jihatidan juda yaqin bo'lib ikkisi ham go'yo bir maqsad va bir g'oyani ilgari surgandek bizni nazarimizda. Navoiy va Berdaq doimo bir biriga ijodiy tarafdanday yaqinligi sheriyatda yaxlit fikirligi bilan yonma-yon turadi. Avvalo Navoiy hayoti va ijodiga qisqa to'xtalib o'tsak.

Alisher Navoiyning muhabbatni tarannum etuvchi otashin tug'yonlari bilan bog'liq g'azallari uning yigitlik davrida yozilgan. “Bunga uning «Ilk devoni»ga kiritilgan, xalq orasida «Qaro ko'zum», «Kelmadi» «Munojot» nomlari bilan mashhur bo'lgan va kuylanadigan g'azallari yaxshi misol bo'la oladi. Bu kabi she'rlarida shoir pok va yuksak ishqiy kechinmalarni baland ehtiros va falsafiylik bilan ifodalab bera olgan. Uning «Topmadim» radifli g'azali ham shu davrda, aniqrog'i, Mashhaddan Hirotga qaytib, shaxsiy turmushini izga solish taraddudida yurganda, lekin uning moddiy jihatdan nochor ahvoldaligi tufayli oila qurishi qiyinlashgan, Sulton Abu Said esa uni ta'qib qilgan paytda yozilgan bo'lib, uning har bayti yurakni tirnaydi. Alisher Navoiyning ishqiy she'rlarini faqat bir sub'ektga qaratilgan, deyish qiyin. U hayotga keng nigoh bilan qarab, barcha go'zalliklarni nazokatli tuyg'ularni qadrlagan, noyob so'z va iboralar bilan qalbdan ifodalay bilgan.

²⁸ www.pezident.uz Toshkent shahrida Adiblar xiyoboni ochilishidagi nutqidan 20.05.2020

Lekin hayot qiyinchiliklari va ziddiyatlari orqasida o‘z orzu-umidlariga yetisha olmagan shoir o‘zining insoniy norozilik tuyg‘ularini olovli she’riy satrlarda bayon etadi. Alisher Navoiyning ishq bilan bog‘liq tasvirlari rang-barang va boy bo‘lib, biz unda inson hayoti va holatining cheksiz ko‘p qirralarini-shodlikni ham, xafachilikni ham, takrorlanmaydigan lahzalarni ham, har kun, har soatda yuz beruvchi ko‘ngilsizliklarni ham ko‘ramiz. Zotan o‘zbek she’riyatida inson dardi va hasratlarini, o‘z sevgilisiga talpinishlarini Navoiydan o‘tkazib ifodalagan shoirni topish qiyin. Alisher Navoiyning ishqiy mavzuda yozgan she’rlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, ulardagi ko‘p g‘oya va timsollar, tasviriy detallar an’anaviy xarakterga egaligi bilan boshqa shoirlardan ajralib turadi.

Yuqoridagi Navoiy ijodiga hamohang fikr yuritgan Berdaq ijodida lirik she’rlarida namoyon bo‘ladi, dostonlarida qoraqalpoq xalqining 18-19-asrlardagi ijtimoiy hayoti o‘z ifodasini topgan. U o‘z davri voqealariga, ijtimoiy munosabatlarga zukko shoir sifatida baho beradi. Berdaq ham Navoiy ijodida uchraydigan uslublardan keng foydalanib o‘z asarlarida tenglik, insonparvarlik, adolat va vatanparvarlik g‘oyalari ilgari suriladi. Alisher Navoiy kabi xalqchilikni Berdaq ijodida ham uchratamiz ya’niy mehnatkash xalqning ahvoli asosiy mavzu sifatida sherlarida namoyon bo‘lganligi uning quydagi sherlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Berdaqning “Bo‘lgan emas”, “Soliq”, “Bu yil”, “Umrin” va boshqa ko‘plab sherlarida namoyon bo‘ladi. Alisher Navoiy kabi xalq uchun adolatli bo‘lish g‘oyalarini izchil davomi sifatida Berdaq qarashlarida Navoiydan olgan bazi qarashlarni kuzatishimiz, shariyatida ham Navoiyga xos uslublarni hayotiy tarizda qoraqalpoq xalqi turmush tarzidan olgan xolda shoir haqiqat uchun, mehnatkash ommaning baxti va kelajagi uchuy fidokor kurashchilarni orzu qilgan. O‘zining sherlarida “Xalq uchun”, “Menga kerak” va boshqa mavzularda ko‘plab bitiklarni yozib kuyga solgan. Tarixiy mavzudagi “Avlodlar”, “Omongeldi”, “Azadosbiy”, “Ernazarbiy” asarlarida shoir xalq qahramonlarini faxr bilan kuylaydi. Berdaqning “Avlodlar” asari tarixiy voqealar salnomasi bo‘lib, qoraqalpoq xalqi bilan boshqa turkiy xalqlar hayotidagi mushtarak voqealar qalamga olinadi, qabila va xalqlarning kelib chiqishi haqidagi fikrlari bayon qilinadi. Berdaq ba’zi ta’magir ruhoniylarning

kirdikorlarini fosh etib “Yaxshiroq”, “Shekilli” kabi sherlarida va boshqa asarlarida yozadi. Ayollar huquqini himoya qiladi, yoshlarni vatanni sevishga, ma’rifat cho‘qqilarini egallashga chaqiradi o‘zining “O‘g‘limga”, “Ahmoq bo‘lma” va boshqalar sherlarida ham ko‘plab pand nasixatli tarzda muammolarni yoritadi.

Navoiy kabi asarlarida o‘zining she’riy mushohadalari va hayotga qarashlarida Berdaq mehnatkash xalqning baxtiyor yashashini orzu qildi. Xalqni baxtli qilish haqida o‘ylar ekan, Allohdan madad so‘rab quydagi “Yordam ber” sheri orqali, baxt haqida fikr yuritadi. “Izladim” sheri orqali esa odil podshoni orzu qiladi. “Kerak” sheri bilan baxtiyor yashaydigan jamiyat qurilishiga umid qiladi. Berdaq ijodi xalq og‘zaki adabiyoti an’analariga yaqin turadi. Ijodi serqirraligi, asarlarining g‘oyaviy va badiiy yuksakligi bilan qoraqolpoq adabiyoti tarixida asosiy mavqeni egallaydi. Uning ko‘pgina asarlari o‘zbek va boshqa xalqlar tillariga tarjima qilingan.

Xulosa o‘rnida ikki buyuk shoirlar she’riyati yakdillik, insoniylik qahramonlik, vatanparvarlik, odillik, adolat, mehri muruvat kabi insoniy fazilatlarining ezguliklar bilan hamohang tarzda she’riyatida va asarlarida yoritib bergan Navoiy va Berdaq siymolari mangu barhayot bo‘ladi. Navoiy va Berdaq kabi ijodkor ajdodlarimizni yanada ko‘proq bilishimiz uchun bugun davlatimiz tomonidan sharoitlar imkoniyatlar keng ko‘lamda yaratilmoqda. Shu jumladan poytaxtimizda ham bir qator ishlar amalga oshirilib buyuk shoirlarimiz adiblarimiz nomini abadiylashtirish uchun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 20-may kuni Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘ida barpo etilgan Adiblar xiyoboniga tashrifi fikrimiz tasdig‘i sifatida keltirsakda: 2017-yil 3-fevral kuni mazkur boqqa tashrif chog‘ida shirlarimiz hamda adiblarimizni nomini abadiylashtirish begilangan edi. Shu yili 18-aprelda davlatimiz rahbari tomonidan tegishli qarori qabul qilinib, xiyobonning me’moriy-g‘oyaviy loyihasi ishlab chiqilgan edi.

O‘tgan yillar mobaynida qurilish va obodonlashtirish ishlari yakunlanib, 8 gektardan ziyod maydonda Adiblar xiyobonining yaxlit me’moriy ansambli yaratilib bu ansambilda barcha shoirlar, adib ajdodlarimiz haykallari barpo etildi. Adiblar xiyobonini g‘oyaviy-badiiy jihatdan yanada boydi. Xiyobonda Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Berdaq, Muqimiy, Furqat, Behbudiy, Avloniy, Cho‘lpon, Qodiriy,

To‘lepbergen Qayipbergenov, Ibroyim Yusupov, Aleksandr Faynberg singari atoqli shir va yozuvchi adiblar xotirasiga bag‘ishlangan yangi yodgorlik majmualari barpo etildi. So‘zinning oxirida Alisher Navoiy va Qoraqalpoq xalqining adiblaridan biri Berdaq Qarg‘aboy o‘g‘lining ijodlarini va hayot yo‘llarini chuqur o‘rganmog‘imiz, yoshlarimiz o‘rtasida keng targ‘ib qilish ishlarini yanada ko‘paytirishimiz kerak. Navoiyni o‘ziga ustoz deb bilgan Navoiydan ruxlangan va ijodiga hamohang ijod qilgan Berdaq hayoti va ijodini targ‘ib qilishda inovatsiyalardan keng foydalanib Berdaqning she‘rlarini yoshlar ishtirokida zamonaviy tarzda kuylanishini, asarlaridan sahnalashtirilgan qisqa video lavhalarni tayyorlash hamda kino filmlar yaratish orqali adibning faoliyatini yoritsak ayni maqsadga muvofiq bo‘ladi deb bilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Manba <https://tafakkur.net/alisher-navoiy.haqida>
2. www.ziyo.uz
3. B.Qurbonboyev Berdaq va o‘zbek adabiyoti, T., 1986.
4. www.pezident.uz Toshkent shahrida Adiblar xiyoboni ochilishidagi nutqidan 20.05.2020
5. www.Prezident.uz
6. www.gazeta.uz



TA'LIM TIZIMIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI OLDINI OLISH BORASIDA KO'RILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR

Amirqulova Parinamo

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti,
“Xalqaro huquq” fakulteti 1-bosqich talabasi

Tashev Farrux Muzaffarovich

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti,
“Davlat boshqaruvi va ommaviy huquq” kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Muallif tomonidan ushbu maqolada ta'lim tizimidagi muammolar va ularni oldini olish borasida qaratilgan O'zbekiston Respublikasidagi sa'y-harakatlar va ularning natijasi yoritiladi.

Kalit so'zlar: OTM, budjet, xususiy maktablar, rag'batlar, imtiyoz, qabul kvota, ta'lim tizimi, kasb-hunar kollejlari, o'quv yili, stipendiyala, grandlar, filiallar, ta'lim programmalari, texnologiyalar.

Bilamizki, inson omilidagi barcha yutuqlarning asosida ta'lim yotadi. Ta'lim – bu yosh unib kelayotgan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini yanada shakillantirib va takomillashtirib boruvchi jarayon hisoblanadi. Ularning dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarini yanada rivojlantirib, ularni o'qimishli va salohiyatli bo'lishlariga xizmat qiladi. Dunyo hamjimiyyatida mamlakatlarni rivojlantirishga asosiy e'tiborni qaratganda ular negizida ta'lim tizimidagi kuchli islohotlarni ko'rishimiz mumkin. Ta'lim tizimining qay darajada tashkil etilganligi, bu sohada amalga oshiriladigan islohotlar mamlaktning keyingi taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsata oladigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan bu sohadagi muammolarni o'z vaqtida aniqlash va unga o'z o'rnida samarali yechim topish har bir mamlakat hukumatining utuvor vazifasidir. Shu jumladan Yurtimizda ham bu soha doirasida amalga oshirilgan qator islohotlar O'zbekistonda ta'lim

tizimining shakllanishida katta ahamiyat kasb etayotgani hech kimga sir emas. Bugungi XXI asr nafaqat O'zbekistonda balki dunyoning qator mamalakatlarida ta'lim tizimida glabbalshuv ta'sirida yuzaga kelgan muammolarni o'z vaqtida samarali yechim topishga undayaptiro

Ayni damda, ta'lim tizimi shiddat bilan o'sib borishiga qaramay O'zbekistonda va Jahon Hamjamiyatida qator muammolarga duch kelmoqda. “ Bugungi kunda savodxonlik yoki uning yetishmasligi inson hayotining barcha sohalariga ta'sir qiladi. Dunyodagi eng keskin va ommalashgan muammo bu nutq va yozuv savodxonligi muammosi. Kamroq o'rganilgan, ammo dolzarb bo'lib, qolgan moliyavi, huquqiy, kompyuter, axborot, ekologik, geografik va siyosiy savodxonlik masalalari. Shu bilan birga, olimlar ta'kidlaganidek, savodsizlikning har qanday turi bitta ta'rifga to'g'ri keladi - bu har qanday ma'lumotni bilmaslik, bu sohada ko'nikma va qobiliyatlarning etishmasligi. Albatta, hamma narsani bilish mumkin emas, shu bilan birga, u yoki bu masalada odamning savodsizligi oqibatlarini nafaqat "biron bir narsaning yaxshiroq sifatiga to'sqinlik qilishi yoki maqsadga erishilmasligi" mumkin emas, balki favqulodda vaziyatlar, sog'lig'i yoki hatto inson hayotining yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan hayot xavfsizligi sohasidagi savodsizlik masalalari eng dolzarb bo'lib qolmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy jamiyat sharoitida odamlarning atrof-muhit bilan - sanoat, tabiiy, maishiy - o'zaro ta'sirining xavfsizligi darajasi pasaymoqda. Mening fikrimcha, odamlarni va atrof-muhitni salbiy omillar ta'siridan himoya qilish muammosini hal qilish kerak. Shu sababli, ushbu mavzudagi muhim jihat inson xavfsizligi madaniyatini shakllantirishdir. Va yana shuni ta'kidlashni xohlardimki, savodsizlik oqibatida inson o'z huquq va majburiyatlarini bilmaslik alomatidir. Bu nafaqat, insonning o'zining muammosidir, balki mavzuda qayd etib o'tilganidek butun dunyoning global muammosidir. Oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining bilimi va malakasi sifatidan 33 foiz firma rahbarlari qanoatlangan bo'lsa, 36 foizi norozi ekanligini bildirgan. Bu xususda, oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining ancha qismi (turli mutaxassisliklar bo'yicha 30–50 foizgacha) o'z yo'nalishi bo'yicha ishlamayotganini ko'rsatish joiz. Ish beruvchilar, sanoat va oliy o'quv yurtlari orasidagi o'zaro aloqaning bo'shligi iqtisodiyotga innovatsiyalar

tatbiqini sekinlantiruvchi yana bir omildir. O‘zbekistonda ta’lim sifatini nazorat qilish Davlat test markazi qoshidagi maxsus boshqarmaga yuklatilgan edi. Ammo ushbu boshqarma tomonidan o‘quv yurtlarini attestatsiya va akkreditatsiyalash muddatlari kechikishi, attestatsiyadan o‘tmagan o‘quv yurtlarida rahbarlarga intizomiy choralar ko‘rilmagani, o‘quv yurtlarining moddiy bazasi va professor-o‘qituvchilar salohiyati haqida chuqur xulosalar chiqarilmagani, o‘quv yurtlaridagi ahvol oshqora muhokama etilmagani sababli davlat tomonidan ta’lim-tarbiya sifatiga qo‘yilayotgan talablar bajarilishida sustkashlikka olib keldi.”²⁹.

Shuni aytib o‘tish joizki, hozirki kunda ta’lim tizimini yaxshilash uchun Jahon hamjimaiyati va O‘zbekistonda bir qancha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Ya’ni ular ijtimoiy va yangi ta’lim dasturlari orqali xalq orasidagi savodxonlikni oshirishga harakat qilishmoqda.”**Prezidentimiz SH.M. Mirziyoyev** ta’kidlaganlaridek, *“farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug‘iladi. Shunday ekan, **Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi** desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi”*. Bundan tashqari, ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ma’lum qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Hususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizasiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF–5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan **O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi** mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda. Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta’lim muassasalari ilm-fanning yirik o‘choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Bugungi kunda yangi-yangi oliy o‘quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda.

²⁹ [Ta’lim global muammo sifatida \(hozir.org\)](http://Ta'lim-global-muammo-sifatida-hozir.org)

Misol uchun, so‘nggi 4 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta‘lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o‘quv yurtlarining soni 125 taga yetdi.”³⁰. “Xalqaro standartga asosan har bir ta‘lim darajasi uchun ta‘lim dasturlari va ularga mos ravishda malaka talablari ishlab chiqilishi ta‘lim sifatining oshishiga asos bo‘ladi. Ta‘lim tizimini darajalarga ajratish esa uning uzluksizligi va ketma-ketligini ta‘minlaydi. Bu tushuncha va tamoyillar xalqaro ta‘lim klassifikatsiyasining asosiy vazifalaridan biridir. Ta‘lim tizimimiz rivoji uchun muhim ikkinchi masala — bu mamlakatimizda xalqaro va Evropa malakalar standartiga moslashgan ta‘lim malakalari klassifikatsiyasi ishlab chiqish zaruratidir. Mavjudlari eski ma‘lumotlarga asoslangan bo‘lib, mamlakatimizdagi bugungi demokratik jamiyat amaliyotida foydalanib bo‘lmaydi. e‘tibor bering, yurtimizda yigirma yildan buyon oliy ta‘lim bitiruvchilariga beriladigan diplomlarda kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanish huquqini beradigan, xalqaro talablarga muvofiq tegishli malaka, ta‘lim darajalari, xususan kasbi, ixtisosligi va boshqalar ko‘rsatilmayapti.”³¹.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, ta‘lim inson uchun asosiy jarayonlardan biri bo‘lishi lozim. Agar, rivojlanishni istasak, asosan, navbatda ta‘lim tizimimizga katta ahamiyat berishimiz lozim. Bizda ta‘lim tizimi bor, lekin u bizga yakunda nima beryapti, shuni yuqoridagilar bilish zarur. Ammo mamlakatimizdagi ba‘zi bir olib borilayotgan jahon standartidagi islohotlar ta‘lim tizimimizni ma‘lum miqdorda o‘shishiga olib kelmoqda. Va bu islohotlar mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirib, uni yuksalishiga ham asosiy, omil bo‘lib kelmoqda desam adashmayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. [Ta‘lim global muammo sifatida \(hozir.org\)](http://hozir.org)
2. [Ta‘lim tizimini isloh etish – islohotlarning bir qismi sifatida \(aniq.uz\)](http://aniq.uz)
3. [Ta‘lim islohotlari uchun xalqaro standartlar zarur \(yuz.uz\)](http://yuz.uz)
4. [-Mavzu: Ta‘lim jarayonining mohiyati \(hozir.org\)](http://hozir.org)
5. [Ta‘lim tizimini isloh qilishni nimadan boshlash kerak? - abt.uz](http://abt.uz)

³⁰ [Ta‘lim tizimini isloh etish – islohotlarning bir qismi sifatida \(aniq.uz\)](http://aniq.uz)

³¹ [Ta‘lim islohotlari uchun xalqaro standartlar zarur \(yuz.uz\)](http://yuz.uz)

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O`QUVCHILARNI AXLOQIY TARBIYALASH

Boboyeva Feruza

Navoiy vioiyati navoiy shahar Kasb hunar maktabi tarbiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta'lim sifatini oshirishda o`quvchilarini axloqiy madaniyatning ko`rinishlari, uning qirralari va namoyon bo`lish shakllari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviy, axloqiy va estetik, irodaviy, odamiylik, do'stlik, to'g'rilik, adolatparvarlik, mehnat, poklik.

Mustaqil O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy yo'nalishlarini rivojlantirishda va demokratik, insonparvarlik jamiyatini qurishda xalq ta'limi tizimini takomillashtirish, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi ish faoliyatini yuqori darajaga ko'tarish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kelajagimizning taqdiri hozirgi kunda boshlang'ich ta'lim bosqichi maktablarida ilm olayotgan bolalarning tarbiyasiga bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.” kitobida, - “Agar ertangi kunimizni o'ylab ish qilmoqchi bo'lsak, kelajakda ishimizni davom ettiradigan bugungi yoshlarimizga sharoit yaratib, ularning hayoti haqida qayg'uradigan bo'lsak, avvalo. mahalliy yoshlarni tarbiyalash ishiga munosabatimizni mutloqo o'zgartirishimiz kerak”.³²-deb ta'kidlaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Bugungi tarbiya-istiqbol ko'zgidir. Zotan, kelajak buyukligi tarbiya orqali yaratiladi. Tarbiyasiz odam hech narsaga qodir emas. Shaxs sifatida shakllanadigan o'quvchining ma'naviy kamolotida axloqiy madaniyatning ahamiyati benihoya katta. Axloqiy madaniyatga axloqiy bilimlar, malaka va ko'nikmalar, axloq qoidalari yordamida o'quvchining xulq-atvori, xatti-harakatlarini boshqarish tizimidir. Axloqiy

³² Islom Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2011 yil, 70-71-betlar.

madaniyat o`quvchining ko`p qirrali faoliyati davomida shakllanib va takomillashib boradi.

Axloqiy madaniyatning ko`rinishlari, uning qirralari va namoyon bo`lish shakllari xilma-xildir. Insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, erksevarlik, faollik, ijodkorlik, haqiqatgo`ylik, mas`uliyatlik, saxiylik, kamtarlik, poklik va shu kabi qator muhim tushunchalar axloqiy madaniyat tushunchalaridir. Axloqiy tarbiya dastlab oilada, bog`chada keyinchalik boshlang`ich sinflarda bilim olayotgan bolalarda shakllanadi. Ta`limning poydevori qanchalik mustahkam bo`lsa, o`quvchining axloqiylikka va estetikaga oid dunyoqarashi shunchalik rivojlanadi. Shuning uchun ham birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov «...bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang`ich sinflarga eng yetuk, eng tajribali murabbiylar biriktirib qo`yilishini oddiy mantiqning o`zi talab etadi. Zamonaviy boshlang`ich ta`limning o`zi nimadan iborat bo`lishi kerak? Bola 1-4 sinflarda qanday bilimga ega bo`lishi lozim? Uning tarbiyasi qanday bo`lishi kerak? Shu masalalarga javob topishimiz zarur.³³ O`zbekiston mustaqilligi tufayli boshlang`ich ta`lim mazmuni tubdan o`zgardi. Milliy va ma`naviy qadriyatlar asosida yangi dasturlar, darsliklar, o`quv metodik tavsiyalar, ilmiy-metodik qo`llanmalar yaratildi. Dunyoqarashi, Mustaqil respublikamizda boshlang`ich sinf o`quvchilarni yangi talab asosida o`qitish va tarbiyalashga alohida e`tibor berildi. Boshlang`ich sinflar bo`yicha davlat ta`lim standarti, boshlang`ich ta`lim kontseptsiyasi yaratildi. Boshlang`ich ta`lim jarayonida I-IV sinflarda o`qitiladigan «O`zbek tili», «Ona tili», «O`qish», «Odobnoma», «Tabiat», «Musiqa madaniyati», «Tasviriy san`at», «Mehnat», «Jismoniy tarbiya» kabi fanlar asosida boshlang`ich sinf o`quvchilarida axloqiy-estetik tarbiyani tarbiyalashning poydevori qo`yiladi. Chunki, ushbu fanlarni o`qitish jarayonida o`quvchilar ongiga axloqiy-estetik tarbiyaning maqsad va vazifalarini singdirish, inson va jamiyat hamda uning taraqqiyoti haqidagi tushunchalar, bilimlar haqida muayyan tasavvurni hosil qilish, ma`naviy-axloqiy xatti-harakatlarni o`zlashtirish, shaxsning ijtimoiy yo`nalishi haqidagi ko`nikma va malakalar shakllantiriladi. Ya`ni, boshlang`ich sinf o`quvchilarida axloqiy-estetik

³³ Islom Karimov. “Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch” T., “Ma`naviyat”. 2008 yil.

tarbiyani shakllantirish 1-sinfdan IV sinfgacha bo`lgan davr mobaynida muhim o`zgarishlarga uchraydi. Bu yoshning oxirgi davrlariga kelib axloqiy- estetik tarbiya haqidagi bilimlar tasavvurlar va mulohazalar sezilarli darajada boyiydi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarda axloqiy- estetik tarbiyani shakllantirish asosida ularda milliy o`zlikni anglash, vatanparvarlik, o`z vatani uchun iftixor tuyg`usini kamol toptirishda o`qish darslari muhim omil bo`lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang`ich sinf o`quvchilarda axloqiy-estetik tarbiyani tarbiyalashda o`qituvchilar qo`yidagi vazifalarni amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir.

1. Boshlang`ich sinf o`quvchilarga axloqiy- estetik tarbiya haqidagi bilimlarni berish;
2. O`quvchilar tomonidan o`zlashtirilgan axloqiy- estetik tarbiya haqidagi bilimlarni chuqurlashtirib borish;
3. O`quvchilarda axloqiy tarbiya haqidagi bilimlarni o`rganishga bo`lgan ehtiyoj va qiziqishni yuzaga keltirish;
4. O`quvchilarda axloqiy tarbiyaga oid ongli yondoshuvni qaror toptirish;
5. O`quvchilarni har qanday ko`rinishdagi odobsizliklarga qarshi kurashga rag`batlantirish;
6. O`qish» darslarini samaradorligini tahlil etib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axloq odobga oid hadis namunalari T.: Fan.1990 y.
2. Mavlonova R.Raxmonqulova N.Boshlang`ich ta`limning integratsiyalashgan pedagogikasi . T.: O`qituvchi, 2006.

SUG'ORILADIGAN YERLARNING MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH VA SUV TEJAMKOR SUG'ORISH TEXNOLOGIYALARI

G'aniyeva Shahlohon Nabidjanovna

5-Sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi o`qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ishda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya obyektlari tarmog'ini rivojlantirish, suv resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, buning asosida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqaror ishlashini ta'minlash, yerlarning unumdorligini oshirish hamda qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini ko'paytirish va sohaga yangi innovatsion loyihalarni jalb etish nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: Texnologiya, Innovatsiya, Irrigatsiya, Melioratsiya, Modernizatsiya, Konsepsiya, Kollektor, Drenaj

O'zbekiston so'nggi yillarda barcha sohalar kabi suv xo'jaligi sohasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo'jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamiz qishloq xo'jaligida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar tufayli qishloq mulkdorlarining manfaatlarini ta'minlash, ekin maydonlarining unumdorligini oshirish, yerdan to'g'ri va oqilona foydalanish, ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish kabi muhim yo'nalishlarda salmoqli natijalarga erishilmoqda. Ayniqsa, soha taraqqiyotini kafolatlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy bazaning takomillashuvi qishloq xo'jaligi faoliyatida yutuqlarning negizi hisoblanmoqda. Shuningdek agrar sektorni modernizatsiyalash, aholining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish borasidagi chora- tadbirlarni amalga oshirish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va buning

uchun ayni yo'nalishdagi qonun hujjatlari ijrosiga ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumki mamlakatimizda qishloq xo'jaligi sohasini yanada barqaror rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ularning unumdorligini oshirish va shu tariqa qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini ko'paytirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida, "Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida" gi farmon qabul qilingan edi. Unga ko'ra, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash uchun quyidagi eng muhim vazifalar belgilangan:

- Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash dasturlarini shakllantirish va uni amalga oshirishga yondashuvlarni tubdan o'zgartirish;
- Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha ishlarni moliyalashtirishning ishonchli mexanizmini ta'minlash,

Ushbu tadbirlarni samarali va to'laqonli amalga oshirishni ta'minlash uchun respublikada bir qator yangi tizimlar joriy etilgan.

Suv xo'jaligi sohasidagi mavjud muammolar (suv tanqisligi va suv resurslariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, jumladan, iqlim o'zgarishi, aholi sonining o'sishi, suvga bo'lgan talabning oshib borishi) ni aniqlash, ularni o'z vaqtida bartaraf qilish va chora-tadbirlar ishlab chiqish anchagina mashaqqatni talab etadi.

Hisob - kitoblarga ko'ra, global iqlim o'zgarishi natijasida so'nggi 50- 60 yil davomida Markaziy Osiyoda muzliklar maydoni taxminan 30 foizga qisqargan. 2050 yilgacha Sirdaryo havzasida suv resurslari 5 foizga, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. Natijada O'zbekistonda 2030 yilga borib suvga bo'lgan talab 7 mlrd kub metrni, 2050 yilga borib esa, bu ko'rsatkich ikki barobarga ortishi mumkin. Aholi sonining keskin oshib borishi, suvdan foydalanish samaradorligining pastligi hisobiga oxirgi 15 yil ichida aholi jon boshiga suv ta'minoti taxminan ikki barobarga (3048 m³ dan 1589 m³ ga) qisqargan. Natijada 2030 yilga borib keskin o'sib borayotgan aholining sifatli suvga bo'lgan talabi 18-20 foiz (2.3 mlrd m³ dan 2.7- 3.0 mlrd m³) ga ortishi kutilmoqda.

Bu holat suv resurslaridan oqilona foydalanish, suv tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va irrigatsiya obyektlarini qurish hamda rekonstruksiya qilish kabi bir qator chora tadbirlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi " O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida " gi PF- 6024- sonli farmoniga muvofiq tasdiqlangan Konsepsiya sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish va suv xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha qator dolzarb vazifalar hamda ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga olgan.

Mazkur hujjatda 2030 yilga qadar quyidagi ko'rsatkichlarga erishish ham nazarda tutilgan:

- sug'orish tizimlarining foydali ish koeffitsiyentini 0.63 dan 0.73 gacha oshirish;
- suv ta'minoti past darajada bo'lgan sug'oriladigan yer maydonlarini 560 ming gektardan 190 ming gektargacha kamaytirish;
- sho'rlangan sug'oriladigan yer maydonlarini 226 ming gektargacha kamaytirish;
- suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi nasos stansiyalarining yillik elektr energiyasi iste'molini 25 foizga kamaytirish;
- barcha irrigatsiya tizimi obyektlariga "Aqlli suv " suv o'lchash va nazorat qilish qurilmalari o'rnatilib, suv hisobini yuritishda raqamli texnologiyalarni joriy etish;
- 100 ta yirik suv xo'jaligi obyektida suvni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish;
- qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suvni tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 million gektargacha, shu jumladan, tomchilatib sug'orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish;
- suv xo'jaligida davlat- xususiy sheriklik tamoyillari asosida 50 ta loyihani amalga oshirish;

Respublikamizda 2020 yilda 133.6 ming gektar maydonda suv tejoyvchi texnologiyalar joriy qilingan. Shu tariqa o'tgan yillar davomida tejamkor sug'orish texnologiyalari joriy qilingan maydonlar 291,2 ming gektarga yetkazilib, jami sug'oriladigan yerlarning 7 foizga yaqinini tashkil etmoqda.

Jumladan, 43 ming 40 gektar, shundan 20 ming 650 gektar paxta maydonlarida tomchilatib sug'orish, 2 ming 210 gektar maydonda yomg'irlatib sug'orish, 4 ming 249 gektar maydonda diskret (pulsar) sug'orish texnologiyasi qo'llanilgan bo'lsa, 84 ming 162 gektar maydonda ko'chma egiluvchan quvurlar orqali sug'orish ishlari amalga oshirilgan.

Respublikamizda o'ziga xos suv xo'jaligi tizimi barpo qilingan bo'lib, uning maqsadi iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan, qishloq xo'jaligini suv bilan ishonchli ta'minlash, shuningdek, yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan. Hisobotga ko'ra, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun umumiy uzunligi 142.9 ming km, shundan 106.2 ming km ochiq va 36.7 ming km yopiq gorizontal kollektor- drenaj tarmog'i, shuningdek, 172 ta meliorativ nasos stansiyasi, 3897 ta vertikal drenaj quduq ishlatilmoqda. Paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarining yana bir katta ulushi nasos stansiyalari faoliyatini ta'minlab beruvchi elektr energiya xarajatlari hisoblanadi. Hisobotga ko'ra, suv resurslarining nomutanosib taqsimlanishi va relefga ega ekanligi natijasida sug'oriladigan yerlarning 60 foizga yaqin qismiga 1687 ta nasos stansiya yordamida suv yetkazib berilib, ularning yillik elektr energiyasi iste'moli 8 mlrd kv.t.s ni tashkil etadi. 2.5 million gektar maydonni sug'orish uchun 2.4 trln so'm byudjet mablag'lari sarflanmoqda. Bir gektar maydonga suvni nasoslar orqali yetkazib berish uchun byudjetdan o'rtacha 800 ming so'm xarajat qilinmoqda.

Egatlab sug'orish oqibatida yiliga qariyb 5-6 milliard m³ yoki 20 foiz suv dalada behuda sarflanmoqda. Bu muammoni hal qilish maqsadida energiya samarador texnologiyalarni joriy qilish va tarmoqda energiya sarfini kamaytirish bo'yicha bir qancha ishlar olib borilmoqda.

Xulosa qilib aytganda suvdan foydalanish koeffitsiyentini yanada oshirishda irrigatsiya tarmoqlaridagi yo'qotiladigan suv miqdorini kamaytirish, buning uchun esa sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, irrigatsiya- melioratsiya obyektlarini rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, tiklash hamda suv tejovchi texnologiyalarni keng qo'llash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[https:// lex.uz.](https://lex.uz)

<http://dd.gov.uz>

mineeconomy.uz

www.review.uz

Xalq so'zi gazetasi.



SUD-HUQUQ TIZIMIDAGI AYRIM TERMINLAR USLUBIYATI

Beshimova Mohichehra

Chirchiq davlat pedagogika institutining Gumanitar fanlar fakulteti 1- bosqich talabasi

Mo'ydinov Qodirjon

Ilmiy rahbar, Filologiya Fanlari bo'yicha Falsafa fanlar doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada sud-huquq tizimidagi ayrim termin va atamalarning mazmuni o'rganilib, ular xususida tegishli takliflar berib o'tiladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan toki hozirgi kunga qadar jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallash uchun harakat qilib kelmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan rejaga kiritilgan “Yangi O'zbekiston” taraqqiyot strategiyasi O'zbekistonning yuksalish pog'nasidan tezkorlik bilan ilgari ketayotganining yaqol isbotidir. SHavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek: “Yangi O'zbekiston- demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va prinsiplarga qa'tiy amal qilgan holda, jahon jamjamiyati bilan hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlatdir”.³⁴ Fuqorolar orrasida huquqiy ongning rivojlantirilishi, jamiyatda ijtimoiy, siosiy himoyani keng isloh qilinishi bugungi kunning dolzarb muommolaridan biridir. Yana bir e'tibor berilishi muxim bo'lgan jihat shuki, bu O'zbekiston Respublikasi sud- huquq tizimi tarkibidagi ayrim nomutonositliklardir. Ushbu soha O'zbekiston o'z suverinitetiga ega bo'lgan kundan boshlab chuqur isloh qilingan yo'nalishlardan biridir. Xususan 2000-yildagi “Sudlar to'g'risidagi qonun”da sudyalarning vakolotlari, himoyachi va boshqa sud ishtirokchilarining vazifalari aniq belgilab berilgan.

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Sh. Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston Gasitasiga bergan intervyusidan

Hozirgi kundagi eng asosiy e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan masala bu sud tizimiga oid terminlarning to'liq, mukammal variyanti ishlab chiqilishidir. Bugungi kunda mustaqil organ sifatida e'tirof etilayotgan sud tizimining o'rganilish obyekti bu insonlar hayotiga bevosita daxldor bo'gan qonunlardir, ahamiyati jihatidan juda dolzarb bo'lgan ushbu yo'nalishda hozirgi kun talabidan kelib chiqqan holda hech qanday nomutonasibliklarga yo'l qo'ymaslik davr talabi. Qonunlar o'ziga xos hukmni ifodalashi va e'tirozga o'rin qoldirmaydigan mantiqni shakillantirish jihatidan ajralib turadi. Shuningdek, qonun hujjatlarining qisqa va lo'nda bo'lishi ham ahamiyatga molikdir. Tilning ishtirokisiz esa bunga erishib bo'lmaydi. Qonun faqat soha vakillari uchunгина emas, balki sohadan tashqari xalq vakillari uchun ham tushunarli bo'lishi zarur. Mazkur talablarga javob berish uchun esa huquqshunos tilshunoslik ilmidan ham xabardor bo'lishi zarur. Huquq va til alohida-alohida yo'nalish hisoblansa-da, har ikkalasi bir-birining ishtirokisiz jamiyatda o'z o'rnini topolmaydigan bir butunlikdir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan sanadan boshlab, qonunshunoslar zimmasiga dolzarb vazifa yuklandi, ya'ni endilikda yangicha tizimda o'zbek milliy etaloni (andoza) ni tuzish masalasi o'rtaga tashlandi. Shuningdek amaldagi qonun hujjatlarini ularning tarkibida muomalada bo'lib kelayotgan rus tilidagi so'z va iboralardan “tozalash” eng asosiy vazifa edi. Shu xususidan olib borilgan ishlar o'z natijasini ko'rsatdi ham, so'zimiz misolida aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi 2-chaqiriq Oliy Majlisi tarkibida “Normativ huquqiy atamalar bo'yicha maxsus komissiyasi” tashkil etilib, yuridik terminlarning barqarorligini tahlil etish, yuridik terminlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish, qonun loyihalarini tili va uslub jihatidan ekspertizadan o'tkazish kabi bir qancha vazifalar yuklatilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamashunoslik qo'mitasi bilan O'zbekiston Fanlar akademiyasi Ibrohim Mo'minov nomli Falsafa va Huquq instituti tomonidan o'zaro hamkorlikda tuzilgan “Yuridik terminlar sho'basini” faoliyat ko'rsatdi. 1993-yilda bu sho'badagi huquqshunos olimlar tomonidan “yuridik terminlar va iboralar lug'ati” chop etildi. Bu lug'at oldingi sobiq ittifoq paytida yaratilgan huquqiy lug'atlardan farq qilib, unda yuridik terminlar o'zbek tilining, o'zbek

xalqining milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlangan.³⁵ Qadimda huquqshunoslar mavjud qonunlarni xalqqa qanday usulda yetkazish borasida turlicha to'xtamlarga kelishgan. Bunga sabab axborot uzatish usullarining xilma-xilligi hamda ular orasida eng ma'qbulining tanlash to'g'risida bahs-munozaralar olib borilganligidandir. Qonunshunoslar tomonidan huquqqa oid hujjatlarni belgi va ishoralar orqali xalqqa yetkazish taklifi ham berilgan. Biroq bu taklif o'z ahamiyatiga ega bo'lmagan, chunki qonunning bu tarzda ifoda qilinishi uning mazmun jihatidan aniqligiga putur yetkazadi. Shu sababdan ham qonunlarni til orqali muomalaga kiritish ancha samarali va to'g'ri yo'l hisoblanadi. Huquq va tilning ahamiyati bugungi kun davr talabidan kelib chiqqan holda o'rganilishi talab qilinayotgan sohadir. Zero, qonunlari to'g'ri tuzilgan mamlakatda fuqorolarning erkin va farovon turmush tarzi kafolatlangan bo'ladi. Tarixan ma'lumki, qonunlar tuzilishida, avvalo, ularning aholiga tushunarligini ta'minlashga e'tibor berilgan. Akademik L.V. Shcherba bu haqida shunday yozadi: Yuridik til birinchi navbatda aniqlilikni, qandaydir chalkashliklarga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi. Manfaatdor shaxs huquqiy normalarni tezlikda tushunishi va o'zlashtirishi, yengilgina qabul qilishi shart.³⁶ Qadimgi Rimda ham qonun tuzushning asosiy qoidasi sifatida, qonun tilining eng muhim belgilaridan biri aniqlikdir, deyiladi. Konstitutsiya va qonunlarni yaratishda qadimgi qonunchilik tajribasidan keng foydalaniladi. Yuridik til aniqlikni talab qilgan ekan, so'zlarning xilma-xilligi qonun mohiyatiga putur yetkazadi. Ma'lumot o'rnida aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida 5421 ta so'z qo'llanilgan. 1993-yil qayta ishlangan yuridik terminlar lug'atida 6700 dan ortiq atamalar izohi berilgan. Terminlarning soni yoki ularning miqdori unchalik ahamiyatga ega emas, eng muhimi ular ifodalayotgan mazmunning aniqligidir. Xususan, e'tiboringizni 1959-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksining 9- moddasiga qaratmoqchimiz: Agarda jinoyatni sodir etgan shaxs o'z harakati va harakatsizligidan jamoat uchun oqibatlar kelib chiqishi mumkinligidan ko'zi yeta turib, lekin xom-xayollik bilan shu oqibatlarining oldini olishni mo'ljallab

³⁵ Ko'chimov Sh.N. "Yuridik til nazariyasi va amliyoti" Toshkent 2013

³⁶ Ko'chimov Sh.N. "Yuridik til nazariyasi va amliyoti" Toshkent 2013

harakat qilsa yoki bunday oqibatlarning kelib chiqishi mumkinligiga ko'zi yetmasada ,lekin ko'zi yetishi mumkin va lozim bo'lsa,bunday jinoyat ehtiyotsizlik bilan qilingan jinoat deb taniladi.³⁷Mazkur qonun mazmunidan shunday xulosa kelib chiqadiki,qonunlarning tarjima qilinishida ham ifodalanishi kerak bo'lgan mohiyat aynan aks ettilishi kerak.Jamiyatimiz a'zolarining turmush tarzi munosib yo'lga qo'yilishi tinchlik va farovon hayotning debochasidir.

Foydalanigan adabiyotlar:

- 1.Ko'chimov.SH.N.'Yuridik til nazariyasi va amaliyoti" Toshkent 2013
- 2.O'zbekiston advokatlari himoya nutqi Toshkent 2008
- 3.O'zbekiston Respublikasi protsessual kodeksi
- 4.Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich "Ozbek tilida sud notiqligi leksikasi " Toshkent 2015
- 5.LEX.uz va hamda UTEK.uz sayti



³⁷ KO'chimov.Sh.N "yuridik til nazariyasi va amaliyoyi Toshkent 2013

**BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA
O'QUVCHILARNING MATEMATIK KOMPETENSIYALARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Abduhakimova Zarnigor Abdurayim qizi

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim)

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning matematik kompetensiyalarini rivojlantirish haqida to'xtalib o'tildi.

Kalit so'zlar: Davlat ta'lim standarti, matematika, tayanch va fanga oid kompetensiya, kommunikativ kompetensiya.

“Mamlakatimizda boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish umuman maktab matematika kursini o'zlashtirishning dastlabki bosqichi sifatida qaraladi. Shu sababali boshlang'ich sinflarda ishlashda o'rta maktabda matematika o'qitishda ko'zda tutiladigan umumiy masalalarni hisobga olish va bu masalalarni hal etishda boshlang'ich ta'limning ahamiyatini to'g'ri baholash kerak. boshlang'ich ta'limning muhim masalalaridan biri o'quvchilarda ongli va mustahkam hisoblash malakalarini shakllantirish edi va shunday bo'lib qoladi. o'quvchilarga egallangan bilim, o'quv va malakalarini turli xil sharoitlarda qo'llanishga o'rgatishni o'qitishning maxsus masalalari sifatida qarash kerak. Bu – o'quvchilarni politexnik tayyorgarligiga qaratilgan ishning boshlanishidir. shu bilan birga bilimlarning qo'llanishi ham bolalarning o'quv ishlari samaradorligini oshirishning muhim vositalaridan biridir. bilim, o'quv va malakalarning to'la qiymatli o'zlashtirishiga ularning o'zgaruvchi sharoitlarda mustaqil qo'llanilishi natijasidagina erishish mumkinligini psixologlar isbotlashdi. bolalarning maktabda boshlang'ich sinflardan keyingi sinfga o'tishiga albatta vujudga keladigan qiyinchiliklar ko'p darajada aynan shu asosda bartaraf etilishi mumkin.

Matematika bilan shug'ullanish faqat xotira va tafakkurni shakllantirib qolmay, balki bolalarning mehnat tarbiyasi maktabi ham bo'ladi. u mehnat qilishga odat qilishni va mehnatga ehtiyojni tarbiyalash bo'yicha doimiy sistemali ishlash uchun material beradi, tafakkur intizomini va mehnatni aniq tashkil etishni, fikrning bir joyga to'planishini, aniqlikni talab qiladi” (N.U. Bikbayeva, R.I. Sidelnikova, G.A. Adambekova Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. -T.: O'qituvchi, 1996. s-4)

Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim standarti va o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son “Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus kasb – hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori bilan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'limining davlat ta'lim standarti hamda umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflari uchun matematika fani bo'yicha malaka talablari asosida tuzilgan bo'lib, Xalq ta'limi vazirining 2017-yil 3-iyundagi “Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari talablari asosida takomillashtirilgan o'quv dasturlarini tasdiqlash va amaliyotga joriy etish to'g'risida”gi 190-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-4 sinflari uchun amaliyotga joriy etiladi.

Davlat ta'lim standartining maqsadi-umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamolva intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Davlat ta'lim standarti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi; umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi; umumiy o'rta ta'limning malaka talablari; baholash tizimi.

Boshlang'ich ta'limning matematika fani o'quv dasturi o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzildi. Ushbu o'quv dasturida boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantiriladigan tayanch va fanga oid kompetensiyalar (Kompetensiya – mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati)

kiritilgan. Shuningdek, me'yoriy hujjatlarni yuritishda tayanch va fanga oid kompetensiyalar quyidagicha yozilishi tavsiya qilinadi:

TK-tayanch kompetensiyalar:

1. TK1-kommunikativ kompetensiyasi
2. TK2-axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi
3. TK3-o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi
4. TK4-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi
5. TK5-milliy va umummadaniy kompetensiyasi
6. TK6-matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi

FK-fanga oid kompetensiyalar:

1. FK1-matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya
2. FK2-kognitiv kompetensiya.

Matematika fanidan 1-sinf o'quvchilarida shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Kommunikativ kompetensiya :

Matematika faniga oid atamalarni to'g'ri talaffuz etish; o'z fikrini aniq ifodalay olish; Matematikaga oid turli axborotlarni tinglab, ko'rib tushunish; sodda matematik matn ma'nosini so'zlab bera olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

Darslik va boshqa manbalardan foydalana olish; ustunli'chiziqli va doiraviy diagrammalar ,jadvallar ,chizmalar ko'rinishida berilgan statistik ma'lumotlarni o'qiy olish, tushunish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

O'qituvchi bilan birgalikda o'quv masalani topa olish, ifodalay olish, qismlarga ajrata olish; O'qituvchi bilan birgalikda o'quv faoliyatini natijasini tahlil qilish ,yo'l qo'yilgan xato va noaniqliklarni topa olish va ularni tuzata olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

Boshqalar fikrini tinglab, tushuna olish va o'z fikrini himoya qila olish; atrofdagilar bilan o'zaro muloqot chog'ida odob-axloq qoidalariga rioya qila olish va guruhda ishlay olish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

Hodisalarni matematik tilda ifodalash usullaridan foydalana olish va bu usullar samarali ekanligini tushuna olish; milliy bayramlarimizga oid sana va vaqtlarni bilish, ularni kundalik hayotda qo'llay olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

Aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarini tuza olish; murakkab bo'lmagan hisoblashlarda hisoblash vositalaridan foydalana olish.

1-sinf matematika darsligida berilgan har bir bo'lim yuzasidan o'quvchilarda o'fanga oid kompetensiya elementlarining shakllanishi: 1-bo'lim. "Narsalarning to'plamlari" Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya: o'quvchilar narsalarning xossalari bo'yicha taqqoslay oladi va tartibga soladi, narsalar juftliklarini tuzib, to'plamlarni soni bo'yicha taqqoslay oladi va natijani "ko'proq",

"kamroq", "qancha bo'lsa shuncha", "soni bir xil", "bir nechta ko'p", "bir nechta kam" so'zlari bilan ifodalay oladi. Kognitiv kompetensiya: o'rganilgan matematik tushunchalar va algoritmlarni o'quv jarayoni hamda kundalik vaziyatlarda qo'llay oladi. 2-bo'lim. "11 dan 100gacha bo'lgan sonlar. Geometrik shakllar" Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya: 0 dan 100 gacha bo'lgan nomanfiy butun sonlarni o'qiy oladi, yoza oladi, to'g'ri va teskari tartibda sanay oladi, burchaklarning asosiy turlarini (to'g'ri, o'tkir, o'tmas burchaklar) tasavvur qila oladi, solishtira oladi va tasvirlay oladi, ko'pburchaklarni (uchburchak, to'rtburchak) tasavvur qila oladi, tasvirlay oladi. Kognitiv kompetensiya: o'z fikrini ifodalay oladi, boshqalar fikrini tinglab, tushuna oladi. 3-bo'lim. "Geometrik shakllar. Matnli masalalar" Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya: yassi (nuqta, kesma, burchak) figuralarni tasavvur qila oladi, taniy oladi va nomlay oladi, nomli kattaliklar (massa, sig'im) ni o'qiy oladi va yoza oladi, kattaliklarga oid kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan masalalarni arifmetik usulda yecha oladi. Kognitiv

kompetensiya :o'qituvchi bilan hamkorlikda o'quv va amaliy masaladagi maqsadni ifodalay oladi,o'z fikrini ifodalay oladi. 4-bo'lim.”Geometrik shakllar.Mantiqiy tushunchalar” Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:real obyektlarni geometrik figuralar modellari bilan bog'lay oladi,nomli kattaliklar(uzunlik,masofa)va ular orasidagi munosabatlardan (metr,detsimetr,santimetr)foydalanib ,kattaliklarni o'qiy oladi vayoza oladi,kattaliklarga oid kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan masalalarni arifmetik usulda (2 qadamli)yecha oladi. Kognitiv kompetensiya :masalalar yechishda mantiqan to'g'ri fikr yurita oladi,mantiqiy noto'g'ri natijalarni aniqlay oladi,misol va qarshi misol tuza oladi ,o'quv masalasini qismlarga ajrata oladi.5-bo'lim.”Sonli ifodalar.Jadvallar.Geometrik shakllar” ” Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:2 arifmetik amalli (qavssiz)sonli ifodaning qiymatini hisoblay oladi,geometrik obyektlar o'lchamlarini ,masofalarni chamalay oladi, murakkab bo'lmagan jadvallar ko'rinishida berilgan ma'lumotlarni o'qiy oladi va tayyor jadvallarni to'ldira oladi.Kognitiv kompetensiya:o'rganilgan matematik tushunchalar,faktlar va algoritmlarni sodda o'quv vaziyatlarda qo'llay oladi va yangi bilimlarni hosil qila oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika faniga oid har bir kompetensiyalarni takomillashtirib borish dars jarayonida o'qituvchining pedagogik mahorati asosida takomillashtirib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.U.Bikbayeva, R.I.Sidelnikova,G.A.Adambekova Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi.-T.: O'qituvchi, 1996.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus , kasb –hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari tasdiqlash to'g'risida “gi 187-son qarori

O'RTABULOQ KONI TERRIGEN - YURA YOTQIZIQLARINING NEFTGAZLILIKKA ISTIQBOLLARI

Kichkinayev Asqar Axad o'g'li

Geologiya fanlari universiteti, magistr

Annotatsiya. Ushbu maqolada asosan O'rtabuloq koni haqida so'z yuritilgan bo'lib, u yeda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatib turibdiki, u yerda asosiy e'tibor yura – terrigen yotqiziqlariga qaratilgan va bu davr qatlamlari massiv ko'rinishga ega. Shuning uchun bu kon hududida nisbatan kam geofizik tadqiqotlar o'tkazilgan va to'liqroq ma'lumotlarga ega bo'lishimiz uchun yanada chuqurroqqa tushishimiz yoki mavjud quduqlar orqali geofizik tadqiqotlarni o'tkazish talab etiladi.

Kalit so'zlar: maydon, neftgazliligi, gazokondensat, kollektor, geofizik ma'lumotlar, uglevodorod.

Joylashgan maydoni. O'rtabuloq gazokondensat koni O'zbekiston respublikasi Buxoro va Qashqadaryo viloyati Qorako'l rayoni hududiga joylashgan.


Geologiyasi. Orografik jihatdan rayon past tekislikdan iborat cho'l bo'lib, gryadovoy qumlar rivojlangan. Qumtosh uyumlari oralig'ida taqirlar tarqalgan bo'lib, aniq bo'lmagan berk kotlovina hisoblanadi. Kondan janubga keng Sichankul kotlovinasi joylashgan kon yuzasining absolyut belgisi plyus 290 dan plyus 341 metrgacha o'zgaradi. Maydondan janubiy-g'arbda 55 km dan oqib o'tuvchi amudaryo daryosi yaqin suv arteriyasi hisoblanadi.

Mahsuldor gorizontning asosiy ko'rsatgichlari. Gaz uyumining o'lchami quyidagicha: uzunligi – 16 km, eni – 5 km, balandligi (gazlilik qavati) – 400 metr. Uyumning janubiy qanotida gazneft chegarasi 2302 metr belgida o'rnatilgan; suvneft chegarasi shartli ravishda 2322 metr – belgida o'rnatilgan. Uyumda boshlang'ich qatlam bosimi 244,4 kg/sm² ni tashkil qiladi.

Uyum bo‘yicha o‘rtacha qatlam xarorati +96⁰S tashkil qiladi. Kollektorlarni samarali qalinligi qatlamning umumiy qalinligidan 60 – 90 %. Eng ko‘p kollektorlar uyumning janubiy – sharqiy qisimida tarqalgan (qatlamning umumiy qalinligidan 90%). Kollektorlarning o‘rtacha qalinligi quyidagicha: yuqori g‘ovakligi – 16%, past g‘ovakligi – 4%, ikkala turdagi kollektorlar uchun gazga to‘yinganligi – 785. Barcha tabiiy saqlagichlarning o‘rtacha o‘tkazuvchanligi – 39 md .

Samarali gazga to‘yinganlik qalinligi maydondagi uyumlar bo‘yicha o‘rtacha qiymati quyidagicha tarkib topgan: yuqori g‘ovaklik kollektorla – 78 metr; past g‘ovakliy kollektorla – 32,5 metr.

Gaz zaxiralari: yuqori o‘tkazuvchan kollektorlarda – 92,9 mlrd.m³ yoki 90,5 va 9,5 % mansub.



1 – rasm. Buxoro-Xiva terrigen yura yotqizilarning paleotektonik xaritasi.

Neftgazliligi. O‘rtabuloq konining sanoat gazliligi №11 razvedka qudug‘ini burg‘ulash jarayonida o‘rganilgan. Quduq devori 2409 metr – keloviy – oksford ohaktoshlari (XV gorizont) yuqori qsimida glina qorishmasi otqini sodir bo‘lib, keyinchalik ochiq fontanga olib kelgan. Fontan bo‘ladigan gazning debiti 13 mln. m³/sutka baholangan.


Bundan tashqari konning ko‘tarilgan qisimida (100 quduq) katta bo‘lmagan o‘lchamli va gaz zaxirali gaz uyumi aniqlangan, bu gaz uyumi yura terrigen yotqizilariga (XVIII gorizont) mansub.

Sinalgan quduqlarning katta bo‘lmagan hajmi XV gorizont karbonat yotqizilariga to‘g‘ri keladi.

Gazga to‘yingan oraliqlarni sinalganda ko‘p hollarda ahamiyatli gaz oqimi olingan.

Shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki kuchsiz gaz oqimi olingan oraliqlarni sinalgandan keyin samarali intensivatsiya metodlari o‘tkazilmagan.

Zaxirani hisoblash uchun boshlang‘ich GNK (gaz-neft kontakti) 2302 metr, SNK (suv-neft kontakti) 2322 metrda tadqiqotlar orqali o‘rganilgan.



2-rasm. O‘rtabuloq koni yuqori yura yotqizilarining 20,67,27,54,66,32,65, 9,31,96,92,24,35,68,87,102,8-quduqlar bo‘yicha geologik kesimi.

Shimol va g‘arbda chegaralar GSK (gaz-suv kontakti) dan yuqorida gipsometrik joylashgan rif kompleksi tarqalgan chegaralar bilan mos keladi.

Gaz uyumining katta qisimi kollektorlar mavjud bo‘lmagan zona bilan chegaralangan, janub va sharqda neft bo‘lakchalariga intiladi.

Ilmiy izlanishlar orqali shuni aniqlandiki, neftning razvedka qilingan balans zaxiralari sanoat ahamiyatiga ega emas, gaz zaxiralari esa aksincha, ancha foydali va

ahamiyatga ega hisoblanadi. Karbonat yotqiziq-lari g'ovaklik kengligi va filtratsiya sharoiti tuzilmalardan bog'liq karbonatli, yoriqsimon, kavernoliy va aralashga bo'linadi.

XV-RU gorizonti kulrang va och-kulrang ohaktoshlardan iborat, massivli ,qatchalik qatlamliy ba'zi uchastkalarda pelitomorfga o'tadi.Ko'p hollarda yoriq va g'ovaklar bitumlar bilan to'lgan.

O'tkazilgan tadqiqotlar. O'rtabuloq konida terrigen yura yotqiziq-lari kam o'rganilgan obyekt bo'lib, bu chuqur izlov-razvedka quduqlarining kam miqdorda burg'ulanganligi bilan bog'liq.

2007-2010 yillarda M.E.Raxmatov tomonidan Chordjoy pog'anasi Dengizko'l va ispanli-Chandir ko'tarilmalarida OGT-2D izlov-mufassal ishlari olib borilgan. OGT seysmorazvedka izlov-mafassal ishlari Igritepa, Nazarxon, Navbahor, Sarak, Shim. Zekri, Sariqum maydonlarida terrigen yura yotqiziq-lari va imkoniyati bo'lsa Toyura kompleksi yotqiziq-larida neftgazga istiqbolli obyektlarni aniqlash maqsadida bajarilgan.

Dengizko'l konida terrigen yura yotqiziq-lari 15 qutuq bilan ochilgan, shu bilan Shodi-Xauzak uchastkasida sakkizta quduqlar orqali terrigen yura yotqiziq-lari ochilgan. Bu yotqiziq-larning ochilgan qalinligi 45 m dan (Dengizko'l 12) 236 m gacha (Xauzak 1) o'zgaradi, lekin asosan 100 metrdan oshmaydi.

Shuni takidlab o'tish keraki dengizko'l konida terrigen yura yotqiziq-larining asosiy mahsuldor gorizonti (XVIII) kesimning o'rta qismida joylashgan. Uzunchak tuzilmasi 2004-yilda seysmorazvedkaning UCHN-2D ishlarini qayta interpretatsiya qilish natijasida aniqlangan. Chuqur izlov burg'ilashga 2009-yilda izlov-mukammallashtirish UCHN-2D ishlarini amalga oshirish natijasida tayyorlangan. Uzunchak maydonida №1 izlov qudug'ida o'tkazilgan geologo-geofizik ma'lumotlar karbonat yura va terrigen yura yotqiziq-larini neftgazga samaradorligini ijobiy baholagan.

Kon-geofizik tadqiqotlar materiallari bo'yicha va kern namunalarini tadqiqot qilish natijalari bo'yicha terrigen yura kollektor-jinslari qatlam va oraliq qavatchalar

ko‘rinishdagi qumtoshlar va alevrolitlardan tashkil topgan bo‘lib, XVII va XVIII gorizontlarni birlashtiradi.

Yura tabiiy saqlagichlarida g‘ovak-kavernoliy kollektorlar flyuidga to‘yingan hisoblanadi va asosan karbonat formatsiyasining yuqori qisimida keng tarqalgan.

Xulosa.O‘rtabuloq maydonida terrigen yura formatsiyasi qirqimida UV (uglevodorod) to‘plamlari aniqlangan konturiga parametrik quduqni joylashtirish tavsiya qilinadi.

Terrigen, quyi yura yotqiziqqlarga yangi ob‘ektlarga izlov ishlarini o‘kazishni talab qiladi va ularning neftgazlilik jihatidan katta qiziqish uyg‘otadi.

O‘rta-quyi yura va to yura komplekslar bugungi kunda o‘rtacha va hattoki yirik UV konlarini ochilishi mumkin bo‘lgan samarali ob‘ekt hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Султанов Ш.А., Салимов Б.О. РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ.” Вухоро-Хива regionida neftgaz hosil bo‘lishi va neftgaz to‘planish sharoitlarini aniqlash maqsadida chuqur geologik tuzishi bo‘yicha regional tadqiqot ishlari”
2. Хожиев Б.И., Турсунова Т.М.АО «ИГИРНИГМ» “Dengizko‘l ko‘tarilmasi hududida geologorazvedka ishlarini davom etirish uchn terrigen yura formatsiyasi istiqbolarini baholash”
3. Султанова Д.Б., Жамолов А.Н.АО «ИГИРНИГМ» “Chordjoy pog‘anasi markaziy qismi terrigen yura formatsiyasida uglevodorodlarni noantiklinal tutqichlarini aniqlash”.
4. Шаропов М. «Караулбазарская НГРЭ»
5. Бабаев А.Г. Геотектоническая история Западного Узбекистана и региональные закономерности размещения скоплений нефти и газа. Л., Недра, 1966г.
6. А.И. Дьяконов, Б.А. Соколов, Ю.К. Бурлин “Теоретические основы и методы прогноза, поисков и разведки месторождений нефти и газа” Ухта – 2002

ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАЛАБАЛАРИГА ЭКОНОМЕТРИКАНИ ЎҚИТИШНИНГ ТАҲСИЛ ТЕХНОЛОГИЯСИ ВА МЕТОДИК ТИЗИМНИНГ МОҲИАТИ

Равшанова Муҳайё Махманазаровна

Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти

Аннотация. Мазкур мақолада тадқиқотчи томонидан педагогика олий таълим муассасалари талабаларига эконометрикани ўқитиш таҳсил технологияси ва методик тизимнинг мазмун моҳияти келтирилиб, мазкур тушунчаларнинг маънолари тадқиқотнинг мақсад ва вазифаларига мос тарзда очиқ берилган.

Таянч сўзлар: педагогик технологиялар, таҳсил технологияси, методик тизим, концептуал аспект, методик аспект, верификацион аспект, илмий аспект, процессуал-тасвирий, процессуал-кор қилувчи аспект, метод.

“Педагогик технология” тушунчасининг уч аспекти ажратиб кўрсатилган:

• *илмий аспект:* педагогик технология – таҳсилнинг мақсадларини, мазмунини ва методларини ўрганувчи ва ишлаб чиқувчи ва педагогик жараёнларни проекловчи педагогик фан соҳасининг бир қисми;

• *процессуал-тасвирий аспект:* жараённи (алгоритм) баён қилиш, таҳсилнинг режаланаётган натижаларига эришиш учун мақсадлар, мазмун, методлар ва воситалар йиғиндиси;

• *процессуал-кор қилувчи:* технологик (педагогик) жараённи амалга ошириш, шахсга оид, инструментал ва методологик педагогик воситаларнинг функция бажариши[2].

Шу ерда муаллиф “педагогик технология” тушунчасини қўллаш амалиётида иерархия тарзида бўйсунувчи уч даражани кўриб чиқади:

1) *Умумпедагогик* (умумдидактик) даража: умумпедагогик (умумдидактик, умумтарбиявий) технология мазкур минтақадаги, ўқув муассасасидаги, таҳсилнинг муайян поғонасидаги яхлит бир таълим жараёнини характерлайди. Ушбу даражада педагогик технология ва педагогик тизим синонимлар ўлароқ кўрилади, технология таҳсилнинг мақсадлари, мазмуни, воситалари ва методлари йиғиндисини, жараённинг субъектлари ва объектлари фаолияти алгоритмини ўз ичига олади.

2) *Хос-методик* (предметли) даража: хос предметли педагогик технология “хос методика” маъносида, яъни бир предмет, синф, ўқитувчи (предметларни ўтиш методикаси, компенсация қилувчи таҳсил методикаси, ўқитувчи, тарбиячи иши методикаси) доирасида таҳсил ва тарбиянинг муайян мазмунини рўёбга чиқариш учун мўлжалланган методлар ва воситалар йиғиндиси ўлароқ истеъмолда (илмий муомалада) ишлатилади.

3) *Локал* (модулли) даража: локал технология ўқув-тарбия жараёнининг алоҳида қисмлари технологиясини, хос дидактик ва тарбиявий вазифаларни бажаришни (алоҳида фаолият турлари, тушунчаларни шакллантириш, алоҳида шахс сифатларини тарбиялаш технологияси, дарс технология, янги билимларни ўзлаштириш технологияси, материални такрорлаш ва назорат қилиш технологияси, мустақил ишлаш технологияси ва бошқалар) ўзида ифода этади[3].

Шундай қилиб, хос-предметли ва локал даражали педагогик технология тушунчаси таҳсил методикаси тушунчаси билан айтарли тўлиқ қопланади, қоришади. Технологияларда кўпроқ процессуал, миқдорий ва расметли компонентлар келтирилган бўлса, методикаларда мақсадли, мазмуни, сифат ва вариатив-ориентирловчи жиҳатлар кўрсатилган. Технология методикалардан ўзининг натижаларни қайта тиклай олиши, барқарорлиги билан фарқланади. Баъзан методикалар технологиялар таркибига киради, баъзан эса аксинча, у ёки бу технологиялар таҳсил методикалари таркибига киради. Тадқиқот ишимиз доирасида педагогик технологияни қўллашнинг хос-методик даражасини маъқул кўрамиз, унга таянамиз.

Таҳсил технологияси тушунчасини англашда қуйидаги қабул қилинган позицияларга таянган ҳолда ҳисобга олиб таҳсил технологиясининг ишчи таърифи баён қиламиз. Таҳсил технологияси деганда - методик тизимнинг илмий билимни дидактик тадбиқига йўналтирилган, эмпирик инновацияларни ва натижаларга эришишга ҳамда унинг самарадорлигини текширишга интилишни ҳисобга олиб ўқув жараёнини конструкциялашни ўз ичига олувчи амалий рўёбни тушунамиз[5].

Таҳсил технологиясининг қуйидаги аспектларини ажратамиз:

- *концептуал аспект* – таҳсил мақсадларини, уларга эришиш ғояларини, натижага қўйиладиган талабларни, технологияни қуришда қўлланадиган тамойилларни ўз ичига олади;

- *мазмуний аспект* - бевосита таҳсил мазмунини, мазкур технология учун мўлжалланган курсни проектлашнинг хусусиятларини ўз ичига олади;


- *методик аспект* – таҳсил методлари ва воситаларини ўз ичига олади;

- *процессуал аспект* – ўқув жараёнини тартибга солувчи норматив ҳужжатларни, ишчи дастурни, ўқув режасини, таҳсилнинг эҳтимолий шакллари ўз ичига олади;

- *верификацион аспект* – технология самарадорлигини текширувчи экспертизани ўз ичига олади[1].

Назаримизда методик тизим таҳсил технологиясини ишлаб чиқишга мўлжалланган назарий база сифатида намоён бўлади, таҳсил технологияси эса конкрет ўқув-тарбиявий жараёнда методик тизимнинг ифода топиши ҳисобланади, фақат ўзининг бир бутунлигида улар уни амалга ошириш учун зарур ва етарли шароитларни ҳосил қилади.

Методик тизим компонентлари ва таҳсил технологиясининг юқорида кўрсатиб ўтилган аспектлари ўзаро алоқаси 2- ва 3-расмларда келтирилган.



2-расм. Методик тизимнинг структурвий компонентлари ва тахсил технологиясининг аспектлари ўзаро алоқаси модели[6]


Концептуал аспект – тамайиллар – назорат – мазмуний аспект – мақсадлар – натижа – мазмун – верификацион аспект – талаба – коррекция – устоз – шакллар – процессуал аспект – воситалар – методлар – методик аспект.

Методик тизимнинг функционал компонентлари

Тахсил технологияси аспектлари

Гностик компонент – проектловчи компонент – конструктив компонент – коммуникатив компонент – ташкилотчилик компоненти

Концептуал аспект – мазмуний аспект – методик аспект – процессуал аспект – верификацион аспект



3-расм. Методик тизимнинг функционал компонентлари ва таҳсил технологияси аспектларининг ўзаро алоқаси модели

Шундай қилиб, “педагогик технология”, “маърифий технология”, “таҳсил технологияси” каби тушунчаларни биз синонимлар ўлароқ идрок қиламиз, “методик тизим” ва “таҳсил технологияси” тушунчалари эса ўзаро чамбарчас алоқадор, аммо айнан ўхшаш эмас.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Д.Ахмедов, А.Ишназаров, Ш.Нуруллаева. Основы эконометрики. Учебное пособие. –Т.: «Издательский дом Инновационного развития», 2019 г.-172 с.
2. Ш.Нуруллаева, Д.М.Расулов, А.И.Ишназаров, Н.Ш.Рўзметова, М.А.Мўминова. Эконометрика асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисодиёт, 2019 й -298 б.
3. Бекирова Р.С. Организация модульного обучения по дисциплинам естественнонаучного цикла: (На примере высш. математики в техн. вузе): автореф. дис.канд. пед. наук /Р. С. Бекирова ; Исслед. центр проблем подгот. специалистов. - М., 1998,- 23 с.
4. Хаустова О. И. Эконометрика: учебно-методический комплекс /О.И. Хаустова. - Новосибирск: Изд. НГПУ, 2006. - 221 с.
5. Юцявичене П. А. Теория и практика модульного обучения / П. А. Юцявичене. - Каунас: Швиеса, 1989. - 271 с.
6. Бекирова Р.С. Организация модульного обучения по дисциплинам естественнонаучного цикла: (На примере высш. математики в техн. вузе): автореф. дис.канд. пед. наук /Р. С. Бекирова ; Исслед. центр проблем подгот. специалистов. - М., 1998,- 23 с.
7. Назаров Қ.Н. “Билиш фалсафаси” Т.: Университет, 2005.
8. Эконометрика: Ўқув қўлланма. / Мустафакулов Ш.И., Негматов Ж.Б., Жўраев Б.Р., Муродуллаев Н.Н. –Тошкент: ИЛМИЙ ТЕХНИКА АХБОРОТИ-ПРЕСС НАШРИЁТИ, 2017. 155 б.
9. Ходиев Б.Й., Шодиев Т.Ш., Беркинов Б.Б. Эконометрика: ўқув қўлланма. –Т.:ИҚТИСОДИЁТ, 2018. – 178 с.

REFLECTIONS ON THE EXPRESSION OF SPIRITUAL AND MORAL PROBLEMS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI

Madrakhimova Nazira Yakubovna

Urgench state university, associate professor

Urganch, Uzbekistan

Annotation: In the works of Alisher Navoi, the expression of the moral and ethical problems were represented in the article. Likewise, in the sample of several works of the poet to what features of problem given the most attention are emphasized.

Key words: ethical-moral, epic poems, collection, nationality, humanistic poet, lyrical hero.

The thinker-poet Alisher Navoi in his work uniquely described the spiritual world of man. In his works on these issues, he gives valuable insights into the criteria of relationships and interactions with people, self-control, child rearing. These themes are covered in detail in the epic of the wise poet "Hayrat-ul abror", which consists of twenty articles. In particular, in the sixth article of the epic he writes that people should look at each other with kindness in their relations:

Yana bukim, yaxshi-yamon dema so`z,
El yamon-u yaxshisig`a solma ko`z.
Yana bukim, ranj yetar gar tab,
Asra yamon-yaxshig`a sharti adab. (1, 78)

Alisher Navoi, in his preface to *Badoyi ul-Bidoya*, described his small-genre works as "unique individuals." In fact, in these individuals, the poet skillfully writes about the life of the people and the spiritual and moral life of the people. In particular, the first person in this office is:

Ulki, haq borinda maqsud istagay har zotdin,

Mehr borida yorug'lik ko`z tutar zarrotdin (2, 685).

The meaning of this individual, in our opinion, is as follows: Those who pray to a servant without asking Allah are like those who wait for light from the light that shines when the sun shines. If there is truth in your dealing, if your faith is whole, just ask the Creator Himself for whatever you want.

After all, in the presence of sunlight, particles are nothing. The same theme is expressed differently in this individual:

Ta'ma etma ko`p o`lsa el moli

Ko`rmayin haq xazinasin holi (2, 685).

The nationalism of Navoi's work, that is, the motives of national pain and sorrow, are also written in his individual verses:

Qotil el jismidan anburalar olmay naqd emas vosil

Ki, tog`ni pora-pora qilmayin, la'l o`lmadi hosil (2, 686).

We know from history that in the days of Navoi, as a result of various disputes, the royal treasury was sometimes full, and sometimes empty. In order to fill the empty treasury, it is necessary to take away the risk of the people, who have recently received various taxes. This scene was one of the most difficult in life for a humanist artist like Navoi. Unless the mountains are dug up and the rocks are broken, the treasures in the depths cannot be reached. In the same way, to fill the treasury with wealth in exchange for the last sustenance of a people in need is not to break the human heart!

Xoliq o`lg'on saxiydin elga ikki baxshayish,

Ham ehsonidin oroyish, ham axloqidin osoyish (2, 687).

In this article, Navoi comments on the benefits of generous people of good morals. In other words, when a kind and generous person shows generosity to the people, to the helpless people of the people, he gives two things as a gift: first, he gives a share of his wealth, and secondly, he informs the people about his high spirituality. and thus gives both material and spiritual strength to the needy.

As we turn the pages of Navoi's book of hearts, it is impossible not to think about the reasons for such a populist spirit in his work. We know that Navoi

was one of the richest men of his time. Like most rich people, he could live without paying attention to the people, right? It is true that Hazrat Navoi was given a great talent as well as a great heart, which he could not live without listening to the cries of the people. The one who turned away from hunger in front of his eyes felt pity for him like his closest person. We also have no doubt that the babies chirping in the winter chill felt like their own children. Because in his heart all the beauties of great geniuses are embodied.

We also see the unique colors of Navoi's beautiful spirituality in his personal themes on the theme of love:

Bel-u og`zidin dedilarkim, degil afsonaye,

Boshladim, filholkim: “Bir bor edi, bir yo`q edi”. (2, 692).

When a lover is told, "Describe your lover's waist and mouth," he utters the following beautiful words.

Netay elning bahorinkim, manga oshubi hijrondur,

Ko`zinga sarvi o`qdur, ko`nglum ichra g`uncha paykondur. (2, 691).

The spring visit, which is considered to be a season of love and life for the lover, is no different. In the eyes of the lover, who praises his wound as "Sarvqad, your lips are like a bud", in the eyes of a lover, a cypress looks like a bow and a thorn.

In his works in the rubai genre, Navoi also sang about devotion and fidelity, and recognized loyalty as the most beautiful virtue.

Har zulf xamig`a qilma vobasta meni,

Hark o`z havasidin etmagil xasta meni,

Har qosh tama`ig`a solma payvasta meni,

Yo rab, borisidin ayla vorasta meni. (2, 659).

The lyrical protagonist is checking himself. That is, they are trying to ignore the women they are dealing with. Because such behavior is condemned in the Islamic faith. If a person does not control his desires intelligently, he will inevitably make big mistakes in life. In the above rubai, the lyrical hero seeks refuge from the danger of such a fate.

Alisher Navoi's Arba'in Hadith, or Forty Hadiths, also expresses his views on the relationship between a foreign woman and a foreign man: "Every look at a non-mahram woman is a satanic reading." The poet also emphasizes in this work that it is a human duty for people to always take care of each other's souls, to have good relations with each other and to give each other love:

Yaxshi so`z bila hojat ahlin so`r,
Bermasang yaxshi tu'madin sadaqa.
Ne uchunkim, rasul qavli bila
Yaxshi so`z bordur, aylakim sadaqa. (3, 14)

Navoi scholar Rahim Vahidov writes about the great humanist Alisher Navoi: The great poet puts the pain, worries and interests of the people above everything else. The main goal is to serve the material and spiritual well-being of the society for the benefit of that great figure. Such an attempt served as the driving force of the great thinker's poet's works on theology. The veracity of this scholar's opinion is also proved by the gems in Arba'in. The play provides a poetic interpretation of the forty most reliable hadiths. In these interpretations, the life-philosophical, spiritual and spiritual views of A. Navoi are sincerely expressed.

We have made the following conclusions based on our specific observations:

- a) Navoi encourages humanity to have good spirituality;
- b) Good spirituality makes human society prosperous and prosperous.
- c) The immortality of Navoi's work lies in the skillful expression of immortal ideas in it.

References:

1. Alisher Naboiy. Hayrat-ul abror. Toshkent, G`. G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1989.
2. Alisher Navoiy. "Badoiy ul-bidoya", Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik. Birinch jild - T., "Fan". 1987.
3. Alisher Navoiy. Arba'iyn. Toshkent, "Meros" nashriyoti, 1991.
4. R. Vohidov. Alisher Navoiy va ilohiyot. Buxoro, "Buxoro" nashriyoti, 1994.

14-16 YOSHDAGI IMKONIYATI CHEKLANGAN KAR-SOQOV O‘QUVCHILARNING JISMONIY SIFATLARINI MAXSUS MASHQLAR YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH

Bekmirzayeva Hikoyat Fahriddin qizi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining II bosqich magistranti

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora–tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-son Farmoniga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-iyuldagi 417-son qarori asosida “Oliy ta‘lim muassasalariga nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘shimcha davlat granti kvotalari asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomiga asosan 2018-2019 o‘quv yilidan boshlab barcha oliy o‘quv yurtlarida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 2 % kvota asosida 1-2 guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar o‘qishga qabul qilinib kelinmoqda. Davlatimiz rahbarining 2018 yil 11 iyundagi “Aholining ijtimoiy zaif qatlami bandligini ta‘minlashni rag‘batlantirishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida alohida toifadagi tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, nogironligi bo‘lgan shaxslarni mehnat faoliyatiga jalb etishga imtiyozlar berilgan. Davlatimiz rahbari jamiyat a‘zolari bilan muloqot qilib, ularning dardu tashvishlari, sohadagi kamchiliklarni so‘radi. Kar-soqov bolalarni o‘qituvchi mutaxassislar va surdotarjimonlar tayyorlash masalasiga e‘tibor qaratildi. Shavkat Mirziyoyev aholining mazkur qatlami savodxonligi, tarbiyasi, ishlashi, dam olish va davolanish sharoitlarini yaxshilash maqsadida alohida qaror tayyorlash bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Kalit so‘zlar: kar-soqov bolalar, imo-ishora tili tarjimonlari, Karlar madaniyat markazi, imkoniyati cheklangan o‘quvchilar, jismoniy sifatlar.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 28 iyundagi Kar-soqovlar madaniyat markaziga tashrifi O`zbekiston Karlar jamiyatining (O`zKJ) a`zolarini ilhomlantirdi va bundan buyon mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlardan chetda qolmasliklariga umid berdi. Yurtboshimiz “O`zbekistondagi har bir inson u uchun qadrlı ekanligini” [ta`kidlab o`tdi](#) va o`qituvchilarni, imo-ishora tili tarjimonlarni, pedagoglarni tayyorlashga alohida e`tibor qaratishga, karlarga munosib ish o`rinlari yaratishga chaqirdi. Atigi 10 kun ichida umumiy maydoni 39 208 kv.m. bo`lgan O`zKJ hududida Karlar madaniyat markazi binosini rekonstruksiya qilish, ish xonalari va o`quv xonalarini ta`mirlash, turli tadbirlarni o`tkazish uchun 450 kishiga mo`ljallangan konsert zalini jihozlash kabi keng ko`lamli qurilish va ta`mirlash ishlari [olib borildi](#). Bundan tashqari, Karlar madaniyat markazi hududida uchta blokdan iborat tikuvchilik korxonasi [tashkil etilgan](#) bo`lib, ularning har biri kar va eshitish qobiliyati cheklangan insonlar uchun maxsus 100 ish o`rniga mo`ljallangan edi. Shuni inobatga olgan holda mazkur tadqiqotning maqsadi imkoniyati cheklangan o`quvchilarning jismoniy sifatlarini tekshirish va takomillashtirish, tadqiqot vazifasi sifatida 14-16 yoshdagi imkoniyati cheklangan o`quvchilarning jismoniy sifatlarini takomillashtirishni tajribada asoslashni belgilab oldik. Tadqiqot ishtirokchilari - o`quvchilar ikki guruhga bo`linishdi, 1-guruh tadqiqot guruhi bo`lib ushbu guruh tarkibiga kiruvchilar 30 kun davomida nazorat sinov mashqlari yordamida tekshiruvdan o`tkazildi hamda kuzatuvning birinchi kunidan boshlab mashg`ulotlarda ishtirok etishni boshladi. 2-guruh pedagogik nazorat guruhi bo`lib u ham 1-guruh bilan yonma-yon nazoratan o`tkazildi. Nazorat guruhida 1 oy davomida jismoniy sifatleri takomillashtirildi. Tadqiqot davomida 2-guruhga ham yuklamalar berib borildi. Tadqiqot ohiriga kelib o`rgatilgan usullar tadqiqot guruhida o`z natijasini ko`rsatd ya`ni 1-guruh o`rgatilgan mashqlarni juda tez o`rganib oldi va boshqa sheriklariga ham o`rgatishga ulgurdi . 2-guruh o`z mashg`ulotlarida o`rgangan usullarini takrorlab, o`z malakasini oshirar edi.

Nazorat va Tadqiqot guruhlaridan tadqiqot boshida olingan test natijalari

№1	30 metir yugurish	60 metir yugurish	Joydan uzunlikga sakrash	Polga tayangan holda qo'llarni bukib yozish	Tennis to'pini uloqtirish
1	5.9	10.4	170	6	25
2	6.1	11.1	160	5	22
3	6.0	11.5	165	6	23
4	5.8	10.9	167	6	22
5	6.3	11.3	170	5	20
№2	30 metir yugurish	60 metir yugurish	Joydan uzunlikga sakrash	Polga tayangan holda qo'llarni bukib yozish	Tennis to'pini uloqtirish
1	6.0	10.9	150	5	21
2	6.2	10.9	160	5	19
3	6.3	11	155	5	20
4	6.1	11.	163	5	20
5	6.3	11.7	150	5	19

Imkonyati cheklangan o'quvchilarni tadqiqot jarayonida 2-guruh vakillarida o'zgarish sezilmadi lekin, 1-guruh vakillarida ayrim xolatlarida tadqiqot o'rgatilgan mashqlarni meyyor darajasida bajarganligini guvohi bo'ldik. Tadqiqot natijalari: 1 oy davom etgan tadqiqot natijalariga ko'ra nazorat guruhining mashq bajarish va ular tuzgan usullar katma-ketligida sezilarli o'zgarish kuzatilmadi. Tadqiqot guruhidagi o'quvchilarni tezkorlik va kuch sifatlarini rivojlanganligini tadqiqot so'ngida o'z natijasini ko'rsatdi.

Nazorat va Tadqiqot guruxlaridan tadqiqot so'ngida olingan test natijalari.

№1	30 metir yugurish	60 metir yugurish	Joydan uzunlikga sakrash	Polga tayangan holda qo'llarni bukib yozish	Tennis to'pini uloqtirish
1	5.5	10	175	7	27
2	5.8	10.7	165	6	25
3	5.7	10.9	170	7	26
4	5.5	10.4	173	7	25
5	5.9	10.8	173	6	23
№2	30 metir yugurish	60 metir yugurish	Joydan uzunlikga sakrash	Polga tayangan holda qo'llarni bukib yozish	Tennis to'pini uloqtirish
1	5.9	10.9	155	5	24
2	5.8	11	164	6	23
3	5.9	10.9	150	5	23
4	5.8	10.9	145	6	24
5	5.9	11	120	6	22

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, 14-16 yoshdagi o'quvchilar imkoniyati cheklangan bo'lsada tadqiqot olib boruvchi tomonidan berilgan yuklamalarni tez tushunib, mashqlarni imkon qadar yaxshi bajrishga harakat qilishdi hamda tadqiqot guruhida ko'zlangan natijalarga erishildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. (2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan)
2. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan) – Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. Sharq, 1997 y.
3. O'zbekistan Respublikasi qonuni «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi» 04.09.2015 (yangi taxriri). – T., 2015 y.
4. <http://www.ziyonet.uz/>
5. <http://www.olympic.uz>

NAVOIY IJODIDA AVLIYO OBRAZINING POETIK MOHIYATI

Qobulova Muyassar Omonboy qizi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

Annotation: This article discusses the artistic interpretation of the image of the saint in the works of Alisher Navoi. In particular, attention is paid to the role of Saint Bahauddin Naqshband in Navoi's work.

Key words: Alisher Navoi, the image of a saint, artistic essence, Bahauddin Naqshband

Alisher Navoiy asarlarining qomusiy lug‘atida “Avliyo” so‘ziga quyidagicha ta’rif beriladi: “Avliyo – valiyalar, Xudoning do‘stlari. Jomiyning talqini bo‘yicha, avliyo so‘zi “valiyun” (yaqin kishi, do‘st) so‘zidan olingan bo‘lib, ikki – umumiy va xos holatlarda qo‘llaniladi. Umumiy holatda barcha imonli kishilar avliyo hisoblanadi, chunki Alloh jamiyki bandalaridan faqat muayyan qisminigina imon saodati bilan musharraf etib, O‘zini bilish va tanish yo‘lida sobitqadam qilgan. Ikkinchi, xos holatda esa imonli bandalar ichidan niyati pok va to‘g‘riso‘z, yomon ishlardan tavba qilib, umrini faqat ezgu ishlarga sarf etgan, toat-ibodatini bekamuko‘st bajarib, bandalik va ilohiylik maqomlarini anglagan, cheksiz riyozati va go‘zal xulqi bilan boshqalarga namuna bo‘lgan, payg‘ambarlar ilmining merosxo‘ri sifatida tanilgan, egallagan bilimiga riyosiz amal qilgan zotlar avliyolik darajasiga yetgan bo‘ladilar”[1]

Imom G‘azzoliy “Kimyoyi saodat” kitobida shunday yozadilar: “Va ul sifatlarim, botiningda jam qilibdurlar, ba’zisi chahorpolar sifati va ba’zisi darrandalar sifati va ba’zisi farishtalar avsoflaridur. Va sen bu sifatarning qaysi biriga egadursen? Va ko‘ngling gavharini bu sifatarning qaysisidin xalq qilibdur? Va qaysi sifatlar g‘arib va oriyatdur? Agar sen to‘rtoyoqlilar, ya’ni hayvonlar, darrandalardansen, bularning ishlariga mashg‘ul bo‘lg‘il. Va ularning tariqasin o‘zingga lozim tutgilki, tokim to‘rt oyoqlilar martabasi va ularning saodatig‘a

yetg‘aysen. Va farishtalarning g‘izosi va saodati – Haq taoloning jamoli bokamolini mushohada qilmoq birladur. G‘azab va shahvat chahorpolar va darrandalar va shayotin sifatlari farishtalarning pok, saxovatli vujudlarig‘a yo‘l topmas. Va agar asling farishtalar gavharidandur, o‘z asling kamoliga jahdi tamom qilg‘ilki, to Haq taoloni tanig‘aysen. Va ul jamoli bezavolni tanimoqqa yo‘l topg‘aysen”[2]

Jahon mumtoz adabiyotining atoqli namoyandasi sanaluvchi bobokalonimiz Alisher Navoiy yuqoridagi xislatlarga ega bo‘lib, butun hayoti davomida insoniyatga faqat yaxshiliklar tilab, ezgu amallar bilan mashg‘ul bo‘laganlar. Bu zotning ijodiyoti butun borlig‘icha bashariyat taqdiriga daxldorlik bilan yo‘g‘rilgan. Bu buyuk qalb egasining qalamiga mansub har bir so‘z, har bir misra o‘zidan ezgulik uforini taratib turadi. Shuning uchun ham bu ijod namunalarida payg‘ambarlar, avliyolar obrazlarining muayyan poetik maqsadning ro‘yobi uchun tez-tez qalamga olinganligini kuzatamiz.

Nukta asnosida habibi iloh

Dedi alkosibu habibulloh.

Ma‘ni aytur bu so‘zga bir komil,

Ki so‘zi erdi haq sori shomil.

G‘araz ermas bu kasbdin dunyo,

Bal erur kasbidin murodi fano.[3]

Insoniyat badiiy tafakkurining oliy namunasi sanalmish “Xazoyin-ul ma‘oniy” devonining uchinchi kitobi “Badoye’-ul vasat”dan o‘rin olgan avliyo Bahouddin Naqshbandga bag‘ishlangan yuqoridagi qit‘ada hazrat Navoiy yashashdan maqsad nima ekanligini kitobxonga uqtirmoqchi bo‘ladilar. Avliyosifat inson qo‘li ishda bo‘lgani holda qalabda Allohni yod qiladi. Inson zoti bu dunyoga kelib yashar ekan, o‘z umri davomida atrof-olamga – zamondoshlariga, kelajakka faqat yaxshiliklar sog‘inib yashamog‘i lozim. Alloh bergan zehn, qobiliyat natijasida ustozlar tarbiyati bilan inson qaysidir kasbni egallaydi. Bu kasbda halol ishlab, o‘zgalar haqiga xiyonat qilmasdan yashash oliy maqsad bo‘lmog‘i lozim. “Ikki dunyo saodati” tushunchasi mohiyatini anglagan qalblardagina bunday oliy maqsad yashaydi. Bugun dunyodagi barcha xunrezliklar qalbida razillik in qurgan inson qiyofasidagi nusxalarning

ko‘ngilochar mashg‘uloti ekanligi ezgu niyatli kishilarning boshlarini xam, ko‘zlarini nam qiladi. Yuqoridagi qit‘aning oxirgi baytidagi kasbdan g‘araz mol-dunyo to‘plash emas, balki fanodir kabi poetik g‘oya ilgari suriladi. Chunki Xoja Bahouddin Naqshband “Al-kosibu habibulloh” degan hadisni sharhlaganida bu hadisda kosib – foniyl demakdir, nison foniyni kasb etgandagina Haq taoloning sevimli bandasiga aylanishi mumkin” kabi qarashlarga e‘tiqod qilgan. O‘sha foniylga qadar esa inson poklikni kasb qilib, yorug‘ yuz bilan fanoga rihlat qilmog‘i lozim.

Navoiy Naqshbandiy haqida “Nasoyimul muhabbat” tazkirasining muqaddimasida ham, u haqdagi alohida bobida ham keng to‘xtalib o‘tadi. Xususan, Xoja Bahouddin Naqshband qaddasallohu sirrahuga bag‘ishlangan bobda quyidagicha ma‘lumot beradi:

“...Yana alardin so‘rdilarki: “Sizning tariqingizda zikri jahr va xilvat va samo‘ bo‘lur?” [Sizning tariqatingizda zikrni oshkora, ovoz chiqarib aytish, odamlardan xilvatda ibodat qilish, darveshlarning qo‘shiq va raqs bilan zikr tutishlari mumkinmi? (Tabdil bizniki- M.Q.)] Dedilarki: “Bo‘lmas!” Yana so‘rdilarki: “Sizning tariqingiz binosi ne ishkadur?” Dedilarki: “Anjumanda xilvat, zohir yuzidin xalq bila va botin tarafidin Haq subhonahu va taolo bila”.

Ko‘nglingda oshno bo‘l-u, siringda begonadek.

Bunday zebo ravish jahonda kamyobdir.

Ulcha Haq subhonahu va taolo buyurubdirki: “ Ularni na tijorat va na oldi-sotdi Allohni zikr qilishdan mashg‘ul qila olmas”(Nur,37) ishorat bu maqomg‘adur” Dedilarki, alarg‘a hargiz qul va dodak bo‘lmas erdi. Alardin bu ma‘noda so‘rubturlar. Alar debdurlarki: “Qachon bandaliq xojaliq bila rost kelur?” ... Alar yeti yuz to‘qson birda robi‘ul avval oyining uchida, dushanba kechasi olamdin o‘tibdurlar”. [4]

Alisher Navoiy asarlarining “Qomusiy lug‘ati”da shunday ma‘lumotlar keltirilgan: “Hayrat-ul abror” ning 21-bobida Navoiy Bahouddin Naqshband haqida so‘z yuritib, uni fano ilmini kasb etgan sohibdil darvesh, ko‘nglidan dunyo havaslari naqshini butkul o‘chirib, basirat nazarini baqo olami go‘zalliklariga qaratgan orif, butun olam ko‘ziga uzukka o‘yilgan naqshdek kichik va ahamiyatsiz ko‘ringan buyuk ma‘rifat egasi, ma‘rifat nuri bilan soliklar yo‘lini munavvar etgan ma‘naviy

rahnamo sifatida ta’riflaydi”. [1] Tasavvufning naqshbandiya tariqatiga e’tiqod qilgan hazrat Navoiy “Hayrat-ul abror” ning 21-bobida bu buyuk avliyoni shunday madh qiladiki, har bir misrada mehr-muhabbat, maftunlik, kuchli havas va boshqa ezguliklar jo bo’lgan ulug’ va betakror bir samimiyatni his qilamiz:

*Charxi nigun dargahida xokro ‘b,
Balki jabini bila xoshokro ‘b.
Yuz qo ‘yubon qullug ‘ig ‘a shohlar,
Bazmida bexud o ‘lub ogohlar,
Xizmatidin har kishi ogoh o ‘lub ,
Garchi gado ma ‘ni ila shoh o ‘lub .
Suhbatida har necha beshakku rayb,
Jilva qilib shohidi ra ‘noyi g ‘ayb [5]*

Biz tasavvufga doir manbalardan bilamizki, Bahouddin Naqshband ta’limotining asosida “Dil ba yoru dast ba kor”, ya’ni “Ko’ngil yor – Allohda, qo’l ishda” degan shior yotadi. Mana shu tamoyil tasavvufiy qarashlarni kundalik turmush hayotiga moslashtiradi va natijada tasavvufning juda keng aholi qatlamlari ichiga kirib borishini ta’minlaydi. [1] Shuningdek, o’n bir asosga ega bo’lgan dasturning to’rtinchisida “Xilvat dar anjuman”, ya’ni zohiran xalq bilan, botinan haq bilan bo’lish g’oyasi yotadi. Quyidagi misralarda Navoiy ana shunga ishora qiladi:

*Go ‘shai xilvat aro tutmay qaror,
O ‘zini qilmay yashurun oshkor.*

Quyidagi misralarda esa, shoir Bahouddin Naqshbandning valiylarga xos xislatlarini shunday chizadi:

*Mulki jahon mazrai dehqoni ul,
Balki jahon mulki nigahboni ul.*

Ya’ni, jahondagi barcha ekin maydonlarining dehqoni, hattoki butun olamning qo’riqchisi, kuzatuvchisi deya ta’riflaydi. Buning yana bir talqinini shunday berish mumkin. Yunus surasi 26-oyatida “Ezgu ish qilganlarga chiroyli (savob-jannat) va ziyodalik (Allohning diydorini ko’rishlik) bordir. Ularning yuzlarini qoralik ham,

xorlik ham qoplamas. Aynan o'shalar jannat ahlidirlar, ular u yerda mangudirlar” deb marhamat qilingan bo‘lib, Allohning do‘sti hisoblanmish Naqshbandiyini ham bu buyuk mukofotga sazovor bo‘ladigan valiy sifatida, ana shu ma’noda butun ma’naviy-ruhiy mulkning sohibidir va u shu jihatidan dehqon va nigohbonidir deb ta’kidlayapti shoir.

Mana shu singari maqtovlar, ta’rif-u tavsiflardan keyin shoir Allohga shunday iltijo qiladi:

Toki jahon qasrining imkoni bor,

Ustida oning falak ayvoni bor.

Qo‘ymasun ayvoni jahonni tihi,

Dabdabai ko‘si Ubaydullahi.[4]

Ya’ni bu avliyo g‘oyalarining jarangdorligi dunyo turguncha bardavom bo‘lgay va hazrat Navoiy yana shunday iltijo qiladi:

Himmatidin bizni ham etsun Xudoy,

Faqr yo‘lida g‘ani, imong‘a boy.

Biz hazrat Navoiyning Bahouddin Naqshband siymosini bu qadar samimiyat, mehr-u muhabbat bilan yaratganligi haqida shunday xulosalar berishimiz mumkin:

1. Shoir avliyolarga, xususan, Bahouddin Naqshbandga xos ma’naviy-ruhiy poklikni tarannum etishni o‘zining muridlik burchi deb biladi.
2. Bahouddin Naqshbandga xos go‘zal sifatlar haqida yozar ekan, oddiy kitobxonni uning ajoyib xulqidan ibrat olishga da’vat etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.
3. Hazrat Navoiyning bunday ezgu maqsadi Sharq mumtoz adabiyotidagi hamd va na’tlar yozish yoki bag‘ishlash kabi an’analar mazmunini boyitadi.


Marhum adabiyotshunos-navoiyshunos olim Najmiddin Komilov o‘zining “Tasavvuf” nomli risolasida, xususan, uning “Xilvat va anjuman” nomli faslida Bahouddin Naqshband tasavvufi, mazmun-mohiyati haqida ko‘plab qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan. [6]

Atoqli adabiyotshunos Sultonmurod Olimning “Naqshband va Navoiy” kitobida naqshbandiylik tariqati haqida shunday fikrlar bildiriladi: “Naqshbandiya garchi o‘z g‘oyalarini yoya boshlagan hududlar aholisi ijtimoiy xususiyatdan kelib chiqib ish

ko‘rgan bo‘lsa ham, mohiyatan aholi ijtimoiy qatlamlararo tabaqa ajratmagan bir tariqat edi. Boshqacha aytganda, naqshbandiya uchun hamma teng – shoh-u gado barobar edi”.[7] Demak, hazrat Navoiy ijodining asosiy tamoyili hisoblangan barchani barobar ko‘rish, bir so‘z bilan aytganda, buyuk insonparvarlik g‘oyalari ana shu mangu chashmadan ozuqa olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.“Алишер Навоий Қомусий луғати”. Т. ШАРҚ НМАК, 2016. – Б. 560.
- 2.Abu Homid G‘azzoliy. «Kimyoi saodat» (Ruh haqiqati) «Adolat» nashriyoti. Toshkent ,2005. B.18
- 3.Алишер Навоий. “Хазойинул - маоний” III том, “Бадойиул - васат”. ФАН.; Тошкент – 1960. Б.691
- 4.Алишер Навоий. “Насойимул муҳаббат мин шамойимил футувват”. “Movarounnahr” nashriyoti. Тошкент.2017. Б.301
- 5.Алишер Навоий. “Ҳайратул-аброр”. Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент. 1989. Б.68
- 6.Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. Т.: “Ўзбекистон”. 2009. – Б. 448.
- 7.Султонмурод Олим. “Нақшбанд ва Навоий”. Тошкент. “Ўқитувчи” нашриёти. 1996. Б.182



O'ZBEKISTONDA BOLALAR XOR MADANIYATINING SHAKILLANISHIDA SHERMAT YORMATOVNING O'RNI

Raxmanov Asatilla Izzatilla o'g'li

O'zbekiston davlat konservatoriyasi Magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqola Bugungi kunda o'zbek xalqining milliy o'zligini anglash jarayoni jadallashishi munosabati bilan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyasining o'rni va ahamiyati va jamiyatda ma'naviy va madaniy qadriyatlarining mustahkamlanishi, yosh avlodni milliy merosga, tarixiy an'analarga hurmat, Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqatlilik ruhida tarbiyalash hamda yoshlarga O'zbek xor san'ati madaniyati shakllanishi hususida ma'lumot taqdim etishdan iborat.

Tayanch so'zlar: Tarixiy an'analar, Ustoz va murabbiy, O'zbek xor san'ati, yosh avlod, xor jamoalari, Xor ijrochiligi, O'zbekiston musiqa madaniyati.

O'zbekiston bolalar xor madaniyati rivojiga, bu sohada erishilgan yutuqlarga ajoyib musiqachi, bolalar xor san'ati faol targ'ibotchisi, O'zbekiston xalq artisti, “Sog'lom avlod uchun” ordeni sohibi, O'zbekiston teleradiokompaniyasining “Bulbulcha” bolalar xori badiiy rahbari va bosh dirijori Sh.Yormatovning qo'shgan xissasi nihoyatda beqiyosdir. Xor ijrochiligi musiqa darsining asosi sifatida bevosita o'quvchilarning faol ishtiroki bilan amalga oshirishi bilan ham uziga hosdir. Kuylash jarayoni murakkab psixologik-fiziologik holatlarda kechadi. Xor jamoalarning badiiy dasturlari, rang-barang bo'lib, Ye.Shvarts, Sh.Yormatov, N.Norxodjaye, A.Varelas, A.Mansurov, D.Omonullayeva va boshqa kompozitorlar asarlarini qamrab olgan. Xor rahbarlari qo'shiq tanloviga tayyorlanish jarayonida bolalar bilan katta ijodiy va tarbiyaviy ishlarni bajarishmoqda.

Bunda o'quvchilar oliy nerv faoliyati tezlashadi. Miyaning ostki ijobiy zavq-shavq, markazlari ishga tushadi. Bolalarda yuksak bir badiiy ko'tarinkilik kayfiyati paydo

bo'ladi. Qo'shilishlardan tarbiyaviy foydalanish har bir sinf o'quvchilarining yoshi va musiqaviy qobiliyati va ovoz imkoniyatini hisobga olgan holda mavzusi va tavoifi jihatidan turlicha bo'lgan asarlarni tanlash tavsiya qilinadi. O'rganish uchun mo'ljallangan qo'shiqlar repertuaridan Ona-vatanga, uning tabiati, jonvorlari, xalqimiz hayoti bilan bog'langan turli bayramlar, fasllarga, ahloq-odob mavzusiga keng o'rin berilishi kerak.³⁸

Respublika madaniy hayotida “Bizning kelajagimiz” bolalar ijodiy festivali ham yorqin iz qoldirgan. U “Yorqin yulduzchalar” jamg'armasi, Uspenskiy nomidagi musiqa maktabi va “Festival” interklubi tomonidan 2002- yilda tashkil etilgan. Festival dasturida bolalar badiiy ijod ko'rgazmasi hamda bolalar ijodiy jumladan, xor jamoalari qatnashgan.

Respublika bolalar xor san'atidagi ko'pgina ijodiy tashabbuslar uning nomi bilan bog'liqdir. U doimo xor madaniyati rivojlanishidagi yangi yo'llarni izlab topmoqda. Sh.Yormatovning tolmas tashkilotchilik faoliyati, undagi ishtiyoq, bolalarga bo'lgan muhabbat, yuqori darajadagi kasbiy mahorat qisqa muddat ichida unga xoming ijrochilik saviyasini yanada yuqori bosqichga olib chiqish imkonini berdi. O'zining ijodiy yo'lini topib olgan ushbu xor jamoasi respublika va chet el ko'rik-tanlovlari qatnashchi va sovrindor bo'ldi, shuningdek, davlatimizda o'tkaziladigan barcha bayram tadbirlarida faol ishtirok etib kelmoqda.

Finlyandiya, Bolgariya xor jamoalarining festival - tanlovlarda, bir necha marta Estoniyadagi qo'shiq bayramlarida qatnashgan. 1970-yilda xor “Boychechak” xor studiyasiga aylanib, “Resplikaning namunali bolalar xor jamoasi” unvoniga sazovor bo'lgan. O'zbek kompozitorlarining bolalar xor musiqasi sohasidagi faol ijodi, turli ko'rik-tanlovlar, festival, qo'shiq bayramlarining o'tkazilishi sababli 1970-yilda O'zbekiston Davlat teleradioqo'mitasi qoshida Sh.Yormatov boshchiligida bolalar xor jamoasi tashkil qilindi. Bugungi kunga kelib bu jamoa - Respublikamizda eng mashhur O'zbekiston teleradiokompaniyasining “Bulbulcha” bolalar xoriga aylandi. Hozirda jamoa tarkibida 600 ga yaqin bolalar bor. Sh.Yormatov xor jamoasining repertuariga katta ahamiyat beradi va uning asosiy vazifasi deb bolalar

qo'shiqlarining targ'ibotini tushunadi. Uning o'zi, iste'dodli kompozitor sifatida, turli janrlardagi 100 ga yaqin qo'shiq (“Sumalak”, “G'ildiragim”, “Mehnat qo'shig'i”), a kapella asarlari (“Yalpiz”, “Maysa”, “Boychechak”, “Qor yog'ar” va boshqa)larni yaratdi. Qo'shiq mavzulari bolalarga yaqin va tushunarli bo'lib, ularning mazmuni ma'nodorligi, musiqasi va ohangdorligi, ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Jamoa repertuaridan o'zbek kompozitorlarining asarlari bilan birga doimo chet el mumtoz xor asarlari o'rin olib, bolalarning jahon madaniyatiga bo'lgan hurmatini oshirmoqda.

O'zteleradio bolalar xor jamoasi 1981-yili Moskvadagi Rossiyada xizmat ko'rsatgan artist G.Struve raisligida bo'lib o'tgan “Kamerton” (kompozitorlar va bolalar-o'smirlar xor jamoalari dirijorlari) klubining ikkinchi yig'ilishiga tashrif buyurdi. “Bolalar xori va xalq musiqa an'analari” mavzusidagi bahs-munozara O'zbekiston davlat teleradio xor jamoasining ijodiga bag'ishlandi, tinglovchilar va xorni katta qiziqish bilan kutib oldilar va qizg'in qo'llab quvvatladilar. Bu konsertda, xor jamoasining yuksak ijrochilik mahorati, kuylash uslubining sofliqi, yorqinligi va ifodaviyligi, ajoyib ma'nodorligidan ta'sirlangan G.Struve, xor jamoasini “Bulbulcha” deb nomlashni taklif etdi.

“Bulbulcha”ning Yugoslaviyadagi xalqaro bolalar qo'shig'i tanloviga tashrifi nihoyatda samarali bo'ldi: xor qatnashchilari N.Mirzayeva va B.Shokirovlar laureat unvoniga hamda “Oltin bulbulcha” sovriniga ega bo'lishdi. Turkiya va Omsk shaharlarida 1991-yil o'tkazilgan Xalqaro xor musiqa festivallarida xor chiqishlari katta muvaffaqiyat bilan o'tdi, o'sha paytda mashhur rus dirijori G.Sokolov “Bulbulcha” xorini “Sharq durdonasi” deb unga yuksak baho berdi. Sh.Yormatovning “Qo'shig'im - jon qo'shig'im”, “Birgalikda kuylaymiz” mualliflik teledasturlari alohida ahamiyat kasb etadi. “Sevinch” S.Rustamova, “Tantana” Z.Ziyomammedovalar, “Sarbon” F.Saidov, “Bunyod” V.Qo'ldoshev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist I.Farmonov, “Nihol” mukofoti sovrindori D.Rahimova, Sevara Nazarxon, M.Saidmuradov kabi mashhur estrada qo'shiqchilari ham “Bulbulcha” xorida tarbiya olgan

Shuni ta'kidlash lozimki, Sh.Yormatov boshchilik qilayotgan jamoada ishtirok etgan yuzlab, minglab bolalar, hayotga musiqa jihatdan savodli va ma'naviy yetuk.

insonlar sifatida kirib borib, bir umr san’atga hurmat va muhabbat tuyg’ularini saqlab qolmoqdalar.

Bolalar xor ijrochiligining yangi shakli bo’lgan “Bulbulcha” kabi xorlarning faoliyati O’zbekiston ommaviy musiqiy tarbiyasiga juda kata ta’sir ko’rsatdi, buning natijasida, 1980-90-yillarda respublikadagi xor studiyalari bilan musiqa va umumta’lim maktablari orasidagi xamkorlikning yangi shakillari paydo bo’ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- ¹Shafolat Rahmatullo Termiziy. Boshlang’ich musiqa ta’limi. Termiz-2001. 25-bet
N.A.Bahritdinaova. “O’zbekiston bolalar xor madaniyati”. Toshkent. 2002.44-60-bet.
B.V.Shamahmudova. “Xor lug’ati”. Toshkent,2009.
R.G'.Qodirov."Boshlang'ich sinflarda ko'povozli kuylash" Toshkent. 1997. 5-12 bet



QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHI O'SMIRLARNI YILLIK MASHG'ULOTLARIDA YUKLAMALARNI TAQSIMLANISHI

Yo'ldoshboy Masharipov

Ilmiy rahbar dotsent, Sh.Rashidov nomidagi SamDUni O'zbekiston-Finlandiya
Pedagogika Instituti

Safarov Aminjon Sunnatullo o'g'li.

Magistrant, Sh.Rashidov nomidagi SamDUni O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika
Instituti

Annotatsiya: Qisqa masofalarga yuguruvchi o'smirlarni yillik mashg'ulotlarida Qisqa masofalarga yugurishda yoshlar orasida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, musobaqalarga tayyorgarlik bosqichini tuzish uchun bir haftalik mikrosiklda quyidagi ketma-ketlikni keltiradi.

Kalit so'zlar: Yengil atletika, musobaqa, mashg'ulotlar, yuklama, bosqich, haftalik, kun, mashg'ulot siklini rejalashtirish.

Yengil atletikaning qisqa masofalarga 100, 200, 400 m.ga yuguruvchilar tayyorlash tizimida yillik tayyorgarlik bosqichi asosiy tarkibiy qism hisoblanadi. Bosqich tayyorgarlik, musobaqa va o'tish orasidagi davrni o'z ichiga olib, 5-2 hafta davom etadi.

Qisqa masofalarga yugurishda tayyorgarlik mashg'ulotlariga alohida ahamiyat berilmoqda. Musobaqalardagi g'alabani ancha uzoq davom etishini ta'minlaydigan va sport formasini ushlab turishda tayyorgarlikning roli kattadir. Lekin sportchi yuqori yoki eng yuqori ish qobiliyatini musobaqa bosqichida bajaradi, bu esa tayyorgarlik mashg'ulotlarida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

N.G.Ozolinning yuklamalarni taqsimlanishi, dam olish oralig'ining muddati, mashg'ulot yuklamalariga pedagogik ta'sir ko'rsatishni aniqlashda shaxsiy imkoniyatlarni hisobga olish zarurligi to'g'risida ma'lumot bergan. Bunda

tayyorgarlik rolining o'sishi asosiy musobaqani tutgan o'ringa bog'liq deb hisoblaydi uning fikricha:

- ayrim mashqlarni yuqori jadallik bilan bajarganda 1-hafta katta jadallik bilan mashg'ulotlar o'tkazish, 2-hafta oldingi hafta hajmining 50-60 % bilan, so'ngra bir-ikkikun dam olish. Musobaqa oldidan oyoq-qo'l mushaklar chigalini yozish, yugurish yo'lagida yugurib ko'rish kabi mashqlarni tavsiya etgan. Lekin qaysi yoshdagilarga qanday vositalarda qo'llash uslubini bermagan.

Qisqa masofalarga yugurishda yoshlar orasida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, musobaqalarga tayyorgarlik bosqichini tuzish uchun bir haftalik mikrosiklda quyidagi ketma-ketlikni keltiradi: 1-kun (haftaning oxirgi mashg'uloti tugagach, bir sutkadan keyin) dam olish, 2-kun kichik tezkor-kuchga ega yuklamani bajarish; 3-kun dam olish, 4-kun musobaqa.

Ko'pgina mutaxassislarning hisoblashicha, keskin musobaqalarga tayyorlanish davomi (8-12 hafta) bosqichi zarurligini ko'rsatadi, turli tipdagi mikrosikllar esa, o'ziga xos “qurilish bloklari”ni tashkil qilib, ulardan musobaqaga maxsus tayyorgarlik bosqichi tugallangan mashg'ulot sikli tuzilishi hosil bo'ladi. Aynan shu 4-6 hafta ichida sportchilar quyidagi masalalar yechimini topadilar:

- saralash musobaqalaridan keyingi tiklanish (4-7 kun);
- jadal mashg'ulotishlariga kirishib ketish (3-5 kun);
- ko'proq mashg'ulot yuklamalarini bajarish (1-hafta).

Asosiy musobaqalarga yuqori darajada tayyor bo'lib borish uchun maxsus musobaqa oldi haftaligi ko'proq davom etadigan (6-7 kun) bosqichi talab qilinib, bu bosqichning maqsadi muhim startlarga kun va soatlarga tayyor holda yetib borishni ta'minlashdir.

Maxsus tayyorgarlik bosqichining asosi-bu musobaqa shartlari va talablarini aks ettiruvchi, ya'ni takrorlanuvchi 7 kunlik yoki undan kamroq kunlardan iborat mikrosikllar ko'rinishidagi oqilona tuzilgan mashg'ulot yuklamalaridir. Bu bosqich batafsil kundalik shaxsiy (6-8 haftalik) reja ko'rinishida tuzilib, unda tayyorgarlik, shuningdek mashg'ulot yuklamalarining asosiy vositalarini rejalashtirish hamda musobaqalarda qatnashish, organizmni charchoqdan tiklash uchun qo'llaniladigan

hammom, farmakologiya, fizioterapiya va boshqa usullardan foydalanish yo'llarini ko'rsatib o'tgan.

Shu bilan birga bu barcha vositalar maxsus tayyorgarlik bosqichini tuzish qoidalarida o'z aksini topgan:

-yilning eng asosiy musobaqalarida qatnashuvchi jamoa tarkibiga saralash xuquqini beruvchi musobaqalaridan keyingi ikki oylik muddatga qat'iy rioya qilish lozim;

-saralash musobaqalarini asosiy musobaqa rejasi bo'yicha hamda xuddi o'sha kun, hafta va soatda o'tkazish maqsadga muvofiqdir;

-saralash musobaqasidan keyin tayyorgarlik bosqichi boshlanishidan oldin tiklovchi mikrosikli bo'lishi shart;

-maxsus tayyorgarlik bosqichi o'zining puxta ifodalangan tuzilishi va aniq maqsadlariga ega bo'lishi shart deb hisoblaydi.

-asosan saralash musobaqalari va mamlakat birinchiligi musobaqalaridan keyin organizmni ishqobiliyatini tiklash;

-jismoniy tayyorgarlik va texnik-taktik mahoratni yanada takomillashtirib borish;

-sportchilarda boshqarish va o'z-o'zini boshqarish hisobiga yuqori ruhiy tayyorgarlikni yaratish va qo'llab-quvvatlashdir;

-musobaqa faoliyatini yaratish va tayyorgarlik darajasini nazorat qilish;

Mashg'ulot yuklamalarini taqsimlash, mashg'ulot siklini rejalashtirishni hal qilishda muhim yuklama hisoblanadi va quyidagicha yondashish taklif qilinadi:

Yuklamalarni taqsimlash tayyorgarlikning to'rt bosqichi uchun hafta davrlari bo'yicha o'tkaziladi (bu bosqichlardan har biri tayyorgarlik haftalarining aniq soniga egadir). Har bir davrga yuklamalarni taqsimlashda umumiy yo'nalish beriladi. Masalan, tayyorgarlik davrida (kuzgi-qishki) yuklamalarning umumiy hajmi o'sishi, jadallik esa, pasayishi kerak, musobaqa davrida bo'lsa, aksincha, yuklamalarning umumiy hajmi pasayib, jadallik o'sishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Кудратов Р.Қ., Енгил атлетика / дарслик. – Тошкент. 2012 .367,б.
2. Локтев С.А. Легкая атлетика в детском и подростковом возрасте: Практическое руководство для тренера. - М.: Советский спорт, 2007.- С. 402.с.
3. Маткаримов Р.М. Тяжелая атлетика. – Т.: Издательско-полиграфический отдел УзГИФК, 2005.С. 384.



ONORE DE BALZAKNING “INSON KOMEDIYASI” ASARI HAQIDA

Rahmonova Nasiba Bahrom qizi

Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston milliy Universiteti

Annotatsiya: Onore de Balzak 1831-yilda XVIII asr oxiridagi fransuz inqilobidan keyingi dunyoning ma'naviy, badiiy qiyofasini yaratishni maqsad qilib, o'zining barcha yozgan asarlariga yagona "Insoniyat komediyasi" nomini berdi. Bu maqolada o'sha asarning tahlili va bu asar inson hayotidagi o'rni va ahamiyatini yoritib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Onore de Balzak, fransuz inqilobi, Insoniyat komediyasi, fojiali komediya, jamiyat fojiasi, individuallashtirgan tip, botiniy va zohiriy qiyofa, yangi davr axloqi, Kim ochdi savdosi, Savri teri tilsimi, Rafael, magic (sehrli) realism uslubi, Balzak sindromi.

Mashhur fransuz adibi Onore de Balzak umrining oxirigacha bir adabiy maslakka sodiq qoladi. "Insoniyat komediyasi" asari inson taqdiri, inson fojiasi ana shu taqdir va fojialardan yaxlitlashgan fojiali komediya edi. Bu asarlarda sarguzasht ham, romantika ham, kulgi ham yo'q. Musibatli hayot va turli taqdirlarning achchiq komedik ko'rinishlari, manzaralari aks etgan edi. U avval boshdanoq ijtimoiy hayotning barcha qirrasini qamrab olishni maqsad qildi. Bu maqsadiga erishdi ham. Uning asarlarida uchramaydigan tabaqa yoki sohaning o'zi yo'q. Barcha soha haqida bittadan bo'lsada asar yozib chiqdi va ijodini o'z davrining "Badiiy ensiklopediyasi"ga aylantirdi. Yozuvchi bu turli tabaqa hamda kasb egalari obrazlarini yaratgan ekan, inson kasbi, mavqeyi va tabaqasidan qat'iy nazar u baribir inson ekanini, jamiyatda ularning inson sifatida o'z o'rni bo'lishi kerakligini, ular bilan bog'liq fojia esa jamiyat fojiasi ekanini uqtiradi. U ijodida individuallashtirgan tiplarni ya'ni butun insoniyatning botiniy va zohiriy qiyofasini, umumlashma tiplarini yaratdi. "Insoniyat komediyasi"da o'zigacha bo'lgan adabiy uslublarga xos romantik

kayfiyat, o'tmish afsonalariga moyillik yo'q. Balzak qahramonlari sarkardalar, mo'jizaviy qahramonliklarga qodir qo'mondonlar, boshidan g'aroyib sarguzashtlarni o'tkazgan sayyohlar, sehr-u jodular bilan yashaydiganlar emas. Balzak tasvirlaydigan jamiyat ham, qahramonlar ham aniq. U o'zi yashayotgan inson jamiyatini, yangi davr axloqini boricha tasvirlashga kirishadi va bu yangi davr qahramonlari uning asosiy qahramonlariga, obrazlariga aylanadi. Balzak yangi tabaqaning hayotini yoritarkan, ularning hayoti, taqdir ramzini topgandek bo'ladi. Bu tabaqaning taqdiri ham, hayoti ham xuddi o'zi ruju qo'ygan birjaga, “Kim ochdi savdosi'ga o'xshaydi. Uning ko'ngli ham kim ochdi savdosining o'zi. Uning ma'naviy mayog'i, intilishi, mehrobi birja va bank, savdo, oldi-berdi, hisob-kitoblardan iborat. Insoniyat yangi tabaqasi faqat bitta maqsadda foyda uchun, pulga-pul qo'shish, moddiy nafsini qondirish uchun yashaydi. Uning muqaddas tushunchalari ham ana shu birja va bank, savdo bilan bog'liq. Hatto hissiyoti va tuyg'ularini ham birja boshqaradi. Bu jamiyatning birdan-bir maqsadi-boylik orttirish. Inson qadri hech narsa emas. Inson qadri toptalgan joyda esa mohiyat ham, axloq ham, go'zallik va ezgulik ham o'z mazmunini yo'qotadi. Mazmunini yo'qotgan jamiyatni tubanlik botqog'i o'z qariga tortadi. Turkumga kirgan “Savri teri tilsimi” romanida Balzak Rafael qiyofasida endi shakllanib kelayotgan, o'zi ham kapitalga aylangan tabaqaning ma'naviy dunyosini ochib beradi. Rafael pul va boylik topish, shon-shuxrat shohsupasiga chiqish, o'z orzu-havaslariga yetishish uchun tanasini, iymonini va qalbini sirli savri terisidan qilingan sehr-u joduga almashtiradi. Ya'ni o'z tanasiga iblisona sehrni kiritadi. Oqibatda har bir orzusi amalga oshganda terisi qurib, hayot sekin-asta uning tanasini tark eta boshlaydi. Oxiri Rafael o'z sevgilisini qutqarish uchun o'zini o'limning qo'liga topshiradi. Bu holat pul, shon-shuxrat, boylik, hasham, manmanlik izidan quvgan barchaning tipiklashgan, umumlashma obrazidir. Eng muhimi, savri terisi ramzi orqali inson hayoti va taqdirini tahlil qilish bilan Balzak yuz yilcha oldin adabiyotga, keyinchalik lotin Amerika adabiyotiga nisbatan berilgan magic ya'ni sehrli fusunkor realizm uslubini olib kirgan edi.

“Inson komediyasi” epopeyasi adabiyot tarixida misli ko'rilmagan badiiy hodisa, madaniy obida, inson qalbi, faoliyati va ma'naviyatining badiiylashgan

hujjatidir. Ulug’ adib jahon adabiyotining yetuk namoyondalari Dikkens, Tolstoy, Dostoyevskiy kabilarning ijodiga katta ta’sir o’tkazdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. ZIYOUZ.com
2. SAVIYA.UZ
3. Library.navoiy-uni.uz



SEMENT ISHLAB CHIQUARISH JARAYONLARIDA HOSIL BO’LADIGAN CHANGLAR

Ibroximov G’iyosiddin Baxriddin o’g’li

Termiz muxandislik-texnologiya institute magistranti

Annotatsiya: Maqolada Sement zavodlari va ishlab chiqarishda chiqayotgan changlarni inson salomatligiga zarari, sementdan zavodan chiqayotgan changlarni ushlab qolish usullari va ushlab qolingani changlar foydalanish yo’lari ko’rib chiqish va foydalanish haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so’zlar: Sanoat korxonasi, ishlab chiqarish, sement changi, tabiiy resurslar, atrof-muhit, texnologiya, iqtisodiyot.

Bugungi inson sivilizasiyasining rivojlanishi va tabiat bag’riga chuquroq kirib borishi oqibatida ahvol tubdan o’zgardi. Chunki yer yuzidagi o’rmonlar qirildi, katta-katta hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o’zlashtiriladi, yerlar har -xil petsistlar bilan zararlandi, har-xil chiqindi hamda gazlar bilan toza havo va tabiat ifloslandi. Bundan tashqari tabiatda toshqinlar, o’rmon yong’inlari, chang bo’ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz beradi. Bularning barchasi tabiatning tabiiy muvozanatiga putur yetkazadi. Dunyo bo’yiicha kuzatiladigan tabiiy, antropogen yoki sof antropogen hodisalar umumbashariy muammolar deb qaraladi. Ana shunday ekologik muommolarga bir misol qilib Sement ishlab chiqarish jarayonida hosil bo’ladiga changlar misol qilib olamiz. Bunga sabab bugungi kunda mustaqil o’zbekiston yirik sanoat va agrar mintaqasi bo’lib kelajakda dunyoga yuz tutgan mashina sozlik energetika, kimyo, oziq-ovqat sanoati, transport majmuini yanada rivojlantirish ko’zda tutulgan bunday ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi Respublikada ijtimoiy-ekotizmlarning holatiga muayyan darajada salbiy ta’sir ko’rsatadi. Yirik hududiy-sanoat majmualari joylashgan rayonlarda ya’ni Angren-olmaliq, chirchiqlarda, Farg’ona-Marg’ilonda, Navoiy va boshqa rayonlarda tabiatni

muhofaza qilish muommalari. Bu rayonlarda ijtimoiy-ekotizm holati yaxshi emas. Chunki sanoat korxonalaridan chiqayotga turli-xil gazlar, chiqindilar va changlar atrof-muhitni ekologik holatini buzulishiga olib kelmoqda.

Malumki, ishlab chiqarish korxonalarida materiallarni yanchish, aralashtirish, uzatish va kúritish jarayonlarida zarrachalarining o'lchami 3-70 mkm atrofida bo'lgan changlar paydo bo'ladi.

Shuni alohida takidlash kerakki, zararli moddaning inson organizmiga singib borishi turli kasalliklarni paydo bo'lishiga sababchi bo'ladi. Shuning uchun atmosfera havosini tozalash katta ahamiyatga ega.

Sement va uning changiga allergiya kattalarda tez-tez namoyon bo'ladi va engil va juda og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Buning oldini olish uchun o'z vaqtida maslahat uchun mutaxassisga murojaat qilishingiz kerak.

Sementning kichik zarralari nafas yo'llariga kirib, astma xurujiga sabab bo'ladi. Bu juda xavflidir. Ushbu chang ko'p komponentli bo'lganligi sababli, reaksiyaning aniq nima ekanligini taxmin qilish qiyin.

Sement changiga allergiya belgilari bularga quyidagilar kiradi:

Allergiya quyidagilar bilan tavsiflanadi:

Aksirmoq;

Teri toshmasi;

Tumov;

Qovoq shishi uchun:

Bosh aylanishi;

yo'tal;

nafas qisilishi;

Ko'p miqdorda burun oqishi.

Bu kasaliklarning kelib chiqishiga SSSR sement sanoati ishlab chiqarish hajmi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egalladi - yiliga 124 million tonnagacha. Garchi Ittifoq 20 yildan beri mavjud bo'lmasa-da, ko'plab mahalliy sement korxonalarida hali ham eski sovet uskunalarida ishlaydi. Mutaxassislarning fikricha, asosiy fondlarning faol qismining ma'naviy va jismoniy eskirishi 70 foizdan oshdi va bu ishlab



chiqarishning ekologik xavfsizligini muqarrar ravishda pasaytiradi. Bu omillar sanoatni modernizatsiya qilishga juda muhtoj degan xulosaga kelish uchun yetarli. Hozirda sement zavodlarida chang chiqaradigan barcha texnologik birliklar chang yig'uvchilar bilan jihozlangan bo'lib, ular nafaqat tayyor mahsulot yoki yarim tayyor mahsulotni sezilarli darajada qaytarishga, balki sement zavodlari va unga tutash hududlarning havo havzasini chang bilan ifloslanishining oldini olishga imkon beradi.

Sement zavodining o'zida sement ishlab chiqarish jarayonida changdan foydalanish katta qiziqish uyg'otadi, bu changni pechga qaytarish, sementni maydalashda changni qo'shimcha sifatida ishlatish va uni belgilangan qoidalarga muvofiq ishlaydigan alohida pechda yoqish orqali hal qilinishi mumkin. quruq ishlab chiqarish usuli va boshqalar. Biroq, bu yo'q qilish usuli har doim ham tavsiya etilmaydi, chunki changni o'choqqa qaytarish imkoniyati asosan loy tarkibidagi ishqorlar miqdoriga va ularni elektrostatik cho'ktirgichda yig'ish paytida changda to'planishiga bog'liq.

Chang tarkibidagi gidroksidi oksidlarning ko'payishi, agar ikkinchisi o'choqqa yuborilsa, klinker sifatini pasaytiradi. Shu bilan birga, atala tarkibidagi gidroksidi oksidlarning 0,7-0,8% gacha kamligi bilan, elektrostatik cho'ktirgichlarda ushlangan changning butun miqdori pechka sifatiga ta'sir qilmasdan, to'siqsiz o'choqqa berilishi mumkinligi aniqlandi. hosil bo'lgan klinker.

Elektrostatik cho'ktirgich maydonlari tomonidan ushlangan chang tarkibidagi gidroksidi oksidlarning turli xilligi tufayli pechga uning barcha miqdorini emas, balki faqat bir qismini, masalan, faqat I yoki I va II qismini qaytarish mumkin. filtr maydonlari.

Chang pechga qaytarilganda elektrostatik cho'ktirgichlar oldidagi gazlardagi changning massa konsentratsiyasi oziqlantirish usuliga qarab 10-35% ga oshadi, xomashyoning solishtirma sarfi 8% ga kamayadi. otish uchun yoqilg'i sarfi 6% ga.

Ishqor konsentratsiyasi yuqori bo'lgan quruq o'choq changlari pechga qaytarilmasligi kerak. Uni olib tashlash va yuvish kerak.

Hozirgi vaqtda o'choq kukuni silikat g'ishtlarini ishlab chiqarishda xom ashyoga qo'shimcha sifatida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Sement ishlab chiqarishda elektrostatik cho'ktirgichlardan chiqadigan chang qishloq xo'jaligida kislotali tuproqlarni ohaklash uchun o'g'it sifatida ham ishlatiladi.

Rangli tibbiy shisha ishlab chiqarish va 39-25% IQ spektral diapazonida assimilyatsiya koeffitsienti bo'lgan choyshabda yupqa issiqlikdan himoya plyonkalarni olish uchun changni tozalash tizimlari tomonidan ushlangan changdan foydalanish qiziq. Sement zavodlarining elektrostatik cho'ktirgichlarining changlari ko'plab ishqorlarni o'z ichiga oladi va tarkibida shisha ishlab chiqarish uchun xom ashyoga o'xshaydi. Uning zaryadga kiritilishi bo'rni olib tashlash va soda, dolomit va alumina miqdorini kamaytirish imkonini beradi.

Sement changining inson tanasi bilan aloqasini istisno qilish uchun shaxsiy himoya vositalari va kombinezonlardan to'g'ri foydalanishni o'rganish kerak. Nafas olishni himoya qilish uchun siz niqob yoki respiratorlardan foydalanishingiz kerak. Ko'zni tsement changidan himoya qilish uchun ko'zoynak kerak. Terini himoya qilish uchun siz himoya kiyim va poyabzal kiyishingiz kerak.

Kiyimlar barcha tugmalar bilan mahkamlangan bo'lishi kerak, ko'ylagi shimga tiqilib, shundan keyingina ishni boshlash kerak. Shuni yodda tutish kerakki, sizning xavfsizligingiz sizning qo'lingizda va u qanchalik xohlasa va xohlamasin, boshqa hech kim sizni salbiy omillar ta'siridan qutqarmaydi. Agar siz shaxsiy himoya vositalari va himoya kiyimi bilan ta'minlanmagan bo'lsangiz, mehnat vazifalaringizni bajarishni rad etishga haqlisiz.

Zaharli changlarning o'lchamlari kichik (0,5-10,0mkm) bo'lganligi uchun, ular nafas olish yo'llari orqali tez organizmga singib borish xususiyatiga egadirlar. Shuning uchun, ulug' bobokalonimiz Abu Ali Ibn Sino ming yillar oldin «chang va g'ubor bo'lmaganda, inson ming yil yashar edi!» deb, bejiz aytmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.A.A. Ращенко, V.P. Serbin, E.A. Starcheskaya. Vyajushie materialy. Kiev, Vysshaya shkola, 1985.
2. Yu.M. Butt, M.M. Sychev, V.V. Timashev. Ximicheskaya texnologiya vyajushix materialov. K., Vysshaya shkola, 1980.
3. X.Teylor. Ximiya cementa. M., Mir, 1996.
4. A. V. Voljenskiy. M., Stroyizdat, 1986,

SAYTLAR:

- 1.GEOGRAFIYA.UZ
- 2.Fayllar.org



SOG'LOMLASHTIRISH OROMGOHLARIDA MUSIQA SADOSI OSTIDA MASHG'ULOTLAR BAJARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Nizomov Behzod Raximjonovich

Samarqand davlat universiteti, Jismoniy madaniyat fakulteti II kurs magistri

Annotatsiya: O'quvchilarning istedodini yanada rivojlantirish, dunyoda bo'layotgan voqea va jarayonlarga o'z munosabatlarini aniq bildira oladigan mustaqil fikrga ega, vatanparvar hamda xalqimizga sadoqatli farzand etib tarbiyalashida yozgi sog'lomlashtirish oromgohlarining o'z o'rnini bor. Oromgohlarda bolalarni sog'lomlashtirish maqsadida turli sport musobaqalari bilan birgalikda har kuni ertalabki badantarbiya mashg'ulotlari bo'lib o'tadi. Ushbu mashg'ulotlarni bolalar zavq bilan bajarishadi. Ammo ayrim bolalar ertalabki badantarbiya mashqlarini to'liq bajarishmaydi. Lekin oromgohlarda musiqiy tovush orqali jismoniy mashqlar bajarilsa, bolalar ushbu mashg'ulotni umumiy tarzda yanada xush kafiyyat bilan bajarishadi.

Kalit so'zlar: tarixiy, ijtimoiy, sog'lom turmush, so'g'lomlashtirish, musiqa, mashq, oromgoh, maktabgacha ta'lim, o'rta ta'lim.

Mustaqil davlatimizning ertangi kuni, uning gullab-yashnashi va rivojlanishi ko'p jihatdan o'sib kelayotgan avlodning sog'lom bo'lishiga bog'liq. Bu esa o'z navbatida Vatanimizning kelajagi, farzandlarimizning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratishni taqozo etadi. Jismoniy madaniyat va sport hamisha jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib kelgan.

Musiqa va jismoniy mashqlar bir-biriga mos keladi, ya'ni ularni birlashtirish kishiga zavq bag'ishlaydi. Musiqa tinglash paytida mashq qilish ushbu mashg'ulotni osonroq va yoqimli qiladi.

Yutimizda olib borilayotgan islohotlarda xalqimizning dinyoqarashini o'zgartirishga qaratilgan dastur va tadbirlar ham mavjud bo'lib, ular amaliyotga

tatbiq etilmoqda. Bolalar va o'smirlarning yozgi sog'lomlashtirish davri muayyan aniq belgilangan muddat va sharoitda o'tkazilib, ta'lim tizimining bir qismi bo'lmog'i va ma'naviy-ma'rifiy tarbiya izchilligini ta'minlashi lozim. Bu davrning o'ziga xosligi – barcha bolalarning erkin ravishda o'z qobiliyatlarini to'liq namoyon etishlari uchun katta imkoniyat yaratishi hamda o'quv yili davomida o'quv yuklamalarini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan jismoniy, aqliy va ruhiy-emotsional zo'riqishlarni bartaraf qilish, bolalarning yangi o'quv yiliga lozim bo'lgan tayyorgarlik bilan kelishlarini ta'minlashi bilan xarakterlanadi. O'quvchilarning istedodini yanada rivojlantirish, dunyoda bo'layotgan voqea va jarayonlarga o'z munosabatlarini aniq bildira oladigan mustaqil fikrga ega, vatanparvar hamda xalqimizga sadoqatli farzand etib tarbiyalashida yozgi sog'lomlashtirish oromgohlarining o'z o'rnini bor. Oromgohlarda bolalarni sog'lomlashtirish maqsadida turli sport musobaqalari bilan birgalikda har kuni ertalabki badantarbiya mashg'ulotlari bo'lib o'tadi. Ushbu mashg'ulotlarni bolalar zavq bilan bajarishadi. Ammo ayrim bolalar ertalabki badantarbiya mashqlarini to'liq bajarishmaydi. Lekin oromgohlarda musiqiy tovush orqali jismoniy mashqlar bajarilsa, bolalar ushbu mashg'ulotni umumiy tarzda yanada xush kafiyyat bilan bajarishadi.

Biz Samarqand viloyat Urgut tumanida joylashgan “Chor chinor” bolalar sog'lomlashtirish oromgohida olib borilgan tajriba shuni ko'rsatdiki, bolalarga jismoniy mashq jarayonini musiqa sadosi ostida bajarish ularga yengil va qiziqarli bo'lishi kuzatildi.

Ertalabki mashg'ulot jarayonida quyidagi musiqalarni sizlarga tavsiya etamiz:

Asqarxo'ja-badantarbiya, Andijon polkasi, Ariva-korporativniy-tanec, Macarena, Shaxzoda-qillama, Bugi-mugi (o'zbek tilida).

Xulosa qilib aytganda yoshlar o'rtasida musiqa va jismoniy mashqlarning birgalikda qo'llanilishida quyidagilarga erishish mumkin:

Birinchi, musiqa va jismoniy mashqlar-ijobiy kayfiyat paydo qiladi. Musiqa jismoniy mashqlar paytida sizning yaxshi kayfiyatingizni oshiradi. Buning sababi shundaki, u odamga hozirgi holatini unutishga yordam beradi. Boshqacha qilib aytganda, shunchaki qo'shiqni eshitishni o'zi yetarli emas. Darhaqiqat, odam

qandaydir sabablarga ko'ra qo'shiqlarni shaxsiy xohish-istaklariga ko'ra eshitganda, uning samarasi, ayniqsa, yuqori buladi.

Ikkinchidan, musiqa jismoniy imkoniyatni oshiradi. Jismoniy ko'rsatkichlarning yaxshilanishi olimlar “Ergogen ta'sir” deb bilishadi. Bu sizning faolligingiz o'z-o'zidan o'sishiga mos keladi. Musiqa tinglayotganda jismoniy mashqlarni odatdagidan ko'ra xuddi shu kuchni sarflagan holda ko'proq mashq qilishingiz mumkin. Bu, asosan, takrorlanadigan aerobik mashqlarga taalluqlidir. Faoliyat qo'shiq ritmiga moslashtirilgandagina samarali bo'ladi.

Uchunchidan, musiqa va jismoniy mashqlar ta'sirida charchoq holati kamayishi. Musiqaning yana bir qiziqarli foydasi shundaki, u sizning harakatlaringiz haqidagi idrokni o'zgartiradi. Boshqacha qilib aytganda, bu sizga jismoniy mashqlar unchalik qiyin va mashaqqatli emasligini his qilishingizga yordam beradi.

To'rtinchidan, bu fiziologik samaradorlikni yaxshilaydi. Hamma narsa shuni ko'rsatadiki, turli xil ritmlarni tinglash paytida tanangizning tebranishiga qo'shilgan qo'zg'atilgan kayfiyat sizning nafasingizni yanada uyg'unlashtiradi.

Albatta, yurtimizda ayni davrda musiqa ostida jismoniy mashqlarni bajarishda harakatlarga mos tushadigan ommaviy musiqalardan foydalangan holda umumiy jismoniy raqslarni ko'proq ishlab chiqish lozim, yoshlar orasida maktabgacha ta'lim, o'rta ta'lim, professional ta'lim hamda oliy ta'limda ommalashtirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Valdayo.A.C “Musiqa va jismoniy mashqlarning jismoniy tayyorgarlik va psixologiyaga ta'siri”. Ta'lim, motorli ko'nikmalar va tadqiqotlar jurnali (6), 3-18 2017.
2. Respublka oromgohlar.uz

SADOQAT VA CHIN MUHABBAT KUYCHISI

Togayniyazova Ayroza Yusupovna

Toshkent shahri Olmazor tumanidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Xorijiy Filologiya fakulteti Xorijiy til va adabiyoti kafedrasining 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Saida Zunnunovaning hayot yo'llari.

Kalit so'zlar: Hurmat belgisi, oynoma muqova, tanqid, "yangiliklar", maslahatchi, yozuv stoli, sermahsul ijod.

Saida Zunnunova — shoira va yozuvchi, yangi zamon ayollar o'zbek adabiyotining asoschilaridan biri.

Saida Zunnunova 1926 yili Andijon shahrida xizmatchi oilasida dunyoga kelgan. O'rta maktabni bitirgach, Andijon pedagogika institutiga o'qishga kiradi, so'ngra, O'rta Osiyo Davlat universitetining filologiya fakultetiga o'qishga topshiradi. O'qishni tamomlab, Saida Zunnunova har xil vaqtlarda “Gulxan” oynomasi, “O'zbekiston madaniyati” gazetasi nashriyatida va O'zbekiston yozuvchilar uyushmasida maslahatchi bo'lib ishlaydi.

Oilasi

Turmush o'rtog'i-atoqli yozuvchi Said Ahmad, qizi-Nodira

Mukofoti: "Hurmat belgisi" nishoni.

Toshkent shahridagi ko'chalardan biriga va 224-makdabga, shuningdek Andijon shahridagi ko'cha va makdablardan biriga va Bo'z tumanidagi litseyga Saida Zunnunova nomi berilgan.

Saidaxon Andijon pedagogika institutini tamomlab, Izboskan tumanining To'rtko'l qishloq maktabida dars berishni boshlagan. U har hafta yigirma kilometr yo'l bosib o'tib, topgan pulini uyiga olib borar edi. Ehtimol, shu sababli Saida turmushga chiqqanidan so'ng ham erining pulini ortiqcha sarflashga ko'nika olmagan.

Er va xotin — bir-birining ilhom parisi

Said Ahmadning xotirasidan: “Saida ish stoli ustida biror narsa yozganini eslay olmayman. U bir qo‘li bilan qozonda ovqat pishirishi, boshqa qo‘lida she‘r yozishi mumkin edi yoki bir qo‘lida beshik tebratib, tizzisiga daftar qo‘ygancha, yozardi va yozardi...Uyda bir emas, uchta yozuv stoli bor edi, u esa duch kelgan yerda yozib ketardi - to deraza ostida yoki dazmol stolida. Ba‘zi she‘rlarini u oynoma muqovasida yozishni boshlagan va telefon daftarida davom ettirgan. So‘ngra, ularni barini to‘plab, ikki nusxada bosma moshinada terib chiqqan”. Yozuvchining o‘zi esa faqat kechasi ijod qilgan. Ishlarini tahrirlamaguniga qadar xotinining o‘qishini istamagan, shu sababli eshikka: “Saida Zunnunova, hikoya tugadi. O‘qimay turing!”, deb yozib, keyingina dam olgani ketardi. Ertasi kuni tahrirlab, keyingina Saida opaga o‘qib berar edi.

“Men allaqachon o‘qib bo‘ldim. Yaxshi hikoya”, derdi u. Shundan buyon Said aka tahrirlanmagan ishlarini uxlashga ketishdan oldin berkitishni odat qilgan. Axir, uydagi barcha teshiklardan boxabar bo‘lmagan ayol bormi? Saida opa tahrirlanmagan asarlarini o‘qishda davom etar edi...

Said Ahmad tanqidni ko‘tara olmasdi va kimdur uning ishini tanqid qilishi bilan, u oylab hech narsa yozmasligi mumkin edi. Maqtov esa uning ruhini ko‘tarar edi. Saida opa buni bilib, ko‘chadan har xil “yangiliklar” olib kelardi:

— Men Oybek akani ko‘rdim. Ular sizning hikoyalaringizni xush ko‘rarkanlar. Nima uchun yozishdan to‘xtab qolganingizni so‘radilar.

Said aka bu yolg‘on bo‘lishi mumkin deb o‘ylab qolib, “Bu rost bo‘lsa-chi?”, deb o‘ylanib qolar edi. Oybek akanining ko‘nglini qoldirish mumkin emas, deya yanada yaxshiroq yozishga harakat qilar edi.

Saida opa ertasi kuni G‘ofur G‘ulomdan yangilik olib kelar edi, keyin Abdulla akadan va shu yo‘sinda turmush o‘rtog‘ining ishga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otib turar edi.

Saida Zunnunova she‘riyatda ham nosirda ham sermahsul ijod etgan.

Yo‘qlamagan har kuning yilcha bo‘lurmi, hay-hay,
Shunchalik shafqat bilmas dilcha bo‘lurmi, hay-hay.

Xush surating bir nafas tark etmas xayolimni,
Ko‘z shahlo-yu, qosh esa nilcha bo‘lurmi, hay-hay.

Har so‘zda yuz andisha qilg‘um donolig‘ingdan,
Ko‘nglingning nozikligi qilcha bo‘lurmi, hay-hay.

Goh xanjar, goh asaldek so‘zlaringdan dog‘damen,
Jon olib, jon berguvchi tilcha bo‘lurmi, hay-hay.

Vaslingning umidida dunyodan o‘tib borgum,
Qanoatda Saida filcha bo‘lurmi, hay-hay.

REFERENCE:

- 1.Arboblar.uz
- 2.Uz.m.wikioedia.org.
- 3.Saviya.uz.
- 4.Arxiv.uz.



TUPROQ BIZNING BEBAHO BOYLIGIMIZ

Hasanov Hayitmurod Abdirashit o'g'li

Yuldoshev Bahrom Baxtiyorovich

Termiz muhandislik-texnologiya instituti magistrantlari

Annotatsiya: Maqolada insonning tuproqqa ijobiy va salbiy ta'siri, ijobiy ta'siriga oid tuproq hosildorligini oshirish, yerlarning holatini yaxshilash, yashil o'simliklar ekish, ixotazorlar tashkil etish, tabiiy o'g'itlardan foydalanish va salbiy ta'siriga oid, shaharlar qurilishi, atrof-muhitning ifloslanishi, agrotexnik tadbirlarning talabga javob bermasligi, gidrotexnika tadbirlaridan noto'g'ri foydalanish, kimyoviy moddalardan me'yordan ortiq ishlatilishi, yaylovlarga chorva mollarini boqish, o'rmon va to'qaylarni kesib yuborish va hokazolar ta'siri oqibatida yerlar yaroqsiz holga kelishi haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: Tuproq, ekologiya va atrof-muhitning ifloslanishi, resurs, yomg'ir chuvalchaglari, eroziya, litosfera, tabiatdagi va jamiyat, fizik-kimyoviy, mikro va mikroorganizmlar, oziq-ovqat.

Tuproq haqida umumiy tushuncha. Bundan bir necha milliard yillar ilgari yer qattiq tosh va qoyalardan iborat bo'lgan. Unga suv, shamollar, issiq va sovuq havo haroratlari ta'sir etib yemirilish jarayonida tuproqqa aylanib borgan. Hosil bo'lgan yerda yillar moboynida o'simliklar va hayvonlar paydo bo'la boshlagan. Tuproqlarning tabiatdagi va jamiyat hayotidagi ro'li g'oyat beqiyosdir. Tuproq organizmlar uchun hayot muhiti va ozuqa manbai hamda yashash makoni hisoblanadi. Demak, tuproq deb, unumdorlik xususiyatiga ega bo'lgan yer yuzasining ustki, g'ovak qatlamiga aytiladi. Tuproq tugaydigan va tiklanadigan resurslarga kiradi. Tuzilishiga ko'ra 3 asosiy qatlamga ajratiladi: 1- eng ustki gumus (chirindili) qatlam; 2-mineral va organik birikmalar to'planadigan gorizont; 3 –tuproq vujudga keladigan ona jinsi. Tuproqning har bir gorizonti organik va mineral birikmalar

aralashmasidan iborat. Tuproq tarixiy tarkib topgan murakkab, mustaqil tabiiy jism bo'lib o'zgaruvchidir. 1 gramm tuproqda 1 mln dan ortiq sodda hayvonlar va tuban o'simliklar uchraydi.

Ma'lumki, sog'lom unumdor tuproq 1 gektar yer maydonida 3-3,5 milliard tonna mikro va mikroorganizmlar bo'lib, ular 8-12 tonnani tashkil etadi. Bularga dala sichqonlari, tuproqda yashovchi xilma-xil hasharotlar, yomg'ir chuvalchaglari kabilar kiradi. Ayniqsa, yomg'ir chuvalchangining tuproq strukturasi yaxshilashdagi ro'li juda kattadir. Yomg'ir chuvalchangi yerda 1 metr chuqurlikga qadar “kanalchalar” qazib, ular orqali o'simlik ildizi tashqaridan nafas olishi va suv, oziq moddalar so'rilishini imkonini beradi. Ular ovqat hazm qilish organlari orqali yiliga 300-400 tonna tuproqni o'tkazib, tuproq unumdorligini oshiradi. Yomg'ir chuvalchangining yer unumdorligini oshirishdagi ahamiyatini hisobga olib AQSh va ba'zan G'arbiy Yevropa mamlakatlarida uni ko'paytirib sotuvchi maxsus fermalar ishlab turibdi. Bunday ishlar respublikamiz va viloyatimizda ham tashkil etilmoqda.

Inson paydo bo'libdiki, uning hayoti yer bilan bog'liq. Chunki u yer yashash makoni, tirikchilik manbai va ishlab chiqarish vositasi sifatida qabul qilgan. Yer yuzida turli qobiqlar o'rtasidagi aloqadorlik tuproq orqali amalga oshadi, tabiiy landshaftlarning asosi hisoblanadi, litosfera bilan atmosfera o'rtasida moddalarning o'zaro aloqasini sodir etadi. Tuproq xalqning bebaho tabiiy boyligi va insonning yashashi uchun zarur bo'lgan hayot manbaidir. Chunki inson yashashi uchun kerak bo'lgan oziq-ovqat energiyasining 88% ini tuproqdan, 10% ini o'rmon va o'tloqlardan, 2% ini okeandan olmoqda. Tuproqning kishilik jamiyati uchun ahamiyati shundaki, o'z-o'zidan tozalash xususiyatiga ega bo'lib, tabiatdagi iflos moddalarni biologik yo'l bilan tozalaydi va neytrallashtiradi.

Insonning tuproqqa ijobiy va salbiy ta'siri. Ijobiy ta'siriga tuproq hosildorligini oshirish, yerlarning holatini yaxshilash, yashil o'simliklar ekish, ixotazorlar tashkil etish, tabiiy o'g'itlardan foydalanish va hokazolar kiradi.

Salbiy ta'siriga, shaharlar qurilishi, atrof-muhitning ifloslanishi, agrotexnik tadbirlarning talabga javob bermasligi, gidrotexnika tadbirlarining noto'g'ri yo'lga qo'yilishi, kimyoviy moddalardan me'yordan ortiq ishlatilishi, yaylovlarga chorva

mollarini boqish, o'rmon va to'qaylarni kesib yuborish va hokazolar ta'siri oqibatida yerlar yaroqsiz holga keladi.

Insonning ta'siri ayniqsa sug'oriladigan yerlarda kuchli bo'lib, sug'orib ekin ekayotganda ilg'or agrotexnika qoidalariga rioya qilinsa, (sug'orish qoida va me'yorlariga rioya qilish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va b.q.) tuproqning holati, fizik-kimyoviy va biologik xususiyatlari yaxshilanib, uning hosildorligi ortib boradi. Tabiatda shamol va suv ta'sirida tuproqning emirilishi yoki eroziyasi kuzatiladi. Lekin bugungi kunda kishilarning tuproqqa noto'g'ri munosabatda bo'lishi tufayli, ya'ni tik yerlarni noto'g'ri haydash, bostirib sug'orish, o'simliklarga noto'g'ri munosabatda bo'lishi, qayta sho'rlanishi, zaxarli kimyoviy moddalar solish va boshqalar tuproq eroziyasini vujudga keltirib chiqaradi.

Ma'lumotlarga ko'ra, har kuni Yer yuzida eroziya natijasida 3500 gektar unumdor tuproqli yerlar ishdan chiqadi. Suv eroziyasi ko'proq tog' oldi va tog'li hududlarda, shamol erozmiyasi kuzatiladi.

Eroziya jarayonlarining oldini olish uchun o'simlik qoplamini tiklash, agrotexnik tadbirlarini to'g'ri olib borish, yashil himoya qalqonlarini ya'ni daraxtzorlarni bunyod qilish, gidrotexnik tadbirlarni rejali o'tkazish va boshqalar kiradi.

Respublikamizda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning umumiy maydoni 28 mln ga yerlarni tashkil etsa, undan: 23 mln ga yaylovlar, 0,7 mln ga yer lalmikor va 4,2 mln ga sug'oriladigan yerlardan iborat.

I.A.Karimovning “O'zbekiston buyuk kelajak sari” asarida ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning hozirgi asosiy yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan. Unda, xususan quyidagilar ta'kidlanadi:

1. Tegishli texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish. Qishloq, o'rmon va boshqa xo'jalik tarmoqlaridagi tabiiy jarayonlarning keskin buzilishiga olib keladigan barcha zaharli kimyoviy moddalarni qo'llash ustidan qattiq nazorat o'rnatish. Havo va suv muhitini insonning hayotiy faoliyati uchun zararli yoki salbiy ta'sir etadigan moddalar bilan ifloslanishini to'xtatish.

2. Qayta tiklanmaydigan zahiralarni qat'iy mezon asosida iste'mol qilgan holda ularning hamma turlaridan oqilona foydalanish.

3. Katta - katta hududiarda tabiiy zahiralardan foydalanishning aniq maqsadga qaratilgan iimiy asoslarini o'zlashtirish.

4. Jonli tabiatning butun tabiiy genofondini madaniy ekinlar va hayvonlarning yangi turlarini ko'paytirish hisobiga boshlang'ich baza sifatida saqlab qolish.

Номинальная мощность кВт, (л.с.), /об/м	71 (95)/2300	74 (100)/ 2400	70 (95)/1800
Трансмиссия	механическая	механическая	механическая
Число передач вперед/назад	20/20	20/20	14/4
Диапазон скоростей, км/ч			
Вперед	1,80 – 36,4	40	2,65-38,1
Назад	1,89 – 38,27	40	5,6-12,6

Исходя из вышеприведенных сведений и анализа использования тракторов в Узбекистане в начальном этапе разработки УЭС в качестве базового трактора энергетического средства рекомендуется трактор TTZ LS PLUS 100. Тракторы PLUS 100 - надежные и многофункциональные, предлагают лучшее решение «цена -качество», оснащаются двигателями IVECOFPTF5C мощностью 97л.с. и являются эталоном надёжности, экономичности и производительности. Гидравлические установки выдают объем жидкости от 63.6 л/мин. до 78,7 л/мин., что позволяет работать с любым навесным оборудованием без

установки дополнительного гидравлического насоса. Трактор обладает полным реверсом и оснащен технологическим оборудованием впереди и сзади, что существенно расширяет его технологически возможности за счет большого количества сочетаний вариантов агрегатирования и направления движения.

Л и т е р а т у р а

1. Абдазимов А.Д. , Сиддиков Ш.Ш., Атажанова М.М.- Концептуальные принципы создания отечественного универсального энергетического средства для кластерных агрофирм и фермерских хозяйств. Инновацион техника ва технологияларнинг киш. хўж.–озиқ-овқат тармоғидаги муаммо ва истиқболлари. Материалы междунар.НТК. Тошкент. ТошДТУ,2020.-66-67б.
2. Шепеленко Г.Н. Основы теории самоходных машин. - Харьков: Издательство «Основа» при ХГУ, 1993.-216с.
3. Компания Fendt [Электронный ресурс]. – Режим доступа : <http://www.fendt.com/ru>
4. Фирма Claas [Электронный ресурс]. – Режим до-ступа : <http://www.claas.com>.
5. Интернет ресурс <http://daromad-plus.uz> .Характеристика трактора TTZ LS PLUS 100
6. Интернет ресурс <http://www.belarus-tractor.com/catalog/belarus-923/belarus-922-3/>

“NA’MATAK” HIKOYASIDA ASL MOHIYAT

Mamirjonova O’g’iLOY

Andijon davlat universiteti, Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Na'matak" hikoyasining obrazlar tizimi va hikoyaning badiiy talqini haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: na'matak, I avlod, II avlod, III avlod, obraz, qarindoshlik, mohiyat.

Kirish. Mustqillikdan keyingi o'zbek adabiyotida hikoya janri yanada rivojlandi. Mazmuniy va struktur jihatdan sezilarli darajada yangilanishlar, o'zgarishlar ro'y berdi. Shu ma'noda Ulug'bek Hamdam ijodida ham hikoya janriga novatorona yondashuv, kompozitsiya jihatdan o'ziga xoslik ko'zga tashlandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ulug'bek Hamdam hikoyalarida dunyoviy-realistik, xayoliy-romantik hamda so'fiyona ilohiy talqini yaqqol sezilib turadi. “Ulug’bek Hamdam hikoyalariga nazar tashlasangiz, muallif badiiy tafakkurida to’xtovsiz o’zgarish, yangilanish jarayoni kechayotganligiga, miqyos-ko’lamning tobora kengayib borayotganligiga amin bo’lasiz”⁴³ Yozuvchining ushbu janrdagi asarlarini uqish, uning tag mohiyatini anglash uchun o'quvchidan ma'lum darajada intellektual tayyorgarlik ko'rishi talab etiladi. Chunki “Ulug'bek Hamdam asarlaridagi murakkab ramzlar uncha-muncha o'quvchiga og'ir tuyulishi hech gap emas. Eng muhimi shuki, Ulug'bek Hamdam o'quvchini faqat o'zigagina xos bo'lgan ruhiy olami bilan tanishtiradi. Ulug'bek mavzu va uslub tanlashda, bayon va asar tuzilishida hech kimga taqlid qilmaydi. Hatto unda kimdandir ijodiy ta'sirlanish degan taqlidning nozik shaklini ham payqamaysiz”.⁴⁴ Yozuvchi o'z hikoyalari orqali hikoya janrning keng qirralari va imkoniyatlarini kashf etadi. Masalan, "So'z", "Na'matak", "Bir

⁴³Норматов У. Кичик жанрнинг катта имкониятлари// “Ватан ҳақида қўшиқ. –Т.: Академнашр. Б.425

⁴⁴ Rahmat R. “Vatan haqida qo`shiq” ni tinglab...// Kitob dunyosi gazetasi N 16 (187) 2014-yil 2-avgust 7-bet

piyola suv", "Tosh" va shu kabi boshqa ko'pgina hikoyalarida Ulug'bek Hamdam ushbu janrdagi badiiy mahoratining yuqoriligi, boshqa ijodkorlar asarlariga o'xshashligi, takrorlanmasligi bilan farq qiladi. Jumladan, adabiy tanqidchi U.Normatov shunday yozadi: “Yolg'izlik” nomi ostida chop etilgan to'plamidan o'rin olgan qissa va hikoyalarini o'qib ko'ring-a, ularning barchasida Ulug'bek va unga tengdosh, zamondosh, maslakdosh o'tish davri yangi adabiy avlod qalbidan kechayotgan yangilanish, evrilishlar jamiki qirralari, tovlanishlari bilan namoyon bo'lganiga ishonch hosil qilasiz. Yetmish yillik mafkuraviy tazyiqlar, qolip tusini olgan mustabid tafakkur asoratlaridan ozod erkin mushohada, o'z qalbidan atrofida yuz berayotgan jarayonlarni o'zgacha, idrok etib, o'zgacha yo'llarda talqin etish hollari Sizni hayratga soladi”⁴⁵

Ulug'bek Hamdam hikoyalari ichida mazmun-mohiyat tomondan, qurilish jihatidan o'ziga xos hikoyasi shubhasiz "Na'matak" hikoyasidir. Hikoya qisqa bo'lsada uch avlod taqdirini o'z ichiga oladi. Birgina na'matak daraxti atrofida ro'y bergan uch avlodning hayotida bo'lgan voqealar haqida hikoya qilinadi. Ulug'bek Hamdamning bu hikoyasi na'matak obrazi asosda turuvchi obraz bo'lib, barcha voqealar uning atrofida sodir bo'ladi. Asar kopmozitsiyasi ham o'ziga xos, ya'ni uch qismga bo'lingan: I avlod, II avlod va III avlod. Na'matak daraxti uchala avlodning ham hayotiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Yonma-yon yashovchi ikki qo'shnining o'rtasida na'matak daraxti qad rostlagan bo'lib, dastlab hech kim unga e'tibor qaratmaydi. Xatto bir necha yil mevasi terilmay qoladi, hech kim unga parvo ham qilmaydi. "...Qo'shnilarning u bilan deyarli ishi yo'q: na yigitning uydagilari va na qizning ota-onasi o'simlikka egalik nigohi bilan qarar, aksincha, har safar kuz kelib, bog'dagi turli-tuman daraxtlarning hosili yig'ib olinganda, birgina shu, – na u va na bu tarafdagi na'matak mevasi terilmay, – qanday bo'lsa, shundayligicha shoxlarida qolardi..." Lekin aynan shu meva ikki qalbni, ya'ni ikkala qo'shni — yigit va qizning umrini bir-biri bilan bog'laydi, ikki qo'shnini qarindoshlik aloqalarining in'ikosi bo'ladi. Yoshlik, baxt-

⁴⁵ Норматов У. Кичик жанрнинг катта имкониятлари// Хамдам У. Ватан хақида кўшик. –Т.: Академнашр, 2014. Б.425

saodat abadiy emas, albatta. Oradan vaqtlar o'tadi, ikki yosh keksayadi. "...Bu orada na'matak necha o'n gullab, yana shuncha bor gulini to'kdi. Yigit va qiz endi o'sha na'matak kabi yashab, novdalarini hayot kengliklari bo'ylab baralla yozdilar, meva tugdilar va nihoyat, butadan farq qilib, qaridilar...". Endi na'matak atrofida yangi avlod, ya'ni II avlod paydo bo'ldi. Ularning ham hayotida ota-onalari kabi bevosita na'matak bilan bog'liq voqealar sodir bo'ldi. Lekin bu safar na'matak insonlarni yaqinlashtiruvchi omil emas, balki ular o'rtasida nizoni paydo bo'lishiga, qarindoshlik aloqalarining uzoqlashishiga, hattoki ikki insonning o'limiga sababchi bo'ladi. Shu paytda na'matak kesib tashlandi. "...Na'matak butasi chavaqlab tashlangandan keyin go'yo endi har qanday xunrezlikka yo'l ochilgandek edi, ajab...". Butaning kesib tashlanganligi sababli ikkala qo'shni bir-biri bilan shuday tortishadiki, janjal bir qo'shnining vafot etishi, ikkinchisining esa qamalishi va so'ngida u ham dard orqali olamdan o'tishi bilan yakunlanadi. Shunday qilib, II avlod uchun bu meva notinchlik olib keldi. So'ng yillar o'tdi, yangi davrlar keldi avlodlar almashdi. Kesib tashlansada yana unishga harakat qilgan, o'zidan kurtaklar chiqara boshlagan na'matak atrofiga III avlod keldi. Ularda ham ushbu meva atrofida xotiralar boshlandi, lekin ular ota-onalari tomondan emas, bobo va buvisining yo'lidan ketdilar, ya'ni na'matak bu avlodni yana birlashtiradi.

Muhokama.

Ulug'bek Hamdam "Na'matak" hikoyasini o'qigan o'quvchidan chuqur mulohazani talab etadi. Yozuvchi na'matak obrazi orqali insonlarning nafsi qanday oqibatlariga olib kelishi haqida so'zlamochidek go'yo. "Ulug'bek Hamdam asar shakli va ma'nosini o'z ichidan izlab topadi. Uning yozganlarini o'qiyotganda jahonga mashhur qaysidir yozuvchining qandaydir asari yodingizga tushmaydi. Asar yaratish uslubi, ramzlari, iztirob va ruhiy izlanishlari o'zinikidir".⁴⁶Hikoya o'z ichida uch qismga bo'lingan, ya'ni uch avlod qismatini alohida-alohida yoritilgan. Har bir avlodning hikoyasi boshlanishida ijodkor ikki qator ibratli so'z bilan boshlagan: "Naqorat: Qanday ko'z-la boqsa,odam olamga, Shunday javob aylar olam odamga, degan...".

⁴⁶ Rahmat R. "Vatan haqida qo'shiq" ni tinglab...// Kitob dunyosi gazetasi N 16 (187) 2014-yil 27-avgust 7-bet

Aynan shu misra orqali Ulug'bek Hamdam hikoyaning to'la mohiyatini ochib bergan

Natija.

Haqiqatan ham inson bu foniy dunyoga hirs qo'ysa, undagi narsalarga keragidan ortiq mehr bersa, hattoki arziyas mol uchun qarindoshlik aloqalaridan kechsa olam ham unga xuddi shunday javob qaytarishini, yoki aksincha, hayotga, berilgan umrga, rizqqa rozi bo'lib, uni birgalikda baham ko'rib, qisqagina hayotdan unumli yashay olgan insonga olam ham shu tariqa javob aylashini yozuvchi butun hikoyasiga singdira olgan. “...Olisdan qaraganda, bu ikki o'spirin – yosh qiz bilan bo'z yigitcha na'matakka qanday munosabatda bo'lishni go'yo bilishmas, ammo o'zlarini bilishni juda-juda istashayotgandek tutishar, shunga yarasha harakatlar, imo-ishoralar qilishar, o'simlikning girdida aylanishar, nimalarnidir bir-birlariga tinmay uqtirishar edi... Kim biladi deysiz, ular balki bobolarini eslashayotgandir, balki otalarini, balki yodlarida tamomila o'zga o'y bordir...

Naqorat:

Qanday ko'z-la boqsa, odam olamga, Shunday javob aylar olam odamga...”. Na'matak obrazi hikoyada shunchaki bir obraz. Yozuvchi shu oddiy bir buta timsolida uning atrofidagi insonlarning unga bo'lgan munosabati orqali o'z hayotiga qanday ta'sir etganligini yoritib bergan. Lekin ijodkor tag mazmunni aniq ochib bermaydi, balki bu vazifani kitobxonning o'ziga havola qiladi. Olamga mehr bilan qaragan inson hayoti mehr va baxtga to'la, aksincha, nafs bandi bo'lib olamga yomonlik bilan boqqan inson taqdiri, albatta, ayanchli yakun topishi hikoyani uqib, uning mohiyatiga yetib borgan insonga namoyon bo'ladi.

Xulosa.

Ulug'bek Hamdam yangilik yaratuvchi, novatorona ijodkor. Uning barcha hikoyalari kitobxonni o'z domiga tortmay, uni chuqur o'ylamaslikka, mulohaza yuritmaslikka qo'ymaydi. "Na'matak" hikoyasi ham xuddi shunday asarlaridan biridir. Yozuvchi davrimiz hayoti qiyofasini jonli chizib berish, odamlarimizning o'zlarini ko'zguga solib ko'rishlari uchun imkon yaratilgan holda bugungi kun kitobxonini, zamonamiz yoshlarini fikrida, ahdida sobitlik, nafs qutqusining fojialari, odamiylik mezonlari, me'yor masalalari haqida chuqurroq o'yga toldirish maqsadini ko'zlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Норматов У. Кичик жанринг катта имкониятлари// Хамдам У. Ватан хақида қўшиқ. –Т.: Академнашр, 2014. Б. 425
- 2.Rahmat R. “Vatan haqida qo`shiq” ni tinglab...// Kitob dunyosi gazetasi N16 (187) 2014-yil 2-avgust
- 3.Hamdam U. “Na`matak” hikoya
- 4.Rahmat R. “Vatan haqida qo`shiq” ni tinglab...// Kitob dunyosi gazetasi N 16 (187) 2014-yil 27-avgust



ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

и.ф.н. доцент **Шохўжаева Зебо Сафоевна**

Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги соҳасида стратегик ривожланиш ва
тадқиқотлар халқаро маркази докторанти

Самандаров Мирзохид Миржамилевич

ҚарМШИ 2-курс магистранти

Аннотация: Маълумки, бугунги кунда тадбиркорликни ривожлантириш ва уни қўллаб-қувватлаш борасида мамлакатимизда салмоқли ишлар амалга оширилмоқда. Ушбу мақолада 2021 йилда хусусий тадбиркорлар томонидан бадарилган ишлар кўлами таҳлил қилинган ва тадбиркорликни янада риводлантириш борасида таклифлар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: кичик бизнес, хусусий тадбиркорлик, микрофирмалар, кичик корхоналар, қўллаб-қувватлаш, мониторинг, баҳолаш.

Бугунги кунда Ўзбекистонда тадбиркорликни ривожлантириш ва уни қўллаб-қувватлаш, иқтисодийни барқарор ривожланишини таъминлаш, жумладан, унинг ялпи ички маҳсулот(ЯИМ)даги, ишлаб чиқариш ва аҳоли бандлигини таъминлашдаги улушини ошириш ва асосийси қулай ишбилармонлик муҳитини яратишга қаратилганлигидир.

Маълумки, сўнгги йилларда Ўзбекистоннинг ишбилармонлик муҳити сезиларли даражада яхшиланди, яъни Жаҳон банкининг Doing Business рейтинги бўйича Ўзбекистон Республикаси 2015 йилдаги 141 ўрндан 2020 йилда 69 ўринга кўтарилди. 2019 йилги рейтингга қараганда, мамлакат 76-ўрндан 7 поғонага кўтарилган. 2025 йил охирига бориб “Бизнес юритиш” халқаро индексида (Doing Business Index) “қурилишга рухсатномалар олиш” (Dealing with Construction Permits) йўналиши бўйича Ўзбекистон

Республикасининг позициясини жорий 61,7 баллдан 78,2 баллгача яхшилаш масаласи илгари сурилган.

Мамлакатда қулай ишбилармонлик муҳитини яратиш ва тадбиркорликни жадал ривожлантириш борасида қатор ижобий ўзгаришлар амалга оширилмоқда. Ўз ўрнида, тадбиркорлик субъектларини давлат рўйхатидан ўтказиш ва ҳисобга қўйиш борасида ҳам қонунчиликда муҳим қарорлар қабул қилиниб, давлат рўйхатидан ўтказиш ва ҳисобга қўйишни автоматлаштирилган тизими босқичма-босқич ишлаб чиқилиб, амалиётга тадбиқ қилинмоқда. Бу эса аҳоли ҳамда хорижий инвесторларнинг ўз шахсий бизнесини йўлга қўйиш ва ривожлантириш учун муҳим омил бўлиб хизмат қилмоқда.


2020 йилда кичик тадбиркорликнинг ЯИМдаги улуши 51,3 фоизни ташкил этиб, кичик тадбиркорлик субъектларининг сони ҳар 1000 аҳолига 14,4 бирликни ташкил қилди. Мазкур даврда янги ташкил этилган кичик корхона ва микрофирмалар энг кўп савдода 16588 та, саноатда 9713 та, қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалигида 8525 та, қурилишда 3302 та, яшаш ва овқатланишда 2460 та, ташиш ва сақлашда 1148 та ташкил этилди.

2021 йилда жами 98,9 мингта янги кичик корхона ва микрофирмалар (фермер ва деҳқон хўжалиқларисиз) ташкил қилинди, бу ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 6,1 фоизга кўп демакдир. Энг кўп кичик корхона ва микрофирмалар савдо соҳасида (38,9 %), саноат соҳасида (19,5 %), қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалигида (11,8 %), қурилиш соҳасида (6,4 %) ташкил этилди. Худудлар бўйича кичик тадбиркорлик субъектлари томонидан амалга оширилган маҳсулот (ишлар ва хизматлар) экспортининг жамига нисбатан энг кўп улуши Сирдарё вилоятида – 76,4 %, Сурхондарё вилоятида – 60,0 %, Хоразм вилоятида – 51,7 %, Қашқадарё вилоятида – 51,6 %, Наманган вилоятида – 49,6 %, Фарғона вилоятида – 49,4 % ни энг паст кўрсаткич Навоий вилоятида – 11,9 % ни ташкил этди.

Иқтисодий фаолият турлари бўйича энг кўп кичик корхона ва микрофирмалар савдода 38459 та, саноатда 19285 та, қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалигида 11710 та, қурилишда 6330 та, яшаш ва овқатланишда

6621 та, ташиш ва сақлашда 2642 та ташкил этилди. Худудлар бўйича таҳлил қилганимизда янги ташкил этилган кичик корхона ва микрофирмаларнинг жамига нисбатан энг кўп улуши Тошкент шаҳри – 16,2 %, Самарқанд вилояти – 10,9 %, Қашқадарё вилояти – 9,6 %, Фарғона вилояти – 9,2 %, Тошкент вилояти – 7,9 %, Андижон вилояти - 7,2 %, Бухоро вилояти - 6,5 % ва Наманган вилояти - 6,5 % ҳиссаларига тўғри келди.

2021 йилнинг IV чорак якунларига кўра, кичик корхона ва микрофирмалар ўртасида танланма кузатувлар ўтказилди. Ушбу сўровномада 14735 та кичик корхона ва микрофирмалар иштирок этди. Уларнинг 5486 (37,2%)таси иқтисодий вазиятни қулай деб баҳолади. 8048 (54,6%)та субъектлар иқтисодий вазиятни қониқарли деб баҳолади. Қолган 1201 (8,2%)та субъектлар иқтисодий вазиятни қониқарсиз деб баҳолаган.



1-расм. 2021 йил IV чорак бўйича танланма кузатувда иштирок этган кичик корхона ва микрофирмаларнинг иқтисодий фаолият турлари бўйича тақсимланиши, % да⁴⁷

Иқтисодий фаолият турлари бўйича кузатувда иштирок этган кичик корхона ва микрофирмаларнинг тақсимланиши (улуши) қишлоқ, ўрмон ва

⁴⁷Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари.

балиқчилик хўжалигида – 7,0 % (1035 та.), саноатда – 18,6 % (2739 та.), қурилишда – 8,5 % (1253 та.), савдода – 36,9 % (5442 та.) ва хизматлар соҳасида – 29,0 % (4266 та.)ни ташкил этди.

Кичик корхона ва микрофирмаларнинг 2021 йилнинг IV чорагида, ўтказилган кузатув натижаларига кўра жорий даврда иқтисодий вазиятни қулай деб баҳолаган корхоналарнинг иқтисодий фаолият турлари бўйича энг кўп улуши қурилишда – 39,5 % ни, савдода – 39,1 % ни, хизматлар соҳасида – 36,6 % ни ва ташкил этди.

**Қишлоқ,
ўрмон ва
балиқчилик
хўжалиги**



2-расм. 2021 йилнинг IV чорагида кузатувда иштирок этган кичик корхона ва микрофирмаларнинг жорий даврда иқтисодий вазиятини баҳолаш, % да⁴⁸

Шунингдек, иқтисодий вазиятни қониқарли деб баҳолаган корхоналарнинг энг кўп улуши саноатда – 55,9 % ни, қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалигида – 55,4 % ни, хизматлар соҳасида – 55,3 % ни ташкил этди.

2021 йилнинг IV чорагида кузатувда иштирок этган кичик корхона ва микрофирмаларнинг яқин уч ойдаги ўзгаришлар истикболи бўйича иқтисодий вазиятни қулай деб баҳолаган корхоналарнинг иқтисодий фаолият турлари

⁴⁸ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари.

бўйича энг кўп улуши қурилишда – 47,8 % ни, савдода – 47,6 %, хизматлар соҳасида – 45,2 % ни ташкил этди.

Шунингдек, яқин уч ойдаги ўзгаришлар истиқболи бўйича иқтисодий вазиятни қониқарли деб баҳолаган корхоналарнинг энг кўп улуши саноатда – 50,3 % ни, қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалигида – 50,1 % ни, хизматлар соҳасида – 49,4 % ни ва савдода – 47,9 % ни ташкил этди.

Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, хусусий тадбиркорликни қўллаб-қувватлашнинг самарали тизимини шакллантириш учун унинг мақсади, вазифалари, тамойиллари, объекти ва предмети, шакл ва усуллари, механизмлари, дастаклари (регуляторлари) ва устувор йўналишларини ўз ичига олган тизимли ёндашув зарурлигини кўрсатади.

1. Хусусий тадбиркорликни давлат томонидан тартибга солиш тизимида бюджет-солиқ, пул-кредит, таркибий-инвестицион, нарх механизмлари ҳамда прогнозлаштириш, индикатив режалаштириш ва мақсадли дастурлаш каби иқтисодий механизмлар самарали ҳисобланади.

2. Хусусий тадбиркорликни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш даражаси ва самарадорлигини мунтазам баҳолаб бориш ва мониторингини амалга ошириш мақсадга мувофиқ. Бу эса тадбиркорлик фаолиятини барқарор ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади.

3. Хусусий тадбиркорлик фаолиятига кредит ресурслари ва бошқа қарз маблағлари жалб этишни рағбатлантириш учун давлат томонидан тартибга солишнинг пул-кредит механизмлари, яъни кредитлаш тартиби ва шартларини енгиллаштириш, имтиёзли кредитлар учун ресурсларни кенгайтириш, кредитларни қайтариш муддатини узайтириш ва фоиз тўловларининг бир қисмини тижорат банкларига давлат бюджетидан қоплаб бериш, кредит рискларини суғурталашда давлат кафолатини таъминлаш каби механизмлардан унумли фойдаланиш тавсия этилади.

4. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари фаолиятини тартибга солиш, уларни қўллаб-қувватлаш жараёнларини давлатнинг иқтисодий сиёсатини самарали амалга ошириш, тадбиркорликнинг фаолият ва

танлов эркинлиги, мустақил хўжалик юритиш, ташаббускорлик, иқтисодий манфаатдорликнинг устуворлиги каби тамойилларига ҳамда мотивацион жиҳатларига путур етказмаслик нуқтаи-назаридан ташкил этиш соҳанинг жадал ривожланишига имкон яратади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва ҳимоя қилиш тизимини тубдан такомиллаштириш чоратadbирлари тўғрисида”ги Фармони. 2019 йил 14 май.
2. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари.
3. Н.М.Джалилова. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш масалалари. Монография. Т.: “Фан ва технология” нашриёти, 2017 йил.



BOBUR HAYOTI VA IJODINING AKADEMIK LITSEY DARSLIGIDA O‘RGANILISHI

Umarova Shaxlo Baxridin qizi

Samarqand davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Bobur hayoti, faoliyati haqida ma’lumotlar, fikrlar o’ziga xos tarzda aks ettirilgan. Maqolada shoir va shoh sifatida olib borgan faoliyati, shuningdek, asarlari, ularda ilgari surilgan g’oyalar haqida fikrlar, mulohazalar berilgan.

Kalit so’zlar: Bobur, shoh, shoir, insonparvarlik, sadoqat, dovyuraklik, yurt sog’inchi.

Аннотация: В этой статье уникальным образом отражены сведения о жизни, деятельности, мыслях Бабур. В статье приводятся мысли и комментарии к его деятельности как поэта и царя, а также к его произведениям, высказанным в них идеям.

Ключевые слова: Бабур, царь, поэт, человечность, преданность, отвага, ностальгия.

Annotation: In this article, information about Babur's life, activities, thoughts are reflected in a unique way. The article gives thoughts and comments on his activities as a poet and king, as well as his works, the ideas put forward in them.

Key words: Babur, king, poet, humanity, devotion, courage, nostalgia.

Bu dunyoda umrguzaronlik qilayotgan har bir inson o‘zining oldiga ulkan maqsadlarni qo‘yib yashaydi. Bugungi davr talabi har daqiqa, har on yangilikka intilishni, izlanishdan to‘xtamaslikni taqozo etadi. O‘qitish jarayonining yangi tamoyillar asosida tashkil etilganligi ham bizni yana ham izlanishga undayapti. Bugungi kunga kelib, ilm-fan rivojlanishishu darajaga yetdiki, o‘quvchilarga fanlarning asoslarini o‘rgatish ham mumkin bo‘lmay qoldi. Endilikda o‘quvchilarga,

talabalarga qaysi fan asoslarini va qaysi usulda o‘rgatish kerakligi masalasi paydo bo‘ldi. Ta‘limni tashkil etishdagi bu xildagi o‘zgarishlar interfaol usullarning asosida o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning birgalikdagi didaktik faoliyati yotadi. Bu metodlar ta‘lim mazmunining to‘liq o‘zlashtirilishida o‘quvchilarning o‘zaro bir-birlari va o‘qituvchilari bilan birgalikda faoliyat ko‘rsatishlarini ko‘zda tutadi. Ta‘lim interfaol usullarda tashkillashtirilganda izlanish-faraz-yechim topish-izohlash-yangi izlanish tarzidagi didaktik shakl yuzaga keltirilganda, o‘quvchilarning ham bilim olish, ham shaxs sifatida shakllanishlariga imkoniyat yaratiladi.

Boburdan bizga ulkan meros qoldi. Bu meros shoirning devonlari, “Boburnoma”sidir. “Boburnoma” adabiy va tarixiy ahamiyatga molik asar sanaladi. Unda o‘z davrining ko‘plab kishilarining turli vaziyatdagi kechinmalari haqidagi ma‘lumotlar jamlangan. Osiyoning ko‘plab tog‘lari, daryolari, o‘rmonlari, iqlimi, aholisi, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi ma‘lumotlar keltirilgan. Asarda tarixning Bobur yashab o‘tgan davri voqealari ifodalangan. Bu voqealar Andijon, Samarqand, Hirotdan boshlab Kobul va Agragacha bo‘lgan qamrovga ega. “Boburnoma” dagi voqealar bayoni aniq, ixcham va lo‘nda, eng muhimi, hayotiy haqiqatga mosligi bilan e‘tiborlidir.

Akademik litsey darsligida “Boburnoma” asari va Mubayyin asari, g‘azallari, ruboiylari, tuyuqlari, fardlari berilgan. Shoir lirikasining markazida muhabbat mavzusi, insonning pok sevgisini ulug‘lash, hijron alamlaridan shikoyat, visol orzusi, vafodorlik tuyg‘ulari yotadi:

Hajring g‘amidan oqibat o‘lgum qaro ko‘z,

Yuz g‘ussa-yu anduh ila borgum qaro ko‘z,

Vasling bila qilmading ilojin Bobur,

Mushkili firoqingda tirilgum qaro ko‘z.¹

Bobur o‘zining ijodida axloq-tarbiya masalasiga ham alohida e‘tibor bergan:

Xulqungni rost qilg‘il har sarig‘aki borsang,

Ahsanta der bori el gar yaxshi ot chiqorsang.

Insoniy his-tuyg‘ular shoir tomonidan yuksak san‘at va mahorat bilan ifoda etilgan.

Bobur haqiqiy inson nomiga ega bo'lish uchun axloqning barcha qoidalariga rioya qilish kerakligini va shundagina kishi el hurmatiga va katta baxtga sazovor bo'lishini uqtiradi. Shoir ijodida haqiqiy inson yuqori darajada turadi, ulug'lanadi. Boburning ijodini o'rganishda jahon xalqlari adabiyoti vakillari ham katta e'tibor, qiziqish bilan qarashgan. 1930-yilda fransuz olimi Fernard Grenardning “Bobur. Hind imperiyasining asoschisi” nomli risola nashr etildi. Kitob 10 bobdan iborat bo'lib, unda Boburning bolalik vaqtidan to umrining so'nggi davriga qadar boshidan kechirgan voqealar tarixiy-badiiy asosda hikoya qilingan. Ushbu risola “Boburnoma” ga hamohang yozilgan bo'lib, undagi voqealarga monand keluvchi ocherklardan, Boburning Samarqandni tashlab chiqqan, Andijonni qo'ldan chiqargan paytdagi holatini quyidagicha tasvirlaydi: “Orzu-umidlari chilparchin bo'lgan Bobur orqaga qaytadi. U ezilgan ko'ngliga taskin berish niyatida o'zining quyidagi misra bilan boshlanuvchi g'azalini bitadi:

Jonimdan o'zga yori vafodor topmadim,

Ko'nglumdan o'zga mahrami asror topmadim”.

Bobur hayotidagi turli qiyinchiliklar, qarama-qarshiliklar, garchi u zakovat bobida ham munosib tarbiya ko'rgan bo'lsa-da, uning aql charxini yanada o'tkirlab, donishmandga aylantirdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bu olamda o'zumni chun yamon-yaxshidin o'tkardim.

Bundan tashqari, Bobur inson kamolotining birinchi ostonasi oila ekanligini uqtirib, u jarayon nihoyatda qiyin va murakkabligini his etgan edi. Bolalarning odob-axloq qoidalarini o'rganishi ko'p jihatdan atrofdagi shaxslarga bog'liqligini yaxshi bilgan. Bobur o'z farzandlarini tarbiyalashda tadbirkor, bilimdon odamlar bilan maslahatlashib, tajribali, fozil va tarbiya ko'rgan kishilar bilan kengashib ish tutgan. U o'zining “E'tiqodiya” asarida bolalarni yoshlikdan boshlab imonli, e'tiqodli qilib tarbiyalash masalalariga e'tibor bergan. Bobur ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalarini o'zining “Boburnoma”, “Mubayyin”, “Risolai volidiya” asarlarida bayon etgan. Farzanddagi baxt-saodat keltiruvchi bosh fazilat uning iymoni ekanligini ham ta'kidlab o'tgan.

Boburning ijodida vatanparvarlik ruhi yetakchi o'rin tutadi:

*Tole' yo'qi, jonimga balolog' bo'ldi,
Har ishnikim ayladim xatolig' bo'ldi,
O'z yerni qo'yib Hind sari yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.*

Ushbu misralarda shohlikning ham ko'zga ko'rinmasligini, uning vatan oldida, insonparvarlik oldida hech narsa emasligi va ayniqsa vatan ishqini Hind podshohligidan ham ustun turishi ko'rinib turadi.

Bobur devonining katta qismi g'azallardan iborat. G'azallarining ma'lum guruhi hasbi hol xususiyatiga ega bo'lib, shoir hayotining muayyan lavhasi bilan bog'lanadi. Birgina “Topmadim” radifli g'azalini olaylik. Bu g'azalning yozilish tarixi “Boburnoma” da ham keltirilgan. Bobur 1500-1501-yillarda Samarqandni ikki marta qo'lga kiritib, yana boy beradi. Bir muddat sarsonliklardan so'ng biror viloyat berar degan umidda Toshkentga xon bobosi Yunusxon huzuriga boradi. Bobosi O'ratepani unga berishini aytadi, lekin bu gaplar va'daligicha qolib ketadi. Sargardonliklar, xiyonatlar, yaqinlaridan judo bo'lish, qarindoshlarning hamiyatsizligi, Shayboniyxonning tinimsiz ta'qibi shoirning ko'nglini cho'ktiradi. Bu hol Boburning his-tuyg'ularini junbushga keltiradi, uni qattiq qiynaydi. Ko'nglidagi iztiroblarni: “Jonimdan o'zga yori vafodor topmadim, Ko'nglimdan o'zga mahrami asror topmadim” matla'si bilan boshlanuvchi g'azalda ifoda etadi. “Yod etmas emish kishini mehnatta kishi” misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi ham shu kunlardagi ruhiy ezilishlar ta'sirida yozilgan edi. Ba'zida bunday avtobiografik satrlar oshiqona ruhdagi satrlar bilan almashinib keladi va nafis badiiylik ko'rsatiladi. Quyidagi g'azalga diqqat qilaylik:

*Jahondin menga g'am bo'lsa, ulusdin gar alam bo'lsa,
Ne g'am yuz muncha ham bo'lsa, seningdek g'amgusorim bor.*

“Jahondin menga g'am bo'lsa...” Bolalikdanoq hokimiyatning og'ir yuki zimmasiga ortilgan, hayotining ko'pgina qismi urushlar vaqtida kechgan, do'st-u birodarlari bir necha bor sotgan, alamlardan bag'ri dili ezilgan Boburning hasratlari bu. Hasrat va iqrorlardan so'ng yorga qarata: “Bu g'am va

alamlardan yuz barobar bo'lsa ham, mening g'amim yo'q, chunki sen borsan”
deya uning g'amxo'rligini istaydi.

*Mening ko'nglumki, gulning g'unchasidek tah-batah qondur,
Agar yuz ming bahor o'lsa, ochilmog'i ne imkondur.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fernard Grenard. Bobur. Hind imperiyasining asoschisi. Paris:1930.179p
2. Tursunpo'latov M. Z.M.Bobur. Hayoti va ijodi. Toshkent “O'qituvchi” 1995-y.
56b



ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ҚИЛИШДА ЧЕТ ЭЛ ТАЖРИБАСИ (ПОЙТАХТ ШАҲАРЛАР МИСОЛИДА)

Якубов Искандар Одилович

Тошкент Давлат Иқтисодиёт Университети, ўқитувчи

Назарова Умида Бахтияровна

Тошкент Давлат Иқтисодиёт Университети, магистр


Аннотация: Ушбу тезисда хорижий инвестицияларни жалб қилиш, инвесторлар учун муҳим хусусиятлар, инвестицион жозибadorлик, инвестицион салоҳият борасида Тошкент шаҳрига яқин бўлган пойтахт шаҳарлар тажрибаси ўрганилган.

Калит сўзлар: инвестиция, инвестор, инвестицион жозибadorлик, инфратузилма, имтиёз, инвестицион муҳит.

Иқтисодиётни юксалтиришда миллий иқтисодиётга жалб қилинаётган хорижий инвестицияларнинг миқдорини кескин ошириб бориш ва улардан юқори самарadorликда фойдаланиш долзарб масалалардан бири ҳисобланади. Маълумки, ҳар қандай давлат жаҳон тажрибаларини ўрганмасдан, дунёнинг етакчи давлатлари илм-фан ва техника соҳасида эришган ютуқларини қабул қилмасдан, дунёдан ажралган ҳолда ривожланиши мумкин эмас. Ўзбекистон иқтисодиётида чуқур иқтисодий ислохотлар, таркибий ўзгаришлар амалга оширилар экан, уни хорижий инвестициялардан самарали фойдаланишсиз эришилишини тасаввур қилиш қийин.

Хорижий инвестицияларни жалб қилиш учун зарур инвестиция муҳити ва кафолатларини яратиш хорижий инвесторлар билан таъминлашнинг энг муҳим шarti таркибий тузилма ҳисобланади. Худудларга хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг асосий шартларидан бири худуд иқтисодиётининг

ривожланиш ҳолати ва хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда, инвестицион салоҳиятини кўтариш ҳисобланади.



Хорижий инвестицияларнинг ривожланишида мамлакатлар, қитъалар муҳим рол ўйнайди, шу билан бирга пойтахт шаҳарларнинг ҳам аҳамияти катта. Хорижий инвестицияларни жалб қилмоқчи бўлган шаҳар янги технологиялар оқими, аҳолини иш билан таъминлаш, бюджет даромадларини ошириш, миллий рақобатни кучайтириш, ялпи ҳудудий маҳсулотни ошириш бўйича ўзини ўзи таъминлашни хоҳлайди.

Хорижий инвестицияларни жалб қилишда шаҳарнинг қулай бизнес муҳити, қонунийлиги (шу жумладан, қонуний имтиёзлари), малакали кадрларнинг мавжудлиги, инфратузилмаси (йўллар, транспорт, коммуникация, ахборот, алоқа) каби омиллар таъсир кўрсатади. Шаҳарларда қанча кўп омиллар комбинацияси кузатилса, ушбу шаҳар хорижий инвесторлар учун жозибадор бўлади. Инвесторлар учун энг жозибадор инновацион тармоқлар, рақамлаштириш ва яшил иқтисодиётдир.

Москвада беш йилдан ортиқ вақтдан бери фаолият юритаётган иқтисодиётнинг реал секторини қўллаб-қувватлаш бўйича чора-тадбирлар тизими шаҳарга инвестицияларни жалб этишга катта ҳисса қўшмоқда. Булар ҳам молиявий қўллаб-қувватлаш механизмлари: кредитлар ва субсидиялар, ҳамда номолиявий: ишлаб чиқариш объектларини имтиёзли шартларда жойлаштириш, солиқ юкини камайтирадиган махсус мақомларни олиш ва бошқаларни назарда тутади. Хорижий инвесторларни шаҳардаги қулай иишбилармонлик муҳити, ривожланган инфратузилма, юқори малакали кадрлар мавжудлиги ўзига жалб қилмоқда. Шаҳарга хорижий инвестицияларни жалб қилиш билан бирга уларни муҳим йўналишларидаги инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш ва молиялаштириш, уларнинг техник иқтисодий

асосланиши ва экспертизаси, лойиҳавий таҳлил, лойиҳаларнинг самарадорлигини баҳолаш ва молиявий тартибга солиш каби бир қатор янги кўплаб иқтисодий ислохотларни амалга ошириш заруриятини келтириб чиқаради.

2021-йилнинг дастлабки олти ойида Москва шаҳрига жалб қилинган хорижий инвестициялар ҳажми Германиядан-8,7 миллиард долларни, Франциядан- 4,9 миллиард долларни, Финляндиядан – 4,3 миллиард долларни, Америка Қўшма штатларидан – 3,7 миллиард долларни, Италиядан – 3,6 миллиард долларни ташкил қилган. Осиё давлатлари ҳам пойтахт иқтисодиётига сармоя киритмоқда. Бу минтақа Москванинг йирик ҳамкори ҳисобланади. Москва шаҳри 2021-йилнинг январь-июль ойларида Сингапурдан – 2,2 миллиард доллар, Япониядан – 2,0 миллиард доллар, Қозоғистондан – 1,6 миллиард доллар, Кореадан – 970 миллион доллар, Хитойдан – 907 миллион доллар инвестиция жалб қилган.

Пойтахтнинг иқтисодий сиёсатидаги муҳим кўрсаткичларидан бири тўғридан-тўғри хорижий инвестициялардир. Қўшни мамлакатимиз Қозоғистон пойтахти Нур-Султон шаҳри йил сайин жозибадор бўлиб бормоқда. Охириги 5 йилда хорижий инвестициялар оқими 10 баробарга ошган. Шунингдек, 2014-2020-йилларда жалб қилинган хорижий инвестициялар ҳажми 4,3 миллиард АҚШ долларни ташкил этган. Жалб қилинган хорижий инвестициялар натижасида, шаҳарда янги ишлаб чиқариш қувватлари, хусусан лак-бўёқ маҳсулотлари, оқава сувларни тозалаш ускуналари, озиқ-овқат маҳсулотлари, гўштни қайта ишлаш мажмуалари ишга туширилди.

Хориж тажрибаси шуни кўрсатадики, хорижий инвесторлар инвестиция киритаётган шаҳрида психологик тўсиқларга, ҳуқуқий муаммоларга, ахборот муаммоларига, инвестиция хатарларига дуч келмасликни исташади, шунинг учун хорижий инвестиция жалб қилаётган ҳар бир шаҳар ушбу юқоридаги омилларни бартараф этишлари лозим. Янги, яхши инвестицион лойиҳалар ишлаб чиқиш, рақамли инвестицияни йўлга қўйиш, корхоналарни

трансформация қилиш кабилар ҳам инвестиция киритиш учун муҳимдир. Жалб қилинган инвестицияни тўғри йўналтириш, ығтисодиётни ривожлантиради.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Мустафакулов Ш.И. Инвестицион муҳит жозибадорлиги. Илмий амалий қўлланма. –Т.: 2017.
2. Асқарова М.Т. ва бошқалар. Макроиқтисодий сиёсат. Дарслик. Т.: - 2021.
3. Экономики России.”<http://www.imce.ru>”



THE CONCEPT OF GENDER AND ITS PLACE IN LINGUISTICS

Safarova Zarnigor Zohid qizi

English languages faculty 2, Uzbekistan state world languages university
Tashkent, Republic of Uzbekistan

Abstract: The article deals with the emergence of the concept of gender and its place in linguistics. Gender tasks and problems are analysed. Thus, the concept of gender is a complex socio-cultural process, and the behavior of men and women in society is a social construct of gender, expressing their place. It is a comprehensive multifaceted concept that defines not only biological differences but also socio-cultural norms.

Key words: gender, biological gender, gender system, gender standards, linguistic gender, linguistic system, cultural and social factors.

Genderology is the youngest science that studies biological sexes in a social environment. The term “gender” is ambiguous and was introduced to science in 1955 by the great sexologist John Mani. Apparently, the term originally had a medical meaning. Today, the field of genealogy is emerging as a social science.

Gender is social gender, human behavior in society. It is a social norm that studies the aspects of women and men. Sometimes gender is also used as a synonym for “male” and “female”. So it is a clear standard of behavior of the representatives of these two sexes.

Language is a phenomenon associated with human life, its social activities. One of the main tasks of modern linguistics is to take into account the social function of the linguistic sign, the social system in which a person lives, in order to know how to use it.

Gender linguistics, on the other hand, is part of scientific gender research that studies gender using linguistic concepts. Research in the field of gender linguistics focuses on differences in adult speech, adolescent speech, children’s speech, female and male speech, and boys and girls speech.

In modern linguistics, such disciplines, there is a growing research in the field of gender linguistics, which deals with the role of man and women in society, their mental world and language features.

Gender linguistics is of great importance in society. In the case of a single criminal investigation, in the process of searching for the guilty the detective first tries to determine the identity and gender of the person who committed the crime. According to their writings, signatures, actions, words, the person who committed the crime is identified.

Gender linguistics is a key resource in addressing these issues. The study of the issue of language-society relations from the linguistic point of view is one of the most important tasks of modern linguistics. The development of society and humanity itself requires such new areas and directions of linguistics. Because the representatives of both sexes have their own, different norms of communication, words and phrases, which it is difficult to understand their thoughts and feelings without knowing them, it is difficult to understand, to communicate.

The study of the relationship between language and gender has been extensively and comprehensively studied by the Western and Russian linguistics.

Russian linguist A.V.Kirilina has studied in detail the features of gender linguistics in her research entitled “Gender Research in Scientific Works”. According to her, gender research is studied on several methodological principles. They in turn are divided into two groups. The first group is the general gender approach in the humanities, which is common to linguistics, psychology, sociology and other humanities.

There are four categories in the gender analysis:

7. The category of existence;
8. Thinking category;
9. The use of language in human activities for a specific purpose;
10. The relationship of units in the language system.

For this purpose, perform the following tasks is expected to increase:

- analysing the Uzbek language and gender characteristics of speech deeply ;
- to study the importance of the genderological approach on gender analysis;
- exploring the theoretical and practical aspects of other issues related to the certain problem ;
- identification of specificity in the speech of men and women;
- classification of appeals to differentiate gender relations based on them;
- an analysis of the means used in men’s and women’s appeals.

To achieve this goal, the following tasks will be performed to get acquainted with scientific works on linguistics on the issue of language and gender relations, tracking, collecting and classifying women’s and men’s appeals such as recording and analyzing the characteristics that characterize the reflections.

Thus, the concept of gender and its emergence began in the field of medicine and spread to the social and humanitarian spheres. The concept of gender is a complex socio-cultural process, and the behavior of men and women in society is a social construct of gender, expressing their place. It is a comprehensive multifaceted concept that defines not only biological differences but also socio-cultural norms.

At the beginning of the XXI century, the research methodology of genderology was developed in the areas of psycholinguistics and sociolinguistics. But science gender research is now conducted across multiple areas, there are still many issues that are controversial.

However, conducting scientific research on this topic indicates that there is a growing interest in these issues.

References

1. Ahmedova N. Semantic-connotative study of reference units in Uzbek language. Filol.fan.nom...dissertation.-T., 2008
2. Bern Sh. Gendernaya psixologiya: zakoni mujskogo povedeniya –M., 1983.
3. Introduction to the theory and practice of gender relations-T., Uzbekistan 2007
4. Kirilina A.V. Gendernie issledovaniya v otechestvennoy lingvistike: problem, svyazannie s burnim razvitiem//Gender:yazik, kultura, kommunikatsiya.-M.,2002-S.245.
5. Kirilina A.V. Tomskaya M. Lingivisticheskie gendernie issledovaniya//Otechestvennie zapiski: Jurnal dlya medlennogo chteniya.-M.:Visshaya shkola ekonomiki,2012.-C.52



EMULSION PORTLOVCHI MODDALARDAN FOYDALANGAN HOLDA KON LAHIMLARINI OLIB BORISHDA MASSIVNING KONTUR CHEGARALARINI BUZILISHINI KAMAYTIRISH USLUBLARI

Nurxonov X.A. – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti o’qituvchisi
Avezova F.A. - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada emulsion portlovchi moddalardan foydalangan holda kon lahimlarini olib borishda massivning kontur chegaralarini buzilishini kamaytirish uslublari haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: Kontur, lahim, tog' massivi, konturli portlatish, emulsiyali portlovchi moddalar.

Kontur portlatishdan foydalangan holda yer osti kon lahimlarini o'tishning zamonaviy texnologiyasining eng ilg'or yutuqlari yer osti kon lahimlarini o'tishning barcha kon qazish ishlari uchun eng muhim xarajatlardan biri hisoblanadi. muman olganda, kon lahimlarini o'tish tezligi va sifati rudnikning rivojlanishining samaradorligi va izchilligini belgilaydi. Hozirgi vaqtda kon lahimlarini o'tish uchun yuqori samarali o'ziyurar uskunalari qo'llaniladi [1].

Burg'ulash va portlatish ishlari orqali kon lahimlarini o'tish tezligini sekinlashtiradigan omillardan biri bu tog' massivining kontur chegaralari buzilishi natijasida massivning zaiflashgan zonalari yuzaga keladi va vaqtinchalik, doimiy mahkamlash xarajatlarining oshishi hisoblanadi.

Ushbu muammoni hal qilish uchun juda ko'p yechimlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning mohiyati konturi bo'ylab past quvvatli portlovchi moddalardan foydalanishdir. Hozirgi vaqtda konturli portlatishning eng keng tarqalgan varianti rus va xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan kichik diametrli patronlashgan portlovchi moddalardan foydalanish hisoblanadi.

Kontur zaryadli portlatishda diametri 32 mm va uzunligi 1.8 m bo'lgan shpurga og'irligi 200 g bo'lgan ammonit №6ЖБ kukunli portlovchi modda bilan to'ldirilganda, patron konstruksiyasiga kerakli uzunlikdagi patronlarni ulash imkonini beradi.

Konturni zaryad patronlari yordamida konturli portlatish effektiga erishildi, ammo ishga tushirish vaqtida konturli zaryad portlatishda patronlarning ko'pincha shpurdan uchib ketishi yoki portlashda patrondan patronga o'tkazmasligi bilan bog'liq muammolarga duch kelish mumkin, bu esa portlatishdagi nosozliklarga olib keladi.


Massivning kontur chegaralarida buzilishlarni kamaytirish uchun massivdagi portlash energiyasini qayta taqsimlashga qaratilgan sxemalarni ishlab chiqarish lozim:

- konturdan oldingi qatorni (yordamchi shpurlar) bir vaqtning o'zida ularning sonini ko'paytirish bilan lahim yuzasi bo'ylab shpurlar sonini kamaytirish;
shpur orqali shpurlar sxemasi bo'yicha zaryadlashni ishlab chiqarish (bo'sh + zaryadlangan shpurlar).

Ba'zi hollarda, bunday sxemalar kontur chegarasida massivning buzilishni kamaytirishga imkon beradi, ammo ular universal va yetarlicha moslashuvchan yechim emas.

Kontur chegarasida massivning buzilishni kamaytirish uchun emulsiyali portlovchi moddalardan foydalanish mumkin.

Orica kompaniyasini tomonidan konturli portlatish uchun emulsiyali portlovchi moddalarni qo'llash tajribasi hozirgi vaqtda Rossiya va MDH mamlakatlaridagi bir qator yer osti konlarida lahim o'tishda qo'llanilmoqda. Birinchi navbatda, mehnat xavfsizligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan emulsiyali portlovchi moddalarni qo'llash texnologiyalarining ichki dinamik bosimi yuqori bo'lishi hamda kukunli portlovchi moddalardan bir xil darajada tez energiya ajralib chiqishi bilan samaralidir. Portlovchi moddalardan ammonit №6JV-200 jangavor patronli bilan yuqori energiyali ПНП-А6ЖБ-90 portlovchi moddalari almashtirilib yuqori energiyaga ega bo'lish mumkin[2].



1-chizmada emulsiyali portlovchi moddalardan foydalanib konturli portlatish sxemasi.

Kon lahimlarini o'tish uchun emulsiyali portlovchi moddalardan foydalanish juda moslashuvchan yechim bo'lib, u kon jinslari massasining kontur chegaralari buzilishini kamaytirish uchun muvaffaqiyatli ishlatilishi mumkin. 1-rasmda kontur massivning buzilishi mumkin bo'lgan sharoitlarda portlovchi moddalarni qo'llash sxemalari ko'rsatilgan. Bu sohada yetakchilardan biri Orica (Avstraliya). emulsiyali portlovchi moddalardan foydalanilganda, bir qator sharoitlarda portlovchi moddaning hajmi kamayadi (solishtirma sarf) va katta ko'ndalang kesim yuzaga ega bo'lgan kon lahimining o'tish tezligi oshadi.

Orica kompaniyasi tomonidan konturli portlatishning ikkita asosiy yo'nalishi mavjud – konturli shpurlarda o'zgaruvchan zichlikdagi emulsiyali portlovchi moddadan foydalanish (Subtek Control) yoki shpur va skvajinning to'liq yuza qismini qoplamaydigan zaryadli usulda portlatish sxemalarini tanlash (String Loading).

Portlash nomeri	1	2	3	4
Konturli portlatish uchun shpur diametri, mm	48	48	54	54
shpur diametri, mm	54	54	54	54

String Loading texnologiyasi yordamida zaryadlashda perimetr bo'yicha shpurlar soni	9	14	21	25
String Loading texnologiyasi yordamida zaryadlashda ikki qatorli shpurlar soni	0	0	7	12
Perimetr bo'yicha shpurlarni emulsiyali portlovchi moddalarda zaryadlash miqdori, kg/m	0,6	0,6	0,6	0,6
Ikki qatorli perimetr bo'yicha shpurlarni emulsiyali portlovchi moddalarda zaryadlash miqdori, kg/m	1,2	1,2	1,2	1,2
Initsiyalash uchun shashkadan foydalanish	Emulsiyali patron	Pentex D		
Har 30 min da shpurdagi namuna zichligi, g/sm ³	0.83	0.89	0.68/ 0.74	0.71
Mahsulot harorati, °C	30	30	30	30

Konturli portlatishda massivning buzilishini kamaytirish sxemasining nazariy natijalari.

Asosiy xulosalar:

1. Shpurni 30-70% gacha emulsiyali portlovchi modda bilan to'ldirish natijasida kontur zaryadini hosil qilish imkonini beradi;
2. Shpurni tiqin qilish orqali tekis yuza hosil qilishni ta'minlanadi.
3. Konturli zaryad portlatishda detonatsiya tezligi 4782-4800 m/s ni tashkil qiladi, bu turdagi zaryadlarga mos kelishi hamda texnik sharoitlarga to'la javob berish kerak.
4. Ishlab chiqilgan zaryadlovchi shlangni yo'naltiruvchi va qisman shpurlarni to'ldirish bilan konturni portlatish texnologiyasi doimiy foydalanishga ruxsat berilishi mumkin.
5. Suvli qatlamlar massivni skvajinalarida o'tkazilgan geometrik o'lchovlar shuni ko'rsatadiki, lahim tomidan sezilarli yoriqlar hosil bo'lmaydi.

